

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

AKADEMIYA

I.M. XAKIMOVA

DEVIANT XULQ-ATVOR
PSIXOLOGIYASI

O‘quv qo‘llanma

TOSHKENT – 2014

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
Tahririyat-noshirlik hay‘atida ma‘qullangan

Taqrizchilar:

psixologiya fanlari doktori, professor **N.S.Safayev**;
yuridik fanlari nomzodi, dotsent **A.A. Otajonov**

X-16 Xakimova I.M.

Deviant xulq-atvor psixologiyasi: O‘quv qo‘llanma. – T.:
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013. – 143 b.

Qo‘llanmada shaxsda uchraydigan «xulq og‘ishi» tushunchasi, uning turlari, namoyon bo‘lishining sabab va sharoitlari psixologik tahlil nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ichki ishlar idoralari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining turli toifadagi shaxslar bilan ishlashida muhim hisoblangan huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi psixologik, ijtimoiy va biologik omillar hamda ularni yuzaga keltiruvchi motivlar bilan bog‘liq masalalar yoritiladi. Shaxslarda uchraydigan deviatsiyaning differensial va gender farqlari, ularning psixologik qonuniyatlari ochib beriladi.

IIV Akademiyasi tinglovchilari, ichki ishlar idoralari va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlariga mo‘ljallangan.

BBK 88.5я73

SO‘Z BOSHI

Mamlakatimiz XX asrning oxiri va va XXI asrning boshlarida jamiyatning barcha sohalarida erishgan ulkan yutuqlari bilan dunyo xaritasidan munosib o‘rin egallab, barcha sohalarda tub islohotlarni amalga oshirmoqda. Bu islohotlarning maqsadi avvalo *inson omilini* har qachongidan ham yuqori darajaga ko‘tarish, uning kuchi, saviyasi, idroki, salohiyati, ruhiy hamda ma‘naviy barkamolligini ta‘minlash, yuksak taraqqiyotga erishish orqali barcha sohalarda jahon hamjamiyatida yetakchi o‘rinni egallashdan iboratdir.

O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov ta‘kidlaganidek, «...har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko‘rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan *komil insonlar* etib voyaga yetkazish – ta‘lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta‘lim va tarbiya ishini uyg‘un holda olib borishni talab etadi»¹.

Inson psixologiyasini bilishda, o‘z imkoniyati, iqtidorini anglay olish, faoliyatini tashkil etish, har qanday yosh davrida ham optimal ravishda ishga yaroqlilikni, turli o‘zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorlikni ta‘minlash, yangicha fikrlash va tafakkur qilish, ro‘y berayotgan jarayonlarni obyektiv va to‘g‘ri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish muammolari ilgari suriladi.

Shunday qilib, yangi davr har bir insondan o‘z ichki imkoniyatlarini adekvat baholashni, shuningdek, psixologik bilimlar zaxirasi bilan yaqinlari va hamkasblari psixik dunyosini bilishni talab qilmoqda. Insonning qizg‘in va o‘zgarishlarga boy hayoti endilikda undan psixik hodisalar qonuniyatlarini bilish va shunga mos tarzda oqilona va omilkorona ish yuritish zarurligini talab qilmoqda.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida, fanlar tizimida psixologiya fani muhim ahamiyatga ega. Akademik B.M. Kedrovning

¹ *Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2008. – Б. 61.*

fikricha, psixologiya o'zlashtirilayotgan gumanitar, aniq va maxsus fanlarning markazini tashkil etadi.

Hozirgi kunda psixologik bilimlarga ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda.

Davlatimiz rahbari Islom Karimov ta'kidlaganidek, "bu hayotda odam ba'zan o'zini yo'qotib qo'yadigan g'oyat murakkab muammolarga duch keladi. Keskin vaziyatdan chiqishning iloji yo'qdek tuyuladigan holatlar bor. Shunday paytda, ishda va hayotda, jamiyatda og'ir savdolarga duch kelganda kim o'zining yo'lini yo'qotmasligi mumkin? O'ylaymanki, birinchi navbatda o'z kuchiga ishongan, ruhiy dunyosi, ma'naviy olami baquvvat bo'lgan odamgina bunday vaziyatdan yorug' yuz bilan chiqa oladi..."¹.

Inson xulq-atvori, psixologik xususiyatlari bilan bog'liq masala insoniyatni qadim zamonlardan buyon qiziqtirib kelgan. Bu sohada izlanish olib borgan ko'plab olimlar insonning tug'ilganidan boshlab shakllanishi bilan bog'liq barcha hodisalarni o'rganishni tadqiq qilish orqali, uning o'ta murakkab jihatlarini kashf etgan. Haqiqatdan ham, inson xulq-atvorining jamiyatda belgilangan hayotiy normal mezonlardan og'ishi, buzilishi bilan bog'liq muammoni psixologiya fani o'rganadi. Demak, psixologiyada deviant, ya'ni og'uvchi axloqning turli shakllari, anomal turlari, sabab va motivlari mavjud bo'lib, bu pedagoglar, psixologlar, psixoterapevt va boshqa inson ongi va tarbiyasi masalalari bilan shug'ullanuvchi soha mutaxassislari bilan birga, ichki ishlar idoralari kasbiy psixologiya sohasi xodimlarining ham tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Ushbu o'quv qo'llanma «Kasbiy psixologiya» fani bo'yicha tayyorlangan dasturga muvofiq yozilgan bo'lib, tinglovchilar va ichki ishlar idoralari amaliyotchi xodimlariga deviant xulq-atvor psixologiyasi bilan bog'liq murakkab ruhiy jarayonlar haqida qiziqarli ma'lumotlar beradi.

¹ *Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2008. – Б.93.*

I bob. **DEVIANT XULQ-ATVOR TUSHUNCHASI
VA TURLARI**

**1-§. Me'yordan og'uvchi xulq-atvor haqida
umumiy tushuncha**

Ma'lumki, kishining deviant axloqini jamiyatda qabul qilingan me'yorlarga zidligi va ruhiy jarayonlarining muvozanatsizligi, moslashuvchan emasligi ko'rinishida yoki uning shaxsiy axloqi ustidan axloqiy va estetik nazoratdan bo'yin tovlash ko'rinishidagi o'zini faollashtirish jarayonining buzilishida namoyon bo'luvchi alohida qilmishlar yoki qilmishlar tizimi sifatida belgilash mumkin.

Normal va uyg'un axloq shakllarini ruhiyat bilan bog'liq uch darajada ifodalash mumkin:

- ruhiy jarayonlarning muvozanati ko'rinishidagi mizoj xususiyatlari;

- moslashuvchanlik va o'zini faollashtirish ko'rinishidagi xos xususiyatlar;

- kishining ma'naviyati, mas'uliyati va vijdonliligi ko'rinishidagi shaxsiylik.

Og'uvchi xulq (deviant, lot. deviatio – og'ish) deb, kishining qilmishlari, faoliyati turi odatiy, umum e'tirof etilgan me'yorlardan farq qiladigan yoki u o'zi a'zosi bo'lgan jamiyat tomonidan qabul qilingan me'yorlarga mos kelmay, barqaror ravishda ularning ijtimoiy me'yorlaridan og'ishida namoyon bo'ladigan axloqqa aytiladi.

Demak, deviant xulqli shaxs deb, birinchi navbatda, axloqiy jihatdan qarindosh-urug'lari va do'stlarining ko'nglini og'ritadigan va atrofdagilarning hayoti uchun xavf tug'diradigan shaxslarga (individlarga) aytiladi. Katta yoshdagi individ avval boshdanoq ichki maqsadga intilish kuchiga ega bo'lib, shunga ko'ra, faolligining barcha ko'rinishlari yuzaga chiqadi. V.A.Petrovskiyning fikricha¹, bu o'ziga xos muvofiqlik postulati (isbotsiz qabul qilinadigan qoida)da ifodalanadi. Bu o'rinda har qanday ruhiy jarayonlar va xulqiy xatti-

¹ Qarang *Петровский В.А.* Идея свободной причинности в психологии.
<http://www.psychology.ru>

harakatlarning boshlang'ich moslashuv yo'nalishi haqida so'z yuritilmoqda. Muvofiqlik postulatlarini uch turga ajratiladi: gomeostatik, gedonik (huzur-halovatga intilish insonga xos xislat deb hisoblovchi axloqiy ta'limot), pragmatik.

Gomeostatik variantida muvofiqlik postulati muhit bilan o'zaro munosabatlardagi ziddiyatlarni bartaraf qilish, ruhiy zo'riqish darajasini pasaytirish, muvozanat o'rnatish shaklidagi talablar kabi namoyon bo'ladi.

Gedonik variantida kishining harakatlari ikki birlamchi affekt: qoniqish va azob orqali aniqlanadi; axloqning namoyon bo'lishi esa qoniqishni maksimalashtirish va azobni kamaytirish sifatida izohlanadi.

Pragmatik variant maqbullashtirish tamoyilidan foydalanadi, bunda diqqat markaziga axloqning tor amaliy jihati: foyda, naf yoki muvaffaqiyat qo'yiladi.

Demak, kishining voqelik (borliq) bilan o'zaro aloqalarining tahlili deviant axloqni baholashning asosi bo'lib xizmat qiladi, zero me'yorning hukmron tamoyili shaxsning nimagadir yoki kimgadir (ya'ni real borliqqa) moslashuvidan kelib chiqadi.

Shaxs va borliqning o'zaro munosabatlarini beshta usul bilan aniqlash mumkin:

- 1) moslashuv;
- 2) qarshilik ko'rsatish;
- 3) ro'para bo'lish;
- 4) vaziyatdan qochish;
- 5) mensimaslik.

Yetuk intellektual salohiyatli shaxslar voqelikka moslashuvni tanlaydi. Qarshilik ko'rsatishda shaxs faol ravishda o'ziga, dunyo-qarashiga mos kelmaydigan borliqni o'zgartirishga, ya'ni uni o'zining shaxsiy qarashlari va qadriyatlariga muvofiq o'zgartirishga harakat qiladi. U o'zi duch kelayotgan barcha muammolar borliqning ijtimoiy me'yorlariga asoslanganligiga ishonadi va borliq bilan kurash, borliqni o'ziga moslashtirib o'zgartirishga harakat qilish yoki jamiyat me'yorlarini buzuvchi axloqdan maksimal darajada foydalanish uning o'z maqsadlariga erishishining yagona usuli bo'lib qoladi. Bunda mazkur shaxsga nisbatan borliq tomonidan qaytariladigan javob ham xuddi shunday qarshi harakat qilish, shaxsni o'zgartirish, uni voqelik talablariga moslashtirishga qaratilgan bo'ladi.

Borliqning shaxsning dunyoqarashiga zid bo'lgan ijtimoiy me'yorlariga qarshilik ko'rsatishi kriminal va delinkvent xulq-atvorda uchraydi. Borliqning qarshilik ko'rsatishi, uni o'zlashtirish va tushunishning subyektiv ravishda buzib ko'rsatilishi sabablari, tevarak-alam tomonidan dushmanlarcha qabul qilinadigan ruhiy nuqson alomatlari va ruhiy-patologik buzilishlar bilan bog'liq. Ruhiy kasallik alomatlari atrofdagilarning qilmishlari sabablarini bir xil baholash imkoniyatini izdan chiqaradi, buning oqibatida muhit bilan o'zaro samarali munosabatlar qiyinlashadi.

Borliqni negativ va oppozitsion baholaydigan kishilar borliq bilan o'zaro munosabatda o'zini unga moslashishga layoqatsiz deb hisoblab, ongli yoki ongsiz ravishda tanlaydilar. Ular shuningdek, nomukammalligi, konservativligi, bir qolipdaligi, ekzistensial qadriyatlarni ezib tashlashi yoki ochiqchasiga insonparvarlikka qarshi faoliyat olib borishi sababli, moslashishga «loyiq bo'lmagan» borliqqa moslashishni istamaslikni nazarda tutishlari ham mumkin. Borliqni mensimaslik, shaxs o'zining shaxsiy tor dunyosida mavjud bo'lgan holda borliqning talablari va me'yorlarini hisobga olmaganda, uning hayoti va faoliyatining avtonomizatsiyalashuvida (mustaqilligida) namoyon bo'ladi. Bunda na to'qnashuvlar, na qarshi harakatlar va na voqelikdan chiqib ketish holati sodir bo'ladi. Har kim o'zicha (mavjud bo'lib) yashaydi.

Demak, bunday holatda deviant axloqni jamiyatga zid va ijtimoiy xarakterdagi ko'rinishlarga tahdidi va jamoat uchun xavfliligining namoyon bo'lish darajasi bo'yicha farqlash mumkin.

Jamiyatga zid (antisotsial) bo'lgan og'ishlarga odamlar orasidagi shaxsning g'arazli, g'arazli-zo'ravon, tajovuzkor-zo'ravonlik qarashlari yoki jinoiy axloqning boshqa turlariga xos bo'lgan kriminal shakldagi jamiyatda qabul qilingan o'zaro munosabatlar qoidalarini ongli (kamdan-kam hollarda ongsiz) ravishda buzishga qaratilgan qilmishi va harakatlarini kiritamiz. G'arazli yo'nalish deganda, noqonuniy yo'l bilan moddiy manfaat, pul yoki mulkiy manfaat olish maqsadida moddiy boyliklarni taqsimlashga tajovuz qiluvchi huquqbuzarlik va qilmishlarni tushunish lozim. Bu toifaga quyidagilar kiradi:

a) g'arazgo'y-xo'jalikka oid jinoyatlarni sodir etishga moyil jinoyatchilar (tovarlarni qalbakilashtirish, ishlab chiqarishning ekologik me'yorlariga rioya qilmaslik, soliq to'lashdan bosh tortish, noqonuniy tadbirkorlik, xakerlik va boshqalar);

v) g'arazgo'y-mansabdor jinoyatchilar (mansab mavqeini suiiste'mol qilish yo'li bilan talon-taroj qilish, savdo qoidalarini buzish, mizojlarni aldash, poraxo'rlik va boshqalar);

d) o'g'rilar, talonchilar (mulkni yashirin ravishda o'g'irlash – o'g'rilik bilan bog'liq g'arazli tajovuzlar);

ye) firibgarlar (hujjatlar, qimmatli qog'ozlar, pul belgilari va boshqalarni qalbakilashtirish);

f) zo'ravon bo'lmagan tovlamachilar – poraxo'rlar.

Talon-taroj qilish – o'g'rilik, firibgarlik, o'zlashtirish, rastrata qilish, bosqinchilik yoki qaroqchilik shaklida noqonuniy ravishda o'zganing mulkini tekinga olish

O'g'rilik – o'zganing mulkini yashirin ravishda talon-taroj qilish.



Pora – mansabdor shaxs tomonidan pora beruvchining foydasiga bajarilgan harakat uchun pul, qimmatli qog'ozlar, boshqa mulk yoki manfaatlar olishi.

Firibgarlik – aldov yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish.



G'arazgo'y-zo'ravon yo'nalish deganda, shaxs ustidan zo'rlik ishlatish bilan bog'liq g'arazli jinoiy tajovuzlarni tushunish lozim. Bu toifaga quyidagilar kiradi:

- a) bosqinchilar;
- b) bosqinchilik hujumlari ishtirokchilari;
- d) zo‘ravon talonchilar – reketirlar (tovlamachilar);
- ye) g‘araz maqsadda odam o‘ldirishdan qaytmaydigan qotillar.

Tajovuzkorona-zo‘ravonlik deganda, insonlarning hayoti, sog‘lig‘i va shaxsiy qadr-qimmatiga o‘ta hurmatsiz munosabatda namoyon bo‘ladigan insonparvarlikka zid jinoiy yo‘nalish tushuniladi.

Bu toifaga quyidagilar kiradi:

- a) bezorilar;
- b) haqoratlash va tuhmat qilish yo‘li bilan shaxsning sha’ni va qadr-qimmatiga zarar yetkazuvchi shaxslar;
- d) shaxsga qarshi og‘ir jinoyat sodir qiluvchi shaxslar – odam o‘ldirish, zo‘rluk ishlatish, og‘ir tan jarohatlari yetkazish va boshqalar.

Bunday holda, tajovuzkor-zo‘ravonlik yo‘nalishi ham verbal (og‘zaki) (so‘z bilan haqoratlash), ham noverbal (jismoniy ta’sir) holatda, kriminalgacha va kriminaldan so‘nggi darajada, ya’ni ma’naviy qoralashni keltirib chiqaruvchi qilmishlar va axloqsizlik ko‘rinishida yoki jinoiy javobgarlikka tortiluvchi harakatlar shaklida namoyon bo‘lishi mumkin.

Haqorat – o‘zga shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini beadab shaklda ifodalangan harakat orqali kamsitish.

Bezorilik – fuqarolarga nisbatan zo‘rluk ishlatish yoxud zo‘rluk ishlatish yo‘li bilan qo‘rqitish, shuningdek o‘zganing mulkini nobud qilish yoki shikast yetkazish tarzida jamiyatdagi yurish-turish qoidalarini qo‘pol ravishda buzish.

Kaltaklash – badanning anatomik butunligini buzmaganda holda ko‘plab zarbalar berish.

Qiydash –zo‘rluk ishlatish yo‘li bilan muttasil ravishda jismoniy yoki ruhiy azoblar berish.

Nomusga tegish - zo‘rluk ishlatib yoki zo‘rluk ishlatish bilan qo‘rqitib, qurbonning o‘jizligidan foydalanib, jinsiy aloqa qilish.

Odam o‘ldirish – boshqa odamga nisbatan qasddan o‘lim yetkazish.

Ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan jinoyatlar deganda - jinoiy ehtiyotsizlik yoki o‘ziga ishonganlik oqibatida vositalar va tizimlardan foydalanish orqasida ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, maishiy, tibbiy, ekologik xavfsizlik va shu kabilarning buzilishiga olib keluvchi harakatlar tushuniladi.

Ijtimoiy *axloqning og'ishi* jamiyatga qarshilik ko'rsatishning nisbatan «passiv» (qoloq) tipi deb tavsiflanadi. Ular faol hayot tarzidan voz kechishga intilish, o'z fuqarolik majburiyatlari, burchidan bo'yin tovlash, shaxsiy va ijtimoiy muammolarni hal etishni istamaslikda ifodalanadi. Bunday hollarga ishdan, o'qishdan bo'yin tovlash, daydilik, fohishalik, kishini sun'iy xomxayollar dunyosiga g'arq g'iluvchi va uning ruhiyatini yemiruvchi alkogol, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar iste'mol qilishni kiritish mumkin. Asotsial axloqning oshib ketishi – o'zini o'zi o'ldirish – **suitsid** (*suitsid - suicide ing. tilidan o'z joniga qasd qilish*) deyiladi.

Shunday qilib, deviant (og'adigan) axloqqa, shaxsning mazkur jamiyatda (ijtimoiy guruhda) rasmiy o'rnatilgan yoki ilgaridan vujudga kelgan me'yor va taomillarga mos kelmaydigan va subyektni undan ajratib qo'yishga, davolash, tuzatish yoki jazolashga olib keluvchi axloq va harakatlar kiritiladi.

2-§. Me'yordan og'uvchi xulq-atvorning shakllanish sabablari va turlari

Deviant axloqning asosiy turlariga jinoyatchilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'zini o'zi o'ldirish, daydilik, fohishalik va ruhiyat buzilishini kiritamiz.

Og'uvchi axloq - axloq moslashuvini yo'qotishning turli shakllarda ifodalanuvchi salbiy ruhiy-ijtimoiy rivojlanishi va ijtimoiylashtirish jarayoni buzilishining natijasi hisoblanadi.

Moslashuv (lotincha *adaptare* – moslashtirmoq) - atrofdagi shart-sharoitlarga moslashuv. Insonning moslashuvi ikki: biologik va ruhiy jihatga ega.

Biologik moslashuv organizmni muhitning barqaror va beqaror shart-sharoitlari: harorat, atmosfera bosimi, namlikka, yorug'lik va boshqa fizik sharoitlarga, shuningdek organizmdagi o'zgarishlarga, kasallikka, biron-bir a'zoni yo'qotish yoki uning funksiyalarini cheklashga moslashuvini o'z ichiga oladi. Moslashuv maqsadida inson o'zining faoliyat mahsuli hisoblanuvchi turli yordamchi vositalardan (uy-joy, kiyim, harakatlanish vositasi va hokazo) foydalanishi mumkin. Shu bilan birga, kishida ba'zi biologik jarayonlar va holatlarni erkin ruhiy boshqarish qobiliyati paydo bo'ladi, bu esa uning moslashuv imkoniyatlarini kengaytiradi. Ruhiy moslashuv kishining shaxs sifatida

mazkur jamiyatning talablari va shaxsiy ehtiyojlari, sabablari va manfaatlariga muvofiq ravishda hayot kechirishini o'z ichiga oladi. Ruhiiy moslashuv keng ma'noda mazkur jamiyatning me'yorlari va qadriyatlarini o'zlashtirish yo'li bilan, shuningdek, eng yaqin ijtimoiy muhitga – jamoatchilik guruhi, mehnat jamoasi, oilaga nisbatan amalga oshiriladi. Ruhiiy moslashuvning asosiy ko'rinishlari kishining tevarakatdagi odamlar bilan o'zaro munosabatlari va uning tashqi va ichki dunyosini tubdan o'zgartirish bilan bog'liq faoliyatidan iborat.

Unda axloqning moslashuvni yo'qotishini (dezadaptatsiyani) muammoli vaziyatni hal qilishga emas, balki uning chuqurlashuviga, qiyinchiliklarning kuchayishiga va undan kelib chiqadigan ko'ngilsiz vaziyatlarga olib keluvchi jarayon ko'rinishida belgilash mumkin. Axloqning moslashuvni yo'qotish jarayonlari kichik yoshdayoq, masalan, ijtimoiylashtirish institutlari vazifalarini bajaruvchi ijtimoiy rollarni, o'quv dasturlarini, ijtimoiy institutlarning (oilaga, maktab va hokazo) me'yor va talablarini o'zlashtirish bo'yicha qiyinchiliklarda namoyon bo'lishi mumkin. Moslashuvni yo'qotishning tabiati va xususiyatiga qarab ham alohida, ham umumiy uyg'unlikda tasavvur qilinishi mumkin bo'lgan patogen, ruhiy-ijtimoiy va ijtimoiy dezadaptatsiyani ajratish mumkin.

Patogen dezadaptatsiya endogen yoki ekzogen etiologik omillar ta'siri natijasida markaziy asab tizimining jiddiy funksional-organik shikastlanishga sabab bo'ladigan ruhiy rivojlanishdan chetga chiqishlar va nuqsonlar, shuningdek ruhiy-asab kasalliklarini keltirib chiqaradi.

Endogen – patogenezini genetik (irsiy) jihatdan shakllangan ichki mexanizmlarga bog'liq bo'lgan buzilishlar.

Ekzogen – tashqi moddiy muhit ta'siridan yuzaga keladigan buzilishlar.

Ruhiy buzilishlarning namoyon bo'lish darajasi va chuqurligiga ko'ra patogen dezadaptatsiya: epilepsiya (tutqanoq)lar, shizofreniya, oligofreniya va hokazo ko'rinishidagi barqaror yoki surunkali shakllarga ega bo'lishi mumkin.

Psixoz – shaxsning harakatlari buzilishida namoyon bo'luvchi, uning dunyoqarashi, motivatsiyasi va xulqini o'zgartiruvchi o'tkir og'riqli (irratsional) ruhiy buzilish. Shaxsning ijtimoiy moslashuvga layoqatsizligi, uning muomalaga layoqati izdan chiqqanligi, og'riqni sezish hissi yo'qligi, voqelik bilan muloqotni yo'qotganligi bilan tavsiflanadi.

Epilepsiya (tutqanoq) – ongning talvasali, ta'sirchan, vegetativ va boshqa tutqanoqlari, qisqa muddatli yoki davomli xurujlarida ifodalanadigan ruhiy-asab faoliyatining paroksizmal buzilishlari.



Shizofreniya - parchalanish, moslashmaslik, fikrlar, muomala va hayajonning bo‘linishi, ruhiy funksiyalarning bo‘lak-bo‘lak bo‘lib ketishi, voqelikdan chetlashuvi, fantaziyalar paydo bo‘lishi va tizimsiz bosinqirash hamda shunga bog‘liq ichki dunyoga g‘arq bo‘lish bilan kuzatiladigan kasallik.

Oligofreniya – tug‘ma yoki kichik yoshida irsiy, travmatik yoki zararli ta’sirlar natijasida orttirilgan aqli zaiflik.

Patogen dezadaptatsiyaning eng yengil shakli shaxsning munosabatlari tizimida uning uchun nomaqbul bo‘lgan o‘zaro munosabatlar natijasida yuzaga keladigan ziddiyat yoki ruhiy shikastlanish va nevrozlar ko‘rinishidagi ruhiy-genetik dezadaptatsiya hisoblanadi.

Nevrozlar – bu turli tizimlar va organlarda funksiyaning boshqa (ko‘pincha ikkilamchi) o‘zgarishlari bilan bir qatorda ruhiy-asab faoliyatining ong va ruhiyat doirasini son jihatdan izdan chiqaruvchi funksional buzilishlar.

Shaxs hulqining me’yordan chiqishi – shaxsning beqaror xarakteri, o‘zi to‘g‘risidagi noto‘g‘ri tasavvur va atrofdagilar bilan munosabatlarning qiyinlashuvi oqibatida yuzaga keladigan buzilishlar.

Ularga: xavotirli buzilishlar, fobiyalar, yopishqoq obsessiv (yopishqoq holatlarning turlari bo‘lib, harakat va kechinmalarda namoyon bo‘ladi) - kompulsiv, konversion va shikastlanishdan so‘nggi (posttravmatik) stressli buzilishlar va ipoxondriya (*vahimaga tushish natijasida asabiy umidsizlik holati*) kiradi.

Xavotirli buzilishlar – doimiy zo‘riqish, notinchlik, qo‘rquvni his qilish.

Fobiyalar – shiddatiga ko‘ra kuchli tashvishlar, bo‘rttirib yuborilgan asossiz qo‘rquvlar (A rasm)



a)



b)

Obsessiyalar – miyaga o‘tirib qolgan va kishining irodasiga qarshi yuzaga keladigan fikrlar, shubhalar, qiziqishlar, qo‘rquvlar (B rasm)

Kompulsiyalar – istak va irodaga zid ravishda yuzaga keladigan, begona bo‘lib anglanadigan va qaysarlikda ifodalanishi bilan farq qiladigan ta’sirlar, harakatlar.

Konversion buzilish – hech qanday fiziologik sababsiz biron-bir organ yoki biron-bir tana qismi sezuvchanligining yo‘qolishi.

Shikastlanishdan keyingi stress – insonning qachondir boshidan o‘tkazgan iztirob yoki jarohatlovchi voqeani doimo yangidan boshidan kechirishga majbur qiluvchi buzilish.

Ipxondriya – o‘z sog‘ligiga haddan ziyod e’tibor berish va u bilan bog‘liq muammolarni o‘ta darajada bo‘rttirish.

Shahvoniy deviatsiyalar – jinsiy mayl yo‘nalishi yoki uni qondirish usullarining og‘riqli buzilishi.

Ruhiy sotsial dezadaptatsiya shaxs rivojlanishining jinsiy, yoshga oid va o‘ziga xos ruhiy xususiyatlari bilan bog‘liq. Axloqning bu holatda namoyon bo‘ladigan nostandartligi subyektda axloq sabablarini tanlashning jiddiy chegaralanishiga olib keluvchi rivojlanishdan orqada qolish, shaxsiy qoloqlik, past refleksivlik va hokazolar sababli subyektda mavjud ijtimoiy va huquqiy me’yorlar interiorizatsiyasining yetishmovchiligi tufayli sodir bo‘ladi.

Bu holda, organizm ehtiyojlari kishi tomonidan ixtiyoriy boshqaruvni yo‘qotadi, shaxsda ularni ongli maqsadda ifodalash imkoniyati mavjud bo‘lmaydi. Shuning uchun, shaxsning ehtiyojlarini boshqarib

bo'lmaydigan bo'lib qoladi va qiziqishlar xarakterini egallaydi. Agar bu holda individ birdaniga bir nechta maylni his etsa, ulardan eng kuchlisi g'olib bo'ladi.

O'z tabiati va xarakteriga ko'ra ruhiy ijtimoiy dezadaptatsiyaning turli shakllari *barqaror* va *muvaqqat beqaror* shakllarga bo'linadi. Xarakterning psixopatiyasi yoki aksentuatsiyasi ko'rinishidagi barqaror shakllar genetik, ona qornidagi yoki shikastlovchi jarohatlar (ensefalit, boshning shikastlanishi) natijasida, shuningdek noto'g'ri tarbiya berish natijasida vujudga keladi. Shaxsiyatning buzilishi bu holda mayllar, istaklarning giperbolizatsiyasida, shuningdek shaxsning o'z oldiga imkoniyatlariga mutanosib bo'lgan maqsadlarni qo'yishi va ularga erishishiga to'sqinlik qiluvchi xarakter chizgilarida ifodalanadi. Shunday qilib, birinchi navbatda his-hayajonli, irodali, kommunikativ yoki qo'zg'atuvchi muhit buziladi, bu esa shaxsning atrof-muhitga moslashuviga xalaqit beradi.

Psixopatiya – ruhiyatning me'yordan chetga chiqishi bo'lib, unda shaxsning mutanosib ravishda rivojlanish, subyektiv hissiy tajriba va muvozanatdagi his-hayajonli xulqini namoyon qilish layoqati kamayadi.

Xarakter aksentuatsiyasi – me'yorning eng keskin varianti bo'lib, unda xarakterning alohida xislatlari ustunlik qiladi.

Ruhiy-ijtimoiy dezadaptatsiyaning muvaqqat beqaror shakllariga, avvalambor, o'smirlik yoshidagi rivojlanishning tanglik davrlari va tangligining ruhiy-fiziologik xususiyatlarini kiritish mumkin. Ma'lumki, shaxs o'smirlik yoshida suyak-mushak va yurak-tomir tizimi jadallashgan va notekis rivojlanayotgan, jinsiy yetilish bilan birga sodir bo'ladigan «endokrin bo'ron» bilan tavsiflanuvchi global ruhiy-fiziologik va ruhiy-ijtimoiy yoshga bog'liq tanglikni boshdan kechiradi. Hayotining bu davrida o'smir jinsiy masalalarga kuchli qiziqishini namoyon qiladi, tengdoshlari bilan muloqot qilishga va o'z shaxsiyatining ahamiyatini ko'rsatishga intiladi. Unda o'zini o'zi baholash va o'zini anglash faol shakllanadi, u kattalardan ajralib turishga harakat qiladi, ular bilan ziddiyatga boradi. Buning oqibatida ham atrofdagilar uchun, ham o'smirning o'zi uchun o'ta qiyin bo'lgan o'smirlik dezadaptatsiyasining vaqtinchalik ko'rinishlariga olib keladi.

Ruhiy-ijtimoiy dezadaptatsiyaning muvaqqat shakllari, shuningdek maktabdagi, uydagi, tengdoshlar bilan yuz bergan ziddiyatli vaziyatlar, ilk muhabbat tashvishlari va hokazolar oqibatida vujudga kelishi

mumkin. Atrofdagilarning shakllangan talablariga yoki shakllangan shaxsiy idealga mos kelish imkoniyati yoʻqligi affektiv asabiy tashvishlarga va hatto yosh uchun xos boʻlgan ruhiy-somatik parokandalikka, masalan, anoreksiya yoki bulimiyaga olib kelishi mumkin.

Anoreksiya – kuchli vazn yoʻqotish bilan kechadigan ovqat yeyishdan uzoq muddat bosh tortish.



Anoreksiya ochlikdan majolsizlanishdan iborat boʻlib, bu, xususan, hayz kelishini bostirishga olib keladi. Ayrim mualliflar anoreksiyani homilador boʻlishni «keyin»ga qoldirish qobiliyati sifatida tavsiflaydilar va uni toʻxtatib qoʻyilgan shahvoniylik orqali kelgusida muvaffaqiyatli urugʻlanish uchun zarur mahoratni shakllantirishga imkon beruvchi soddalashgan usul deb hisoblaydilar. Bu ularning erta postpubertatli balogʻatga yetishi bilan bogʻliq yomon ijtimoiy va reproduktiv istiqbolli qizlarning rivojlanish trayektoriyasini oʻzgartirish imkonini beradi. Oʻsmirning ruhiy-ijtimoiy dezadaptatsiyasini yengish, avvalambor, kattalar, oʻqituvchilar va ota-onalardan katta pedagogik mahoratni, xushmuomalalikni, alohida hollarda esa – oʻzini oʻzi baholashni yaxshilash, kommunikativ malakani shakllantirish, salbiy yoʻl-yoʻriqlarni bekor qilish, hissiy-irodali muhitni rivojlantirish va hokazolar boʻyicha maxsus ruhiy-ijtimoiy va ruhiy-davolash texnikalarini qoʻllashni talab qiladi.

Bulimiya – ovqatni orqasidan ich suruvchi yoki qayt qildiruvchi vosita ichiladigan darajada nazorat qilmasdan yutish.



Ijtimoiy dezadaptatsiya odob-axloq va huquqning buzilishi, axloqning antisotsial yoki asotsial shakllari va ichki boshqaruv, referent va qimmatli yoʻnalishlar, shaxs ijtimoiy yoʻl-yoʻriqlari tizimining buzilishida namoyon boʻladi. Ijtimoiylashtirishning deformatsiya jarayoni darajasi va chuqurligiga qarab ijtimoiy dezadaptatsiyaning ikki: pedagogik va ijtimoiy qoloqlik bosqichini ajratish mumkin.

Ijtimoiylashtirish (lotincha *socialis* - ijtimoiy) – shaxs tomonidan ijtimoiy tajriba, ijtimoiy aloqalar va munosabatlar tizimini oʻzlashtirilishi jarayoni.

Ijtimoiylashtirish jarayonida inson jamiyatda normal hayot kechirishi uchun zarur boʻlgan ishonch, axloqning ijtimoiy maʼqul shakllariga ega boʻladi. Pedagogik qarovsizlikda, oʻqishdagi qoloqlik, darslarni qoldirish, oʻqituvchilar va sinfdoshlar bilan ziddiyatlarga qaramay, subyektlarda qimmatli-meʼyoriy tasavvurlarning keskin deformatsiyasi kuzatilmaydi. Bu holda, shaxs uchun mehnatning qadri yetarli darajada baland boʻlib qoladi, u kasb tanlash va uni egallashga yoʻnaltirilgan boʻladi, uning uchun atrofdagilarning fikrlari farqsiz boʻlmaydi, ijtimoiy va referent munosabatlar oʻz ahamiyatini saqlab qoladi.

Ijtimoiy qarovsizlikda asotsial axloq bilan bir qatorda qimmatli-meʼyoriy tasavvurlar, qimmatli yoʻnalishlar, ijtimoiy hukmron gʻoyalar tizimi keskin deformatsiyalanadi, mehnatga salbiy munosabat, tirikchilik uchun shubhali va noqonuniy vositalar hisobiga mehnatsiz daromadlar topish va «chiroyli hayotga» erishish maqsadi hamda unga intilish istagi shakllanadi. Bunday shaxslarning referent munosabatlari va qimmatli yoʻnalishlari pozitiv yoʻnalishli ijtimoiy aloqalar va ijtimoiy institutlarning shaxslardan anchagina begonalashishi bilan tavsiflanadi.

Ijtimoiylashtirish deganda, insonlarning oʻtib ketgan avlod-ajdodlari va hozirgi yaqinlari tomonidan hosil qilingan va atrofdagi

moddiy va ma'naviy borliqda mujassamlangan ijtimoiy hayot, ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy qadriyatlar tajribasini (nutq va bilimlar, inson tafakkuri va ongi, atrofdagi olamga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlari, mahorat va bilimlari, me'yorlar, odatlar, sifatlar, ehtiyojlar, qobiliyat va hokazo) butun ko'p qirrali jarayonini tushunish kerak. Biroq, inson sivilizatsiyasining yutuqlarini o'zlashtirish turli shaxslarda muvaffaqiyat bilan bir xilda davom etmaydi.

O'smirning deviant axloqini diagnostika qilish uchun psixologlar tomonidan «qarshi harakat» deb nomlanuvchi mezonlar ishlab chiqilgan. Bunday holda, ular ijtimoiy, o'quv yoki shaxslararo sohadagi buzilishlar bilan bog'liq eksternal deviantsiyani (nafrat, dushmanlik, tajovuz, o'g'pilik, yolg'on) o'z ichiga oladi.

O'smirdagi deviant axloqning muomala belgilari (DSM – IY bo'yicha)

- his-hayajonli portlashlar;
- kattalar bilan janjallar;
- kattalarning qoidalari yoki iltimoslarini mensimaslik yoki bajarishni rad etish;
- boshqa odamlarni jo'rttaga bezor qilish;
- o'z xatolarida boshqa birovlarini ayblash;
- jizzakilikning eng keskin darajasi;
- badjahllik, darg'azablik, qasoskorlik, kek saqlash;
- haqoratlar va uyatsiz so'zlarni tez-tez ishlatish.



Tadqiqotlarga ko'ra, bunday tajovuzkorlik, gipperfaollik va otionalari bilan o'zaro munosabatlarda qiyinchilik alomatlari yaqqol ko'rinib turgan bolalar kattaroq yoshga yetganlarida hayotda bunday muammolari bo'lmagan bolalarga nisbatan besh marta ko'proq jinoyatchi yoki ichkilikboz bo'lib yetishganlar.

Shaxsni ijtimoiylashtirish umumiy jarayonining bir qismi uni huquqiy ijtimoiylashtirish bo‘lib, uning mohiyati shaxs tomonidan huquqiy qadriyatlarning o‘zlashtirilishi, ularni o‘z hayoti va axloqining me‘yorlariga, shaxsiy sifatlariga aylantirishidan iborat.

O‘z huquqini tanish –yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan vaziyatlarda inson axloqini tartibga soluvchi yuridik bilimlar, huquq va uni qo‘llash amaliyotiga bo‘lgan baholovchi munosabatlar, huquqiy yo‘l-yo‘riqlar va qimmatli yo‘nalishlar shaklidagi huquqiy borliqni aks ettiruvchi jamiyat, guruh va individual ong doirasidir.

Huquqiy axloqning har qanday harakatida albatta, unda ishtirok etayotgan shaxsning huquqiy ongi namoyon bo‘ladi. Buning aniq bir huquq me‘yorini bilishi yoki bilmasligi, davlat hokimiyati, qonun, huquqni muhofaza qiluvchi organlar nufuzining turli darajasi, amaldagi huquqiy taqiqlar va ularni buzganlik uchun huquqiy sanksiyalarning mavjudligi va unga nisbatan shaxsning salbiy munosabati bilan tavsiflanishi mumkin.

Og‘uvchi axloqqa ega bo‘lgan kishilarning katta qismi umuminsoniy qadriyatlar va axloq me‘yorlari haqida tasavvurlarni eslab qoladi, lekin bir qator sabablarga ko‘ra o‘z xulqidagi bu me‘yorlarga tayana olmaydi yoki turli motivatsiyalangan himoya mexanizmlari bilan o‘zining jamoatchilikka zid og‘ishlarini oqlashga harakat qiladi. Ruhiiy himoya mexanizmlari - subyekt uchun og‘riqli, chidab bo‘lmaydigan tashvishlarga qarshi himoya usuli bo‘lib, uning borliqni, «Men» (obraz)ini yoki tashqi dunyoni buzib ko‘rsatish kabilarning natijasidir.

Shunday qilib, og‘uvchi axloq o‘zini namoyon qilishning keng shakllariga ega. Deviant axloq namoyon bo‘lishi xususiyatlarining differentsiatsiyasini o‘tkazish uchun zamonaviy psixologiyaning quyidagi qoidalariga tayanish zarur.

1. Garchi psixopatologik buzilishlar mavjud bo‘lgan barcha subyektlarning axloqi deviant deb hisoblansada, deviant axloqning har qanday turi orqasida ham psixopatologiya yashirinib yotavermaydi.

2. Ruhiiyat buzilishlari, ya‘ni kognitiv, his-hayajonli va boshqaruvchi jarayon, jarayonlar borishidagi buzilishlar albatta, shaxsning nuqsonini belgilab bermaydi.

3. Buzilishlarning bir qancha ko‘rinishlari shakllanishida organik omillarning roli dezadaptiv ta’sirlanishlarga o‘rganish imkoniyatini inkor etmaydi.

Bu holda, dezadaptatsiyaning turli shakllarini ko‘rib chiqilayotgan holatning darajasi o‘z xarakterlovchi belgilari bo‘yicha yaqin bo‘lgan ma’lum guruhlar ko‘rinishida tasavvur etamiz.

Birinchi guruhni shaxsning delinkvent axloqi (lot. delinquens – jinoiy xulq, qilmish) vakillari guruhi tashkil etadi. Unga yuqorida qayd etib o‘tilgan toifadagi jinoyatchilar, shuningdek fohishalar va ma’lum yashash joyiga ega bo‘lmagan daydilar ham kiradi.

Delinkvent axloq – ushbu jamiyatda va ayni vaqtda o‘rnatilgan huquqiy me’yorlardan og‘ishgan, jamoatchilik tartibiga xavf soluvchi muayyan shaxs harakati¹.

Delinkvent shaxs – keskin og‘uvchi axloqqa ega bo‘lgan jinoiy jazoga mos harakatlarni namoyon qiluvchi subyekt.

Ikkinchi guruhga kishining o‘zini o‘zi barbod qiluvchi, ya’ni axloqi va harakatlari orqali, ruhiyati yoki yaxlit organizmning yanada tezroq yoki sekinroq va tiklab bo‘lmaydigan yemirilishiga olib keluvchi axloqi vakillari kiritilgan. *Bu - ichkilikbozlar, giyohvandlar, o‘z joniga qasd qiluvchilardir.*

Va nihoyat, uchinchi guruhni kishining me’yoriy bo‘lmagan axloqi vakillari tashkil etgan bo‘lib, uning tarkibiga turli ruhiyat buzilishlari bilan kasallangan kishilar kiradi.

¹ Qarang: *Комилова Н.Г.* Хулќи оѓишган болалар психологияси: Услужбий кўлланма.– Т., 2008.

*II bob. DELIKVENT AXLOQ VA AGRESSIV
XULQ-ATVOR SHAKLLARI*

**1-§. Delikvent ahloq – deviant xulq-atvorning
shakli sifatida**

Delikvent (qonunga zid, antiijtimoiy) axloq muammosi ko‘plab ijtimoiy fanlarning tadqiqoti uchun asosiy hisoblanadi. Qonunga zid axloqqa nisbatan turli yondashuvlardan foydalaniladi. Psixologik adabiyotlarda uni ko‘pincha delikvent axloq sifatida ko‘rsatadilar. *Delin-quent* so‘zi lot, «nojo‘ya xatti-harakat, aybdorlik» ma’nolarini anglatadi. Bu atama ostida biz shaxsning qonunga zid axloqi – ushbu jamiyatda va ushbu vaqtda o‘rnatilgan qonunlardan og‘ishgan, boshqa odamlar yoki ijtimoiy tartibga, tinchlikka xavf soluvchi va o‘zining oxirgi ko‘rinishlarida jinoiy jazolanadigan aniq shaxsning harakatini tushunamiz¹.

1. Biologik-genetik yondashuv. Biologik omillarning shaxsning og‘uvchi axloqi shakllanishiga va kelgusida jinoyat sodir etishga moyilligiga jiddiy ta’sirini birinchi bo‘lib taniqli italiyalik olim va kriminalist Chezare Lombrozo ta’kidlab o‘tgan. Uning fikricha, biologik belgilar tashqi qiyofa va axloqda qay darajada o‘z ifodasini topishiga qarab, jinoyatchi shaxsi to‘g‘risida xulosa qilish mumkin. Tadqiqotning asosiy usullari sifatida Lombrozo antropometrik xarakteristikalarni ham kuzatish usulini qo‘llagan va ular yordamida kishi qiyofasini baholash alomatlarini tizimini ajratgan. Bu alomatlar tug‘ma jinoyatchini to‘g‘ri kishidan farqlash imkonini berdi. Buning ustiga, Lombrozo kishining tashqi belgilariga ko‘ra hatto jinoyatchilarning alohida toifalarini differensiallashtirish (tabaqalashtirish) mumkin deb hisoblagan.

¹O‘sha manba.

Shundan keyin, Lombrozo jinoyatchilar oilalarining genealogik jadvallari va kadastrlarini tuzish bilan shug'ullanib, jinoiy axloqning irsiy omillar shakllanishida ulkan rol o'ynashini ta'kidladi. Mazkur holatni u atavizm ko'rinishiga – avlodlarni bir necha avlod orqaga ular ajdodlarining jinoiy o'tmish(lar)iga qaytaruvchi ruhiy rivojlanish regressiga kiritdi. Atavizm yoki avlod naslining buzilishi alomatlarini olim tomonidan delikventning susayib qolgan sezuvchanlikda, «hissiyot to'ymoqligi»da va uning atrofdagi insonlarning dardi va quvonchiday hissiy ta'sirlanishga layoqatsizligida namoyon bo'luvchi o'ziga xos axloqiy telbalik ("moral insanity") sifatida ko'rib chiqiladi. Shundan so'ng, Lombrozoning fikriga ko'ra, bu subyekt identifikatsiyasining o'zi yashayotgan jamiyat a'zolari bilan aloqasining uzishga olib keladi. Hozirgi vaqtda Lombrozo tomonidan belgilab berilgan jinoyatchi shaxsining pushaymonlikni inkor etishga sabab bo'luvchi axloqiy hissiyoti va umuminsoniy qadriyatlarni tan olish layoqatining rivojlanmaganligi xususiyatlari jinoyat olamida yetarli darajada keng tarqalgan.

Lombrozo tomonidan ta'kidlangan nasl buzilishining boshqa belgisi delikvent xulqning «Kainning muhri»¹ sifatida izohlangan tatuirovkalar (badanga tasvirlar chizish) chizishga bo'lgan kuchli istakdir. Hozirgi vaqtda tatuirovkalar jinoyat olamining o'ziga xos timsoli bo'lib qolgan. Ular huquqbuzarlar o'rtasidagi o'zaro muloqotlar belgilaridir. Badanning turli qismlaridagi tatuirovkalar o'z mazmuniga va chizilgan joyiga qarab jinoyatchiga ruhi, ixtisosi bo'yicha aniq bir jinoyat ishi bo'yicha yaqin bo'ladi (qabr xochi - qotil «turi»; tatuirovka qilingan dollar – bosqinchilik sodir qilgan; qizlarning qo'lidagi uchta nuqta – o'g'ri va hokazolar), ularni tashuvchilarning ta'blari haqida ko'p narsa aytib berishi (ayollar, qadahlar, shpris va boshqa tasvirlar), ayrim biografik ma'lumotlarni bildirishi («tarbiyalangan» muassasa, tug'ilgan yili va boshqalar), ma'lum bir jinoiy to'daga a'zolidan dalolat berishi mumkin (panjara, xoch, kartalar, shpris va boshqalar). Bundan tashqari, boshqa alohida belgilar orasida tatuirovka uning qimmatini, fikrlash tarzini, maqsadini aks ettiruvchi mustahkam shaxsiy xususiyatlaridan darak beradi.

¹ Кайн бу ерда – Одам Ато ва момо Хавонинг ўғли Кобил номи билан боғлиқ.

Tatuirovkalarining ma'noviy diagnostikasi¹

Kapalak – ozodlikka intilish ("Qayerda istasam, shu yerda qanot qoqaman") va hatto qochishga moyillik ("Uchib ketishim ham mumkin"). Ko'pincha bo'yin asosi oldiga va bilaklarga chiziladi.

Qoplon - «Ur, faol, shoxni kes» xuddi qisqartma so'zlaridek ma'noga ega. Og'zi irjaygan holdagi qoplon kallasining tasviri kuch-qudrat, g'azab va dushmanga nisbatan shafqatsizlikni anglatadi.

Ko'zlar – tasvir qorinning pastki qismiga yoki yelka sohasiga chiziladi va ortiqcha bezak xarakteriga ega bo'ladi. ba'zan tatuirovka egasi faol besoqolboz ekanligiga ishora qiladi. Bunday holda, u psixologik jihatga ega bo'lib, uning egasi «Tuban emas» ligini ko'rsatadi. Orqa tomondagi bo'yin asosi oldidagi tasvir uning tashuvchisi tajribaliligi va o'ziga nisbatan hech qanday noxushliklarga yo'l qo'ymasligidan dalolat beradi («orqani ko'ryapman»). Dumbada joylashgan tatuirovka, qoidaga ko'ra, passiv besoqolboz yoki «tuban» ekanligini anglatadi.

Jin – giyohvandlar orasida keng tarqalgan.

Qo'ng'iz – bu tasvir xuddi abbreviatura ko'rinishida uchragani kabi, rasm sifatida ham uchraydi va «o'g'rilikda muvaffaqiyat tilayman» degan ma'noni anglatadi. Tatuirovka egasi o'zini o'g'ri yoki o'g'rilik uchun sudlangan deb hisoblaydi.

Yulduz – tizzaga chizilgan tasvir ularning egasi jinoiy faoliyatiga chek qo'ymaganligi va muassasa ichki tartibi talablariga bo'ysunmaganidan dalolat beradi.

Qo'ng'iroq - to'liq o'tab bo'lingan jazo muddati; shuningdek tatuirovka egasi «qo'ng'iroq qilishini», ya'ni muddatni to'liq o'tashini anglatadi.

Ilon - qahri qattqlik, ehtiyotkorlik va donishmandlik timsoli.

Bo'yinni yorib o'tgan xanjar -- tatuirovka egasi ozodlikdan mahrum etish joylarida yurib, yangi jinoyat sodir qilganligini anglatadi.

Mushuk – o'g'rilik va bosqinchilikka moyillik.

Sher - «hokimlik timsoli», tatuirovka egasining obro'-e'tiborga ega ekanligini anglatadi.

¹ Qarang: *Капитанский А., Литвин В. Искусство криминальной татуировки/The Art of Criminal Tattoo. Логос. – 1998.– 35с.*

Qurbaqa – tasvir boshning sochli qismiga tushiriladi va uning egasi lager hayotida aqli boyigan, bir necha marta sudlangan ("piyoda") va «butun ongli umrini shu botqoqda o‘tkazgan» ekanini anglatadi. Shuningdek qurbaqa tasviri ensa sohasida ham uchrab turadi, bu esa «ishonch bo‘lmasa – quvib o‘tma», ya’ni «oldindan kelishmay turib hech qanday harakatlar qilma» ma’nosini anglatadi.

Burgut – kuch-qudrat, ozodlik va hokimlik timsoli. Muqaddam «o‘g‘rilik» martabasi hisoblangan, shuning uchun hozirgi vaqtda «o‘g‘rilik qonunini hurmat qilaman» ma’nosini anglatadi.

O‘rgimchak - qoidaga ko‘ra, o‘rgimchak to‘rida tasvirlanadi va giyoxvandlarning tatuirovkasi hisoblanadi. Ba’zan tatuirovka egasini «hokimlik chirmab tashlagan»ligini anglatadi. Tasvir egasining badanida qanchalik yuqorida chizilgan bo‘lsa, u o‘zini shunchalik tuzatib bo‘lmaydigan deb hisoblaydi. Yelkada, boshning sochli qismida va quloq suprasida uchraydi. Bu uning ozodlikdan mahrum etish joylarida uzoq muddat bo‘lganligini, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga nisbatan o‘ta salbiy munosabatini ifodalaydi.

Dengiz qaroqchisi – bosqinchilikka, bezorilikka moyillik, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga nisbatan salbiy munosabatni anglatadi. Shturval oldidagi qurollangan qaroqchi tasviri: «O‘lja izlayapman» degan ma’noni anglatishi mumkin.

Fil – ozodlikka chiqqanidan keyin huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan o‘ch olish maqsadi.

Tatuirovkalarining ko‘rinishlari. Lombrozo tomonidan belgilab berilgan biologik tabiatga ega bo‘lgan navbatdagi diagnostik alomat – bu tashqi qiyofada ham axloq, ham sof «erkakcha» belgilarning yaqqol ustunligidir. Erkak va ayolning mardlikka, sovuqlikka, tavakkalchilikka, jismoniy kuch va chidamlilikka moyillikda ifodalanuvchi xos farqlari delinkventda zo‘rluk va tajovuzga, shafqatsizlik va nafratga moyillik, qurolga, ichkilik ichishga va tamaki chekishga bo‘lgan ishtiyoq shaklida aks etadi.

Shaxsning og‘uvchi axloqiga ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa jiddiy biologik omillar, Lombrozoning fikricha¹, kishining ruhiy

¹ Qarang: *Ломброзо Чезаре. Женщина преступница и проститутка.* – Поппури, 2004.– 42 с.

parokandaligi yoki telbaligi hisoblanadi. Bunday holda, tutqanoqli va affektiv kasallar uchun xos bo'lgan ruhiy buzilishlar asossiz tajovuz ko'rinishida, avtomatik ravishda, ko'rinmas tashqi sababsiz, shunchaki u yoki bu jinoiy qilmishni sodir etishda, keskin ruhiy qo'zg'alish oqibatida namoyon bo'lishi mumkin.

Lombrozoning jinoyatchi va fohishaning o'xshashligi va keyingi axloqiy xususiyalari haqidagi xulosasi shak-shubhasiz kriminal nazariyaga qo'shilgan hissa bo'ldi:

- fohishalar barvaqt yuzaga kelgan axloqsizlik, rashk va shafqatsiz qasoskorlik, umuman hech qanday axloqiy hissiyotlarning yo'qligi va o'zganing mulkiga hurmatsizlik, xususan altruistik tuyg'ular va biron-bir do'stlikning batamom mavjud emasligi bilan tavsiflanadi;

- ularda onalik va qarindoshlik hislari umuman bo'lmaydi;

- fohishalar orasida ko'pincha o'g'rilik va unda ishtirokchilik, shantaj keng tarqalgan bo'lib, ular damba-dam tana daxlsizligiga qarshi jinoyatlar sodir qiladilar;

- fohishalarga spirtli ichimliklarga bo'lgan ishtiyoq ham xosdir;

- ularga ochko'z hirs xosdir va shu vaqtning o'zida ularning jinoiy ishtiyoqlari ularda jinoyat sabablari bo'lib xizmat qilmaydi, chunki jinsiy sohada ular tez qoniqish oladilar;

- fohishalarda uyatchanlik hissi bo'lmaydi va ularda kekkayish kuchli ifodalangan;

- fohishalar ba'zan hayvonlarga yaxshilik qilish va ularga mehribonlik ko'rsatishni namoyon etadilar, bu esa ularning odatiy xudbinligi va atrofdagilarga befarqligi bilan nomutanosib ravishda ifodalanadi;

- ular aql borasida cheklanganligi va bolalarga xos yaxshi yetilmaganligi, tatirovkalarga bo'lgan muhabbat, estetik farosat va sertakallufliklari bilan ajralib turishadi;

- fohishalar, xuddi jinoyatchilar kabi, o'z maxsus jargonlariga ega bo'ladilar;

- ularda o'yinlarga, shirinliklarga, ochko'zlikka ishtiyoq kuchli bo'ladi;

- ular yalqovlikni yoqtirishadi, yengiltaklik, mulohazasizlik va rejasizlik ular uchun xosdir.

Fohishalik va jinoyatchilik



Jinoyatchi va fohishalar anatomik va psixologik munosabatlarda o'xshashdirlar. Xuddi biridagi kabi, boshqasida ham axloqiy tuyg'ularning xuddi o'sha nuqsonlarini, o'sha toshbag'irlik va erta paydo bo'layotgan yovuzlikka moyillikni, jamoatchilik fikriga befarqlikni ko'rish mumkin. Shular tufayli biri jinoyatchining, boshqasi esa fohishaning holatiga bir xildagi ehtiyotsizlik, yengiltaklik va yalqovlik, kekkayish va shovqinli o'yin-kulgiga, aysh-ishrat va kayf-safoga ishtiyoq kabi osongina ko'nikadi. Fohishalar orasida hayratomuz ravishda o'g'rilik, tovlamachilik va tan jarohati yetkazish kabi nisbatan yengil jinoyatlar sodir etish tarqalgan. Psixologik nuqtai nazardan fohisha xuddi o'sha jinoyatchiga o'xshaydi, agar u jinoyat sodir etmayotgan bo'lsa, buning sababi – uning jismoniy zaifligi va aqliy rivojlanishi cheklanganligidadir, yana undan ortig'i, fahshda u o'zining barcha istaklarini qondirish vositasiga ega va shuning uchun eng kam energiya sarflash qonuniga ko'ra, u aynan shu vositani boshqasidan ustun qo'yadi. Shunday qilib, fohishalik ayollar huquqbuzarligining o'ziga xos shaklidir. Og'ir yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarni sodir etgan haqiqiy jinoyatchi ayollar, har doim o'zlarida u yoki bu jihatdan yirik anomalialarga ega bo'lgan holda, erkaklardan ancha ustun bo'lgan g'aroyib axloqiy buzuqligi bilan ajralib turishadi va biologik nuqtai nazardan qaraganda sof erkakcha xarakterga ega bo'ladilar – bir so'z bilan aytganda, ularga ayollik xususiyatlaridan mustasno ayollar deb qarash kerak. Shunday qilib, bizning haqiqiy ayollar jinoyatchiligini aynan fohishalikda ko'rish mumkinligi to'g'risidagi nuqtai nazarimiz tasdig'ini topadi. Endi bizga nima uchun fohishalar orasida aynan yengil, ahamiyatsiz bo'lgan jinoyatlar ustun

turishi tushunarli bo‘ladi. O‘z tabiatiga ko‘ra, jinoyatchi bo‘lganlari holda, ular hamma jinoyatchilar uchun umumiy bo‘lgan yo‘ldan, lekin faqat ma’lum chegaralarga qadar borishadi, ushbu chegaralar orqasidan esa jinoyatchilik endi o‘zgacha, o‘ziga xos shaklda, fohishalikda namoyon bo‘la boshlaydi. Biz yoshligida o‘g‘ri bo‘lgan, ulg‘ayganidan keyin esa o‘g‘rilikni tashlab, fohishaga aylangan ko‘p qizlarni bilardik¹.

Lombrozo nazariyasining izdoshlari orasida deviant shaxsning shakllanishiga evolyutsion yondashuv muallifi V.V. Djosni eslatib o‘tish zarur. Jonli tabiatning evolyutsion rivojlanishi, Djosning fikriga ko‘ra, «homo sapiens» - tabiat ne‘mati bo‘lgan «ongli odam»ni yaralishida to‘xtab qolmadi, balki o‘zining tur ichida rivojlanishini davom ettirmoqda. Odamning evolyutsion rivojlanishi natijasida uni ikki turga: oliy tur - homo pontific – olamga ratsional va irratsional munosabatini birlashtira olgan odamlar, va quyi tur - delikventlar, homo criminalis - o‘z istaklarini asabiy ravishda boshqaradigan odamlarga ajratiladi. Djosaning fikriga ko‘ra, aynan delikventlar, evolyutsion (rivojlanish) zinapoyada hammadan ko‘ra hayvonlarga yaqin turadilar, chunki ularning tashvishlaridagi aks ehtiyoj bevosita faolliklarini asoslaydi, ularning bu ehtiyojlarni qondirish borasidagi harakatlari esa g‘ayriixtiyoriy va impulsiv ravishda sodir etadilar. Holbuki, bu evolyutsion rivojlanish kishining o‘z ehtiyojlarini qondirishini hayvondan farqli o‘laroq, o‘z instinktiga asosan emas, balki o‘zining o‘tmishdagi tajribasi va ko‘zlagan maqsadiga asosan amalga oshiradi. Zero maqsadni ko‘zlash, xuddi borliqqa ratsional yondashuv kabi, irratsional yondashuvga ham asoslanishi mumkin, deb hisoblaydi Djos.

Bu dunyodagi barcha o‘zgarishlar mazkur mantiqni o‘zlashtirgan kishi uchun tushunarli va oldindan ma’lumdir. O‘z axloqini bu mantiqqa bo‘ysundirgan kishining harakatlari doimo oldindan kutilgan natijaga olib keladi. O‘z ehtiyojini qondirish uchun odam o‘zi uchun faqatgina uni ko‘zlangan maqsadga olib keluvchi harakatlarni tanlaydi.

¹ Qarang: *Ломброзо Ч. Гениальность и помешательство.* – М., 1995 – С. 275

Irratsional dunyoda hamma narsa insonga noma'lum bo'lgan qonunlar, go'yoki tasodifan, lekin kimningdir xohishi bilan sodir bo'ladi. Inson bu dunyoda go'yoki tavakkaliga harakat qiladi. U oldiga maqsadlar qo'yadi, kelajakni oldindan sezadi, biroq bunga to'liq ishonch hosil qila olmaydi. Irratsional olam kimgadir xayrixoh bo'lishi mumkin, bunday odamning «omadi yurishadi», yoki aksincha, dushmanlik ruhida bo'lishi mumkin, undan «omad yuz o'giradi». Irratsional dunyoda xuddi ratsional dunyodagi kabi o'z faoliyatini rejalashtirish mumkin. Ammo agar inson o'z iqtidoriga ortiqcha baho berib yuborsa, manzilga toshbaqadan oldin yetib borishiga ishonib, yarim yo'lda qolib ketgan quyonning ahvoliga tushib qoladi. Irratsional dunyoda butunlay hamma narsani bilish mumkin emas, chunki irratsional olam – bu obyektiv umumiy olamdur. Inson uchun u doimo - «kimnikidir», bu dunyoda u faqat «mehmonda» bo'lishi mumkin, xolos. Ratsional olam esa subyektivdir, inson butun hayoti davomida o'zini boshqa odamlarning ratsional fikrlari bilan tekshirib, uni obyektivlikka yaqinlashtirishga intilgan holda tiklaydi. Lekin bu obyektivlik doimo nisbiydir.

Ratsional va irratsional dunyo nisbati turli odamlarda sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Masalan, yovvoyi yoki qabila bo'lib yashaydigan xalqlarda olamga nisbatan irratsional, rivojlangan (madaniylashgan) xalqlarda esa - ratsional munosabat ustun turadi. Biroq maqsadni ko'zlashning rivojlanish an'anasi mazkur qutblarning ajralib ketishida emas, balki sekin-asta yaqinlashuvida yotadi. Bunday holda, deb hisoblaydi Djos, kishining rivojlanishi insoniyatning inson-jinoyatchidan taqvodor bo'lishga – xudo tomonga yuz burishini eslatadi.

Vaqt o'tishi bilan, ta'kidlaydi Djos, evolyutsion rivojlanish, tabiiy saralash orqali o'tib, kishining hozircha yagona ko'rinishini ikki turga bo'ladi. Oliy tur – (o'zini xudo deb da'vo qiluvchilar) pontifeksmenlar - va quyi, delinkventmenlar deb nomlanuvchi pontifeks-odam va odamsifat maymun o'rtasidagi oraliq ko'rinishdagi odamlar. Djosning fikricha, mazkur bo'linishni, insoniyatni «odamlar» va «odam emaslar»ga ajratish uncha katta xato bo'lmaydi. Zero, delinkventmenlar turining shakllanishi birlamchi hisoblanadi va ayni vaqtda, pontifeksmenlar turidan ko'ra o'nnglanish ehtimoli mavjud.

Delinkventmenlar. Ular kimlar?



(Skinxedlar)

Ishlab chiqarish va iste'mol qilish dialektikasi ularda yirtqich hayvonlarga o'xshab «faqat iste'mol qilish uchun» soddalashtirilgan. Ishlab chiqarish o'rniga – iste'mol mahsulotlarini ularning qonuniy egalari bilan zo'rlik bilan olib qo'yish. Shuning uchun, ular faqat tovar ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchilar bo'lsagina vujudga kelishi mumkin. Mulknini olib qo'yish va odamlarga zo'rlik ishlatish bo'yicha aksiyalardagi muvaffaqiyat qudratlilik xomxayolini, xudoga nisbatan tajovuzkorona munosabatni paydo qiladi. Lekin omadsizlik (qamoq, ayniqsa, o'limga mahkumlar kamerasi) bunday shaxslarni mutaassib, xudojo'y qilib qo'yadi. Ularning hayoti qolgan insonlardan ko'ra ikki-uch marta qisqaroq bo'lib, o'lim ko'p hollarda zo'ravonlik orqasida yoki qamoqda orttirilgan surunkali kasalliklar oqibatida sodir bo'ladi. Bu turdagi shaxslarda hudud uchun kurash, ba'zan o'ta shafqatsiz va qonli kurash bilan kechadi. Affektning ustunlik qilishi ularni oddiy odamlarga nisbatan o'ta ta'sirchan qilib qo'yadi. Ular o'g'irlangan narsalarni «kambag'allar» va «baxtsizlar» bilan bajonidil bo'lishlari mumkin. Kuch va kuchlilar, ayniqsa hokimiyatga ega bo'lganlar oldida ehtirom ko'rsatishadi, zero, ongsiz ravishda ular o'zlarini ular bilan tenglashtiradilar. Ularning «hokimiyatga kirish»ga intilishlari shundandir. Qamoqda tabiiy ravishda ayollarning jinsiy xizmatlariga juda katta talab yuzaga keladi. Kuchli mahbuslar mazkur talab tazyiqiga qarshi tura oladilar, zaiflar esa – yon bosadilar. Tur ichida ikki guruhga bo'linish yuz beradi: «erkaklar» va «tubanlashganlar» yoki «xo'rozlar». Kuchlilar guruhi doirasida o'z jinoiy aslzodalari - «qonundagi o'g'rililar» ajralib turadi. Delinkventmenlar turi o'limning ko'pligi va odamlarning oraliq turidan yangi a'zolar oqimi hisobiga yuqori

darajada yangilanuvchanligi bilan ajralib turadi. Bu esa turning busiz ham yetarli darajada xavfli bo'lgan yuqori darajada moslashuvchanligidan dalolat beradi. Quyi tur vakillarini katta bo'lmagan, lekin yaxshi qo'riqlanadigan, ular ko'paya olmaydigan joyda saqlash bilan oliy turni quyi turdan xavfsizlantirish mumkin. Biroq bu usulning samaradorligi turning yangilanish darajasi yuqoriligi sababli pasayadi. Xuddi shu sababga ko'ra genotsid¹ ham samara bermasligi mumkin.

O'g'rilar tilining (argo) qisqacha lug'ati²

Aktiv – ATM ma'muriyati bilan oshkora hamkorlik qiluvchi mahkumlar.

Baklan – bezorilik uchun qamalgan mahkum.

Balanda – JIM oshxonasiidagi ovqatning umumiy nomi.

Banderloglar – voyaga yetmaganlar orasidagi iyerarxik zinapoyaning quyi pog'onalariga mansub mahkumlar yig'indisi.

Batek – voyaga yetmaganlar kamerasidagi voyaga yetgan mahkum.

Bespredel - qonunni buzishning so'nggi darajasi.

Blatnoy – jinoiy muhitda hurmatga ega bo'lgan qonundagi o'g'rilarga yaqin bo'lgan jinoyatchi toifalaridan biri.

Bratva (birodarlar) – o'g'rilik an'analariga rioya qiluvchi mahkumlar yig'indisi.

Brodyaga (daydi) - o'g'rilik an'analariga rioya qiluvchi mahkum.

Buxgalter – mahkumlarning jirkanch toifalaridan biri (biron narsada ayb qilgan mahkumning qulog'i orqasiga jinsiy a'zolarini qo'yishadi).

Qonundagi o'g'ri - jinoiy iyerarxiyaning oliy pog'onasi.

O'g'rilar tusi – bir turdagi faoliyat bilan shug'ullanuvchi o'g'rilar guruhi.

Gans – yugurdak odam.

O'chirmoq – o'ldirmoq.

¹ Империализм ва фашизмнинг ирқий, миллий ёки диний важ билан аҳолининг бирор тоифасини қиришга қаратилган сиёсати; инсониятга қарши энг оғир жиноят.

² Qarang: Джос В.В. Постдарвинизм или эволюция человека в судьбоанализе.

Yo'l – koloniyalar o'rtasidagi yoki koloniyalar va erkinlik o'rtasidagi maxfiy aloqa.

Jigan – o'g'rilik qonuniga rioya qiluvchi jinoyatchi-retsdivist.

Hayot – odamning jinoyat olamida egallagan mavqei.

Zatochka – o'tkir charxlangan shtir.

Igrulka – yangi kelgan a'zoni jinoiy hamjamiyatga «propiska» qilish, qabul qilish ishlarida qo'llaniladigan topishmoq turi.

Kabur – kameralar orasida yashirin ochilgan teshik.

Kipish – to'polon, janjal.

Konduktor – boshqa mahkumlarning tirnog'ini tishlab tashlovchi mahkum.

Kormushka – kamera eshigining ovqat uzatish darchasi.

Kosit – o'zini kasal qilib ko'rsatish, mug'ombirlik qilish.

Krisa – o'zinikilarni tunovchi mahkum.

Lager – ozodlikdan mahrum etish joylarining umumiy nomi.

Lepen – kamzul.

Maza – himoya qilish, qo'llab-quvvatlash, bir-biriga kafillik.

Maydon - chemodan, rukzak, kiyimxalta.

Malyava - maktub, maxfiy xat.

Marochka – dastro'mol.

Maski-shou – maxsus belgilangan tadbir.

Mast – omad.

Nifilya – choy qoldiqlari.

Nishtyak – yaxshi, zo'r, a'lo.

Xafa qilmoq, kamsitmoq – biror kishining ustidan zo'ravonlik bilan besoqolbozlik aktini sodir qilish.

Obshak – jinoiy hamjamiyatdagi o'ziga xos o'zaro yordam g'aznasi.

Irg'itish – to'siq orqali otish yo'li bilan zonaga noqonuniy narsa kiritish.

Polojenes –guruhdagi holat uchun jinoiy obro'mand odam oldida javob beradigan shaxs.

Tushunchalar – jinoyat olamida qabul qilingan norasmiy me'yorlar, qoidalar tizimi.

Prikol – yangi kelgan mahkumning jinoiy an'analar bo'yicha bilimini tekshirish uchun o'ziga xos test.

Primochka – aldash usuli.

Prixod – narkotik modda, ichkilik iste'mol qilishning natijasi.

Progon – kelib tushgan maxfiy axborot.

Ramslar – ziddiyat.

Aylanib ketmoq – jazo muddatini o‘tash vaqtida yangi jinoyat sodir qilish.

Qarovchi - qonundagi o‘g‘ri bo‘lmagan paytda o‘g‘rilik qonuniga rioya etilishini kuzatuvchi mahkum.

Kuydirmoq - ochmoq, tutib bermoq.

Stukach – josus, xabarchi.

Suka - qonundagi o‘g‘rilardan nari ketgan sotqin.

Sxodka – qonundagi o‘g‘rilardan iborat norasmiy oliy hay‘at organi.

Fanich – suv solingan idish, choynak.

Xata - kamera, o‘g‘rilar makoni.

Xo‘jayin – zona boshlig‘i.

Shkonka – uxlash joyi.

Shunday qilib, Lombrozo va uning izdoshlari tomonidan kashf etilgan, ko‘pgina keltirilgan deviant shaxsning shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi biologik omillarning belgilari bugungi kunda ham kuzatilmoqda va jinoyat olami vakillarining aksariyatida aniqlanmoqda.

Psixologiya mustaqil fan sohasiga ajratilganidan so‘ng biologik jinoiy axloqqa ta‘siri to‘g‘risidagi masala muammoni hal etishning yanada yuqori darajasida ko‘tarilmoqda. Axloqning sababiy asoslanganligi vazifasi shaxsning ruhiy hayotida statik va dinamik, ya‘ni konstantali va o‘zgaruvchanlikning dialektik nisbati, bu omillarning deviant axloqqa ta‘siri haqidagi masalani qo‘yishga olib keladi. Taniqli olim K. Yaspers bu muammoni quyidagicha ta‘riflagan: «Shunday bazisli sifatlarni, odamlarning axloqi va faoliyatidagi barcha tashvishlarda mavjud bo‘ladigan o‘tkir, biroq mazmunan o‘ziga xos bo‘lmagan nimadir topish kerakki, ular ming yillar davomida biologik mohiyatini o‘zgartirmasin»¹.

Nemis psixologi E. Krechmer bu muammoni qisman bo‘lsada hal etishga harakat qilib, konseptual ravishda bunday tug‘ma komponentni somatik va psixik, sog‘lik va kasallik orqali aloqani saqlab qolish mumkin bo‘lgan shaxsning tana tuzilishi sifatida ifodaladi. Krechmer

¹ Qarang: Карл Ясперс Ностальгия и преступления — М., СПб. – 1996. — 352 с.

tomonidan tegishli ravishda, deviant shaxs ham uning tomonidan yaratilgan konstitutsiyaviy tipologiya yoki shaxsning tuzilishi to'g'risidagi ta'limotlar doirasida ko'rib chiqildi. Krechmerning mavjud yondashuvlarga nisbatan inson klassifikatsiyasini tuzishdagi ustunligi shunda namoyon bo'ldiki, hamma odamlarga xos bo'lgan umumiy narsa kabi ifodalangan turlar asosiga va o'z xarakterologik tuzilmalari (bu an'analarning xususiy namoyon bo'lishi) asosiga inson ruhiyatining dinamik qarama-qarshiliklarini qo'ydi. Individual xususiyatlarni chuqur tahlil qilish yo'li bilan u shaxsning ruhiy hayoti negizida u yoki o'zga shaxsni xarakterlovchi dialektik ikkita qarama-qarshi yo'nalishdagi an'analarni mavjudligini taxmin qildi. Krechmerning mazkur konstitutsiyaviy ta'limoti odamlarni flegmatiklar, xoleriklar, melanxoliklar va sangviniklarga ajratishga qaraganda shaxsning psixologik xususiyatlarini tushunishga sezilarli ravishda yaqinroq keladi.

Krechmer tomonidan ajratilgan shizoidli va sikloidli turlar – shaxsga tegishli astenik va piknik tana tuzilishiga asoslangan. Bunda ular endi shaxs xususiyatlarining oddiygina ta'rifi bo'lmaydi, balki u yoki bu darajada o'zlarida diametral qarama-qarshi an'analarni uyg'unlashtiradi.

Shizoidli mizoj – jizzakilik va omilik qutblari orasida turadi. Uning mumkin bo'lgan xarakteristikasi: odamovi, bosiq, jiddiy, g'alati, tortinchoq, hadiksirovchi, hissiyotga beriluvchan, hayajonli, itoatkor, vijdonli, beparvo, omi, kalta fahm.

Sikloidli mizoj – quvnoqlik va g'amginlik qutblari orasida turadi. Uning mumkin bo'lgan xarakteristikasi: kirishimli, ko'ngilchan, muloyim, samimiy, aqli o'tkir, chaqqon, qaynoq, yuvosh, bosiq, yumshoq.

Masalan, quvnoq mizojli shaxs – sangvinik, faqat quvnoq bo'ladi va o'z tabiatida diametral qarama-qarshi holatlarni, xususan tushkunlik va qayg'ulik holatlarini saqlamaydi. Boshqacha aytganda, mazkur tipologiyada inson shaxsiyatining jadalligida yashirinib yotgan qarama-qarshiliklar ko'rib chiqilmaydi. Shu bilan birga, bu qarama-qarshiliklar ba'zan shunday kuchga erishadiki, ular atrofdagilar uchun umuman kutilmagan va tushunarsiz shaklda, masalan, doimo o'ta quvnoq deb hisoblangan kishining o'zini o'zi birdaniga o'ldirishi yoki oilaning durustgina otasi kutilmaganda qotillik sodir qilishi ko'rinishida namoyon bo'ladi va Krechmer jinoiy axloqning xususiyatlari

to'g'risida aynan konstitutsiyaviy tafovutlar oqibati bo'lgan psixologik xususiyatlardan kelib chiqadi deb xulosa qiladi. Demak, uning fikricha, sirkular doiradagi shaxs turlari - sikloidlarda - asotsial xislatlar ancha kam uchraydi. Garchi bunday tuzilishdagi odamlarga, deb hisoblaydi Krechmer, qo'pollik va shafqatsizlik, jasurona va o'ylamay qilingan ishlar, alohida hollarda esa ichkilikbozlikka moyillik, isrofgarchilik, shahvoniy buzuqlik xos bo'lsa-da, bari bir ularning jinoyatlari asosan agressiv holatdagi yoki ehtiyotsiz harakatlar sababli odam o'ldirish bilan chegaralanadi.

Aksincha, haddan ziyod ta'sirchanligi va sovuqqonligi bilan ajralib turuvchi shizoid odamlar, bag'ritoshlikka moyildirlar. Tashqi dunyo bilan aloqaning yo'qligi «shisha to'siq» yaratishga olib keladi. Shunday ekan, ular ba'zan: «Men» va tashqi dunyo, degan keskin antiteza (qiyoslash) rivojlanadi, doimiy ravishda: «Men qanday harakat qilyapman? Kim menga adolatsizlik qilyapti? Men kimga yon bosdim? Men endi qanday kun kechiraman?» deb o'zini o'zi tahlil qilish va taqqoslash sodir bo'ladi. Agar anestetik qutblilarda hissiy omilik, sovuqqonlik va befarqlik uchrasa, giperestetik qutbli odamlarda jizzakilik, hissiyotga beriluvchanlik, qiziqqonlik kabi xislatlar ajralib turadi. Bu xislatlarning yanada rivojlanishi qo'pollik, qaysarlik, badqovoq shafqatsizlikka olib kelishi mumkin. Bunday tahlil Krechmenga shizoidlar negizida darg'azab omilar yoki darg'azab shafqatsizlar turini ajratish mumkin, deb xulosaga kelish imkonini berdi. Biron-bir kompleksga yengilgina tegib ketganda omilikning qobig'ini yorib o'tib, birdaniga qattiq g'azab qo'zg'alishiga olib keluvchi ichki jizzakilik uchquni ularni ajratib turuvchi xususiyati hisoblanadi. Shizofrenik g'azabning bu shakli o'zining yashirin affektiv turg'unligi va bema'ni ravishda yumshashining psixologik mexanizmiga ko'ra miyaning shikastlanishi va tutqanoqning ma'lum alomatlari bilan ba'zi o'xshashliklarga ega. Darg'azab-omi shizoidlar uyda o'ta shafqatsiz, xavfli va zolim bo'lishlari mumkin. Ular atrofdagilarga berahm, hissiz munosabatda bo'ladilar va o'zlarini pedantik mayllariga ko'ra boshqaradilar. Krechmerning fikricha, sadistlarcha tarkibiy qismlar bilan uyg'unlashgan nobop shaxs tuzilishi xususiyatlarida aynan shizoidli hissiy sovuqlik tajovuzkor-zo'ravonona jinoiy harakatlarning o'ta shafqatsizlik bilan namoyon bo'lishiga olib keladi.

Krechmer konsepsiyasi, soddaligiga qaramay, o'zining maqsadliligi va dialektikligi bilan hayron qoldiradi. Irsiy-konstitutsiyaviy belgilarga asoslangan holda va psixologik xususiyatlarining namoyon bo'lish doirasiga shizofreniya va maniakal-depressiv psixoz kabi ma'lum ruhiy kasalliklarni kiritgan holda, u shaxsning tipologiyasini tuzishga asos bo'lib xizmat qilgan ruhiyat individualligining mexanizmini ushlab qola oldi. Bunday yondashuv tufayli ruhiy-diagnostika jinoyatchi shaxsning juda kam vaqtini oladi va ko'p jihatdan faqat uning axloqini tashqaridan baholashga bog'liq bo'ladi. Shu vaqtning o'zida, shaxsning konstitutsiyaviy xislatlarini mutlaqlashtirish va shaxs rivojlanishining ijtimoiy shart-sharoitlarini mensimaslik, uning ruhiy hayotining xususiyatlarini tushuntirishda psixologik determinantning yo'qligi, shuningdek o'z klassifikatsiyasida faqat ikkitagina turni - shizoid va sikloidni ajratish Krechmer nazariyasining cheklanganligi hisoblanadi, bu esa uning konsepsiyasini jiddiy ravishda qashshoqlashtiradi.

Delinkvent axloqni ta'riflashda Krechmer yondashuvlarining bevosita vorisi Sheldon bo'ldi. U bir nechta ishlarida shaxsning jismoniy konstitutsiyasi, xossalari va jinoiy axloqi o'rtasida aloqa o'rnatdi. O'zining empirik tadqiqotlari asosida Sheldon jismoniy konstitutsiyaning Krechmerning turlari bilan taqqoslanadigan endomorfli, mezomorfli va ektomorfli uch turini ajratadi.

Endomorfli - jussasi sferik shakldagi, yumshoq, katta qorinli, dumaloq boshli odam, ichki organlari yirik, qo'llari va oyoqlari bo'shashgan, suyaklari va mushaklari rivojlanmagan bo'ladi.

Mezomorfli – yelkalari va ko'krak qafasi keng odam, qo'llari va oyoqlari muskulli, teri osti yog'lari kam miqdordagi, katta boshli odam.

Ektomorfli – cho'ziq yuzli ozg'in odam, peshonasi keng, qo'llari va oyoqlari ingichka uzun, ko'krak qafasi tor va qorinli, muskullari rivojlanmagan bo'ladi.

Sheldon 200 nafardan ortiq huquqbuzarlarning materiallarini umumlashtira borib, shunday xulosaga keldi: jinoiy axloq kishining jismoniy konstitutsiyasiga va uning turiga bog'liq. Bunda jinoyatchilar orasida mezomorf bichimli shaxslar ustun turadilar. Keyinchalik u jinoyatchilarni uch turga ajratadi:

- dionisli, bu yerda ma'naviy negizlarning buzilishi ustunlik qiladi;
- paranoidli, atrof-muhitdan begonalashish bilan tavsiflanadi;

- gebefrenik, bu yerda infantilizm yoki aqliy rivojlanmaganlik ustunlik qiladi.

Delikvent axloqdagi Krechmercha tipologiya P.K. Gannushkin, YE.K. Krasnushkin, M.V. Volotskiy va boshqalar tomonidan keng ravishda ko'rib chiqilgan. Masalan, YE.K. Krasnushkin jismoniy tip va kriminalning ma'lum korrelatsiyasi to'g'risida bosqinchilar ko'p hollarda atletik gavda tuzilishiga ega bo'lib, o'g'rilar esa, aksincha, yetilmay qolgan, degenerativ, yevnuxoidcha (bichilgan kabi) tuzilishga ega bo'ladilar deb yozgan.

Tug'ma xislatlar bilan bog'liq jismoniy nuqsonlar, ayrim mutaxassislar tomonidan og'uvchi shaxsning va umuman, jinoyatchilik shakllanishining muhim omili deb baholanadi. Bu holda, subyekt axloqi jismoniy nuqsonlarning o'rnini to'ldirishga qaratilgan bo'ladi va jinoiy axloq shaklini oladi. Amerikalik psixolog Masters, jinoyatchilarning katta bir guruhi suratlarini tadqiq etib, ular orasida mayib-majruhlar o'rtacha aholi orasidagiga qaraganda ancha ko'proq ekanligini aniqladi va og'uvchi shaxsda o'ziga xos «Kvazimodo kompleksi»ni ajratish mumkin degan xulosaga keldi.

Biroq keyinchalik genetika sohasida olib borilgan jiddiy tadqiqotlar shaxsning tana konstitutsiyasi ruhiy xususiyatlarining o'xshashlik ko'rsatkichi sifatida irsiy genezning omili bo'lishini ko'rsatdi. Psixologiyada xromosomal qatorning axloqqa, shu jumladan jinoiy axloqqa ta'sirini o'rganuvchi yangi yo'nalish rivojlanmoqda.

Masalan, amerikalik psixologlar Djekobs, Branton va Mervil XYY sindromini erkak jinsidagi shaxslar o'z irsiy kodida yana bitta erkak xromosomani olganidagi xromosoma to'plamining buzilishi deb ta'riflaydilar. Ularning tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, XYY formulali individlar ko'pincha jismoniy jihatdan me'yordan qandaydir og'ish bilan farq qiladi. Odatda, ularning bo'yi o'rtachadan ancha baland bo'lib, haddan ziyod tajovuzkorlik, to'satdan zo'ravonlik paydo bo'lishi holatlari, shuningdek aqliy rivojlanishda kechikishlar bilan tavsiflanadi. Keyingi tadqiqotlar asosan jinoyatchilar orasida XYY xromosomal shaxslar aholining boshqa guruhlaridagi shaxslarga nisbatan ancha ko'p uchrashi haqidagi xulosani tasdiqladi. Ayniqsa, erkak jinsidagi yangi tug'ilgan chaqaloqlar va katta yoshdagi vakillar orasida bu anomaliya taxminan mingtadan bitta uchraydi, qamoqdagilar orasida esa u 15 marta ko'p namoyon bo'ladi. Biroq xromosoma anomaliyalarining zo'rlik ishlatib jinoyat sodir qilishga moyillikka ta'siriga oid natijalar hali olinmadi.

Shunday qilib, noqulay biologik omillarning ta'siri shunga olib keladiki, yomon irsiyat, jismoniy shikastlar, tana konstitutsiyasining ayrim xususiyatlari, ruhiy kasalliklar va hokazolar shaxsning ruhiy tuzilmasida – jinoyatlar sodir etilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ehtiyojlar, tashvishlar, zehnda va boshqalarda ma'lum deformatsiyalarni yuzaga keltiradi. Mazkur nazariya qarashlarining chegaralanganligi bizga shaxs rivojlanishining ijtimoiy shart-sharoitlarini mensimaslikka, shuningdek, aniqlangan belgilar metafizik (mavhum) ravishda, ajratib qo'yilgan holda va shaxs rivojlanishining dinamikasiga bog'liq bo'lmagan holda ko'rib chiqilishiga olib keluvchi biologik omillarning mutlaqlashtirilishida ko'rinadi. Tegishlicha, og'uvchi shaxsga nisbatan tibbiy choralarni qo'llash, jamiyatdan umrbod ajratib qo'yish yoki hatto yo'q qilish taklif etiladigan jinoyatchilikka qarshi kurash choralari ham metafizikaviy (mavhum) bo'lib ko'rinadi. Hozirgi vaqtda jinoiy axloqning «biologik korrelyatlar»ini tadqiq qilish, tushuntirish tamoyiliga da'vo qilmagan holda, yetarlicha mahalliy xarakterga ega.

2. Sotsiologik yondashuv. Jamiyat rivojlanishi va ijtimoiy munosabatlar nuqtai nazaridan delinkvent axloqning shakllanishini o'rganishni odatda E. Dyurkgeymning nomi bilan bog'laydilar. U sotsiologiyaga anomiya (fransuzcha. anomie - qonunsizlik, me'yorsizlik) tushunchasini kiritdi – bu jamiyatning shunday holatiki, bunda uning a'zolarining sezilarli qismi, ulardan talab etiluvchi axloq me'yorlari mavjud ekanligini bila turib, ularga salbiy munosabatda bo'ladi. Anomiya muammosi davrning o'tuvchi xususiyati, uning shartnomaviy-iqtisodiy munosabatlarini ma'naviy tartibga solishning vaqtincha pasayib ketishidan yuzaga kelgan. Muallifning fikricha, anomiya mexanikdan organik birdamlikka o'tish noto'liqligining mahsuli hisoblanadi. Bu holda, organik birdamlikning obyektiv bazasi – ijtimoiy mehnat taqsimoti - jamiyat ongida ma'naviy tayanch topishdan ko'ra tezroq taraqqiy etadi. Anomiyani doimiy takror ishlab chiqarish shart-sharoitlari ijtimoiy ravishda yuzaga keladigan ko'rinishlarning ikki qatori: ehtiyojlar va ularni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi tafovut hisoblanadi. Feodal negizga ega bo'lgan iyerarxik jamiyat bu jihatdan barqarorroq bo'lgan, chunki turli ijtimoiy qatlamlarga turli maqsadlar qo'ygan va har biriga tor tutash qatlam ichida o'z hayotini ma'noli his qilish imkoniyatini bergan. Biroq ijtimoiy evolutsiya ikkilanma jarayonni yuzaga keltirdi: «individlash-

tirishni» ko‘paytirdi va bir vaqtning o‘zida ijtimoiy nazorat kuchiga, eski davr uchun xos bo‘lgan mustahkam ma‘naviy chegaralarga putur yetkazdi. Shaxsning an‘analar, jamoaviy urf-odatlar va xurofotlardan ozod bo‘lishi, shaxsan mashg‘ulot va harakatlar usulini tanlash imkoniyati keskin kengaymoqda. Lekin, bir vaqtda, sanoatlashgan jamiyatning nisbatan erkin me‘yoriy tuzilmasi endi odamlarning hayotiy faoliyatini belgilamaydi. Hozirgi erkin bozor doirasi bilan tavsiflanuvchi jamiyatda anomiya «patologik» ko‘rinishdan deyarli axloq «me‘yori» bo‘lib qoldi. Dyurkgeymning fikricha, psixologik paradoks oshkor bo‘ladi: inson noaniqlik sharoitida, hamma uchun rasman bir xil bo‘lgan universal me‘yorlarga ega bo‘lgan amaldagi ochiq tizimdagidan ko‘ra mashg‘ulotlar tanlovi kam bo‘lgan va ijtimoiy o‘shish imkoniyatlari cheklangan qattiq yopiq tizimda o‘zini ko‘proq himoyalangan va erkin his qiladi. Shunday bo‘lsada, anomiyalarni zaiflashtirish yo‘li – an‘naviy ijtimoiy institutlarning patriarxal-repressiv tartibini sun‘iy qayta tiklashda emas, balki liberal «ma‘naviy individualizm»ning, o‘rta asrlardagi odamovilikdan ozod bo‘lgan, lekin o‘z zimmasiga axloqiy nazorat va jamiyat a‘zolarini davlat oldida himoya qilish vazifalarini bajarishga qodir bo‘lgan yangi malakali guruhlarining kelgusida rivojlanishidir.

Inson axloqining nazariyasi bilan bog‘liq anomiyaning dyurkgeymcha tushunchasi ikki jihatni o‘z ichiga oladi: biri harakatning ma‘lum maqsadlar bilan ta‘minlanishiga kirsa, boshqasi – ushbu maqsadlarni qay darajada amalga oshirish mumkinligiga kiradi (ular aniq, lekin ro‘yobga chiqarib bo‘lmaydigan bo‘lishi mumkin. Zamonaviy sotsiologiyada anomiya tushunchasini nazariy ravishda qo‘llashning ikki turli chizig‘i shundandir.

Muammoning birinchi jihatini, subyekt o‘z axloqi va harakatlarini jamiyatning ma‘naviy va axloqiy talablari bilan qay darajada moslashtirishini ko‘rib chiqadi. Shu bois subyekt axloqining bu ko‘rinishini «me‘yorsizlik» deb qabul qilinadi va uni izohlashda «begonalashtirish», «ijtimoiy dezintegratsiya», «sust darajada ijtimoiylashtirish» kabi iboralardan foydalanadilar.

"Madaniyatdagi me‘yor ziddiyatlari» shaklidagi ikkinchi jihatni amerikalik olim Merton ishlab chiqqan. Mertonning fikricha, anomiya – jamiyat qimmatli-me‘yoriy tizimining turli elementlari o‘rtasidagi madaniy ravishda belgilangan umumiy maqsadlar, masalan, pul va boyliklar hamda ularga erishishning qonuniy, institutsional vositalari

o'rtasidagi kelishmovchilik, ziddiyatlarning natijasidir. Anomiya – odamlar jamiyat a'zolari tomonidan zimmalariga yuklatilgan maqsadlarga o'rnatilgan «me'yoriy» vositalar orqali erisha olmaganda yuzaga keladi. Unda, hatto jamiyatda umumiy maqsadlar mavjud bo'lganda ham, ushbu maqsadlarga erishishning ijtimoiy maqullangan vositalariga hamma ham yeta olmaydi. Ayrim odamlar, yoki hatto ijtimoiy guruhlar uchun ular umuman erishib bo'lmaydigan vositalardir. Natijada odamlar anomiya holatida turli individual usullar bilan: konformizm bilan, yoxud maqsadlar yoki vositalarni, ba'zan unisini ham, bunisini ham birga rad etadigan deviant axloq bilan moslashadilar.

Boshqa yo'nalish A. Joli, A. Prins, F. Listning tadqiqotlari bilan bog'liq. Mualliflar, qator mamlakatlardagi jinoiy buzilishlarning statistik tahliliga tayangan holda shunday xulosaga keldilar, ya'ni har qanday ijtimoiy tuzum uning tashkillashtirilishidan vujudga keladigan jinoyatlarning ma'lum miqdori va tartibidan kelib chiqadi.

Masalan, List antropologik omillar ijtimoiy omillarning hosilasi ekanligini ko'rsatadi: ijtimoiy muhit avval jinoyatchining ota-onasiga, so'ngra uning rivojlanishiga va u tomonidan jinoyat sodir etilishi jarayonida uning o'ziga ta'sir ko'rsatadi. Listning hisoblashicha, shaxs va ijtimoiy guruh o'rtasidagi aloqalarning sustlashuvi kriminogen rol o'ynaydi. Uning rahbarligi ostida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, asosiy «jinoiy» deb ataluvchi tumanlar - ijtimoiy buzg'unchi tumanlardir. Delinkvent axloqning eng murakkab muammolari, muallifning fikriga ko'ra, aksariyat mamlakatlarda odamlar, shu jumladan jinoyatchilar ham osongina yo'qolishi mumkin bo'lgan katta shaharlar bilan bog'liq. Bu muammolar shaharlarning ko'payishi, aholining ko'chishi, shaharlar o'rtasidagi tafovutlar natijasida uzluksiz ravishda keskinlashadi. Zamonaviy turmushda bo'lib o'tayotgan ijtimoiy hayot an'analari, deb ta'kidlaydi muallif, shiddatli ijtimoiy o'zgarishlar va migratsion jarayonlar bilan sodir bo'ladigan rejasiz yashirin urbanizatsiya, shaharlar va shahar oldi tumanlarida aholining zichlashuviga olib keladi, delinkvent ko'rinishlarning ko'payishiga sabab bo'ladi. Qayd etib o'tilgan ijtimoiy-iqtisodiy omillar baxtli hayot ilinjida shaharga kelgan qishloqliklarda oilaviy munosabatlar zaiflashadi, nazorat va o'zini o'zi nazorat qilishning an'anaviy shakllari yo'qoladi. Odamlar o'zlari uchun g'aroyib madaniyat ko'rinishlari, shaharlik aholiga xos bo'lgan

begonalashish, hayot va turmushning besaranjomligi bilan to‘qnash keladi. Yirik shahar aglomeratsiyalari uchun xos mavjudlikning anonimligini ta’minlash imkoniyatini beruvchi sharoitlarda delikventlik keng tarqaladi.

Bu sababli, o‘z navbatida, qo‘rquv, yakkalanishning paydo bo‘lishi, xavfsizlik tuyg‘usining yo‘qolishiga, viktimizatsiyaga va delinkvent axloqning keng tarqalishiga olib keladi. Zero marginal shaxs yuqori darajadagi ijtimoiy zo‘riqishni boshidan kechiradi va atrofdagi ijtimoiy muhit bilan osongina ziddiyatga boradi.

Marginal shaxs - (lot. margo - oxir, chegara) – vaziyat taqozosi bilan o‘zini ajratib tashlayotgan hukmron guruhning oxirgi nuqtasiga kelib qolgan individ. Natijada marginal shaxs o‘z madaniy qadriyatlarini «yo‘qotadi» va uning uchun «yangi» bo‘lgan jamiyatning qadriyatlari bilan to‘liq tenglasha olmaydi, bu esa uni deviatsiyaga, passivlikka, tajovuzkorlikka, buzuqlik va hokazolarga olib keladi¹.

Mualliflarning fikricha, uning aniq mamlakatdagi o‘lchamini belgilovchi o‘ziga xos «jinoyatchilikka to‘yinish qonuni» mavjuddir. Bu holda, jinoyatchilikning mavjud bo‘lishi, agar u hozircha har bir ijtimoiy tur uchun belgilangan darajadan oshmasa, to‘g‘ri holatdir, ya’ni «jinoyatchilikning mavjudligi - me’yor, uning o‘sishi - nuqson».

Sotsiologik nazariyaning asosiy kamchiligi uning jamiyat rivojlanishidagi noqulay ijtimoiy omillar rolining bo‘rttirib yuborilishidir. Faqat ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblik va anomaliyagina fuqarolar psixologiyasini kriminallashtirishi to‘g‘risidagi fikrlar, mohiyatiga ko‘ra, jinoyatchilarning ichki erkinligi va axloqiy tanlovdagi mustaqilligini yerga uradi. Bu holda, demak ularni javobgarlikka tortish uchun asos bo‘lmaydi, zero ular biologik yoki ijtimoiy ta’sirlarning g‘ayriixtiyoriy ro‘yobga chiqaruvchilari bo‘lib qoladi. Shu bilan birga, ularga nisbatan profilaktik ta’sir choralari yetarli darajada asoslanmagan. Chunki potensial va real jinoyatchilar uchun iqtisodiyotda, turmushda, bo‘sh vaqtini o‘tkazish va faollikning boshqa sohalarida qulay hayotiy sharoitlar yaratib berish jinoyatlar miqdorining kamayishida asosiy holat hisoblanadi.

3. Kriminogen yondashuv. Kriminogen yondashuvda alohida e’tibor subyektning jinoiy qilmish sodir qilish niyati shakllanishining

¹ Большой психологический словарь / Сост. Мещеряков Б., Зинченко В. – Олма-пресс. 2004.

individual xususiyatlarini tizimlashtirish yoki jinoiy faoliyatni sistematik ravishda amalga oshirishda bunday niyatga koʻmaklashishni oʻrganishga qaratiladi. Shu asosda shaxs kriminogenligining umumiy turlari qatorini ajratish mumkin.

Birinchi tur jinoiy qilmishni sodir qilishga tayyorgarlik predmeti nafaqat olinayotgan natija, balki sezilarli darajada jinoiy harakatlar sodir qilinishi jarayonining maʼlum jinoiy ehtiyoj mavjudligiga asoslanishi bilan tavsiflanadi. Ushbu ehtiyoj (jinoiy mayl) tashqi shart-sharoitlardan qatʼi nazar, faollashishi va jinoiy tajovuz sodir etish uchun obyekt va imkoniyatlar izlashga undashi mumkin. Jinoiy mayl kishining axloqida koʻpincha hukmron xarakterga ega boʻladi, uning boshqa intilishlarini soʻndiradi. Bunday turdagi yengish mushkul boʻlgan mayl, aqli rasolikni istisno etmaydigan, mayllar nuqsoniga kiritiladigan ruhiy anomaliyani namoyon qiladi. Jinoiy mayl ixtiyoriga koʻra jinoiy harakatlar sodir qila turib, jinoyatchi bunda qoniqmaslik tuygʻusining anglab boʻlmaydigan kompensatsiyasini (badalini), ichki zoʻriqishning boʻshashishini topadi, zoʻrlik, oʻgʻrilik, buzgʻunchilik va boshqa jinoyatlarni sodir qilish jarayonidan qoniqish, qiziqish tuygʻusi va oʻzi uchun ijobiy deb hisoblaydigan boshqa holatlarni boshidan kechiradi.

Jinoyatchi shaxs kriminogenligining ikkinchi turi - ayrim ehtiyojlarni qondirish yoki muammoli vaziyatni qonuniyga nisbatan afzalroq ravishda hal etishning jinoiy usullarini subyektiv ravishda qarama-qarshiliklarsiz oʻzlashtirishda ifodalanadi. Shaxsning kriminogen potensiyasi (yashirin imkoniyati), shaxsning boshidanoq harakatlarning jinoiy usuliga berilganligi, uning oldida prinsipial tanlov masalasi turmasligida ifodalanadi. Ehtiyojlarni jinoiy usul bilan qondirishning bunday azaliy maqbulligi unga boʻlgan koʻp uchraydigan ijobiy munosabat, uning oʻzlashtirilganligi, qoʻllashning odatiyliigi, «qulay» natijaga boʻlgan ishonchi, javobgarlikdan qochishi bilan belgilanadi.

Jinoyatchi shaxs kriminogenligining uchinchi turi - delinkvent nafaqat jinoiy usul bilan shaxsiy-qimmatli natija olish imkoniyatini, balki maksimal darajada xavfsizligini taʼminlovchi qulay sharoitlar boʻlgandagina maʼlum ehtiyojlarni qondirishning jinoiy usulini oʻzlashtirishi bilan ifodalanadi. Jinoiy maqsad va usulni oʻzlashtirish uni roʻyobga chiqarishning yuzaga kelgan oʻta qulay imkoniyatiga javob xususiyatiga ega.

Jinoyatchi shaxsning kriminogen potentsiyasining to'rtinchi turi – jinoiy harakatlar usulini majburiy, ichki qarama-qarshiliklar bilan o'zlashtirishda namoyon bo'ladi. Bu subyekt ehtiyojlarini qondirishning qonuniy usuli real imkoniyati tarzida mavjud emas va bu ehtiyojni qondirmasdan qoldirish mumkin emas deb hisoblaganda sodir bo'ladi. Mazkur holatda jinoiy harakatlar usulining faqat majbur qiluvchi holatlar, subyektiv tomondan ilojsiz holat tufayliga ma'qulligi ifodalanadi.

Beshinchi tur – ba'zi bir holatlardan ta'sirlanuvchanlik shaklida namoyon bo'ladigan g'ayriqonuniy harakatlarni beixtiyor sodir etishga moyillik bilan tavsiflanadi. Bu g'ayriixtiyoriy ta'sirchanlik ziddiyatli vaziyatda yoki haqoratga javob sifatida tajovuzkorona «chaqnash»da va jabrlanuvchiga tan jarohatlari yetkazishda aks etishi mumkin. Bunday axloqning psixologik jihatlari jinoiy xulq yo'nalishi va stereotiplari mavjudligida ifodalanadi.

Jinoyatchi shaxs kriminogenligining oltinchi turi – jinoiy usulni o'zga shaxslarning tashqi kriminogen bosimining hal qiluvchi ta'siri ostida, yoxud u bilan o'z axloqini identifikatsiyalashga tayyorligini shart qilib qo'ygan guruhdagi uning konform axloqi natijasida o'zlashtirishda namoyon bo'ladi. Mazkur turda shaxsning antikriminal bardoshi mavjud bo'lmaydi. Bu guruhda o'z o'rnini belgilash layoqatining rivojlanmaganligi, ularga bo'lgan salbiy munosabatiga qaramay, g'ayriqonuniy harakatlarni sodir etishga qarshilik qilish uchun jur'atsizligi tufayli boshqa shaxslarning ta'siriga ko'nuvchanligi bilan ifodalanadi.

Mazkur yondashuv asosida rus olimi V.M. Kudryavsev endi klassik bo'lib qolgan jinoiy axloqning «vaziyat - shaxs - jinoiy axloq» tizimida bog'liqligi sxemasini «ijtimoiy ehtiyojlar – ehtiyojlarni qondirishning ijtimoiy imkoniyatlari - jinoyatchilik» sxemasiga o'zgartirdi. Shunga ko'ra, u shaxs va jinoyat o'rtasidagi bevosita aloqa o'rniga shaxslarning ijtimoiy ma'qul yoki ijtimoiy xavfli determinantlar shakllanishi ehtimoli bo'lgan butun ijtimoiy aloqalari tizimini ko'rib chiqish taklifini berdi. Demak, jinoiy axloqning ijtimoiy determinatsiyasida uni ifodalashning uchta mexanizmi ajralib chiqadi:

- 1) shaxsning ma'lum ijtimoiy shakllanishi;
- 2) unga noqonuniy yoki qarama-qarshi xarakterda bo'lgan ko'rsatmalar berish;

3) shaxsni axloqning jinoiy variantini tanlashga majbur qiluvchi va yengillashtiruvchi vaziyatga solib qo'yish.

4. Ijtimoiy-psixologik yondashuv. Delikvent muhitni xarakterlovchi mazkur yondashuvning muhim tushunchasi jinoiy kriminal submadaniyat ta'rifi hisoblanadi.

Jinoiy submadaniyat - jamiyatning cheklangan qismiga, jinoiy yo'nalishdagi fuqarolarga nisbatan bo'lgan ma'naviy hayotdir. Jinoiy submadaniyat huquqbuzarlarni birlashtiradi, ularning axloqini tartibga soluvchi sifatida chiqadi. Lekin uning asosiy xavfi shundaki, u jamiyat ongini buzib ko'rsatadi, jinoiy tajribani boshqa shaklga aylantiradi, aholining odamoxunligini zaiflashtiradi, yoshlarni ijtimoiylashtirish jarayonini susaytiradi, ma'lum huquqiy me'yorlarni buzishning (masalan, soliq to'lashdan bo'yin tovlash) maqsadga muvofiqligi to'g'risida jamoatchilik fikrini shakllantiradi, ayrim toifadagi jinoyatchilarning ijobiy qiyofasini yaratadi, aksincha, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yordam beruvchi fuqarolarni qoralaydi. Boshqacha aytganda, bu jihatdan jinoiy submadaniyat umumiylikni, avvalambor, yoshlar muhitini kriminallashtirishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Submadaniyatning markaziy elementi kriminal psixologiya, ya'ni jinoiy hayot tarzi va huquqbuzarlik sodir etilishini oqlovchi va rag'batlantiruvchi odamlar ongida yozilmagan ijtimoiy qadriyatlar va tasavvurlar tizimi hisoblanadi.

Submadaniyatning boshqa eng muhim elementi – bu axloqning kriminal me'yorlari (qoidalari)dir, ular jinoiy hamjamiyatning, uning a'zolarining ijtimoiy maqomi va huquqlari; huquqni muhofaza qiluvchi organlar va axloq tuzatish muassasalari ma'muriyatiga munosabati; ozodlikdan mahrum etish joylaridagi va turmushdagi xulqi; mehnatga munosabati; shaxslararo ziddiyatlarni hal qilish tartibi; jinoiy hamjamiyatga yangi a'zolarini qabul qilish («propiska»qilish) marosimlari; «yig'ilish»lar qilish tartibi va «qonundagi o'g'rilar»ga toj kiydirish va hokazolardan iborat butun hayot faoliyati doirasini boshqaradi.

Stratifikatsiya, ya'ni odamlarni jinoiy muhitdagi real hokimiyatga nisbatan ularning obro'-e'tiboridan kelib chiqqan holda shartli iyerarxik guruhlariga ajratish jinoiy submadaniyatning o'ziga xos elementidir. Jinoiy submadaniyatning boshqa bir o'ziga xos elementi sifatida jinoiy muloqot, xususan, jargon (jinoiy til), laqablar, tatuirovkalar kabi vositalarni keltirish mumkin.

Rus psixologi V.L.Vasilyev jinoyatchilarning turli toifalarini tadqiq qilib, yaqin muhitning salbiy ta'siri, ularni ijtimoiylashtirish darajasining pastligi va egotsentrizmni ta'kidlab o'tadi. Masalan, 85 % ga yaqin shaxsga qarshi jinoyatlar, jabrlanuvchilar bilan ish bo'yicha, qarindoshlik, shaxsiy va boshqa yaqin aloqalar bilan bog'liq shaxslar tomonidan sodir etiladi, ya'ni jinoyat munosabatlar keskinlashuvi oqibatida yuzaga kelgan ziddiyatning yakunlovchi bosqichi hisoblanadi. Muallif og'uvchi axloqni va delikventlarni o'rganish uchun mazkur shaxs a'zosi bo'lgan ijtimoiy guruhlar bilan chuqur tanishuvni qo'llash zarur deb hisoblaydi. Uning fikricha, delinkventning eng yaqin muhitida qo'llanilayotgan o'zaro munosabatlar tuzilmasini o'rganish, u a'zosi bo'lgan ijtimoiy guruhning ruhiyatini bilish shaxs va jamiyatning, individual va jinoyatga moyil ong o'rtasidagi aloqalarni ochish uchun zarurdir.

Boshqa psixolog S.V.Kudryavsev – delinkvent axloqning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni tahlil qiladi. U mazkur omillarga ijtimoiy kayfiyat, axloq me'yorlari va stereotiplari, guruhiy bosim va guruhiy birdamlik mexanizmlarini, shuningdek, shaxslararo o'zaro munosabatlar mexanizmini, shaxsda psixologik jarayonlarning shakllanishi, guruhiy va ijtimoiy maqomni qo'lga kiritishni yoki mahalliy an'analar va udumlarni kiritadi. Mutaxassislarning vazifasi, S.V. Kudryavsevning fikrcha, ijtimoiy-psixologik jarayonlarning sifatli o'zgarishlarini ochib berish va ular qanday modifikatsiyalarda jinoiy axloqni paydo qiluvchi omillar bo'lib qolishini ko'rsatishdan iboratdir. Buning uchun bu ko'rinishlarni darajasi bo'yicha ommaviy, guruhiy va individual (yakka tartibda) tizimlashtirish zarur. Bundan tashqari, u qayd etilgan jarayonlarni barqaror yoki ijtimoiy shart-sharoitlar o'zgarishiga qarab kam o'zgaradigan va kishining labil xususiyati bevosita bu sharoitlarga bog'liq bo'lgan jarayonlarga ajratishni taklif etadi. Bunday holda, shakllanishda va bevosita delinkvent shaxslarni hosil qilishda nafaqat turli darajaga, balki turli dinamik xarakteristikalar va tashqi muhit shart-sharoitlari bilan o'zaro aloqada bo'lgan ijtimoiy-psixologik omillar ishtirok etadi. Vaziyatli yo'l-yo'riqlar, sekin-asta shaxs va guruh tuzilmalarida, omma ongida mustahkamlanib borib, uzoq muddatli hosilalar xususiyatlarini o'zida kasb etadi, ya'ni labil jarayonlar barqaror jarayonga aylanadi.

5. Shaxsiyatli yondashuv. Har qanday tashqi holat, agar u irodaviy axloqiy layoqatga ega bo'lgan kishining o'z xohish-irodasi bo'lmasa, uning g'ayriqonuniy harakatlarining bevosita sababchisi bo'la olmasligi to'g'risidagi ta'limot mazkur yondashuvning metodologik asosi bo'lib hisoblanadi. Mazkur yondashuv asosida jinoyatchi shaxsning «jinoyat sodir etgan kishiga xos bo'lgan, boshqa omillar bilan birgalikda ijtimoiy xavfli axloqqa sababchi bo'luvchi psixologik sifatlarning yig'indisi» kabi xususiyatlarini tadqiq qilish yotadi. Jinoyat sodir etishning asosiy psixologik jihati sifatida mualliflar, birinchi navbatda, jinoyatchi shaxsning huquqini tanish tuzilmasidagi o'zgarishlarni ko'rib chiqadilar.

Huquqini tanish «inson axloqini yuridik ahamiyatga molik vaziyatlarda tartibga soluvchi yuridik bilimlar shaklidagi huquqiy borliq, huquq va uni qo'llash amaliyotidagi baholovchi munosabatlar, huquqiy yo'l-yo'riqlar va muloqotlarda aks etuvchi ijtimoiy, guruhiy va individual ong doirasi sifatida tushuniladi. Jinoyatchida huquqini tanish tuzilmasidagi o'zgarishlar hayotni fatalistlaracha va salbiy baholash, o'zini boshqarish ehtiyojining pasayishi, iste'molchilik va tayyorga ayyorlik nuqtai nazariga moslashish, shaxslararo munosabatlarni buzish, hayot, sog'lik, jinsiy daxlsizlik va inson qadr-qimmatini kabi qadriyatlarni o'zlashtirmaslik ko'rinishidagi xulqiy-psixologik axloq boshqaruvchilarini buzib ko'rsatishda namoyon bo'ladi.

A.R. Ratinov va G.X. Yefremova tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jinoyatchilarning huquqiy qadriyatlarga munosabati ularning shaxsiy g'ayriqonuniy axloqiga bergan bahosidan jiddiy farq qiladi. Jinoyatchi uchun umum e'tirof etilgan axloq me'yorlarini rad etish, ularga bo'lib berilayotgan qimmatli yo'riqlarning salbiy xarakteri o'ziga xos shaxsiy xususiyat bo'lib qoladi. Bunday odam o'zining umidlari, istaklari va amaldagi ijtimoiy me'yorlari o'rtasidagi uzilishni his qiladi, yakka qolish, boshqalarning ishiga aloqador bo'lmaslik tuyg'usini boshdan kechiradi. Bu esa axloqni tartibga soluvchi me'yorlarni o'zlashtirishga to'sqinlik qiladi. O'z nuqtai nazarini oqlash maqsadida jinoyatga moyil shaxs psixologik himoyani qo'llaydi, unda mas'uliyatning asosiy qismi boshqa shaxslarning zimmasiga yoki tashqi holatlarga yuklanadi.

Eng ko'p tarqalgan delikvent shaxsning psixologik jihatdan o'zini o'zi himoya qilish usullari orasida tadqiqotchilar quyidagilarni belgilaydilar:

- o'zini go'yoki g'ayriqonuniy harakatlar sodir etishga sababchi sifatida majbur qilish, tobelik, munofiqlik, aldov va o'z xatolari hamda gumrohligining qurboni deb faraz qilish;

- jinoiy vaziyat yuz berganligi uchun uni subyektning shaxsiy faolligi natijasi emas, balki mash'um voqealarning bir-biriga to'g'ri kelib qolishi degan vaj bilan javobgarlikni istisno qilish;

- jinoiy vaziyat haqidagi tasavvurlarning buzib ko'rsatilishi, xususan bir elementning ahamiyatini bo'rttirish va boshqalarini kamaytirish, go'yo tegishli me'yor va sanksiyalar qo'llashni istisno qiladi, alohida holatlarning joyi, vaqti va ishtirok etayotgan shaxslarning roli bo'yicha siljishi sodir bo'ladi;

- buzilgan taqiqlarning rasmiyligiga, bunday harakatlarning odatiyligiga ishontirish, shu sababli, ularga yo'l qo'yilishi mumkin deb baholanadi;

- huquqiy qadriyatlarning devalvatsiyasi, qurbonining qadrsizlanishini va bu bilan zararli oqibatlar va qilmishning ijtimoiy xavfini tan olmaslik;

- jinoyat sodir qilishda o'z rolini kamaytirish va bo'rttirish, o'z axloqini ulug'vor dunyoda boshqa odamlarga yordam, adolatni himoya qilish va hokazolar ko'rinishida tasavvur qilish;

- axloqning asl xohishlari va qadriyatlarini almashtirish hamda yaxshilash, buning natijasida qilmish kechirimli va hatto qonuniy bo'lib ko'rinadi;

- refleksiv qobiliyatlarning, oldindan ko'ra bilish va o'zini nazorat qilish imkoniyatining pasayishi, bu bilan shaxsning «ozod bo'lishi»ga, me'yoriy cheklashlardan ichki ozod bo'lishga erishiladi;

- o'zining harakatlari uchun muhit, jamiyat mas'ul, nomaqbul hayot sharoitlarini esa aybdor bo'lgan tashqi ta'sirlarning passiv obyekt sifatida ko'rish, bu esa go'yo noqonuniy harakatlar tarzini namoyon etadi;

- shaxsiy sifatlar qiymatining gipertrofiyasi, subyektning me'yoriy doira va odatiy yurisdiksiyadan tashqari qo'yishi va o'zini yagona deb his qilishi.

Psixologik o'zini himoya qilishning mazmuni va shakllari shaxsning rivojlanishi, uning axloqiy va huquqiy yo'nalishlarining umumiy darajasiga ko'ra jiddiy farq qilishi mumkin. Bu jinoyatchi tomonidan borliqni idrok qilishning proyektiv buzib ko'rsatilishiga va unda biri boshqa shaxslarning axloqini baholashga, ikkinchisi esa

shaxsiy axloqini ba holashga mo'ljallangan ikki baholash tizimining shakllanishiga olib keladi. Proyektiv buzib ko'rsatish oqibatida delikvent shaxsning huquqiy jihatdan o'ziga baho berishi jiddiy farq qiladi, unga nisbatan past va hatto qarama-qarshi bo'ladi. U ruhiy o'zini himoya qilish va javobgarlikdan ichki ozod bo'lish mexanizmiga asoslangan bo'lib, shu sababli huquqbuzarning ijtimoiy-huquqiy nazoratdan begonalashishi, ushbu nazoratning zaiflashishi va sodir etilgan qilmishlarda o'zini oqlashi sodir bo'ladi.

Masalan, g'arazgo'y jinoyatchilar aksariyat hollarda (63 %) jinoyat sodir etilishi holatini hech qanday axloqiy baholashsiz va tushuntirishsiz rasmiy konstatatsiya (qayd etish) qilish bilan cheklanadilar, tajovuzkor-zo'ravon jinoyatchilar taktikasi esa umuman boshqacha. Ular birinchi navbatda, ro'y bergan hodisada jabrlanuvchi yoki boshqa shaxslarni ayblaydilar (87 %) qotillar va bezorilar (52 %) haqida ham shunday deyish mumkin. Ular o'z aybini rad etishning iloji bo'lmagan hollarda aybni «taqdir»ga, ota-onalar va pedagoglarning xatolariga to'nkaydilar. O'zini himoya qilishning ruhiy mexanizmlari haqida so'z yurita turib, biz o'zini va o'z harakatlarini reabilitatsiya qilish usullarini ongli ravishda qidirib topishni emas, balki borliqning buzib ko'rsatilgan qiyofasini shakllantiruvchi ongsiz yoki to'liq anglab olinmaydigan an'analarni nazarda tutamiz. Ko'proq jinoyatchilar tomonidan qo'llaniladigan asosiy himoya mexanizmlarini maxsus tadqiq qilish YE.S. Romanova va L.R. Grebennikov tomonidan amalga oshirilgan¹.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jinoyatchilar ko'proq proyeksiya, rad etish, bostirish, o'rnini bosish kabi qoloq bo'lgan himoya mexanizmlarini qo'llaydilar. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, qoloq himoya mexanizmlarini qo'llash tadqiq qilinayotganlarda juda past darajadagi anglash layoqati mavjudligini va aksincha, voqelikning ma'lum jihatlarini tushunishdagi buzib ko'rsatishning favqulodda katta darajasi borligini bildiradi. Chunki himoya mexanizmlarini qo'llash voqelik qiyofasi va subyektning kognitiv hamda his-hayajonli tarkibiy qismlarini buzib ko'rsatishning individual usuli hisoblanadi, bu delikvent shaxsning axloqida o'z aksini topadi. Bu uning himoyaviy-

¹ Qarang: *Романова Е.С., Гребенников Л.Р. Механизмы психологической защиты: генезис, функционирование, диагностика.* — Мытищи, 1996. — 91 с.

tajovuzkorona, deviant, tobe yoki patologik xarakteridan darak beradi. Ushbu voqelik ziddiyatga, jamiyat tomonidan ma'qullanmasligiga va turli shakldagi ta'sirlarga olib keladi. Natijada voqelik shaxs uchun yanada noma'qul bo'lishi mumkin, bu esa ichki ziddiyat bilan tahdid qiladi va himoya vazifasining patologiyasiga olib keladi. Bu jinoyatchilar tomonidan qo'llaniluvchi himoya mexanizmlarining xususiyatlari mohiyatiga ko'ra, taxmin qilingan og'uvchi axloqning mazkur turi xos bo'lgan shaxslarning psixologik va xulqiy tavsifiga mos keladi.

Shaxsiy yondashuv doirasidagi tahlilning boshqa yo'nalishi huquqbuzarlik sodir etilishiga yordam beruvchi individual-psixologik sifatlarni ajratish hisoblanadi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, jinoyatchilar qonunga rioya qiluvchi fuqarolardan his-hayajonli-irodali muhitining muayyan darajada buzilganligi va shaxsning axloqiy-psixologik og'ishlari (deformatsiyalari) bilan ajralib turadilar. YE.V. Petuxovning fikricha, «aksariyat jinoyatchilarning noqonuniy qilmishlariga ularning yuqori qo'zg'aluvchanligi va ta'sirlanuvchanligi» sustlashgan axloqning o'zini nazorat qilishi va xulqning o'zgarishligi yordam beradi. Ularning axloqiy-psixologik yo'nalishi o'ch olish va sudsiz jazolashga tayanish, atrofdagilarni o'ziga bo'ysundirib, ulardan jismoniy jihatdan ustun ekanligidan foydalanish va shu kabilarga go'yo ma'naviy huquqi bo'lgandek nohaq ranjirilganlarning tuyg'usini jo'nbushga keltirib atrofdagi olamning dushmanligi to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirishga qaratiladi.

Shaxsiy yondashuv doirasida jinoyatchi shaxsni tadqiq qilishning ideografik usulini ajratish mumkin. Mazkur usul negizida oldin ushbu shaxs bo'yicha to'plangan barcha materiallar bilan batafsil tanishib chiqqan holda suhbat o'tkazish va proyektiv testdan o'tkazish kabi psixologik usullar yordamida jinoiy axloq sabablarini chuqur o'rganish yotadi. Bunday o'rganish, mualliflarning fikricha, dunyoni o'zlashtirishning xususiyatlari, ehtiyojlari va manfaatlari, tuyg'uli-hissiyotli doira haqida, asosiy motivatsion an'analar, ongsiz yoki qisman anglanadigan xarakter xislatlari, qimmatli yo'nalishlar va yo'l-yo'riqlar, shaxsning yo'nalishi, uning turi to'g'risidagi tasavvurlarni olish imkonini beradi. Bu usul tarafdorlari «bunday yondashuv kishining hayot yo'lini kuzatish va tushunish, uning hayotiy tajribasini baholash, ijtimoiy roli va maqomini, tarbiyasi va shaxsining shakllanishi shart-sharoitlarini, boshqa odamlar bilan muloqot qilish va

o‘zaro munosabatning o‘ziga xosligini aniqlash imkonini beradi» deb hisoblaydilar. Aniq bir odam to‘g‘risidagi chuqur psixologik bilimlar, olimlarning fikriga ko‘ra, sotsiologik so‘rovning an’anaviy usullari bilan olinishi mumkin emas. Tadqiqotchi uchun so‘ralayotgan shaxs ni o‘rganishga ishonch hosil qilish uchun o‘zini uning o‘rniga qo‘yish, uni va u yashab o‘tgan hayotni tushunish maqsadida uning obrazi ichiga kirish mahoratini talab qiladi. Mualliflar «jinoyatchida tergov yoki sud materiallaridagi uning mavjud rangpar va siyqalashgan aksini emas, balki «jonli», o‘ylayotgan, his qilayotgan, jon kuydirayotgan shaxsni ko‘rishga» e’tibor berishga undaydilar.

Jinoyatchi hayotini tarixiy tahlil qilishning boshlang‘ich obykti sifatida YE.G.Samovichev uning oilasi tuzilmasini va subyektning otasi va onasi bilan munosabatining xususiyatlarini tanlashni taklif etadi. Bola shaxsiyatining shakllanishida bu shaxslarning ahamiyati qator empirik tadqiqotlar bilan tasdiqlanadi. Masalan, L.A.Voloshina keltirgan ma’lumotlarga ko‘ra, tajovuzkor-zo‘ravon jinoyatchilarning oilasida bolalar g‘arazgo‘y jinoyatchilarning oilalaridan ko‘ra o‘zlariga nisbatan 7 marta ko‘p befarqlikni his qilganlar, ular bilan mashaqqat chekishayotganini tushunishgan, ularni deyarli ikki marta ko‘p ortiqcha nazorat qilishgan, ularni o‘z istaklariga bo‘ysunishga majbur qilishgan va jazolashgan. Har beshinchi tajovuzkor-zo‘ravon jinoyatchi (21,6 %) onasiga befarq yoxud unga salbiy munosabatda bo‘lgan. Aksariyat tajovuzkor-zo‘ravon jinoyatchilar ota-onalari ularni bolaligida jismoniy jazoga tortganlar, bunda 40% dan ko‘prog‘i ularni ba’zi- ba’zan yoki doimiy ravishda kaltaklashganini, 20 % ga yaqini esa - qattiq kaltaklashganini tan oladi.

6. Motivatsion-patologik yondashuv. Mazkur yondashuv mualliflari jinoiy yo‘nalish, avvalambor, shaxsning qarashlari, manfaatlari va qadriyatlari o‘zgarishiga olib keluvchi kishining motivatsion muhiti o‘zgarishlari natijasida namoyon bo‘ladi, deb hisoblaydilar. Bunda delikvent shaxsda nafaqat ehtiyojlar mazmuni va sabablari, balki ularning tuzilishi ham o‘zgaradi, kamroq ifodalangan bo‘lib qoladi. Motivatsion muhitning bunday o‘zgarishlari natijasida delikvent shaxs ta’sirchan bo‘lib, uning patologiyasini shakllantiruvchi mayllar xarakterini oluvchi ehtiyojlari hukmronligi ostida qoladi. B.V.Zeygar-nikning nazariy qoidalari va shaxsiy empirik tadqiqot materiallaridan foydalangan holda, YU.M.Antonyan va V.V.Guldan jinoyat motivlari tasnifini ishlab chiqdilar, bunda shaxs yoki faoliyatning ma’lum bir

patologiyasi ularning shakllanish shart-sharoiti sifatida namoyon bo'ladi.

Affektogen motivlar ko'proq psixopatik anomaliyali huquqbuzarlarda kuzatiladi. Bu mazkur jinoyatchilarning hissiy ta'sirchanligining o'ziga xosligi, yuqori qo'zg'aluvchanligi, ularni yumshatish ko'pincha shafqatsizlik, tajovuzkorlik, jaholat bilan ajralib turuvchi harakatlarga olib keluvchi affektiv tashvishlarning tiqilib qolishi bilan asoslanadi. Bunday harakatlarni sodir etish imkoniyati yo'qligini his qilgan holda, xafa qilgan shaxsga nisbatan zudlik bilan qarshi harakatlar zarurligini subyektiv ravishda sezish affektiv reaksiya yuzaga kelishining zaruriy sharti hisoblanadi.

Vaziyatli-impulsiv sabablar mavjud ijtimoiy me'yorlar, avvalgi tajribalar, tashqi ahvol, o'z harakatlari orqasida yuz berishi mumkin bo'lgan oqibatlarni hisobga olmagan holda dolzarb ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq. Subyektlardagi g'ayriqonuniy harakatlarining vaziyatli-impulsiv sabablarining yuzaga kelishi va ro'yobga chiqishi ularning xulqini boshqarishning o'tmishdagi tajriba, o'z harakatlarining bashorati va kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlari natijasida buzilishiga asoslanadi.

Anetik sabablar ma'naviy-etik va huquqiy me'yorlarga, ya'ni axloqni tartibga solishning eng yuqori darajasida faoliyat vositachiligining buzilishini bildiradi. Mazkur sabablarga ko'ra sodir etilayotgan ko'pgina jinoyatlar, masalan, odam o'ldirish, unga tayyorgarlik ko'rish va kelgusida izlarni yashirish bilan amalga oshirishning turli bosqichlarida barcha harakatlar va operatsiyalar o'ylangan hamda puxta rejalashtirilgan xususiyatga ega bo'ladi.

«*Surrogat*» *sabablar* biologik o'xshash bo'lmagan yoki mavjud ijtimoiy me'yorlar tomonidan taqiqlanadigan, jinoyatchi uchun qo'zg'atuvchi va mazmun hosil qiluvchi funksiyaga ega bo'lgan: jinsiy perversiyalar, nekrofil, gomoseksual axloq, pedofil, piromaniya (olov yoqishga moyillik), dromomaniya (daydilikka moyillik) va hokazo obyektlarda ehtiyojlarni ro'yobga chiqarish bo'yicha jinoiy harakatlarni bajarish bilan aloqadordir.

Psixopatik xulq – shaxsning ma'lum xislatlari, masalan, ro'yobga chiqarishga intilish axloqning sababi hisoblanib, tajovuzkorlik yoki gumonsirashni qo'zg'atuvchi kuchga ega bo'ladi.

Suggestiv sabablar – guruh rahnamolari suggestiv obro'e'tiborining ishontiruvchi ta'siri yoki guruh ichidagi axloqiy muhit dinamikasi bilan belgilanadi.

Tushunilmagan sabablar – bu mazmuni tushunarsiz yoki noaniq bo‘lgan g‘ayriqonuniy harakatlarning sabablari bo‘lib, ularni qo‘zg‘atuvchi asos bolalik paytida shakllanadi va ruhiyatning tubida yotadi, jinoiy axloq esa «o‘rnini bosish» xarakteriga ega bo‘ladi.

Shunday qilib, psixologiyada mavjud bo‘lgan delikvent shaxsning o‘rganishga yondashuvlarni ko‘rib chiqishda har biri tadqiqotdagi muammoli sohani yoritadigan determinatsiyalovchi belgilarning tahlili va tavsifini turli darajalarga ajratish mumkin. Fikrimizcha, delinkvent axloq shakllanishi qonuniyatlarini yanada to‘liq tahlil qilish va jinoyatchi shaxsining psixologik xususiyatlarini ochish uchun ko‘rib chiqilayotgan muammoning imkon qadar barcha jihatlariga kompleks yondashuvni amalga oshirish zarur. Ushbu masalada shaxsning jinoiy axloqni keltirib chiqaruvchi va bunga moyilligi bo‘lgan shaxslarni huquqiy me‘yorlarga rioya etuvchi odamlardan farqlaydigan hech qanday yaxlit (va yagona) xususiyati yo‘qligi haqidagi holat belgilovchi hisoblanadi. Jinoyatchilar va jinoyatchi bo‘lmaganlarni bitta qandaydir xususiyat yoki uning miqdori emas, balki ularning sifat jihatdan takrorlanmaydigan uyg‘unligi va alohida «solishtirma og‘irligi», ya‘ni hozircha yetarli darajada o‘rganilmagan xarakter tizimiga ega bo‘lgan shaxsiy xususiyatlar kompleksi qat’iy ravishda ajratib turadi. Jinoiy axloqning genezisi shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishlar yoki harakatsizlik shaklidagi xulqiy harakatga psixologik jihatdan tayyorligi holatining shakllanishidan iborat. Bu tayyorlikning shakllanishi jarayonida shaxs o‘ziga xos ravishda tashqi shart-sharoitlarni o‘zlashtiradi va baholaydi. Buning uchun shaxsan xos bo‘lgan xohishlarni (sabablarni) fikridan o‘tkazadi, harakatning qulay usullari va maqsadini belgilaydi. Ko‘zlangan maqsadga shaxsning o‘zini namoyon qiluvchi bilim, mahorat va qobiliyatlari tufayli erishiladi. Shunday qilib, shaxsning jinoiy axloqi xususiyatlarining vujudga kelishi jarayoniga axloqning tashqi shart-sharoitlarini o‘zlashtirishi, sabablar paydo bo‘lishi, maqsadni ko‘zlashi va ijro boshqaruvi sabab bo‘ladi.

Noijtimoiy axloq subyekti sifatida jinoyatchi shaxsining ruhiyatini ochishda uning psixologik xususiyatlarini o‘rganishga kompleksli yondashuv talab qilinadi. Bu yondashuv shaxsning qaysi psixologik xususiyatlari jinoiy axloq vujudga kelishida rol o‘ynashi to‘g‘risidagi ilmiy asoslangan xulosalarga tayanish lozim, ya‘ni jinoyatchi shaxsining kriminogenligi mohiyatini ifodalovchi psixologik tuzilma modelini yaratish zarur.

Tadqiqotchilar jinoyatchi shaxsining psixologik tuzilmasiga quyidagilarni kiritadilar:

- ehtiyojli-motivatsion muhitning xususiyatlari (ehtiyotlar, manfaatlar, turg'un sabablar va boshqalar);
- qimmatli-me'yoriy muhit xususiyatlari (qarashlar, e'tiqod, qimmatli orientatsiyalar, yo'l-yo'riqlar);
- intellektual xususiyatlar (aqliy rivojlanish darajasi, fikrlashning o'ziga xosligi va boshqalar);
- jinoiy axloq uchun ahamiyatli bo'lgan tajribani ifodalovchi xususiyatlar (bilim, mahorat, malaka, qobiliyat);
- his-hayajonli, irodaviy xususiyatlar, mizoj.

Bunday holda, delikvent shaxsning turli toifalari orasida shaxsning ko'p jihatdan jinoiy yo'nalishlarini belgilab beruvchi aniq psixologik xususiyatlarga ega bo'lgan jinoyatga moyil alohida turini ajratish mumkin.

Shaxsning psixologik xususiyatlari (shaxsiy xususiyatlari) deganda, ta'sirchanlikning oddiy shakllari va axloqning adaptiv mexanizmlarini belgilovchi individual sifatning nisbatan barqaror yig'indisini, o'zi haqidagi tasavvurlar tizimini, shaxslararo munosabatlari va ijtimoiy o'zaro munosabatlarining xarakterini tushuniladi. Boshqacha aytganda, bu shaxsning jamiyatdagi aktiv faoliyatini ta'minlovchi nisbatan barqaror va betakror tuzilmani ifoda etuvchi ichki komponentidir.

2-§. Agressiv xulq-atvor

Tajovuzkor-zo'ravon jinoyatchilar. Ushbu toifadagi jinoyatchilarning asosiy psixologik xususiyatlari shundan iboratki, ma'lum odamlar bilan muloqot qilish ular uchun o'ta muhim, aytish joiz bo'lsa, hayotini ta'minlovchi xususiyatga ega bo'ladi. Zo'ravonlikning psixologik «ildizi» shundaki, jinoyatchi o'z qurboniga (ko'p jihatdan ongsiz ravishda) ehtiyojlarini qondirish yoki o'zini uning axloq to'g'risidagi tasavvurlariga mos ravishda tutish qobiliyatini yuklaydi.

Zo'ravonlikka moyillik kishi hayotining ilk bosqichlarida, erta bolalikda shakllanadi va bolaning (bo'lajak jinoyatchining) o'z oilasida egallagan o'rni natijasi hisoblanadi. Bu o'rinning mohiyati uni otanasini yoqtirmasligi, ba'zan to'g'ridan-to'g'ri undan yuz o'girishidan iborat bo'ladi. Bolaning o'z onasi rad etuvchi, yoqtirmovchi rolda

chiqsa, bunday vaziyat o'ta fojiali bo'ladi. «Yoqtirmaslik» atamasi onaning o'z bolasiga shunday munosabatini anglatadiki, farzandini avvalambor tabiiy – ovqatga, issiqlikka, tozalikka ehtiyojlarini o'z vaqtida va aniq qondirishga qodir emas, yoki istamaydi, yoxud qilolmaydi. Buning natijasida bola surunkali tanqislik, o'z ehtiyojlarining doimiy qondirilmaslgi vaziyatida bo'lib qoladi. Bu holat uni doimiy ravishda boshqa odamga (onasiga) qaram qilib qo'yadi, chunki faqat ugina ushbu ehtiyojlarni qondirishi mumkin. Bunday ehtiyoj saqlanar ekan qaramlik ham saqlanib qoladi. Demak, tajovuzkor-zo'ravon jinoyatchilar uchun hayotiy muhim (vital) ehtiyojlarning surunkali ravishda qondirilmaslgi xosdir, shuning uchun ham ularni qondira oladigan obyektlarga xuddi shunday surunkali tobelik yuzaga keladi.

Rad etilayotgan bola uning xavfsizligini ta'minlovchi aniq bir kishi (onasi) yuzida mujassam bo'lgan uning uchun hayotiy muhim shart-sharoitlarga qaram bo'lib qoladi. Bu omillarning yetishmovchiligi uning hayoti uchun doimiy tahdid vaziyatini yuzaga keltiradi. U go'yo so'nggi darajada yashaydi: hech qachon to'liq xavfsizlikni va o'z ehtiyojlarining qondirilganini his etmaydi va shu vaqtning bu hayotiy muhim shart-sharoitlardan to'liq mahrum bo'lishgacha borib yetmaydi. Bu potensial ravishda o'zida halokatli tahdidni olib keluvchi mavjudlikning o'ziga xos «ekstremalligi»dir. U qotillik va boshqa shakldagi jinoiy zo'ravonlik namoyon bo'lishining kelib chiqish manbaidan iboratdir.

Agar qayd etilgan vaziyat kishi hayotining ilk davrida yuzaga kelgan bo'lsa, unda vaqt o'tishi bilan (qariganda) u yo'qolib ketmaydi, balki uning mazmuni va asosiy munosabatlarini saqlab boshqa shaklga o'tadi. Onaning o'rnini asosiy hayotni ta'minlovchi omil sifatida boshqa shaxs egallashi mumkin, lekin to'la tobelik munosabati saqlanib qoladi.

Qayd etilgan qaramlik munosabati boshqa o'ta ahamiyatli oqibatlariga ham olib kelishi mumkin. Ularning asosiylaridan biri mustaqil, tobe bo'lmay yashash layoqatini olish jarayonining to'xtashidir. Bu to'xtash, o'z navbatida, shaxsning ruhiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun jiddiy oqibatlariga ega. Ulardan asosiysi va eng umumiysi ruhiy funksiyalarning – xotira, o'zlashtirish, fikrlash, diqqatni jamlash va boshqalarning sekinlashgan va uncha chuqur bo'lmagan rivojlanishi hisoblanadi. Inson shaxsiyati bu yerda go'yo

sust differensiallashadi va o'z tuzilishiga ko'ra murakkablashadi. Qotillik sodir etganning shaxsiyatini o'rgangan tadqiqotchilar ularda rivojlanishning o'rtacha olganda past, qoloq darajasini, yuqori bo'lmagan umumiy madaniyat, tor bilim va manfaatlar doirasini belgilashlari bejiz emas. Bu orqali ushbu shaxslardagi moslashtiruvchi imkoniyatlarning sust rivojlanishi uchun asos yaratiladi, ular atrofdagi muhit o'zgarishlariga moslashuvning g'oyat cheklangan vositalari va usullariga ega bo'ladilar, tashqi hodisalardan juda past va hissiy-qoloq darajada ta'sirlanadilar va o'zlashtirilayotgan axborotni intellektual ravishda qayta ishlash imkoniyatlarida g'oyatda cheklanganlar. Ruhiiy rivojlanishning umumiy past darajasi va saqlangan moslashuv imkoniyatlari sababli tajovuzkor-zo'ravon jinoyatchilarda ko'proq rivojlangan shaxslarga nisbatan ular tahdid qiluvchi deb qabul qiladigan tashqi voqealar va vaziyatlar keskin ortgan. Tajovuzkor zo'ravonlik harakatlari sodir etiladigan vaziyatda, har doim ham jinoyatchilarga jiddiy bog'liqlikda bo'lgan kishilar ishtirok etadilar. Bu bog'liqlik jinoyatchilar tomonidan anglanmasligi mumkin, lekin u aynan tajovuzda boshqa kishining faolligini unga jismoniy yoki ruhiy zarar yetkazgan holda yanchib tashlashga intilishda namoyon bo'ladi.

Zo'ravonlikka moyillik odatda ilk yoshlikdanoq namoyon bo'ladi. Shaxs bolalikda tabiiy qiziquvchanlik, o'zini biron-bir ish bilan band qilishga layoqatsizligini namoyon etadi, boshqa odamlar bilan munosabat o'rnatishda unga qiyinchilik tug'ilmaydi. Mohiyatiga ko'ra, bu holatda ham uning g'ayriixtiyoriy ravishda boshqa shaxsga psixologik tobeligi saqlanib qoladi.

Tajovuzkor-zo'ravon jinoyatchi shaxsning yana bir muhim psixologik xususiyati uning ayrim vaziyatlarda namoyon bo'ladigan fikrlari, g'oyalarining yuqori darajasi hisoblanadi. Ular uchun shaxslararo munosabatlarning istalgan tarafiga nisbatan ularda yuqori darajada sezuvchanlik, xavfsirash, atrof muhitni dushmanlarcha qabul qilish xosdir. Vaziyatga to'g'ri baho berishdagi qiyinchiliklar, to'g'rilash qiyin bo'lgan xatolari shularga bog'liq bo'ladi.

Tajovuzkor-zo'ravon jinoyatchilarning fikrlari, g'oyalari yuqori darajada hissiyotga to'laligi muhitni patalogiya bilan cheklaydi va umuman, ularning jamiyatdan begonalashganidan dalolat beradi. O'z navbatida, axloqni boshqara olmaslik shunga bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga, ular atrofdagilarga juda yuqori talablar qo'yishga moyil bo'ladilar, ular tez xafa bo'luvchi va xudbindirlar, xulqlari qo'pol,

odobsiz va kayfiyatlari «otashin shod-xurramlikdan o‘lar darajadagi g‘am-g‘ussagacha» o‘zgarishga moyildir.

Ayrim tajovuzkor-zo‘ravon jinoyatchi shaxslarning mazmuniga ko‘ra ekstazga (o‘zini yo‘qotish darajasida huzurlanishi) o‘xshash bo‘lgan chuqur va kuchli tashvishlarga moyilligi g‘oyat diqqatga sazovor xususiyatdir. Mazkur holatning psixologik mazmuni o‘ta murakkab bo‘lib, unda shaxsiyatning eng chuqur qatlamlari qamrab olinadi; zo‘ravonlik harakatlari sodir etish vaqtida ushbu shaxs uchun favqulodda qimmatga ega bo‘lgan ruhiy erkinlik, qaramlik holatidan chiqish tuyg‘ulari qamrab olinadi. Shuning uchun odam o‘ldirishning tushunish qiyin bo‘lgan sabablaridan biri ularning bu holatni boshdan o‘tkazishga ehtiyoj sezishi hisoblanadi.

Tajovuzkor-zo‘ravon jinoyatchilarning boshqa toifasi qaramlikdan ozod bo‘lish muammosini o‘z shaxsiyatini boshqa odamlarga faol ravishda zo‘rlab o‘tkazish yo‘li bilan hal etadi. Ular o‘z «Men»larining qimmatligini isbot qilish va uning e‘tirofiga erishish ehtiyoji bilan yashaydilar. Boshqa kishini o‘zining ta‘sir doirasiga tortish, mohiyatiga ko‘ra uni o‘ziga bo‘ysundirish va undan «kayf qilishning» barcha – moddiy, moliyaviy, energetik, g‘oyaviy va hokazo shakllari uchun donor sifatida foydalanishning barcha usullari qo‘llanganda, bu zo‘rlab o‘tkazish ko‘pincha yaqqol namoyishli qarash xususiyatga ega bo‘ladi.

Tajovuzkor-zo‘ravon jinoyatchilarning uchinchi toifasi - bu keraklilik tuyg‘usi gipertrofiyalangan odamlar bo‘lib, ular shaxsiy tasavvurlari va axloq me‘yorlari nuqtai nazaridan atrofdagilarga g‘oyatda yuqori va qat‘iy talablar qo‘yadilar. Ular o‘zlarining keraklili to‘g‘risidagi tasavvurlariga qat‘iy bog‘langan bo‘lib, boshqa odamlardagi axloqning bu tasavvurlardan ozgina og‘ishi ularda hissiy noqulaylikni, sezilarli og‘ishlar esa – vaziyatni ularning tasavvurlariga mutanosib ravishda zo‘rlilik bilan tuzatish bo‘yicha harakatlarni – ichki qahr-g‘azabni vujudga keltiradi. Bu yerda inson shaxsiy o‘z ideal tasavvurlarining iskanjasida bo‘ladi va hayotning rang-barangligini qabul qila olmaydi: u zo‘rlilik bilan ularni o‘z tasavvurlari ostiga olib keladi. Ko‘pincha bunday odamlar adolat uchun shiddatli kurashchilar bo‘lib chiqadilar. Uni o‘rnatishning asosiy usuli esa zo‘ravonlik, majbur qilishdir. Keraklilik haqidagi gipertrofiyalangan tasavvur namoyon bo‘lishi shakllaridan biri – rashk tuyg‘usidir. Unda boshqa kishining xayrixohligidan yolg‘iz o‘zi foydalanish «huquqini» egallagan mulkdorning nuqtai nazari to‘plangan va o‘zgalar hamda

o'zgalar tomonidan ko'rsatiladigan har qanday e'tibor belgilari uning sha'nini kamsitish va qayd etilgan «huquqqa» suiqasd deb qabul qilinadi. Rashk bilan asoslantirilgan zo'rlik – bu o'zi haqida ideallashtirilgan tasavvurlarini himoya qilishi va boshqa kishini o'zi haqida bunday tasavvurlarga ega bo'lishdan mahrum etish hamda o'zini shunga munosib tutishdir.

Tajovuzkor-zo'ravon jinoyatchilar orasida o'zi haqidagi shaxsiy fikrlarida qaror qilish, biron ish qilish, g'ayrioddiy qaltis, xatarli harakat sodir qilishga qodir bo'lgan shaxs sifatida ishonch qozonish ehtiyojiga ega bo'lgan kishilar ham uchraydi. Doimiy ravishda o'ziga ishonchsizlik, ikkilanish, qaror qabul qilishga layoqatsizlik, ularning shaxsiy xos xususiyatlari bo'lib, ular ongli ravishda tinkani qurituvchi nomukamallik, keraksizlik tuyg'usini boshdan kechiradilar va shuning uchun uni yengishga doimo shay turadilar. Bu tayyorlik ularni qaltis, oqibati yomon bo'ladigan xavfli holat vaziyatlariga undaydi. Ayrim jinoyatchilar o'zlari sodir qilgan og'ir jinoyat sababini bevosita «zo'r ishni bajarish» deb belgilaydilar.

Shunday tajovuzkor-zo'ravon jinoyatchilar toifasi borki, pasaygan, salgina tushkun kayfiyat, qiziqishlari, intilishlari, istaklari o'tmaslashuvda ifodalangan passiv psixologik nuqtai nazar ularga xosdir. Bu toifadagilar ko'pincha shaxsiy nomukammalliklari, hayotiy orzu-istaklari va davlatmandligi yo'qolganligini suitsidal fikrlarda ifoda etadilar. Ularning yashirin tajovuzkor odatlari tashqi axloqlarida qiyin namoyon bo'ladi. Ichkilikka moyillik, tajovuzkor-zo'ravonona harakatlarining somatik qayd qilinishi bu o'rinda umumiy manbaga, lekin turli yo'nalishga ega bo'lib, bu odamlar o'z jinoyatlarini o'ziga xos hayotiy vaziyatga tushib qolganda sodir etadilar. Bu odamlarning uyidagilar yoki yaqin atrofdagilar tomonidan ekspluatatsiya qilinishiga olib keladi. Oila, odatda, o'z «boquvchisi»dan norozi bo'lib, unga faqat u oilasiga berayotgan pullari uchun chidab kelishayotganini bildiradi. Bunday oilada o'z otasini urish, uydan haydash bilan kuzatiladigan janjallar, urush-to'polonlar ko'p bo'ladi. Shunday kunlarning birida u qotillik sodir etadi. Odatda, bu «maishiy» deb ataluvchi sabablarga ko'ra sodir qilinadigan jinoyatlardir. Sud oldida o'z aybidan chuqur pushaymon bo'layotgan va qanchalik og'ir bo'lmasin, uni kutayogan jazoga befarq bo'lgan tubanlashgan, baxtsiz odam hozir bo'ladi. Mohiyatiga ko'ra esa, u faqat o'zining mavjud bo'lish huquqini himoya qilgan edi.

Jinoiy zo‘ravonlikning psixologik xususiyatlari haqida qayd etilganlardan umumiy xulosa qilish mumkin. Bunday jinoyatlar asosida insonning o‘zi uchun hayotiy zarur deb bilgan va shuning uchun ularga qat’iy qaramlik holatida bo‘lgan ehtiyojlari qondirilishini keskin qiyinlashtiruvchi shart-sharoitlar yotadi.

Tajovuzkor-zo‘ravon jinoyatchi shaxsiyatining asoslantiruvchi mazmuniy doirasini tadqiq qilishda boshqalardan ajralib turuvchi quyidagi xususiyatlar aniqlanadi:

1. Tajovuzkor-zo‘ravon jinoyatchi shaxsiyatining asoslantiruvchi doirasi axloq shakllarining sabablari paydo bo‘lishi va tanlash erkinligining jiddiy cheklanishiga olib keluvchi tayanch ehtiyojlarining frustratsiyasi, yo‘nalishning o‘zgarishi va ularni qo‘zg‘atuvchi an‘analar tuzilmasining rigidligi bilan ajralib turadi.

2. Tajovuzkor-zo‘ravon jinoyatchi shaxsiyatining infantil va egotsentrik mazmuni, shaxsiy foyda ko‘rishga mo‘ljallanganligi va ijtimoiy qimmatliklarning yoqimsizligi bilan ajralib turadi, bu esa g‘ayriqonuniy tajovuzni ro‘yobga chiqarish uchun me‘yoriy cheklashlardan ichki ozodlikni paydo qiladi.

Bosqinchi qotillar va vaziyatli qotillar sababiy doirasining solishtirma tadqiqotlari:

1. Ehtiyojlarni moddiylashtirishning buzilishi bilan bog‘liq sabablar.

Sun‘iy (surrogat) sabablarning yuqori darajadagi ahamiyati mazkur shaxslarda sabab paydo bo‘lishi jarayonining buzilishi ularning jinsiy sohadagi qandaydir buzilishlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Zero bosqinchi qotillar ko‘proq o‘ta shafqatsiz (sadistlaracha) va latent-gomoseksual (invertatsiyalangan) ko‘rinishlarni namoyon qiladilar. Bosqinchi qotillarning ongsiz ravishda guruhlariga birlashishga intilishlari shu bilan bog‘liq bo‘lishi ham ehtimoldan holi emas. Aksincha, vaziyatli qotillar asosan yakka holda harakat qiladilar.

Individlarning muloqotlari va kayfiyatining maniakal buzilishlari va yoki ijtimoiy dezadaptatsiya ko‘rinishidagi g‘ayriqonuniy harakatlarning vaziyatli sabablari har ikki guruh qotillarida bir xil chastota bilan namoyon bo‘ladi.

2. G‘ayriqonuniy harakatlarning affektogen sabablari ehtiyojlari vositasidagi buzilish bilan bog‘liq sabablar sababiy-qo‘zg‘atuvchi tuzilmada xuddi bosqinchi qotillar guruhidagi kabi (30%), vaziyatli qotillar guruhida ham ko‘p tarqalgan (32%). Olingan ko‘rsatkichlar

shaxsning affektiv doirasidagi buzilishlarining uning atrofdagilarga nisbatan ko'rsatmalariga jiddiy ta'siri haqidagi muqaddam olib borilgan tadqiqotlarning asosiy xulosalari va qoidalari tasdiqlaydi. Guruhlar o'rtasidagi farq shundaki, bosqinchi qotillar qo'pol paroksizmal-epileptik affektlarning (24 %) buzilishi, vaziyatli qotillar esa - affektiv-shahvoniy (22 %) jihatdagi buzilishlarni sodir etadilar. Bu holda, tasavvur qilish mumkinki, vaziyatli jinoyatchilarda ularning frustratsiyalangan shahvoniy yo'nalishlari anglanmagan ravishda odam o'ldirishga bo'lgan mayl sifatida namoyon bo'ladi (rashk olovida, qasos olish va hokazo maqsadlarda odam o'ldirish)¹.

Bosqinchi qotillar «moslashuv» himoyasini qo'llashga ko'proq moyildirlar. Bu ularning ipoxondriya va organik nevrozlarga moyilliklarini bildiradi. Aksincha, vaziyatli qotillar «shilqimlik» kabi himoya mexanizmini nisbatan ko'proq qo'llaydilar, bu ular o'zlarining amalga oshirayotgan faoliyatlarini uslubiy tomondan rejalashtirishga intilishi shaklida tajovuzkorliklari ustidan nazorat o'rnatishga urinishlaridan dalolat beradi. Biroq, vaziyat shaxsning nazorati ostidan chiqa boshlaganda, u yana ushbu vaziyatli omillarning salbiy ta'siri ostiga tushadi va g'ayriqonuniy zo'ravonlikdan iborat nojo'ya harakat sodir qiladi. Shaxsga qarshi tajovuzkor-zo'ravon jinoyatlarning shahvoniy zo'rlik bilan bog'liq toifasi alohida o'ziga xos tur sifatida ajratiladi. Bunda zo'rlikning shahvoniy devyatsiyalar bilan bog'liqlik ehtimoli tengdir – atigi 50 % zo'ravonlar buzilishning har xil turlariga ega bo'ladilar. Zo'ravon qotillarni shahvoniy bo'lmagan asoslarda qotillik sodir etgan jinoyatchilar guruhi bilan solishtirganda, ular yuqori darajada zakovatliliklari, introversiyaning eng so'nggi darajasi va ruhiy-jinsiy rivojlanishda buzilish mavjudligi bilan ajralib turadi. Bu toifadagi jinoyatchilarning harakatlarida ularning tipologiyasini tuzish uchun uchta asos - hokimlik, g'azab va sadizmga moyillik alohida ajratiladi.

1. Hokimiyatga intiluvchi zo'ravon qurbonini yengish, bo'y-sundirish va bir vaqtning o'zida, unga yoqishni istaydi. Og'riq yetkazish istagi unda bo'lmaydi. Odatda, shaxslararo munosabatlarda va hayotda zo'ravonlar nomukammallik kompleksi tufayli umuman omadsizdirlar.

¹ Qarang: *Чезаре Ломброзо. Гениальность и помешательство.* – Минск. 2000, – С.101.

2. Darg‘azab zo‘ravon jismoniy shafqatsizlik va haddan ziyod kuchdan foydalanadi. Uning zo‘rligi g‘ayriixtiyoriy bo‘lib, yaqinda boshidan o‘tkazgan salbiy voqealar ta’siri ostida bo‘ladi va tajovuzkorlik ko‘chishining oqibati hisoblanadi.

3. Zo‘ravon sadistni tajovuzkorlik to‘lqinlantiradi va zo‘ravonlik faktining o‘zi undan qoniqish manbai hisoblanadi.

Bu kabi barcha hollarda zo‘ravonlarning maqsadi shahvoniy va shunga o‘xshash ehtiyojlarni qondirishdangina iborat bo‘lmaydi. Shahvoniy aloqa ular uchun tajovuzkorlikni namoyon qilish usuli bo‘lib xizmat qiladi. Bu holda deviant axloqning sababi ruhiy dilsiyohlik emas, balki turli holatlar ta’siri ostida yuzaga keluvchi ma’lum shaxsiyatli deformatsiyalari hisoblanadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, boshqalarga nisbatan tajovuzkor shahvoniy harakatlar sodir etgan shaxslar, 54 % hollarda o‘zlari bolaligida jismoniy tajovuzga duch kelgan. Bolaligida zo‘rlikni boshidan o‘tkazgan odamlar, boshqalarga nisbatan ko‘proq nomus va aybdorlik tuyg‘usini boshdan kechiradilar, o‘ziga baho berish bilan farqlanadilar va xavfli, shu jumladan shahvoniy vaziyatlarga jalb qilinadilar. Shuningdek, inestning avloddan-avlodga o‘tish an’anasi alohida ta’kidlanadi.

Inest – yaqin qarindoshi nomusiga tegish.

G‘arazli-zo‘ravon jinoyatchilar quyidagi shaxsiy xususiyatlari bilan tavsiflanadi:

- rigidlik - shaxsning o‘z axloqini o‘zgargan vaziyatga muvofiq ravishda o‘zgartirishga layoqatsizligi, tashqi shart-sharoitlar boshqacha bo‘lishiga qaramay, bitta va aynan shu qiyofaga sodiqligi;

- tajovuzkorlik – shaxsning ehtiyojlar frustratsiyasidan va boshqa kishi yoki odamlar irodasini to‘liq yoki qisman bostirishga, ularning harakatlarini cheklash, boshqarish va ularga zarar yoki azob beruvchi harakatlarni cheklashga qaratilgan dushmanlarcha axloqining subyektiv an’analarda ifodalanuvchi ziddiyatlardan ta’sirlanishi;

- g‘ayriixtiyoriylik – ilk xohish paydo bo‘lishi bilanoq, tashqi holatlar yoki hissiyot ta’siri ostida harakat qilishga moyillik;

- asotsiallik – ijtimoiy, buning ustiga huquqiy me’yorlarni o‘zlashtirmaslik va ularga nisbatan dushmanona munosabatlar;

- begonalashganlik – atrof-muhit bilan hissiy muloqotning buzi-lishi, boshqa kishining nuqtai nazariga qarash, o‘ziga tashqaridan turib razm solish imkoniyatining yo‘qligi;

- shaxsning kognitiv cheklanganligi – o‘zining, shuningdek boshqa shaxslarning holatiga baho berishning nomutanosibligi, ma’naviy va huquqiy me’yorlarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq qiyinchiliklar;

- xavotirlik - turli hayotiy vaziyatlarda notinchlikni his qilishga moyillik;

- interpersonal sezuvchanlik, affektning haddan ortiq turg‘unligi, yuqori senzitivlik, shuningdek tajovuzkor ko‘rinishida «qisqa tutashev» reaksiyasining yuzaga kelishi ehtimoli;

- shafqatsizlik – odamlarga azob, qiynoqlar yetkazishga intilish.

Agar tajovuzkor-zo‘ravon jinoyatchilarning axloqi asosan affektiv zaradlangan g‘oyalar bilan yo‘naltirilgan bo‘lsa, unda g‘arazgo‘y-zo‘ravon jinoyatchilarning axloqi paydo bo‘layotgan istak va ehtiyojlarni bevosita qondirish an‘anasi bilan belgilanadi, bu esa axloqni umumiy me‘yoriy boshqarish, intellektual va irodaviy nazoratning buzilishi bilan mos keladi. Bu holda, g‘arazgo‘y-zo‘ravon jinoyatchilar boshqa toifadagi delikvent shaxslardan axloqining boshqarib bo‘lmazligi va asotsial qilmishlarning kutilmaganligi bilan farq qiladilar, ularda o‘zini tasdiqlashga va o‘zi hamda atrofdagi olam bilan o‘rtalarida masofa saqlashga rioya etishga intilish ehtiyoji ko‘p darajada ifodalangan.

G‘arazgo‘y jinoyatchilar. Delikvent shaxslarning ushbu toifasida quyidagi turlar ajratiladi:

1. «Tasdiqlanayotgan» ("o‘zini o‘zi tasdiqlayotgan") tur. Unga jinoiy axloqining mazmuniga ko‘ra shaxsning shaxsiy-ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik va yoki individual darajada o‘zini tasdiqlashi hisoblanadi. Bu yerda parallel, yonida yo‘ldosh bo‘lgan, ko‘p hollarda teng ahamiyatga ega bo‘lgan g‘arazli sabab ham mavjud. Shunday qilib, bugun bu yerda polimotivatsiya namoyon bo‘ladi, bunda g‘arazgo‘y sabablar o‘zini o‘zi tasdiqlash, e‘tiborli tasavvurlar, o‘z nufuzini mustahkamlash bilan chatishib ketmaydi. o‘zini o‘zi tasdiqlayotib, inson o‘zini atrof olamdagi o‘zgarishlar manbai deb his qilishga intiladi. Bu intilish o‘zida turli sabablarni aks ettiruvchi qandaydir rahbariy tamoyilni namoyon etadi.

Ta‘kidlash joizki, o‘g‘irlangan narsaga egalik qilish, uni tasarruf etish shaxsning o‘zini, «Men» ini tasdiqlash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘smir ma‘lum bir norasmiy guruhga qabul qilinishi uchun o‘g‘rilik sodir qilsa yoki guruhiy bezorilik harakatlarida ishtirok etsa ijtimoiy-psixologik darajada tasdiqlash sababi o‘rin egallashi mumkin.

2. «Dezadaptiv» (yoki «asotsial») turning ijtimoiy moslashuvi, ya'ni ijtimoiy shart-sharoitlarga moslashuvi buzilgan shaxslarni o'z ichiga oladi. Bu jinoyatchilar jamiyatga zid, ko'pincha uysiz hayot tarzini yuritadilar, ularning ko'pchiligi normal aloqa va munosabatlardan chiqib ketgan, daydilar va ichkilikbozlardir. Ular, qoidaga ko'ra, bahosi uncha ahamiyatsiz bo'lgan narsani o'g'iraydilar va talon-taroj qiladilar. Jinoiy yo'l bilan olingan mulk va pullarni odatda spirtli ichimliklar ichish bilan bog'liq hayot tarzini yuritishga sarflaydilar. Ulardan ko'pchiligi muqaddam sudlangan bo'lib, doimiy yashash joyi, propiska, pasport yoki boshqa hujjatlarga ega emaslar. Tabiiyki, ular odatda hech qayerda ishlamaydilar, oilalari yo'q, yaqinlar va qarindoshlar bilan aloqa mavjud emas. Qoidaga ko'ra, ularda do'st yo'q, ular go'yo oqim bo'yicha suzadilar, o'z taqdiriga befarq bo'lib, kelajak haqida o'ylamaydilar.

Bunday shakllarning moslashmaydigan axloqi negizida noaniqlik yotadi, o'zlari haqida barqaror tasavvurlar ularda mavjud emas va ular uni egallashga intilmaydilar. Ularning barcha axloqi ongsiz ravishda boshqa odam, guruh, ijtimoiy muhit bilan o'xshashlikdan, umuman unga kirishdan qochishga intilish bilan asoslanadi. Shunday qilib, ularning dezadaptiv axloqing mazmuni ijtimoiy identifikatsiya va shaxsiyat qat'iyligini egallashdan qo'rquvdan iboratdir. Bunday qat'iylilik faqat faol ijtimoiy muloqot, o'ziga rol olish, ularni o'ynash va odam kirgan muhit talablarini bajarish jarayonidagina shakllanadi. Ular bilan muloqot qilish, hamkorlikdagi faoliyatda ishtirok etish jarayonidagi boshqa odamlarning bergan baholari tufayli, identifikatsiya yo'li bilan o'zini o'zi baholash, o'zi haqidagi tasavvurlar va shu bilan, shaxsiyat qat'iyligi shakllanadi. Bunday sifatlari shakllangan odam nima qila olishi va nima qilishi kerakligini biladi. Dezadaptiv g'arazgo'y jinoyatchilar ongsiz ravishda o'z ijtimoiy identifikatsiyasini, har qanday ijtimoiy-psixologik barqarorlikni rad etish an'analari sababli o'zaro ijtimoiy munosabatga kirishishdan qochadilar. Ularning ijtimoiy muloqotlari yuzaki, agar ular ishga joylashsalar, unda uzoq muddat ushlanmaydilar, har qanday majburiyatdan qochadilar. Boshqacha aytganda, ular o'zlarining ichki dunyolariga kirishga har qanday yo'l bilan to'sqinlik qilgan holda nima qilib bo'lsa ham jamiyatdan, ijtimoiy faollikdan tashqari yashashga intiladilar. Odatda dezadaptiv shaxslar yashash uchun qonuniy mablag'lar manbaiga ega emaslar, o'g'irilik va boshqa mulkiy jinoyatlar ularga bu mablag'larni yetkazadi. Shu bois

agar shaxsda oiladan begonalashish va boshboshdoqlik saqlanib qolsa, dezadaptiv jinoyatchilar soni ortadi. Bunga goho bozor munosabatlariga o'tish va korxonalarni xususiylashtirishga o'tilayotgandagi holatlar ham sabab bo'lishi mumkin, malakasi kamroq ishchilar ishsiz qoladi va to'g'ri hayotdan chiqarib yuboriladi.

3. G'arazo'y jinoyatchi shaxsining «o'yinli» turi psixologik jihatdan o'ta murakkabdir. Shu bilan birga, u jinoyatchilar, ayniqsa o'g'rilar orasida yetarlicha ko'p uchraydi., «Oltin buzoqcha»dagi Shura Balaganov, makrli romanlarning ko'plab qahramonlarini eslab o'tish lozim. «O'yinli» turining vakillarining xavflilikka bo'lgan doimiy ehtiyoji, xavf bilan bog'liq o'tkir hissiyotlar ilinjida his-hayajon qo'zg'atuvchi vaziyatga kiritish, turli xil operatsiyalarda, kutilmagan muloqotlarda va hokazolarda ishtirok etishga intilish ajratib turadi. G'araz niyatlar, odatda uning «o'yinli»lari bilan bir qatorda harakatlanadi, zero ular uchun xuddi jinoyat sodir etish natijasida moddiy manfaat olish kabi, aynan jinoiy axloq jarayoni bilan bog'liq hissiy tashvishlar ham bir xil ahamiyatga ega. So'nggi holat ularni boshqa turlarning vakillaridan jiddiy ravishda farqlaydi, ya'ni bunday harakatlarning hissiyotli jarayoni ular uchun psixologik jihatdan juda muhimdir. Buning ustiga, shunday holatlar uchraydiki, bunda ushbu jarayon hatto yetakchi, sabab bo'luvchi rol o'ynaydi, qolgan rag'batlar (stimullar) esa go'yoki ikkinchi doiraga suriladi, bu esa, masalan, o'smirlik uchun ayniqsa xosdir. Ulardan ko'pchiligi bu bilan o'zlariga e'tibor qaratishga intiladilar.

4. G'arazgo'y jinoyatchilarning «oilaviy» turi oila o'ynaydigan ulkan rag'batlantiruvchi rol tufayli ajralib turadi. Bu tur, odatda, talonchilar va poraxo'rlar orasida uchraydi, o'g'rilik sodir etayotgan shaxslar orasida esa g'oyatda kam uchraydi. Uning vakillari talon-tarojliklar uning o'zi uchun emas, balki ularning fikricha va ular yaqinlarining hamda ular uchun ahamiyatli bo'lgan shaxslarning fikricha, zarur bo'lgan oila va uning alohida a'zolarini moddiy va ma'naviy manfaatlar bilan ta'minlanganlik darajasiga erishish bilan tavsiflanadi. Ayrim hollarda, jinoyatchining o'z manfaatlarini umuman e'tiborga olinmaydi va u hatto tarki dunyoviy hayot tarzini olib boradi. Ko'pincha, bunday g'arazgo'y jinoyatchilar ishda g'oyat ijobiy tavsiflanadi va albatta oilasiga, ayniqsa farzandlariga juda bog'langan bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, g'arazgo'y jinoyatchilar, delikvent shaxsning boshqa turlariga nisbatan asosan turli ijtimoiy vaziyatlar va ularning o'zgarishlariga ko'proq moslashgan, ya'ni ko'nikkan bo'ladilar; ijtimoiy me'yorlar va talablarga yaxshi moslashib; vazminroq bo'ladilar, o'z xulqlarini yaxshilab nazorat qila oladilar. Ularga tajovuzkor-zo'ravon va g'arazgo'y-zo'ravon jinoyatchilarga xos bo'lgan tajovuzkorlik va axloqning g'ayriixtiyoriyligi xos emas. Ular kirishimliroq bo'ladilar, ularning aksariyati ijtimoiy muloqot o'rnatishda qiyinchiliklarni boshdan kechirmaydi. Ularning ko'pchiligida rahnamolikka intilish, ijtimoiy e'tirofga bo'lgan ehtiyoj kabi xislatlar uchraydi. Ularga jamiyatning me'yorlari va talablariga yaxshi moslashish xosdir, lekin, shunga qaramay, ularda bu me'yorlarni ichididan qabul qilmaslik va ularni ongli ravishda buzish holati bo'ladi.

Ehtiyotsiz jinoyatchilar. Ehtiyotsizlik orqasida jinoyat sodir etgan shaxslar qasddan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan o'zlarining psixologik xususiyatlariga ko'ra prinsipial tafovutlarga egadirlar. Ushbu shaxslar uchun qasdli jinoyatchilarda bo'lgani kabi maqsadga erishish sababiyligi emas, balki omadsizlikdan qochish sababi xosdir. Bunday holda, kishi uchun muvaffaqiyatga intilish emas, balki shaxsiy halokat deb qaraluvchi muvaffaqiyatsizlikdan qochish muhim bo'lib qoladi.

Ehtiyotsiz jinoyatchilar uchun hayotiy vaziyatlarga ta'sirchanlik nuqtai nazaridan intrapunitiv ta'sirlar, yoki ekstrapunitiv ta'sirlar xos bo'lgan, ya'ni aybni atrofdagilarga ag'darish moyilligi bo'lgan qasdli jinoyatchilardan farqli o'laroq, ularga sodir etilgan jinoyat uchun aybni ko'proq o'z zimmalariga olish xosdir. Mazkur shaxslar toifasida turli vaziyatlardan xavotirlanish yuzaga kelishiga moyillik kuzatiladi. Ular o'zlariga ishonchsizlik, ruhiy zarba vaqtida bezovta bo'lishga moyillik, ortiqcha o'zini o'zi nazorat qilish tuyg'ulari ko'rinadi. Ekstremal (qaltis) vaziyatlarda bunday shaxslar qo'rquvga oson beriladilar va tahdidli ega vaziyatda ratsional emas, balki hissiy ta'sirlanishga moyildirlar. Bularning barchasi favqulodda sharoitlarda bajarilayotgan harakatlar samarasining pasayishi va xatolar miqdorining oshishini nazarda tutadi. Ularda to'siqlarga chidamlilikning past darajasi kuzatiladi, ushbu vaziyatlar mutanosib moslashuvning buzilishiga va qaror qabul qilishdagi qiyinchiliklarga olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday shaxslar uchun oldindan aytib bo'lmaydigan yakunli, amaldagi omillarning tez-tez almashishi va tartibga

solinmagan o'lovchilarga ega vaziyatlar ruhiy zarba (stressli) hisoblanadi. Bunday holatda ular stereotipli, andazali harakatlarga moyil bo'ladilar va holatni yetarli darajada xolisona tahlil qilish ahvolidan bo'lmaydilar, bu esa oldindan bilish mumkin bo'lgan natijalarning buzilishiga olib keladi.

Ehtiyotsiz jinoyatchi shaxsiyatining boshqa xususiyati aybdorlik hissining mavjudligidir. Bu tuyg'u bilan bog'liq holat ular uchun subyektiv ravishda odatiy bo'lib qoladi va ular ongsiz ravishda unga intiladilar. Shuning uchun, ongsiz ravishda o'zini aybdorlik hissini faollashtirish bilan bog'liq sharoitlarga solib qo'yish an'anasi amerikalik psixolog E. Bernning terminologiyasi bo'yicha, mazmuniga ko'ra, ssenariyli xarakterga ega bo'lishi, ya'ni ongsiz hayotiy intilish, kishining axloqini belgilab beruvchi va uning uchun hamma qilmishlari va umuman axloqini tizib qo'yuvchi sabab bo'lib hisoblangan dastur sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Jinoyat ular uchun ongsiz ravishda o'zlarini aybdorlik hissini maksimal darajada kuchli his qilishlari va uzoq vaqt, hatto doimo shu holatda qolishlari mumkin bo'lgan vaziyatga solib qo'yishga intilish bilan belgilanadigan hayotning muayyan qonuniy holati hisoblanadi. Ehtiyotsiz jinoyat interpretatsiyaning ushbu jihatidan aybdorlik hissini maksimal darajada boshdan o'tkazish va qolgan butun umri davomida uni boshdan kechirishni davom ettirishning subyektiv imkoniyati sifatida namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, ehtiyotsiz jinoyatni asosiy hayotiy muammoni hal etish – kelgusidagi holatlardan qat'i nazar, kelajakda doimo aybdorlik hissini tuyish imkonini beruvchi hayotiy tarjimai hol faktini qo'lga kiritishga imkon beruvchi o'ziga xos ekzistensial yutuq deb baholash mumkin.

Qayd etilgan delikvent shaxsning psixologik xususiyatlari tahlilidan quyidagi xulosaga kelish mumkin.

1. Psixologik xususiyatlar va jinoiy faoliyat o'rtasida aniqlangan aloqa muhit ma'lum darajada ta'sir qilganda psixologik aloqasi jinoiy axloqning real ravishda amalda potensial omillaridan biri sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi, chunki muhit ushbu omil namoyon bo'lishiga xuddi kuchaytiruvchi ta'sir kabi, uni to'xtatuvchi ta'sir ham ko'rsatadi.

2. Keltirilgan jinoyatchilarning axloqiy va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, delikvent shaxs qonunga rioya qiluvchi shaxs bo'lganida ular mazkur toifadagilar uchun jinoiy ahamiyat kasb etuvchi va o'ziga xos me'yoriy salbiy tizim yoki mustahkam psixologik xususiyatlari bilan farq qiladi.

3-§. O‘zini o‘zi barbod qilayotgan shaxs axloqining psixologik tahlili

Subyektning ruhan o‘zini o‘zi yemiruvchi axloqini tushunish uchun uning dunyoga nisbatan bo‘lgan ratsional va irratsional munosabatlari xususiyatini hisobga olish zarur. Inson o‘z axloqini mavjud hayotda rejalashtira va bashorat qila turib, ongsiz ravishda o‘zini maqsadga erishish yo‘lida kutib turgan taxminiy energetik sarflariga umid qiladi. Maqsadiga erishish jarayonida inson ish bajarish uchun zarur bo‘lgan energiya miqdorini chiqarishga qodir bo‘lmay qolsa, u holda unda charchoq holati paydo bo‘ladi va qo‘shimcha ravishda zarur energiya ishlab chiqarish uchun ishni to‘xtatib turish istagi paydo bo‘ladi. Agar kishining rejalari va bashoratlari xato bo‘lib chiqsa va u talab qilinganidan ko‘proq energiya sarflagan bo‘lsa, unda hayajonlanish holati paydo bo‘ladi. Kishi o‘zini deyarli har narsaga qodir deb his qiladi. Buni odamda kutilmaganda shunchalik ko‘p pul paydo bo‘lgan va u bu pullarni qayerga sarflashni bilmayotganligi holati bilan tenglashtirish mumkin. Shuning uchun, ko‘pgina individlar iloji boricha ko‘proq shunday holatga tushishga harakat qiladilar. Unga ruhiy faol moddalar deb ataluvchi vositalar yordamida erishiladi. Ruhiy faol modda – bir marta qabul qilishning o‘zida kayfiyatni, jismoniy holatni, o‘zini his qilishni o‘zgartirish, uni o‘rab turgan olamni, axloqni o‘zlashtirish yoxud boshqa ruhiy-jismoniy samaralar berish, uzoq vaqt davomida qabul qilishda esa ruhiy va jismoniy tobelikni keltirib chiqaruvchi har qanday kimyoviy moddaga aytiladi.

Ruhiy tobelik - doimiy yoki davriy ravishda ruhiy-faol moddani astoydil izlash bilan tavsiflanuvchi o‘rganib qolishdir. Jismoniy tobelik esa – tolerantlikning ortishi, ya’ni bekor qilish sindromi yuzaga kelishini bartaraf qilish uchun moddaning o‘sib boruvchi dozalarini qabul qilish zaruriyati bilan tavsiflanadi. Bekor qilish sindromi (abstinensiya) – ruhiy faol moddalarni iste’mol qilishni to‘xtatish natijasida yuzaga keluvchi va xavotir, vahima, affektli zo‘riqish, ichki notinchlik, achchiqlanuvchanlik va kayfiyat, yurak urishining pasayishi, titrash yoki, aksincha, terlashda namoyon bo‘luvchi o‘ziga xos sindromdir.

Tolerantlik (barqarorlik) – narkotikli ta’sir qiluvchi moddaning ma’lum dozasiiga bardosh berish qobiliyatidir; istalgancha samara beruvchi minimal doza bilan belgilanadi.

Ruhiy-faol moddalar orasida narkotiklar, zaharli va psixotrop ta'sir ko'rsatuvchi dori vositalari alohida ajralib turadi. Narkotik deganda, odatda, quyidagi mezonlarga mos keluvchi modda tushuniladi:

- ruhiy jarayonlarga o'ziga xos – sedativ, rag'batlantiruvchi, gallyutsinogen va shu kabilar (tibbiy mezon) ta'sir ko'rsatadi;

- moddani oqibati ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, ulkan ko'lamlarga yetadigan darajada notibbiy iste'mol qilish (ijtimoiy mezon);

Narkotiklar guruhiga kiritilmagan ruhiy faol moddalar odatda zaharli moddalar hisoblanadi. Ularda narkotiklarning barcha psixotrop xossalari mavjud bo'lib, tobelik shakllanishining umumiy qonuniyatlari egadirlar. Buning ustiga, tobelik shakllanishi natijasidagi buzilishlar hatto o'ta og'ir ham bo'lishi mumkin. Biroq ularni suiiste'mol qilishning ijtimoiy xavfi hozircha uncha katta emas. Ruhiy faol vositalarga alkogol, ko'knori mahsulotlari, kannabis, sedativ va uxlatuvchi moddalar, kokain, kofein, gallyutsinogenlar, tamaki, uchuvchan erituvchi moddalardan iborat kuchaytiruvchi moddalar kiradi.

Giyohvandlik – narkotiklar ro'yxatiga kiritilgan moddalarni muntazam ravishda iste'mol qilish oqibatida yuzaga kelgan kasallik (tobelik). Zaharvandlik (toksikomaniya) – narkotiklarning rasmiy ro'yxatiga kiritilmagan moddaga, ba'zan ruhiy, ba'zan esa jismoniy bog'liqlikda namoyon bo'ladigan tobelik. Ularga bog'liq bo'lmagan holda narkotiklar yoki ruhiy-faol zaharli moddalarni suiiste'mol qilish giyohvandlik yoki toksikomaniya deb hisoblanmaydi. Bunday axloqni narkotizm yoki toksikomanik axloq, epizodik suiiste'mol qilish va boshqalar deb atash taklif etiladi. Psixologlar bu holda «addiktiv axloq» (inglizcha addiction) - halokatli odat, nuqsonli moyillik atamasini qo'llaydilar.

Addiktiv axloq – deviant (og'uvchi) axloqning ba'zi moddalarni qabul qilish yoki e'tiborini doimiy ravishda shiddatli hissyotlarini rivojlantirish va qo'llab turishga yo'naltirilgan faoliyatning ma'lum bir turiga qaratish vositasida o'z ruhiy holatini o'zgartirish yo'li bilan voqelikdan qochishga intilish hosil bo'lishi shakllaridan biridir. Bu jarayon kishini shunchalik qamrab oladiki, hatto uning hayotini boshqara boshlaydi. Kishi o'z ishtiyoqi oldida nochor bo'lib qoladi. Iroda kuchi zaiflashadi va addiksiyaga qarshilik ko'rsatishga imkon bermaydi.

Addiksiyaning yemiruvchi xususiyati shunda namoyon bo‘ladiki, bu jarayonda his-hayajonli munosabatlar boshqa odamlar bilan emas, balki jonsiz predmetlar bilan o‘rnatiladi. Insonlar bilan hissiy munosabat o‘z ahamiyatini yo‘qotadi, yuzaki bo‘lib qoladi. Addiktiv ravishda amalga oshirish usuli vositadan asta-sekin maqsadga aylanadi. Mushkul hollarda vaqti-vaqti bilan shubha va tashvishlardan chalg‘ish hamma uchun ham zarur, lekin addiktiv axloq holatida u hayot uslubi bo‘lib qolib, uning jarayonida inson doimiy ravishda real borliqdan qochuvchi qopqonga tushib qoladi. Addiksiya shakllari bir-biri bilan almashib turishi mumkin, bu esa muammo hal bo‘lishi haqidagi xom xayollarni yanada mustahkamroq va kuchliroq qilib qo‘yadi. Bu esa nafaqat addiktning o‘zi balki uning atrofida uchun ham xavflidir. Addiktiv ravishda amalga oshirish do‘stlik, sevgi, faollik boshqa ko‘rinishlarining o‘rnini bosadi. U vaqtni, kuch, energiya va hissiyotni shu darajada yutib ketadiki, addikt hayotda muvozanatni saqlash, faollikning boshqa turlariga kirishish, odamlar bilan muloqotdan lazzat olish, qiziqish, relaksatsiyalanish, shaxsning boshqa tomonlarini rivojlantirish, o‘z maylini namoyon qilish, hatto eng yaqin kishilarini hissiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga layoqatsiz bo‘lib qoladi.

Shaxsiyatlararo munosabatlar addikt uchun g‘oyat kutilmagan bo‘lib, ular katta harakatlar, ko‘pgina hissiy sarflar, fikrlash faoliyati g‘ayratni va o‘zini ayamaslikni talab etadi. Jonsiz moddalar, predmetlar va faoliyat turlari bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishni esa doimo oldindan bilib bo‘ladi, qulaylikka etishish samarasi esa deyarli doim kafolatlangan bo‘ladi. Jonsiz predmetlarni manipulatsiya qilish esa oson, shuning uchun vaziyatni nazorat qilish layoqatiga ishonch ortadi. Shunisi qo‘rqinchlik, addiktlarda manipulatsiyali uslub shaxslararo muloqotlar doirasiga o‘tadi. Shunday qilib, addiktiv shaxsning olam bilan o‘zaro munosabatida o‘ziga xos qayta moslashuv sodir bo‘ladi: addiktiv vakillar bilan predmetli munosabatlar «jonlanadi» va shaxslararo munosabatlar «predmetlanadi».

Ma’lumki, umuminsoniy tajriba, ijtimoiy me’yorlar, qadriyatlar, bilimlar va faoliyat usullari shaxs tomonidan boshqa odamlar bilan muloqotlar jarayonida o‘zlashtiriladi. Addikt o‘zini bu jarayonlardan to‘sisib oladi, o‘z hayotiy tajribasini boyitishdan to‘xtaydi, shu orqali muloqotning eng muhim vazifalarini buzadi. Addiktning boshqa odamlar bilan birgalikdagi faoliyati jarayonida o‘zaro qiyinchiliklar yuzaga keladi. Muloqotning disfunktsional jarayonlari bilan bir qatorda

shaxslararo persepsiyaning identifikatsiya, empatiya, refleksiya kabi ahamiyatga ega bo'lgan mexanizmlari buziladi, o'zgarib ketadi va o'z qimmatini yo'qotadi. Demak, o'zini hamkor o'rniga qo'yib ko'rish, qo'shib qayg'urish, o'zini atrofdagilar qanday qabul qilishini tasavvur etish layoqati yo'qoladi. Axloqning addiktiv shakliga ega bo'lgan shaxslarning quyidagi psixologik xususiyatlari alohida ajratiladi:

1. Inqirozli vaziyatlarga yaxshi chidamlilik bilan bir qatorda qiyinchiliklarga chidamlilikning pastligi. Bunga shaxsda gedonistik yo'l-yo'riqlar mavjudligi – darhol qoniqishga ega bo'lish, o'z istaklarini qondirishga intilish sabab bo'ladi. Agar istaklar qondirilmasa, unda addiktlar yoki salbiy hissiyotlarning portlashi, yoxud paydo bo'lgan muammolardan qochish orqali munosabat bildiradilar.

2. Tashqaridan namoyon qilingan ustunlik bilan uyg'unlashgan nomukammallikning yashirin kompleksi. Kayfiyatning tez-tez o'zgarishi, ishonchsizlik, ularning layoqatlari obyektiv ravishda tekshirilishi mumkin bo'lgan vaziyatlardan qochishda o'z aksini topadi.

3. Yolg'on gapirishga intilish. Addiktlar ko'pincha o'z va'dalarida turmaydilar, subutsizliklari, qoidalarga rioya qilmasliklari bilan ajralib turadilar.

4. Mustahkam his-hayajonli muloqotlar oldidagi qo'rquv bilan uyg'unlashgan tashqi ijtimoiy munosabatlar.

5. Ular boshqalarning aybsizligini bilib tursa-da, ayblashga intiladilar.

6. Qarorlar qabul qilishda javobgarlikdan qochishga intilish. Javobgarlikni boshqalarga ag'darish, zarur vaqtda oqlovchi dalillarni izlash.

7. Axloqning stereotipligi, takroriyliigi. Axloqning yuzaga kelgan stereotipini oldindan bilsa bo'ladi, lekin uni o'zgartirish qiyin.

8. Tobelik. Addiktiv yo'nalishli boshqa odamlar ta'siriga bo'ysunish ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ba'zan passivlik, mustaqillikning yo'qligi, madad olishga intilish kuzatiladi.

9. Xavotirlilik. Nomukammallik, tobelik kompleksi bilan mahkam bog'liq. Buning o'ziga xosligi shundaki, krizisli vaziyatlarda xavotirlilik ikkinchi o'ringa tushib qolishi mumkin, bunday vaqtda u oddiy turmushda yoki tashvishlar uchun haqiqiy sabab bo'lmaydigan voqealarda yaqqol sabablarsiz yuzaga keladi.

Voqelikdan qochish o'ziga xos «qochish» ko'rinishida, borliqning barcha jihatlari bilan o'zaro uyg'un munosabatda biron-bir yo'nalishda

faollashish yuzaga kelganda sodir bo‘ladi. Bunda inson diqqatini faoliyatning tor yo‘nalgan sohasiga jamlaydi (ko‘pincha o‘zini o‘zi yemiruvchi shaxs). N.Peseshkyanning konsepsiyasiga muvofiq «voqelikdan qochishning» to‘rtta turi mavjud: 1) «o‘z qobig‘iga berkinish»; 2) «ishga berilib ketish»; 3) «aloqalarga yoki aksincha, yolg‘izlikka intilish»; 4) «xom xayollarga berilish».

«O‘z qobig‘iga berkinish» ko‘rinishidagi voqelikdan qochishni tanlashda oila, xizmatda ko‘tarilish yoki qiziqish, odatiy hayot qadriyatlari iyerarxiyasini o‘zgartirish, faoliyatni o‘zgartirishga qaratilgan. Bunda faqat o‘zini jismoniy yoki ruhiy jihatdan takomillashtirishni maqsad qilgan an’anaviy hayot tarzini egallash yuz beradi. Bunda sog‘lomlashtirish tadbirlari, o‘zaro jinsiy munosabatlar, shaxsiy qiyofa, dam olish sifati va bo‘shashish usullariga qiziqish giperkompensatorli bo‘lib qoladi.

«Ishga berilib ketish» insonning, mehnatkash bo‘la turib, hayotning boshqa sohalari bilan tenglashtirib bo‘lmaydigan vaqtni ajrata boshlaydigan xizmat ishini nomutanosib tarzda tashkil etishi bilan tavsiflanadi.

Kommunikativ qadriyatning o‘zgarishi muloqotda bo‘lish yoxud barcha ehtiyojlarni qondirishning yagona istalgan usuli bo‘lib qoluvchi, «muloqotlarga yoki yolg‘izlikka intilish» ko‘rinishidagi axloqni tanlangan taqdirda shakllanadi.

«Xom xayollarga berilish» - bu hayotda nimanidir ro‘yobga chiqarish, biron-bir harakatni amalga oshirish, real faollikni mavjud bo‘lmagan holda namoyon qilish istagini fikrlash, xayol qilishga moyillikdir. Narkotik moddalar iste‘mol qilish insoniyat tomonidan qadim davrlardan buyon qo‘llanib kelganiga qaramay, ular ta‘sirining ijtimoiy ko‘lami g‘oyat cheklangan edi. Birinchi navbatda, bu narkotiklarning ruhiyatga ta‘siri odatlar tufayli yoki diniy ta‘sir ko‘rsatish shakllarida foydalanilganligi uchun ro‘y bergan. Narkotik moddalar bu holda o‘zgargan holatda voqelikdan tashqariga chiqish va ilohiyot bilan «muloqot o‘rnatish», kelajakni oldindan aytib berish uchun ishlatilgan. Demak, narkotiklar puxta tuzilgan faoliyatga kiritilgan bo‘lib, ma‘lum ijtimoiy-psixologik maqsadlarga erishish vositasi sifatida xizmat qilgan. Marosimlarning bunday qat‘iy chizilgan tuzilmasi, ularning jamoaviy xususiyati individual ong va rivojlanmagan shaxsiyat ibtidosining o‘rnini to‘ldirish imkoniyatini bergan. Aynan shu narsa narkotiklarni ommaviy ko‘lamdagi ruhiy faol vosita sifatida iste‘mol qilishning tarqalishidan himoya qilgan.

Narkotiklar yetishtirishning cheklanganligi va yoqimsiz hislar tufayli qabul qilinmasligiga olib keluvchi tabiiy biologik himoya mexanizmlarining ta'siri boshqa to'xtatib turuvchi omillar hisoblangan. Keyinchalik kimyoviy yo'l bilan narkotik moddalar olish mumkinligi, ularning sanoatda ishlab chiqarilishi va sotishdan olinadigan misli ko'rilmagan foyda narkotiklar iste'mol qilishning nazoratga olib bo'lmaydigan darajada o'sishi va narkotik qaramlikning keng ko'lamda shakllanishiga olib keldi.

Hozirgi vaqtda giyohvandlik shakllanishining sabablari to'g'risida ko'plab nazariyalar (fikrlar) mavjud. Ulardan eng ko'p tarqalganlarini ko'rib chiqamiz.

1. *Degenerativ nazariyalar.* Ularda giyohvandlik asosan «ayniyotgan» shaxslarga xos bo'lgan nuqson shaklida ko'riladi. Narkotiklarga eng ko'p o'rganish psixopatik, infantil yoki ipoxondrik-melanxolik, ba'zan vegetativ-og'riqli kompleksli (migren) shaxslarda uchraydi. Shuningdek miyaning organik kasalliklarini boshidan o'tkazgan, oligofreniya, tutqanoq bilan kasallanganlar unga tezda o'rganadi. Jinoyat olamida Giyohvandlarning ancha miqdori tubanlashgan elementlar va fohishalar orasida, ya'ni biz delinkventlar deb belgilagan shaxslar orasida kuzatiladi. Narkotiklar juda qimmat turadi, shuning uchun ularni iste'mol qilishga ruju qo'yganlar ularni topish uchun har qanday usullarni izlashga majbur bo'ladilar. Bir qator mualliflar giyohvandlikka moyillik nasldan naslga o'tadi deb ko'rsatadilar.

2. *Biologik nazariyalar.* Bolaning u yoki boshqa sabablar ta'siri ostida rivojlanish jarayonida ma'lum miya hosilalari, birinchi navbatda - kishining hissiyotiga javob beruvchi limbik tizimi shikastlanadi degan taxminlar mavjud. Bu shikastlanishlar juda nozik bo'lib, chamasi, neyronlar (bosh miyasi hujayralari) o'rtasida muloqot va aloqalar o'rnatish darajasida, shuningdek neyronlarning o'z tuzilishlari darajasida sodir bo'ladi. Bosh miyaning to'g'ri rivojlanishi turli sabablar ta'sirida: mexanik shikastlanishlar (miya chayqalishlari), yuqumli kasalliklar, ayniqsa virusli, turli-tuman zaharlanishlar, shu jumladan oziq-ovqatdan og'ir zaharlanishlar natijasida, shuningdek ruhiy zarbalar natijasida buzilishi mumkin. Hayvonlarda o'tkazilgan tajribalarda aniqlanishicha, bolalar ota-onasidan ajratib qo'yilgan hollarda ular endorfinli retseptorlar faolligi ortadi, bu esa xavotirlik tuyg'usi va notinch axloq yuzaga kelishiga olib keladi. Shubhasiz,

inson bolalarida ham xuddi shu holat sodir bo‘ladi. Opiy ta‘siriga beriluvchan retseptorlarning yuqori faolligi narkotik yoki alkogolning ortiq miqdori bilan muvozanatlashadi, bu esa suiiste‘molchilik sababi bo‘lib xizmat qiladi.

3. *Psixodinamik nazariyalar*. Geroin ta‘siriga qaramlik va tegishli hayot tarzini kechirish mazkur nazariyalarda shaxsning «Men»ining sekinlashgan rivojlanishga moslashuvi deb ko‘rib chiqiladi. Ruhiyat buzilishlarining xos shakllanishi uchun keskin davr separatsiya-individuallashish bosqichining rivojlanishi hisoblanadi.

«Men» – voqelik tamoyillariga muvofiq ravishda ongsiz intilishlar va uning istaklarini boshqargan holda hayot talablariga moslashish imkonini beruvchi ruhiy tuzilishdir. U butun hayot davomida uzluksiz ravishda, lekin bolalikda – tezroq, chaqaloqlikdan boshlab rivojlanib boradi.

Separatsiya - shaxs rivojlanishining boshlang‘ich davri bo‘lib, unda shaxsning o‘zini tashqi dunyodan ajratib olishi sodir bo‘ladi va atrofdagi obyektlar bilan faol o‘zaro munosabatlar jarayoni boshlanadi.

«Me‘yoridan ortiq - Men» – «Men»ga nisbatan sudya yoki sensor rolini o‘ynovchi, axloqiy ong, o‘zini o‘zi kuzatish va ideallar shakllanishiga javobgar bo‘lgan ruhiy bosqich; ota-onalarning talablari va taqiqlari interiorizatsiyasi natijasida hosil bo‘ladi.

Bu davrda shaxsiy qadr-qimmat tuyg‘usi, ichki turtkilarni boshqarish va «me‘yoridan ortiq Men» funksiyasi rivojlanadi. Agar bola ota-onasidan bir-biriga qarama-qarshi ko‘rsatmalar olsa, unda uning axloqida noaniq cheklashlar va ahamiyatli zotlarga mutelik vujudga keladi. Agar kelgusida ular uning yonida bo‘lmasa, bu jiddiy his-hayajonli yo‘qotishga aylanadi. Bunday vaziyatda bolada aybdorlik tuyg‘usi rivojlanadi, u unga nisbatan muhabbat tuyg‘usi yo‘qolishiga o‘zini sababchi deb biladi. Natijada unda og‘riqli ta‘sirga ega bo‘lgan ishonchsizlik, hech kimga keraksizlik va qoniqtirilmagan muhabbatga ehtiyoj tuyg‘usi rivojlanadi. Bu vaqtda unda muhabbatga bog‘lanib qolish va qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan ehtiyoj darhol sun‘iy obyekt – narkotik yordamida qanoatlantirilishi mumkin.

Narkotiklar iste‘mol qilishdan qiynalish ushbu ichki nizoni hal etish hisoblanadi. Bunday holda, giyohvand xuddi narkotikka qaram bo‘lib qolgani kabi, unga hamroh bo‘lgan azoblanishga ham qaram bo‘lib qoladi. Giyohvand narkotik iste‘mol qilishdan oldin ham, iste‘mol qilganidan keyin ham – odamlardan unga bevosita yordam

berishlarini so‘rashga layoqatsiz bo‘ladi. U o‘zini rad etilishi qo‘rquvdan himoya qiluvchi manipulyativ axloq vositasida vaziyatni nazorat qiladi. Bunday axloqning maqsadi istakni zudlik bilan qondirish hisoblanadi. Giyohvandlar kelajakka ishonmaydilar, ular uchun boshqalarga nisbatan ishonchsizlik, shuningdek o‘ziga bo‘lgan ishonchning umuman mavjud emasligi xosdir. Umume’tirof etlgan fikrlarga ko‘ra, giyohvandlar hayot quvonchlarini qabul qilmaydilar, ular muvaffaqiyatdan qo‘rqadilar, ularning axloqi destruktiv xulq-atvorda – asossiz tajovuzkorlik yoki suitsidal harakatlarda namoyon bo‘ladi. Aslida esa ularning muvaffaqiyatdan qo‘rqishi bu muvaffaqiyat uzoqqa cho‘zilmasligi, qachondir tugashi va ular yana xuddi bolaligidagidek chidab bo‘lmaydigan og‘riq, ko‘ngil qolishi va boshqa salbiy hissiyotlarni tuyishlari mumkinligi to‘g‘risidagi qo‘rquvga asoslangan bo‘ladi. Shu bois, bu qo‘rquvni yengish uchun giyohvand ongsiz ravishda o‘z muvaffaqiyatini buzishga intiladi. Demak, giyohvandni yana boladek tobeklikda bo‘lishiga va majburiyatga ega bo‘lmaslikka urinayotgan shaxs sifatida ko‘rib chiqish mumkin. Ilk ehtiyojlarini darhol qondirish bilan tavsiflanuvchi bunday inqirozlar – ota-onadan ajralish jarayonida ishonch va xavfsizlik muhiti mavjud bo‘lmagan tashvishli erta bolalikning natijasi hisoblanadi. Shunday qilib, narkotiklarga qaramlikni qattiq hayajonda yuzaga kelgan og‘riqni yengillashtirish va bir qancha vaqtga o‘zini boshqarish va ishlash layoqatini oshirishga yo‘naltirilgan adaptiv axloq sifatida ko‘rib chiqish mumkin. Bir qator tadqiqotchilar, narkotiklar qabul qilish vaqtidagi eyforiya (ko‘tarinki kayfiyat) holatini ta’riflashda uni shahvoniy tabiatga kiritadilar va libidonozi faoliyatining buzilishi ko‘rinishidagi o‘ziga xos farmakogenli orgazm sifatida baholaydilar. Demak, jinsiy munosabatlardan olinadigan lazzat farmakogen tabiatga ega bo‘lgan lazzat ta’siri bilan almashtiriladi. Sevgi obyektlariga boshqa zaruriyat bo‘lmaydi va giyohvand mazkur holatda o‘zining benuqson ekanligini his qiladi, zero u bilan boshqa hech narsa sodir bo‘lmaydi. Lekin keyin farmakotimik krizis boshlanadi, undan chiqib ketishning esa uchta yo‘li mavjud: 1) suitsid, bunda bemor uning quvonchi abadiy bo‘ladi deb hisoblaydi; 2) vaqtinchalik remissiyaga qochish; 3) psixoz – ruhiy kasallikning boshlanishi.

4. *Tizimli-yo‘naltirilgan nazariyalar.* Giyohvandilik bu yerda oilaviy yoki boshqa munosabatlar tizimida patologik (nuqsonli) muvozanat natijasi kabi ko‘rib chiqiladi. Shaxsiy munosabatlarda

giyohvand hamkoriga undan kuchliroq bo'lish imkoniyatini beradi. O'smir giyohvandlar uchun «uydan uzilish» muammosi xosdir. Bu yerda giyohvandlik soxta mustaqillik va soxta individuallashuvni qo'lga kiritish uchun xizmat qiladi. Bu ota-onalarning o'ta qat'iy g'amxo'r yoki aksincha, ularning to'liq befarq bo'lgan holatlarida sodir bo'ladi. Shunday qilib, ota-onalar tomonidan erta jarohatlanish bolani «salbiy bog'lanishi», «xo'rlanish vahimasi»ga olib keladi. Hatto u ulg'ayganda ham, ota-onalari uning uchun avvalgidek ularga tobe bo'lgan va ulardan uzila olmaydigan o'ta ahamiyatli shaxslar bo'lib qoladi, yoxud o'zini inkor qilishgacha bo'lgan salbiy e'tibor va baholash obyekti hisoblanadi.

5. *Ijtimoiy nazariyalar.* Mazkar nazariyalar narkotiklarni iste'mol qilishni jamiyatning disfunktsiyalanishi natijasi deb hisoblashadi. Mualliflarning fikricha, odamlar jamiyatdagi bosimdan qochish yoki ularning me'yorlariga qarshi norozilik belgisi sifatida narkotik iste'mol qiladilar. Ushbu nazariya ayrim tarafdorlarining ta'kidlashicha, birorta ham giyohvandni davolash ta'siri ostiga tushirib bo'lmaydi, chunki u jamiyatni disfunktsiyalovchi giyohvandlikning haqiqiy sababiga ta'sir ko'rsata olmaydi. Ularning ta'kidlashicha, davolash faqatgina o'z mohiyatiga ko'ra na kasal, na anomal bo'lgan odamlarni sharmanda qilishi mumkin. Bu nuqtai nazarni aksariyat amerikaliklar – harbiy harakatlar vaqtida heroin iste'mol qilishga qiziqib qolgan Vyetnam urushi faxriylarining normal hayotga qaytishlari bilan hech qanday muammosiz uni iste'mol qilishdan voz kecha olganliklari holati bilan tasdiqlanadi.

Zamonaviy psixologiya narkotiklar iste'mol qilishning bir nechta sababiy darajalarini ajratadi.

Birinchi daraja – ongsiz bo'lib, tug'ilish vaqtidagi shikastlanishga aloqador bo'ladi. Tug'ilish vaqtidagi jarohat ruhiyatdagi salbiy jarayonlarning aksariyati uchun asos bo'ladi, chunki oddiy ongli harakatlar yo'li bilan ulardan qutulish imkoni bo'lmagani sababli, bu salbiy hissiyotli zaradni inson o'z ichida olib yuradi. Bu darajada shaxsning boshlang'ich tuzilishi va narkotiklar hamda stimulyatorlarni iste'mol qilishning asosiy qo'zg'atuvchi sabablari hosil bo'ladi.

Ikkinchi daraja - intuitiv, tana xotirasiga asoslanadi. Bizning barcha salbiy hissiyotlarimiz tanamizda bukuvchi mushaklar va rostlovchi mushaklar o'rtasidagi harakatga turtki beruvchi mushaklar va uni ushlab turuvchi mushaklar o'rtasidagi kuchlanish ko'rinishida

aks etadi. Bu kuchlanishni iroda kuchi yoki biron-bir shunga o'xshash kuch bilan yumshatish mumkin emas. Shu vaqtning o'zida, narkotiklar va stimulyatorlar, tanaga ta'sir ko'rsatgan va ong holatini o'zgartirgan holda shunday imkoniyatni beradi.

Uchinchi daraja – ongli, simptomni (alomatni) kuchaytirish shaklida. Qandaydir ichki muammoning hal bo'lishi uchun inson ongli ravishda go'yo uning barcha ko'rinishlarini kuchaytirgan holda o'zining oxirgi holatiga, bema'nilik darajasigacha yetkazishi mumkin. Bu holda, uning eng oxiriga yetish uchun vaziyatni ataylab keskinlashtirishda va muammo hal bo'ladi.

Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti giyohvandlikning (toksikomaniyaning) quyidagi diagnostik alomatlarini taklif etadi:

1) tabiiy yoki sintetik zaharli moddani takroriy ravishda qabul qilish natijasida giyohvandda uning o'zi va atrofida uchun zarar va xavf tug'diruvchi davriy yoki surunkali zaharlanish holati yuzaga keladi;

2) o'sib borayotgan zaharga chidamlilik (va his-hayajonli samaraning pasayishi) tufayli giyohvand dozani oshirishga muhtoj bo'ladi;

3) u endi zaharni qabul qilishdan bosh tortish layoqatiga ega bo'lmaydi, chunki qabul qilishni to'xtatishda unda jismonan og'ir, ruhan chidab bo'lmaydigan holat yuzaga keladi.

Giyohvandlikda shaxsning psixologik va fiziologik o'zgarishlari. Lanjlik, passivlik, jizzakilik, irodasizlik, hissiyot o'zgaruvchanligi, xudbinlik, qiziqish doirasining torayishi, o'z qilmishlariga bo'lgan tanqidiy munosabatning pasayishi xosdir. Giyohvandning tashqi qiyofasi ham o'zgaradi: yuzi sarg'ish-zahil tus oladi, terisi quruqlashadi, ko'z qorachiqalari ingichkalashadi, arterial qon bosimi pasayadi, jinsiy funktsiya o'cha boshlaydi, oy ko'rish to'xtaydi, ich ketishlar yoki ich qotishlar yuz beradi. Yaqqol aks etgan giyohvandlikda qo'llar qaltirashi, sekinlashgan yoki tushunarsiz nutq kuzatiladi. Abstinen-siyada xavotir, g'am-g'ussa, ba'zan suitsidal urinishlar, bo'g'inlar, belning tez-tez og'rishi, taxikardiya, nafas olish tezlashuvining, tana haroratining ko'tarilishi, qayt qilish, ich ketishi, titrash xosdir. Garchi giyohvandlikning o'tishi va bashorati, qoidaga ko'ra, alkogolizmga nisbatan jiddiyroq bo'lsada, uning yuzaga kelishining ko'plab shart-sharoitlari va shaxsni qiziqitiruvchi xususiyatlari giyohvandlik va alkogolizm uchun umumiy hisoblanadi. Giyohvandlikning alkogolizm-ga nisbatan og'irligi (kamroq darajada) shaxsning moyillik xususiyat-

lariga va iste'mol qilinayotgan moddaning kimyoviy va farmakologik xossalari (ko'proq darajada) uning fiziologik va ruhiy qaramlikni yuzaga keltirish layoqatiga bog'liq bo'ladi. Shunday qilib, giyohvandlikning mohiyati morfin, kokain, heroin kabi kuchli narkotiklar iste'mol qiluvchi shaxslar va stimulyatorlar, barbituratlar, kannabis va boshqalarni iste'mol qiluvchilarda bir xil bo'lmaydi. Giyohvandlikning og'irligi shuningdek, yosh va jinsga bog'liq. Narkotiklar va alkogol qabul qilish ko'pincha hayotiy ehtiyojlarga nisbatan o'rin bosuvchi rol o'ynaydi. Ularning yordami bilan individ kundalik g'am-tashvishlardan uzoqlashadi. Mazkur psixologik tadqiqotlar bo'yicha giyohvandlar va alkogoliklar o'zi haqida past fikrga egadirlar va o'zlariga ishonmaydilar. Doimo bo'lishi mumkin bo'lgan omadsizliklar yuzasidan xavotirda bo'lgan holda, tanqidni o'zlariga og'ir oladilar va doimiy maqtovlar va rag'batlantirishlarga muhtojdirlar. Ko'pincha ular narkotiklar va alkogolni xavotirni bosish, salbiy tashvishlar yoki depressiyadan chalg'ish uchun iste'mol qiladilar. Giyohvandlik yuzaga kelishida oila alkogolizm rivojlanishiga nisbatan kamroq rol o'ynaydi. Shu bilan birga, er-xotinning biri giyohvand bo'lgan holda ikkinchisini giyohvandlikga jalb qilish hollari ham ko'p uchraydi.

Alkogolizm – etilli alkogolga o'rganish va keyinchalik alkogol unga ruhiy va fiziologik jihatdan qaram bo'lib qolishdan, iborat bo'lib, somatik va ruhiy sog'liqni buzadi, boshqa odamlar bilan nizolarni keltirib chiqaradi, ijtimoiy va iqtisodiy holatning yomonlashuviga olib keladi.

Alkogolga o'rganib qolish holati mavjud bo'lib, ichuvchi odam ichimlik miqdorini nazorat qilish va hatto ichish to'g'ri kelmaydigan vaziyatlarda uni iste'mol qilishni *vaqtincha to'xtatishga* qodir bo'ladigan maishiy alkogolizm va yuqorida qayd etilgan imkoniyatlari yo'qoladigan *surunkali alkogolizmga* ajratiladi. Bunday hollarda alkogolga ishtiyoqlilik o'zgaradi va kerakli samaraga erishish uchun uning miqdorini sekin-asta oshirishga to'g'ri keladi. Keyinchalik chidamlilik pasayadi va alkogolning nisbatan kam miqdorida ham mastlik yuzaga keladi.

Alkogolizmning quyidagi sotsiopsixologik mezonlari ajratiladi: subyekt ertalabdan alkogolli ichimlik ichib olmasa, ishini bajara olmaydi (aks holda unda abstinensiya ko'rinishlari rivojlanadi); u iste'mol qilinayotgan ichimliklar miqdorini boshqara olmaydi va tanaffuslar qilish qiyin bo'ladi yoki iloji bo'lmaydi; amnestik mastlik holatlari mavjud bo'ldi (alkogol o'z axloqi ustidan nazoratni yo'qotadi

va kelgusida u haqda eslay olmaydi); va nihoyat, mastlik davrlari yuzaga kelsa, mast holda takroran huquqbuzarliklar sodir etsa, muntazam ravishda ishlash imkoniyati yo'qoladi va oilaviy munosabatlar buziladi. Ta'kidlash joizki, ushbu mezonlar giyohvandlar uchun ham xosdir.

Alkogolizmning psixologik tadqiqotlarida ilgari Freyd bolalik yoshida aniqlangan va keyinchalik saqlanib qolgan lablarning konstitutsional erotizmiga ega bo'lgan o'g'il bolalar ulg'ayganlarida ifodalangan ichish va chekishga bo'lgan istaklarini yaqqol namoyon qilishgan. Keyn Abraxam alkogolizm va shahvoniylik o'rtasidagi psixologik aloqa to'g'risidagi batafsil hisobotni taqdim qilgan. Uning fikricha, alkogolizm sublimatsiyaga layoqatlilikni yemiradi. Natijada alkogol shaxsda yana erta siqib chiqarilgan bolalar shahvoniyligining eksgibitsionizm, sadizm, mazoxizm, inestet va gomoseksualizm kabi ko'rinishlari namoyon bo'ladi. Abraxamning faraz qilishicha, ramziy mazmunda spirtli ichimlik iste'mol qilish alkogolikdagi shahvoniy faollikning o'zidir. Biroq, pirovard natijada alkogolizm jinsiy zaiflikka olib keladi, buning asosida rashk xom xayollari paydo bo'ladi. Paranoyya holatini tahlil qilib, Freyd alkogolli rashk gallyutsinatsiyasini mizojning latent besoqolbozligining ongsiz harakati deb tushuntiradi.

Ijtimoiy nazariya tarafdorlarining ta'kidlashicha, alkogol ijtimoiy muloqot jihatidan odamlar o'rtasida vositachi hisoblanadi va jamiyat bilan munosabatlarni aniqlashtirish uchun ichki vosita kabi qo'llaniladi. Haqiqatdan ham, bir tomondan, alkogol sotsium tomondan ma'qullanmaydigan qilmishlar sodir etilishini yengillashtirgan holda ijtimoiy me'yorlar, yo'l-yo'riqlar va taqiqlarning ahamiyatini pasaytiradi, boshqa tomondan esa – ruhiy o'zini ajratish va xom xayollarni o'stirishga imkoniyat beradi. Shuning uchun, alkogol iste'mol qiluvchi odam, tashqaridan qaraganga nisbatan jamiyatga ancha kuchliroq bog'langan bo'ladi. Bunday holda, alkogol iste'mol qilish ko'tarilgan, hatto ortiqcha o'zini nazorat qilish, ichki taqiqlar va ruhiyatidagi ota o'rnining ahamiyati bilan bog'liq bo'ladi. Bunday odamlar doimiy ravishda ularga ichidan bo'shanish imkonini bermay, o'zlarining tinch qo'ymayotgan ichki «kerak» va «mumkin emas»lari bilan munosabatlarni aniqlab boradilar. Ular uchun bu o'zini nazorat qilishdan hatto mastlik holatida ham «o'zini qo'lga olish»ga bo'lgan urinishlar bilan bir vaqtda undan qutulishga intilishga xosdir. Bir

vaqtning o'zida alkogol aybdorlik tuyg'usi, depressiya, chiqib ketishga yo'l yo'qligini his qilish va jazo g'oyasi – bostirilgan jinsiy aloqaning ushbu zaruriy yo'ldoshlariga bog'liq bo'ladi. Mualliflarning fikricha, ong ostida ildiz otgan aybdorlik tuyg'usi tug'ilgan vaqtdagi jarohatga bevosita aloqador bo'lib, qandaydir aniq hayotiy holatlar natijasida kelib chiqqan hisoblanmaydi. Alkogolik uchun aybdorlik yukidan ozod bo'lish usullaridan biri uni biron-bir «jinoiyat» bilan, sun'iy ravishda hosil qilingan vaziyat bilan bog'lash hisoblanadi, bu esa ma'lum yengillikka olib keladi. «Jinoiyat» orqasidan «jazo» kelishi lozim va u ko'pincha alkogol ta'sirining jiddiy va ahamiyatli tarkibiy qismi hisoblanuvchi karaxtlik hisoblanadi. Dipsomaniya davrida alkogolni me'yoridan ortiq iste'mol qilish keskin fiziologik zo'riqishga bardosh berishga layoqatsizligi, psixologik jihatdan keskinlikni yumshatishga bo'lgan muhtojlik va shaxsning so'nggi stress holatlariga ichki chidamsizligiga bog'liq. Har qanday holatda alkogol chidab bo'lmaydigan ichki bosimdan qutulishga urinish bo'lib qoladi.

Shunday qilib, alkogolizm sabablari minimum darajada ikki omilni o'z ichiga oladi. Bir tomondan, shaxsning qiziqtiruvchi xususiyatlari - konformlilik, g'o'rlik, qaramlik, taqlid qilishga, distimiyaga moyillik. Distimiyaga – tushkun, g'amgin kayfiyat. Boshqa tomondan, jamiyatdagi ma'lum muhitida va asosan oilada alkogol iste'mol qilish an'anasi. Individning alkogol iste'mol qilishni boshlagan yoshi katta ahamiyatga egadir: yosh vaqtda ichishga odatlanishi va alkogolga qaram bo'lib qolish oson yuzaga keladi. Shuningdek, etnik xususiyatlar ham ahamiyatga egadir, masalan, alkogolni ko'proq irlandiyaliklar, ruslar, kamroq xitoyliklar, yahudiylar iste'mol qilishi ma'lum. Erkaklar va ayollar alkogolizmining nisbati ilgari taxminan 15:1 ga teng bo'lgan bo'lsa, hozir - 5:1 ga teng. O'smirlikda ichayotganlar soni ko'payishi hisobiga alkogolizmning «yasharishi» an'analari qayd etilgan. Bu esa juda erta emansipatsiya, televideniye va kinoning ta'siri, alkogol ichimliklarga bo'lgan ruxsatga bog'liqdir. Demak, alkogolizm shakllanishida ijtimoiy sabablar ma'lum rol o'ynaydi.

Giyohvandlik va alkogolizm. Ijtimoiy sharoitlarni tadqiq qila borib, kim va qanday qilib narkotiklarni iste'mol qilishi haqida ko'plab narsalarni bilib olish mumkin. Tarixiy o'zgarishlar insonlarda yuzaga kelayotgan alkogolga qaramlik va uning oqibatlarini xarakteriga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Taxminan ikki yuz yil muqaddam odamlar o'simlik xom ashyosidan toza kimyoviy moddalar olishni o'rganib olishdi, bu

esa kuchli va xavfli narkotiklar yaratilishiga olib keldi. XIX asrning ikkinchi yarmida teri ostiga inyeksiya yuborish uchun ignaning kashf etilishi giyohvandlarga organizmning tabiiy biologik himoya mexanizmlarini aldash imkonini yaratdi: ular narkotiklar juda sekin soʻriladigan, ularning achchiq taʼmi esa jirkanish va yoqimsiz tuygʻularni paydo qiluvchi oziq-ovqat yoʻlini chetlab oʻtgan holda narkotiklarni kiritishni boshladilar. XX asrda koʻplab sintetik narkotiklar yaratilishi bilan giyohvandlarning imkoniyatlari kengaydi, ularning soni ortdi. Lekin madaniy muhitning narkotikka qaramlikka taʼsiri bu bilan cheklanmaydi. Shubhasiz vaqtning koʻp qismini koʻp ichadigan odamlar bilan oʻtkazadigan kishilar ham spirtli ichimliklarni isteʼmol qiladigan boʻlib qolishadi. Ayrim etnik guruhlar alkogolizmga boshqalardan koʻra koʻproq moyildirlar, bu esa, chamasi, avloddan-avlodga oʻtuvchi spirtli ichimlik isteʼmol qilish anʼanasi bilan bogʻliq. Narkotiklarni isteʼmol qilish ustidan jamiyat nazoratining susayishi narkotikka qaramlar sonining koʻpayishiga sababchi boʻladi. Agar narkotik isteʼmol qilish anʼanasiga ega boʻlmagan va uning kishiga taʼsiri oqibatlariga tayyor boʻlmagan madaniy muhitda paydo boʻlsa, unga qaramlik epidemiya kabi ommaviy tus olishi mumkin. Amerikalik hindu qabilalari alkogol bilan tanishgan vaqtda shunday voqealar sodir boʻlgan. Zamonaviy industrial jamiyatda giyohvandlikning yuqori darajada ekanligi sabablaridan biri narkotik moddalarni isteʼmol qilishni tartibga soluvchi belgilangan qoidalarning mavjud emasligi boʻlishi mumkin.

Oʻzini oʻzi yemiruvchi axloqning eng keskin shakli oʻzini oʻzi asrash yoki hayotini asrash instinktining buzilishida namoyon boʻladi. Bu instinkt hayvonot olami, shu jumladan insoniyat turmushida muhim rol oʻynaydi, chunki uning taʼsiri tirik organizm faoliyatining asosiy stimullari – «jazo, «lazzat» stimullariga asoslangan. Shuning uchun uning buzilishi gomeostaz – hayotiy muhim funksiyalarni taʼminlash va muvozanatlash kompleksining buzilishi bilan bogʻliq.

Gomeostaz – biron-bir tizimning ushbu muvozanatni buzuvchi ichki va tashqi omillarga qarshi taʼsir koʻrsatish yoʻli bilan saqlanadigan muvozanatli holatidir.

Haqiqatdan ham, garchi ular hayvonot olamida odamlardagiga nisbatan kamroq uchrasada, oʻzini oʻzini oʻldirish holatlarini hayvonlarda, masalan, oʻzini oʻzi oʻldiruvchi kitlarda ham kuzatish mumkin. Jonivorlar koʻpincha sherigini yoʻqotish, erkinlikdan mahrum

bo'lish va hatto egasini yo'qotish oqibatida yuzaga kelgan og'ir hissiy holatlarda o'zini o'zi o'ldirishga urinadilar. Ba'zan bunday holatda ular oziqlanishdan bosh tortadilar, o'zlariga shikast yetkazishga intiladilar. Odam o'z hayot yo'lining chegarasini aniq tasavvur etuvchi yerdagi yagona mavjudot hisoblanadi. Uning o'limga munosabati g'oyat murakkab va ko'p ma'nolidir: u xuddi doimo unga tayyorlangandek bo'ladi, va shu bilan bir vaqtda hech qachon uzil-kesil tayyor bo'lmaydi. Bu ambivalent munosabatlar bir qator badiiy asarlarda o'z aksini topgan. Shuning uchun, kishining o'zini o'zi o'ldirishi muammosi shuningdek, ratsional – ongli va irratsional – ichki his bilan sezish bilimlarining nisbatiga bog'liq. Bu jihatdan kishi uchun o'zini o'zi o'ldirish vaqtinchalik chora hisoblanmaydi. Axir hech narsani hech narsaga almashtirib bo'lmaydi.

III bob. SUITSIDAL AXLOQ VA SHAXS AXLOQINING ANOMAL TURLARI PSIXOLOGIYASI

1-§. Suitsidal xulq-atvor psixologiyasi

Suitsid (ing. suicide – o‘zini o‘zi o‘ldirish) – kishi tomonidan kuchli ruhiy zo‘riqish holatida sodir etiluvchi o‘zini o‘zi o‘ldirish holati; shaxsda ular mavjudligida shaxsiy hayoti oliy qadriyat sifatida o‘z ma’nosini yo‘qotadigan o‘tkir ruhiy jarohat yetkazuvchi vaziyatlar ta’siri ostida ongli ravishda hayotdan olib tashlash holati.

Hozirgi vaqtda suitsidal ahloq global jamoatchilik muammosi hisoblanadi. Rasmiy statistik ma’lumotlarga qaraganda yer yuzida har yili 1 mln.100 mingga yaqin odam o‘z joniga qasd qilish bilan o‘z hayotiga yakun yasaydi¹.

Shubhasiz, inson ongi foniylikni mutanosib ravishda o‘zlashtirishga qodir emas, lekin, shunday bo‘lsada, o‘zini o‘zi o‘ldirish ehtimolini ko‘rib chiqayotgan odam qanchalik agnostik va skeptik bo‘lmasin, u beixtiyor o‘limdan keyingi, hatto yanada ma’qulroq hayot mavjudligini tan oladi. O‘z-o‘zidan bu hali o‘zini o‘zi o‘ldiruvchi shaxsning aqlidan tashqari fikrlashi va voqeiy bo‘lmagan narsalarni afzalroq ko‘rishini isbotlamaydi, lekin shu bilan bir vaqtda o‘zida o‘limdan keyingi hayotga bo‘lgan ishonch har doim ko‘plab xalqlarning madaniy-diniy udumlari predmetini tashkil qilib kelgan. Bunday holda, potensial o‘zini o‘zi o‘ldiruvchilar tafakkurining irratsionalligi va xayoliyligi tushunarli bo‘ladi. O‘zini o‘zi o‘ldirish hodisa sifatida quyidagi tarkibiy elementlar bilan tavsiflanishi mumkin. Birinchidan, bu qotillik. Ko‘p tillarda uning tub, tashkil qiluvchi so‘zi «qotillik» hisoblanadi. Biroq, atamaning ikkinchi qismi - «o‘zini o‘zi» so‘zi insonning o‘zi tomonidan sodir etilgan qotillikni nazarda tutadi. Boshqacha qilib aytganda, qotil va qurbon bir kishining o‘zi bo‘lgan vaziyat yuzaga keladi. Demak, o‘zini o‘zi o‘ldirishni o‘limning uchta ajralmas elementi: o‘lish elementi, o‘ldirish elementi va qotillik qurboni elementini anglatuvchi o‘ziga xos turi deb hisoblash mumkin.

¹*Карагз: <http://lossofsoul.com/DEATH/suicide/statistic.htm>*

Ruhan sog'lom odamlarda o'zini o'zi o'ldirish sabablari ko'pincha o'tkir ruhiy-shikastlovchi vaziyatlar va kamroq - kelib chiqishi turlicha bo'lgan cho'zilgan ruhiy tanglik yoki yashashning chidab bo'lmas shart-sharoitlari bilan bog'liq bo'ladi. O'zini o'ldirish istagi ruhiy-asab tizimi beqaror bo'lgan shaxslarda, ayniqsa nevrotiklar va kuchli ta'sirlanuvchi, kayfiyati o'zgarib turuvchi psixopatlarida ko'proq uchraydi. Ayrim mualliflar o'zini o'zi o'ldirishga moyillikni xarakterning, ularning fikricha, shoirlar, rassomlar, artistlarga xos bo'lgan alohida badiiy tipiga moyillik deb ta'kidlaydilar.

Ba'zan odamlar o'zlarini yashashning qiyinligi va imkoniyatsizligi sabab bo'lgan ekstremal vaziyatlarda: masalan, konsentratsion lagerlardagi shafqatsiz sharoitlarda, qiynash, azoblash, xo'rlash va ochlik ta'siri ostida o'zlarini o'ldirishga urinadilar. O'zini o'zi o'ldirish to'g'risida fikrlarga shuningdek, chidab bo'lmaydigan og'riq beruvchi og'ir, davosiz kasalliklar – saraton va ba'zi boshqa kasalliklar ham olib kelishi mumkin.

Agar bunda ong xiralashmasdan qolgan bo'lsa, unda azob-uqubatlarga barham berish haqida tabiiy istak paydo bo'ladi. Ko'pincha o'zini o'zi o'ldirishlar va ularning urinishlari turli depressiyalar, psixologik va ijtimoiy omillarga bog'liq. Ulardan eng ko'p tarqalgani yolg'izlik, sherigi yoki yaqin kishisini yo'qotish, muvaffaqiyatsizlik yoki toptalgan mavqei, obro'sizlantiruvchi vaziyat, hayotiy manbaini yo'qotish, bankrotlik va hokazolardir. Demak, o'zini saqlash instinktining buzilishi va o'zini o'ldirish istagi, bir tomondan subyektning ruhiy faoliyatidagi qanday o'zgarishlar chuqur affektga olib kelishiga, ikkinchi tomondan esa - ijtimoiy shart-sharoitlar va shaxsning individual xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Aslida, hishayajonli-affektiv ta'sirchan registrni «yoqib qo'yish» nafaqat ruhiyatning chuqur, balki onggacha bo'lgan yanada yuqoriroq darajadagi tuzilmasidan kelib chiqadi. Shunday qilib, bu o'rinda hishayajonli ta'sirchanlikning murakkab apparati mavjudligi to'g'risida so'z yuritish mumkin. Bu ta'sirchanlikning darajalari chuqurroq (qo'rquv, xavotir, nafrat, qahr-g'azab, quvonch, baxt) yoki nozikroq (qayg'u, g'amginlik, estetik tashvishlar va hokazolar) bo'ladi.

Ma'lumki, odam ma'lum darajada o'zining ichki dunyosini yaratadi va shuning uchun o'zini o'zi o'ldirish haqida qaror qabul qilishning boshlang'ich nuqtasini aniqlash muhimdir. Agar dinamikadagi qaror qabul qilish jarayonini modellashtirishga harakat

qilsak, unda ko‘p narsa vaziyatdan chiqishning iloji yo‘qligini oqlash bilan bog‘liq bo‘ladi. Boshqacha aytganda, g‘ayriixtiyoriy, ko‘p holda - irratsional turtkiga bo‘ysuna turib, odam uni batamom oshkora – ratsional sabablar bilan oqlashga harakat qiladi. Biroq, mazkur holatda g‘ayriixtiyoriy o‘zini o‘zi o‘ldirish fikri tashqi, oshkora omillar tahlilidan ko‘ra ancha muhimroq bo‘ladi.

Suitsidal xulq-atvorli shaxslarning aksariyat qismi uchun kishining hodisalarga ta’sirchanligi turlicha ekanligi xosdir. K. Menninger tomonidan keltirilgan misollarga murojaat qilamiz: qiz soch turmagi ko‘ngildagidek chiqmaganidan so‘ng o‘zini o‘ldiradi; erkak kishi uni golf o‘ynash imkoniyatidan mahrum etilganidan so‘ng hayotidan voz kechadi; ayol ikki marta poyezdga kech qolganidan keyin o‘zini o‘zi o‘ldirishga ahd qiladi; bola sevimli kanarekasining o‘limini ko‘tara olmay, o‘zini o‘ldirishga qo‘l uradi. Ta’sirchanlikning bir xil emasligi o‘zini o‘zi o‘ldirishni sodir etayotgan shaxsning hissiy yoki ruhiy jihatdan yetilmaganligi va yetilmay qolganligi (infantilligi) bilan belgilanadi.

O‘zini o‘zi o‘ldirishni o‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, ularning soni ortishi yosh davrlari, jinsi, ijtimoiy ahvoli va hokazolar va lekin birinchi navbatda – kishi shaxsiyatining xususiyatlariga bog‘liq. Erkaklar orasida o‘zini o‘zi o‘ldirish soni ayollarga nisbatan ko‘proq kuzatiladi. Shu bilan bir vaqtda erkaklar o‘zini osish, o‘qotar qurol ishlatish kabi «ishonchliroq» bo‘lgan usullarni qo‘llasa, ayollar ko‘proq katta dozada dorilar qabul qilishni afzal ko‘radilar, ya’ni ular go‘yo o‘zlarining o‘limdan keyingi tashqi ko‘rinishlari haqida qayg‘uradilar. Erkaklar orasidagi o‘zini o‘zi o‘ldirishning maksimal soni o‘spirinlik yoshiga (16-18 yosh) to‘g‘ri keladi, bu yoshda ko‘pincha ma’naviy mezonlar va da’volar ortishi kuzatiladi, ayollarda esa – klimaks davriga (40-45 yosh), yuqori darajada asabiylik va kayfiyat o‘zgarishi, qarilikning ilk alomatlari paydo bo‘lishi, ayrim umidlarning yo‘qolishi bilan boruvchi organizmning fiziologik qayta tuzilishi sodir bo‘ladigan davrga to‘g‘ri keladi.

Ijtimoiy omillar orasida o‘zini o‘zi o‘ldirishning qishloq joylariga nisbatan ko‘proq yirik shaharlarda sodir etilishi, professional va ijtimoiy maqomga bog‘liqligini ta’kidlash mumkin. Ayni vaqtda o‘zida o‘zini o‘zi o‘ldirishlar soni Shvetsiya, Yaponiya kabi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda Osiyo va Afrikaning qoloq davlatlaridagiga nisbatan ancha ortiqdir.

O‘z joniga qasd qilishning biologik determinantlari orasida shu holatni ta’kidlash zarurki, ruhiyati og‘ir buzilgan odamlar ruhan sog‘lom individlarga nisbatan ko‘proq o‘zini o‘zi o‘ldirishni sodir etadilar.

Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, o‘z joniga qasd qilish shaxsning ijtimoiy-ruhiy dezadaptatsiyasi natijasi hisoblanib, bunda odam ushbu yuzaga kelgan sharoitlarda bundan buyon o‘zi uchun mavjud bo‘lish imkoniyatini ko‘rmaydi. Shaxs dezadaptatsiyasining ehtimoliyligi jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik davrlarida obyektiv ravishda ortadi, bu esa o‘zini o‘zi o‘ldirish statistikasida o‘zining haqiqiy aksini topadi. Ayniqsa, ijtimoiy ko‘tarilish pasayish bilan almashganda «umidlarni yo‘qotish vaqti» keskin bo‘lib qoladi, bu esa jamiyat ongining krizisini chuqurlashtiradi, jamiyat a‘zolariga zulmkor ta’sir o‘tkazadi va uning zaifroq a‘zolarining ixtiyoriy ravishda hayotdan voz kechishiga yordam beradi. Bu esa tanazzulni boshidan o‘tkazayotgan va rivojlanish istiqboliga ega bo‘lmagan jamiyatda ko‘proq namoyon bo‘ladi.

Dezadaptatsiyaning keskin holati og‘ir kasalliklar, hayotdagi omadsizliklar, yaqin odamini yo‘qotish oqibatida yuzaga kelishi mumkin. Har qanday holatda shaxsning ijtimoiy-ruhiy dezadaptatsiyasi og‘irligi va chuqurligini baholashning uchta tarkibiy qismini ko‘rib chiqish mumkin:

- odatiy turmush sharoitlarining jiddiy buzilishi;
- ularning inson tomonidan talqin qilinishi (hayotiy sinish, ilojsiz vaziyat, shaxsiy halokat yoki og‘ir, lekin o‘tib ketuvchi holat);
- moslashish uchun istak yoki harakat qilishga tayyorlik (hayotdan charchash, «hayotni qayta boshlash»ni istamaslik, bu haqda kelgan fikrdan nafratlanish yoki hayotiy yo‘nalishlarini qayta ko‘rib chiqishga tayyor turish, vaziyatni uddalash).

O‘zini o‘zi o‘ldirish o‘z ahamiyati va psixologik sabablariga ko‘ra farqlanadi. Ular negizida ko‘pincha ongli yoki ongsiz ravishda yaqin insonlariga bo‘lgan tuyg‘uga yoki jamoatchilik fikriga apellatsiya-sabab, atrofdagilardan yordam va madad olishga intilish yotadi. Bu holda o‘z joniga qasd qilish harakatlari namoyishkorona tus olishi, haqiqiy yoki taqlid bo‘lishi yoki shantaj (qo‘rqitish) bo‘lishi mumkin. Ular ko‘pincha birovning ko‘zi oldida yoki birontasi kelib qolishidan bir necha daqiqa oldin sodir etiladi, ularning usuli ko‘pincha jiddiy tahdidni ifodalamaydi – uncha ko‘p bo‘lmagan miqdorda dori

tabletkalari qabul qilinadi, teri uncha chuqur bo‘lmagan darajada kesiladi, ingichka yoki eski arqon qo‘llaniladi, eshiklar ochiq qoldiriladi.

Ahamiyatiga ko‘ra, o‘z joniga qasd qilish yolg‘izlik, og‘ir judolik va hokazolar natijasida o‘zini o‘zi o‘ldirayotgan kishining hayotdan to‘liq chetlashganligidan farqli o‘laroq o‘zini o‘zi o‘ldiruvchilarning hayotga kirishganligini bilvosita bildirgan holda, qilmishning, ziddiyatli vaziyatdan chiqib ketishning paradoksal xarakteriga ega bo‘lishi mumkin (bahsdagi so‘nggi, rad etib bo‘lmaydigan dalil kabi). So‘nggi holatda yashab ketishga imkon qoldirmaydigan qo‘pol va ishonchli usullar tanlanadi. O‘zini o‘zi yemiruvchi axloqqa bir qator hollarda quyidagilar ham kiradi:

- alkogolga, narkotiklar va chekishga ruju qo‘yish;
- ataylab ortiq darajada ish bilan ko‘mib tashlash;
- qaysarlik bilan davolanishni istamaslik;
- transport vositalarini xavfli usulda, ayniqsa mast holda boshqarish;
- jangovar harakatlar zonalariga borishga astoydil intilish;
- o‘zini oqlamaydigan xavf bilan bog‘liq holda sportning ayrim turlariga qiziqish (alpinizm, parashutli sport va hokazo).

Tom ma‘noda o‘zini qiynash va qurbon qilish, shafqatsiz ishlatish bilan o‘tkaziladigan ba‘zi diniy marosimlar, urushlar, ya‘ni odamlarning yakka yoki ommaviy qirilishiga yoki o‘zini o‘zi yo‘q qilishiga olib keluvchi auto- va geterotajovuzkor harakatlar o‘zini o‘zi yemiruvchi deb hisoblanadi.

O‘z joniga qasd qilishning so‘nggi nuqtasi hisoblanadigan o‘zini o‘zi yemiruvchi axloqning bir qator o‘zaro bir-biriga o‘tuvchi shakllari mavjud. Ularga quyidagilar kiradi:

O‘z joniga qasd qiluvchi axloq – bu o‘zini hayotdan mahrum qilish to‘g‘risidagi tasavvurlar bilan belgilanadigan va yo‘naltiriladigan ruhiy aktlarning har qanday ichki yoki tashqi shakllaridir. O‘z joniga qasd qiluvchi axloq ikkita asosiy: ichki va tashqi shaklda namoyon bo‘ladi. Ichki shakllarga o‘z joniga qasd qilishda bo‘lganidagi fikrlar (tasavvurlar, tashvishlar); o‘z joniga qasd qilish harakatlari (maqsadlar, niyatlar); tashqi shakllarga - o‘z joniga qasd qiluvchi ko‘rinishlar; o‘z joniga suiqasd qilishga urinishlar kiradi.

O‘z joniga qasd qilish borasidagi fikrlar (tasavvurlar, tashvishlar) – hayotning qadri, mazmuni yo‘qligi to‘g‘risidagi passiv mulohazalar

("yashashga arzimaydi», «hayotda baxt yo‘q», «yashamayapsan, balki mavjudsan, xolos»), shuningdek o‘z o‘limi mazmunidagi tasavvurlar, fantaziyalar, lekin o‘zini hayotdan mahrum qilish emas ("o‘lsam yaxshi bo‘lardi», «uxlab qolsam va uyg‘onmasam"). O‘z joniga qasd qilish borasidagi fikrlar me‘yorida deyarli hamma odamlarda biron-bir ziddiyat yoki ruhiy shikastlovchi hodisa hal bo‘lmasligini anglaganda paydo bo‘ladi, lekin ular o‘z joniga qasd qilish an‘analariga o‘tmaydi. O‘z joniga qasd qilish an‘analariga (maqsadlar, niyatlar) - faol va jiddiy mulohazalar, o‘z joniga qasd qilish rejasini ishlab chiqish, o‘zini o‘zi o‘ldirishni sodir qilish usullari, vaqti, uni sodir qilish joyini belgilashni kiritish mumkin.

Tashqi axloqda o‘z joniga qasd qilish maqsadini bevosita amalga oshirish niyati namoyon bo‘lishi mumkin. Deyarli hamma o‘z joniga qasd qiluvchilar bu davrda u yoki bu shaklda o‘z joniga qasd qilish maqsadini yaqinlari, do‘stlari yoki hamkasblaridan kimgadir ishora yoki hazil shaklida (o‘z joniga qasd qilish ko‘rinishlari) namoyon qilishi mumkin. Holbuki ularning qariyb 15 % ga yaqini buni ochiq va oshkora qilishadi. Odatda, o‘z joniga qasd qilish maqsadining ochiqchasiga aytilishi atrofdagilar tomonidan namoyishkorona-shantaj qilish deb qabul qilinadi yoki umuman e‘tiborga olinmaydi. Biroq ularga past baho bermaslik kerak. Barcha holatlarda bunday fikrlar mavjud bo‘lganda, mutaxassis maslahati talab etiladi. O‘z joniga qasd qilish an‘analarining o‘z joniga qasd qilish ko‘rinishlariga o‘tishi qarorni bevosita amalga oshirishga – o‘z joniga qasd qilishga urinishni sodir etishga chaqiruvchi iroda komponentining (tarkibiy qismining) maqsadiga qo‘shilishdan darak beradi.

O‘z joniga suiqasd qilish (urinish) - o‘zini o‘zi o‘ldirish yoki shantaj yo‘li bilan hayotdan ketish maqsadida o‘zini hayotdan mahrum qilish vositalari orqali ongli ravishda ish ko‘rishdir. O‘zini o‘zi o‘ldirishga urinishlar o‘zini o‘ldiruvchiga bog‘liq bo‘lmagan, ya‘ni o‘limga olib kelmaydigan jarohat, arqonning uzilib ketishi, o‘z vaqtida ko‘rsatilgan tibbiy, reanimatsion yordam va shu kabilar sababli har doim ham o‘lim bilan yakun topavermaydi.

Biron-bir a‘zoni jarohatlash – ma‘lum yakuniy maqsadlar bilan (xizmatdan bo‘shash, jinoiy javobgarlikdan qochish, nogironlik bo‘yicha nafaqa olish, sug‘urta) qasddan o‘ziga jarohat yetkazish. Ba‘zan bunday harakatlari yaqqol namoyon bo‘lgan ruhiy affekt holatidagi shaxslar tomonidan sodir qilinadi va shaxs ruhiy

azoblarining yengillashishiga yo‘l sifatida xizmat qilishi mumkin. (Ko‘pincha bu bilaklar sohasini kesishda ifodalanadi). Boshqa holatda biron-bir a‘zoni jarohatlash ruhiy bemor shaxslar tomonidan vasvasali sabablarga ko‘ra sodir etilishi mumkin. Namoyishkorona-shantaj maqsadida o‘ziga jarohat yetkazish harakatlari, biron-bir a‘zosiga jarohat yetkazishda noto‘g‘ri mo‘ljal olish, ehtiyotsizlik yoki tasodif oqibatida halokatli bo‘lishi va o‘lim bilan yakunlanishi mumkin.

Presuitsid – o‘z joniga qasd qilish fikriga kelishdan uni ro‘yobga chiqarishga urinishgacha bo‘lgan vaqt oralig‘i, ya‘ni o‘z joniga qasd qilishdan oldingi ruhiy holatning o‘zidir. Presuitsid deganda, aksariyat psixologlar shaxsning o‘z joniga qasd qilish aktini sodir etishning me‘yoriga nisbatan yuqori ehtimolini shart qiluvchi holatini nazarda tutadilar. Uning davomiyligi daqiqalar (o‘tkir presuitsid) yoki oylar (surunkali presuitsid) bilan hisoblanishi mumkin.

Postsuitsid - o‘z joniga qasd qilishdan keyingi holat yoki postsuitsidal davr.

Suitsidal xavf - bu shaxsning o‘zini o‘zi o‘ldirishga potensial ravishda tayyorligi, shaxsning o‘z joniga qasd qildiruvchi va o‘z joniga qasd qildirishga olib kelmaydigan omillarning nisbatidir.

Xarakterida senzitiv-shizoid xislatlar: odamovilik, kamgaplik, vazminlik, norasmiy aloqalar o‘rnatishning qiyinligi, ko‘proq guruhli emas, balki yakka faoliyatga moyillik va, kamtarlik, ziddiyatsizlik, tajovuzkorlikning uncha yuqori bo‘lmagan darajasi, yuqori sezuvchanlik, jizzakilik ustun bo‘lgan shaxslarning armiyada dezaptatsiyalanish ehtimoli kuchlidir. O‘zlarining intizomlilik, ijrochiligiga qaramay, ular jamoada past mavqega ega bo‘ladilar, hamkasblar orasida uncha mashhur bo‘lmaydilar, mayda birlashgan guruhlariga kirmaydilar, faqat bir-ikki hamkasblari bilan yaqin bo‘ladilar, ba‘zan umuman do‘stlari bo‘lmaydi, o‘zlariga qo‘mondonlarining e‘tiborini jalb qilmaydilar. Pirovard natijada bu jamoa va alohida harbiy xizmatchilar tomonidan ruhan ajratib qo‘yilishiga, chetlatilishiga va tajovuzkorlikka olib keladi. Bo‘linmada samarali tarbiyaviy ishlar olib borilmasa, bunday askarlarda tushkunlik, g‘amginlik, ilojsizlik holati kuchayadi, o‘ziga baho berishi va o‘zini hurmat qilish tuyg‘usi pasayadi, bu esa o‘zini o‘zi o‘ldirish to‘g‘risida qaror qabul qilishga moyillik tug‘diradi.

O‘z joniga qasd qilish genezisida oilaning, kishiga eng yaqin ijtimoiy muhitning rolini hisobga olmaslik mumkin emas. Er-xotin, ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi o‘zaro oilaviy munosabatlar xarakteri

shaxsning ijtimoiy-ruhiy dezadaptatsiyasi rivojlanishida favqulodda ahamiyatga ega. Oila ichidagi muhit shaxsning suitsidogen ko‘rinishlarini samarali qoplash, silliqlashtirishga qodir, lekin kuchaytirishi yoki hatto qo‘zg‘atishi mumkin.

O‘zini o‘zi o‘ldirishga undovchi oilaviy omillar:

- yosh bolaligida otaning yo‘qligi;
- ota-ona oilasida onaning bolaga e‘tiborining yetishmasligi;
- ota-onalar nufuzining yo‘qligi;
- oiladagi matriarxal uslubdagi munosabatlar;
- hissiy portlashlar va bolaga jismoniy jazo berish yordamida o‘zini ko‘rsatishga intilayotgan zaif katta odamning haddan ortiq avtoritarligi;
- ajrashgan oilalar;
- ota-onalari yoki yaqin qarindoshlari o‘z joniga qasd qilgan yoki o‘z joniga qasd qilishga uringanlar.¹

Shu bilan bir qatorda o‘zaro munosabatlar uslubi o‘zini o‘zi o‘ldirishning potensial xavfini yuzaga keltiruvchi ijtimoiy-ruhiy turdagi oilalarning ma‘lum turlarini ajratish lozim:

1. *Dezintegratsiyalangan oila.* Bunday oila a‘zolarining xususiyatlari a‘zolarining alohidaligi, munosabatlarning rasmiyligi, ular o‘rtasida hissiy muloqotining mavjud emasligi hisoblanadi;

2. *Superintegratsiyalangan oila.* Bir-biriga benihoyat o‘rganib qolgan, hatto bir-biridan alohida yashashni xayollariga ham keltira olmaydigan oila a‘zolarining shaxsiy mustaqilligi tuyg‘usining buzilishi; bunday oila a‘zolaridan birortasining o‘limi boshqasining umuman ojizligini yaqqol ko‘rsatib qo‘yadi.

3. *Noittifoq oila.* A‘zolarining maqsadlari, ehtiyojlari nomuvofiqligi, umumiylik va kelishuvchanlikda birgalikda yondashuvning yo‘qligi, shaxsiy manfaatlar va odatlardan voz kechishni istamasligi bilan tavsiflanadi. Qabul qilingan me‘yorlarni kelishtirish bu yerda kim uchundir frustratsiya bilan bog‘liq majburlash xususiyatiga ega bo‘ladi. Birining ikkinchisiga o‘z odatlarini majburan qabul qildirishga, axloqini o‘zgartirishga, uning uchun ma‘qul bo‘lmagan hayotiy yo‘nalishlarga mos ravishda o‘zini tutishga majburlashga doimiy

¹ Qarang: Амбрумова А.Г., Пустовалова Л.И. Семейная диагностика в суицидологической практике. – М., 1983.

ravishda harakat qilishi bunday oilada xavfli vaziyatni yuzaga keltirishi mumkin.

4. *Yopiq o'ziga to'q oila.* Uning a'zolari uchun oila kuch sarflashning asosiy sohasi, hayotning yagona mazmuni hisoblanadi, qolgan hammasi – ish, oiladan tashqari munosabatlar va boshqalarga faqat oila farovonligini qo'llab turish va ta'minlash vositasi sifatida qaraladi. Hayot faoliyatining asosiy sohasi – oiladagi biron-bir tanglik uning a'zolari uchun o'z joniga qasd qilishga olib keluvchi xavfli vaziyatga aylanishi mumkin.

5. *Konservativ oila.* O'zgaruvchan tashqi shart-sharoitlarga moslashishga qodir emaslik asosiy xususiyatlari hisoblanadi. Agar bunday oilaning a'zosi ushbu oiladan tashqaridagi nizoga aralashib qolgan bo'lsa, uning boshqa a'zolari konservativ yo'l-yo'riq tufayli unga yordamga kela olmaydilar va ziddiyatdan uzoqroq turadilar yoki raqib tarafiga o'tib oladilar. Bunday vaziyat xoinlik deb qabul qilinishi va nizoga aralashgan oila a'zosining o'zini o'zi o'ldirishiga olib kelishi mumkin.

2-§. Shaxs axloqining anomal turlari psixologiyasi

Shaxsning anomal rivojlanishi o'zlashtirish, motivatsiya, fikrlash, shaxsiy yo'l-yo'riqlar, o'zini o'zi nazorat qilishga mas'ul bo'lgan sohasining tizimli buzilishi oqibatida sodir bo'ladi. Buning natijasida shaxs turmush faoliyatidagi qisqa va uzoq muddatli rejalarining shakllanishi buziladi. Ayni vaqtda, ruhiy-patologiya kishining umumiy evolyutsion strategiyasiga kiritilgan bo'lib, ular insonga xos «normal» axloq uslubini ta'minlovchi murakkab adaptiv (moslashuvchan) tizimning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Kishilar ularni qo'llashi bilan ijtimoiy muhitning boshqa axloqiy strategiyalari yordamida javob va yechimga ega bo'lmayotgan «chaqiriqlarga javob berishi» mumkin. Biroq, ma'lum taqiqlar buzilganda bu strategiyalar shaxs faoliyatining eng so'nggi belgisi ruhiy-patologiyaning jiddiy buzilishiga olib keladi. Bu evolutsiya nazariyasi doirasida ruhiy-patologiyalar avlodning boshida turgan individlarning salomat qolishi va samarali ko'payishiga o'z hissasini qo'shgan tabiiy saralash bilan bog'liq axloqiy strategiyalar oqimida yotadi. Bu holda, sog'lom va bemor odamlar axloqi tiplari o'rtasida keskin tafovut bo'lmaydi. Shunga ko'ra, sog'lom va kasal ong o'rtasidagi farq sifat emas, miqdoriy ish

hisoblanadi. Har bir shaxs o'zida bir xil insoniy maqsadlarga ega bo'ladi, lekin ruhiy kasallikka chalinganlar o'zlarida ayrim ehtiyojlarning katta «doza»sini olib yuradilar.

Shaxs rivojlanishining buzilishi negizida irsiy moyillik, tashqi zaharli va qo'zg'atuvchi omillar yoki ularning uyg'unlashuvi yotishi mumkin. Masalan, kishining yoshi shizofreniyaning shakli va kechishiga nisbatan muhim rol o'ynashi mumkin. Demak, agar bu bolalikda, hali to'liq shakllanmagan ayrim ruhiy funksiyalar bilan boshlangan bo'lsa, kasallikning o'rta va keksa yoshda boshlanganidan ko'ra qiyinroq kechishini ko'rish mumkin.

Shizofreniya. 100 yillarcha muqaddam Krepelin simptomatikasi, kechishi va kelib chiqishi bo'yicha yaqin bo'lgan kasalliklar guruhini ajratgan bo'lib, ularni u yagona kasallikka birlashtirdi. Bu kasallik juda erta boshlanishi, o'sib boruvchi oqimli va «erta aqli pastlik» deb belgilangan nuqsonli holat bilan tugashi bilan xarakterlangan. Bleyer esa bu kasallikni yagona deb hisoblamagan va bir-biriga yaqin kasalliklar guruhi to'g'risida gap yuritib, ularni shizofreniyalar deb atagan. Mazkur ta'rifga shizofreniyaning keyinchalik umume'tirof etilgan uchta turi: gebefreniya, katatoniya va paranoyya kiritilgan.

Shizofreniya tushunchasini (yun. shizo - «parchalamoq», «sindirib tashlamoq»; freniya - «aql») kirita turib, Bleyler psixozning bunday turiga xos asosiy alomatlarini - ruhiy funksiyalarining parchalanishi, tilkalanishini aniqlashga uringan. Klinik nuqtai nazardan shizofreniya quyidagi alomatlariga ega bo'lgan bir necha shakllarga ajraladi: fikrlarning kelishmovchiligi, qiliqlar va affektlar (kelishmovchilik, tarqalish, parchalanish), voqelikdan chetlashish va odamovilik, fantazmlar paydo bo'lishi (autizm) bilan bog'liq ichki hayotga kirib ketish va shu kabilar. Kasallik surunkali xarakterga ega va har doim o'z dinamikasiga ega bo'ladi, ko'p hollarda marazmga (ma'naviy tushkunlikka) olib keluvchi aqliy va hissiy holatning yomonlashuvi tarafiga rivojlanadi. Bu aksariyat psixiatrlar shizofreniya tashxisini qo'yish mumkin deb hisoblaydigan asosiy mezondir. Ushbu kasallikni o'rganishning butun tarixi mobaynida uning yuzaga kelishining ehtimoliy sabablari to'g'risida turli taxminlar aytilgan. Eng asoslantirilgan nuqtai nazarlardan biri irsiy-konstitutsiyaviy degenerativ omillar sabablar sifatida e'tirof etiladi. Infeksiyalar, shu jumladan virusli infeksiyalar, moddalar almashinuvidagi buzilishlar, autointoksikatsiyalar, endogen buzilishlarga katta ahamiyat qaratilgan.

Psixologik nuqtai nazarlardan biriga muvofiq, shizofreniya - bu shaxsning hayoti va ilk bolalik davridagi onasining sovuq munosabatlari, oilasi va atrofdagilar tomonidan e'tiborning kamligi oqibatida yuzaga kelgan, uning olam va o'ziga bo'lgan munosabatlarining o'ziga xos shakli. Shizofreniya - bosh miyaning o'ziga xos biologik kasalliklari guruhi bo'lib, uni shunga mos moyillikka ega bo'lgan shaxslarning shizofornli turdagi ta'sirlanuvchanligidan farqlash lozim. Shuning uchun, garchi shizofreniya etiologiyasi yetarli darajada aniqlangan deb hisoblanmasada, uning yuzaga kelishida ikki asosiy omil: genetik moyillik va atrof-muhitning ruhiy zarbalar, turli kasalliklar, oilaviy noxushliklar shaklidagi zararli ta'sirlar rol o'ynashi ma'lum. Vaholanki, shizofreniya uchun javobgar genlar aniqlanmagan va uning nasldan-naslga o'tish tipi belgilanmagan bo'lsa-da, bu omillarning nisbati 4:1 irsiylik foydasiga belgilanadi. Ona qornidagi homilaga ta'sir ko'rsatuvchi zararli omillar (virusli kasalliklar, garmonal buzilishlar va boshqalar) ham bunga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ma'lumki, agar yaqin qarindoshlardan birontasi shizofreniya bilan kasallangan bo'lsa, kasallanish ehtimoli 10 barobarga ko'payadi, agar ota-ona shizofreniya bilan kasallangan bo'lsa, kasallik xavfi sog'lom oilalarga nisbatan 40 martaga ortadi. Agar bir tuxumli egizaklardan biri kasal bo'lsa, unda ikkinchisining kasal bo'lish ehtimoli 50 barobarga ortadi. Ayni vaqtda, shizofreniya rivojlanishida faqat irsiy omillarning o'ziga yetarli emas, shuningdek tashqi muhitning qo'shimcha omillari ham zarur bo'ladi.

Shizofreniyaning vujudga kelishida biologik, xususan, garmonal omillarning rolini ko'rib chiqamiz. Bu o'rinda yosh ayollarda xavf kamroq bo'lishi va kasallikning kechishi passivroq bo'lishi haqidagi ma'lumotlar mavjud. Buni ularning antidofaminergik ta'sirga ega bo'lgan estrogenlar (ayollar jinsiy gormonlari) ishlab chiqarishi bilan bog'laydilar. Hozirda keng tarqalgan nazariyaga ko'ra, shizofreniyada ma'lum miya tizimlarida dofamin gormonining haddan ortiq to'planishi sodir bo'ladi. Yoshi o'tib, keksaygan ayollarda, xususan, ayollar jinsiy gormonini ishlab chiqarilishi ancha kamayayotgan klimaks davrida shizofreniya kasalligining ko'payishini estrogenlar roli bilan bog'lashadi.

Ruhiy zarbalar ta'siri ostida shizofreniya yuzaga kelishining ehtimol tutilgan mexanizmlaridan biri adrenalin – dofaminga yaqin

bo'lgan gormonning ko'chib yurishi bo'lishi mumkin. Hayvonlarda o'tkazilgan tajribalarda ular tanasiga dofamin yuborish va uning miyaning mezolimbik hosilalarida to'planishi hayvonlarning nuqsonli faolligiga va beo'xshov motorli ta'sirlanishiga olib kelishi aniqlangan.

So'nggi tadqiqotlarda kompyuterli rentgen va tomografiya asosida shizofreniyaning ikki turi mavjud degan xulosaga kelindi.

Birinchi turdagi shizofreniya bilan kasallanganlarning miyasida miya tuzilmalarining ma'lum retseptorlarida ularning funksiyasini izdan chiqaruvchi dofamin metabolizmining to'planishi natijasida buziladi. Bunday bemorlarda kasallikning oilaviy irsiy moyilligi kuzatiladi, bu esa mazkur turdagi shizofreniya rivojlanishida irsiy omilning ahamiyatini ko'rsatadi. Ularning oila a'zolarida g'alati qiliqlar, ba'zan o'chib ketgan gallyutsinatsiyali alahsirash va boshqa shunga o'xshash ko'rinishlar qayd etiladi.

Ikkinchi turdagi shizofreniya bilan kasallanganlarda (taxminan barcha holatlarning 30%ida) kasallikka aniq oilaviy irsiy moyillik kuzatilmaydi, lekin atrofik o'zgarishlar, ko'proq peshona qobig'i, ko'pincha, ularning peshona qismida joylashgan oldingi shoxlarining kengayishi qayd etiladi. Bunday kasallarda asosan ruhiy-salbiy simptomatika kuzatiladi. Qorinning ichidan zararlarini, viruslar, turli miya kasalliklarining ta'siri, unga sabab bo'ladi.

Shizofreniya bilan kasallanganlarning bosh miyasida turli tuzilmali va funksional nuqsonlar, masalan, peshona qismlari o'lchamlarining kichikligi aniqlangan. Shu bilan birga, garchi bu tafovut miya qismlarida nisbatan bir maromda bo'lsa-da, butun miyaning o'lchami kichikligi aniqlangan. Olimlar bunday kasallar miyasining erta, noto'liq rivojlanishi bilan bog'laydilar va bu bilan nafaqat miyaning, balki bosh suyagining ham o'smay qolishini asoslaydilar.

Boshqa tadqiqotda shizofreniya bilan kasallanganlar va affektiv psixoz bilan og'riqlarning o'limidan keyin miyasini taqqoslash o'tkazildi. Bunda birinchilarining miyasining o'rtacha og'irligi ikkinchisidan ko'ra kichikroq ekani aniqlandi. 20% dan ortiq shizofreniya bilan kasallanganlarda miya yon qorinchalarining kengayishi kuzatilgan, bundan tashqari, ulardan chakka qismida, ayniqsa chap yarim sharda terining yupqalashishi aniqlangan.

Yana bir tadqiqotda aqliy psixologik testni yechish ko'rinishidagi vazifa topshirish bilan kasallarning peshona qismlaridagi yuqori yon terisining qon oqimini o'lchash o'tkazildi. Bunda miyaning qayd

etilgan qismida fiziologik kamchiliklar bilan bog'liq anglash funksiyasidagi o'zgarishlar aniqlangan.

Shizofreniya bo'yicha yuqorida keltirilgan va boshqa ko'plab zamonaviy tadqiqotlar uning irsiyatini o'rganishdagi erishilgan muvaffaqiyatlardan dalolat beradi va shizofreniyani biologik kasallik sifatida tushunishga yordam beradi.

Shizofreniya eng ko'p uchraydigan jiddiy ruhiy kasalliklardan biri hisoblanadi. Mazkur kasallik tarqalishi to'g'risida aniq ma'lumotlar mavjud emas, zero uning diagnostik mezonlari va chegaralari ular klinik ko'rinishlarining turli xil ekanligi sababli o'chib ketgan. Taxminiy ma'lumotlarga ko'ra, har 200 nafar odamdan 1 nafari (ya'ni 0,5 %) shizofreniya bilan kasallanadi. Barcha surunkali ruhiy kasallar orasida har 3/2 nafari shizofreniya bilan og'riydi. Kasallarning asosiy qismida shizofreniyaning boshlanishi 10 va 30 yosh o'rtasiga to'g'ri keladi. Ayniqsa, kasallikning noqulay kechishi uning bolalik, o'smirlik va yoshlik davrida yuzaga kelgan holatlarda kuzatiladi. Shizofrenik jarayon ruhiyatning turli qismlari faoliyatini turli darajada buzadi. Hammadan ko'p shaxsiyat azob chekadi, chunki u evolyutsion munosabatlarda shakllanishning eng yosh bo'g'ini hisoblanadi. Natijada, nuqsonli ravishda istaklar o'zgarganda shaxsning chuqur va ongli qismlarining dissotsializatsiyasi yuzaga keladi. Bu holda g'oyalar generatsiyasi ko'pincha ma'nisiz, voqelikdan uzilgan tus oladi, u his-hayajonli muhit bilan muvofiqlashmagan bo'lib, buning oqibatida hissiy axloq parchalanadi. Bu esa his-hayajonli aksentlarni og'rinib almashtirish yoki tasodifan joylarini o'zgartirishga yoki irodaviy parokandaliklar bilan bir qatorda ambivalensiyaga olib keladi. Ushbu buzilishlar tufayli shizofreniya bilan kasallanganlar axloqining hayotiy dominantlari, maqsad tanlashi va formulalari fundamental ravishda o'zgaradi. Ikkilamchi qayd etilgan xatoliklarga bog'liq ongli fikrlashning dezintegratsiyasi sodir bo'ladi.

2. *Affektiv (sirkular) psixozlar.* Quvonch va depressiv tashvishlar murakkab tuzilgan jonli mavjudotga tabiat tomonidan axloqning u yoki bu shakli uchun rag'batlantirish yoki jazo sifatida in'om etilgan. Bir tomondan, bu tashvishlarning kuchayishi, tashqi muhitning foydali va zararli oqibatlarini, o'z ta'sirlanuvchanligini differensiallashtirishga yordam beradi va irsiy motivatsiyalarni mustahkamlaydi. Boshqa tomondan esa nuqsonli sharoitlarda his-hayajonli quvonch, lazzat, qayg'u, xavotir, qo'rquv tuyg'ulari gipertrofiyalangan, bo'rttirilgan

xususiyatga ega bo‘ladi va depressiv hamda maniakal holatlar shaklida namoyon bo‘ladi.

Agar maniakal sindrom ko‘proq affektiv psixoz doirasida kuzatilsa, unda depressiya nafaqat psixopatik bo‘lishi mumkin: u ifodalanmagan, noaniq reaktivli-nevrotik doirada ancha ko‘p uchraydi. Shuning uchun, depressiyaning qayd etilgan variantlari o‘rtasidagi tafovut ma’lum qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Freydning qayd etishicha, har qanday depressiya, yo‘qotishning – o‘lim, ketib qolish, yoki hurmatsiz munosabatlar, qiziqishlarni mensimaslik, e’tibor bermaslik kabilarda ifodalanishidan qat’i nazar, yo‘qotish, (masalan, sevimli insonidan), judolik mexanizmi bilan bog‘liq. Depressiya doimo bevosita yo‘qotishdan, hatto u ko‘p yillar avval boshdan o‘tkazilgan bo‘lsa-da, yuzaga kelishiga dalillar mavjud.

Garchi bir qator hollarda depressiyani qo‘zg‘atuvchi psixogen sababni, yoki hatto uning keyinchalik endogen depressiyaga o‘tuvchi reaktiv boshlanishini aniqlashga erishilsada, shunga qaramay, aksariyat mualliflar reaktiv-nevrotik va endogen - psixopatik, biologik depressiyalarni ajratishga moyildirlar.

Depressiya bilan kasallanganlik chastotasi haqida aytish qiyin, zero u ko‘p hollarda psixiatr yoki psixologlarga bormasdan yakunlanadi va shuning uchun hech kim tomonidan hisobga olinmaydi. Affektiv psixoz doirasidagi depressiya 2000 nafar odamdan bittasida uchraydi deb taxmin qilinadi. Shuningdek, ayollar psixopatik depressiya bilan erkaklarga nisbatan ikki barobar ko‘p kasallanadi deb hisoblanadi. Agar depressiyalarning boshqa ko‘rinishlari ham hisobga olinsa, bu tafovut yana ko‘proq ortadi, zero ma’lumki, depressiya ayniqsa u ko‘pincha ayollarda keksalik va klimaks davrida uchraydi. Shuningdek, ayollarda depressiyaning generativ funksiyasi, ya’ni homiladorlik, tug‘ish, hayz sikli bilan aloqadorligi kuzatiladi. Ayollarda depressiya paydo bo‘lishida jinslar o‘rtasidagi psixologik va ijtimoiy farqlar ma’lum rol o‘ynaydi.

Depressiyalarning yuzaga kelish mexanizmlari, chamasi, xuddi ularni keltirib chiqargan sabablar va klinik ko‘rinishlar bilan to‘liq bir xil emas. Psixopatik depressiyaning ikki turi ajratiladi. Ulardan biri - sirkular affektiv psixoz - ham depressivli, ham maniakal fazalar bilan tavsiflanadi. Psixozning bu turi muayyan darajada «oilaviy» irsiy xususiyatga ega. Demak, bir tuxumli egizaklardan biri og‘rib qolganida ikkinchisining kasal bo‘lish ehtimoli 95 % ga yetadi. Ushbu psixoz

davomida 75 % hollarda depressiv va atigi 25 % hollarda - maniakal fazalar qayd qilinadi. So'nggi yillarda maniakal-depressiv psixozning irsiy o'tishi to'g'risidagi ma'lumotlar aniqlandi. Bunda, xromosomalar orqali dominantli o'tkazish mavjud, vaholanki kasallik ko'pincha onadan o'tadi.

Affektiv psixozning ikkinchi turi faqat depressiyali fazalarni o'z ichiga oladi, shu sababli u monopolyar deb ataladi. Bunday psixozda genetik moyillik yetarli darajada aniq ifodalanmagan, chunki xavotirli-vasvasali xarakterga moyil bo'lgan rol ajratilishi mumkin.

Affektiv psixozlar genezisida, xuddi shizofreniyadagi singari, ularni qiziqtiruvchi, qo'zg'atuvchi va hosil qiluvchi omillarning ahamiyati yoki solishtirma og'irligini belgilash ancha mushkul. Masalan, yaqin kishisini yo'qotish tufayli yuzaga kelgan reaktiv depressiyada endogen depressiyani chaqiruvchi mexanizmlar ishga tushadi. Kasallik yaqqol reaktiv doiralarda boshlanib, endogen depressiya namunasi bo'yicha aniq tashqi sabablarsiz takrorlangandagi kabi endoreaktiv depressiyalar guruhining mavjudligini ko'rsatadi.

Depressiyalarni ishga tushirish usullari nuqsonli ravishda affektiv-hissiy faoliyat uchun mas'ul bo'lgan miya tizimi funksiyalarini o'zgartiradi. Endogen, ya'ni biologik depressiyalarda ilk o'z-o'zidan o'zgarishlarni talamo-gipotalamik tuzilmalarda sodir bo'lishiga yo'l qo'yish mumkin. Lekin bu, xususan, miya shu sohasining jarohatlanishlarida endogen depressiyalarning deyarli sodda ko'rinishlari yuzaga kelishini ko'rsatadi. Psixogen depressiyalar paydo bo'lishiga dastlab limbik tizimlar mas'ul bo'lishi mumkin, lekin ushbu depressiyalarning chuqurlashuviga ko'ra shuningdek talamo-gipotalamik xosilalar va ayrim endokrin mexanizmlar ham jalb qilinadi. Depressiyalar adrenalin ishlab chiqarilishining yetishmovchiligi oqibatida ayrim neyronlar o'rtasidagi kommunikativ buzilishining natijasi bo'lishi mumkin.

3. Tutqanoq (Epilepsiya). Tutqanoq mustaqil kasallikni namoyon qilishi yoki bir qator miya yoxud miyaga aloqasi bo'lmagan kasalliklarni ifodalashi mumkin. Tutqanoqning xususiyati uning besaranjom, ta'sirchan, vegetativ va boshqa talvasalar yoki ongning qisqa muddatli yoki davomli buzilishi bilan kechadigan xurujlarda ifodalanuvchi ruhiy faoliyat buzilishining paroksizmalari ko'rinishida kechishi hisoblanadi. Tutqanoq ko'pincha qon aylanishining, orqa miya suyuqligi sirkulatsiyasining buzilishi, miya moddasining shishishi,

miya alohida qismlarining siljishi va siqilib qolishi, miya jarohatlari, metabolik buzilishlari bilan bog'liq bo'lgan ikkilamchi miya o'zgarishlariga olib keladi. Asosan talvasali tutqanoqlar oqibatida yuzaga keladigan bu o'zgarishlar shaxs va xarakterning kuchayuvchi o'zgarishlariga, og'ir hollarda esa, aqli zaiflikka olib keladi.

Tutqanoq ko'rinishlarining bevosita sababi asab hujayralarining xuddi miya qobig'idagi kabi miyaning chuqur sohalarida ham yuqori ta'sirchanligi hisoblanadi. Bunda asab hujayralarining ham shikastlanganlariga yaqin joylashgan, ham ancha uzoq masofada bo'lgan katta maydonlari jalb etiladigan hayajonni generalizatsiyalashtirishga moyillik paydo bo'ladi. O'z-o'zidan tutqanoq turkumlarini ifoda etuvchi hayajonning jamlanishi yuzaga keladi. Tutqanoqli talvasani ko'pincha yashin ta'siri bilan qiyoslashadi. Talvasa vaqtida shikastlangan asab hujayralarida to'g'ri miqdordan bir necha barobar yuqori bo'lgan elektr quvvati qayd etiladi.

Tutqanoq tarqalganligi bo'yicha aholi sonining qariyb 0,5 % (1:200) iga to'g'ri keladi. «Jarohatli epidemiya» ko'rinishidagi urushlar va og'ir iztiroblardan keyin bemorlar soni keskin ko'payadi. Tutqanoq paydo bo'lishining asosiy omili nuqsonli irsiyat hisoblanadi. U tutqanoq bilan kasallangan bemorlarning taxminan 1/3 qismida qayd etiladi, lekin bevosita – dominant irsiyat 1/6 holatda uchraydi.

Tutqanoq paydo bo'lishida irsiy moyillik bilan bir qatorda miyaning tegishli sohalaridagi turli nuqsonli manbalar va tuzilmali o'zgarishlar: rivojlanish anomaliyasi yoki chandiqlar, tomirli, yallig'lantiruvchi, o'smali, parazitar va boshqa jarayonlar ham rol o'ynaydi. Bu manbalar atrofdagi asab hujayralarining ta'sirchanligini oshiradi. Bunday manbalar jarrohlik yo'li bilan yo'qotilganda tutqanoq ba'zan to'liq bartaraf etiladi yoki uning kechishi ancha sustlashadi. Shunday qilib, tutqanoq aksariyat hollarda irsiy omillar va bosh miyaning tegishli sohalaridagi mahalliy o'zgarishlarning birgalikdagi ta'siri natijasida yuzaga keladi deb hisoblashga asoslar bor.

Yuqorida qayd etilgan holatlar sababli tutqanoqni tasniflash katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Amaliy mulohazalardan tutqanoqning asosan ikki asosiy genuin va simptomatik (tutqanoqli sindrom) turini ajratishadi.

Tutqanoqning eng tipik ko'rinishi talvasali, yoki generalizatsiyalashgan tutqanoq hisoblanadi. U to'satdan boshlanadi va bemorning har doim to'liq hushini yo'qotishi bilan davom etadi. U odatda, o'ziga

xos qichqiriq bilan boshlanadi - bu go'yo tutqanoq yuzaga kelgani to'g'risida ogohlantiruvchi signal bo'lib, hiqildoq va nafas yo'li mushaklari qisqarishining natijasi hisoblanadi. Shundan so'ng deyarli barcha skelet mushaklarining kuchli tonusli uzluksiz qisqarishi rivojlanadi. Bunda qoqshol talvasasini esga soluvchi xos holat (poza) yuzaga keladi. Talvasaning bu fazasi tonusli hisoblanadi. Unda ko'pincha tilni tishlash, g'ayriixtiyoriy ravishda siydik va hatto axlat ajralishi ham sodir bo'ladi, yuzi ko'karishi bilan nafas to'xtab qolishi kuzatiladi. Ayni vaqtda qorachiqlar g'oyatda kengayib ketadi, bunda ular chiroqdan ta'sirlanmaydilar. Yurak urishi sekinlashadi, arterial bosim ortadi. Tonusli fazadan so'ng talvasaning uziluvchi xarakteri sababli shunday ataluvchi klonik faza keladi. Bu fazada nafas olish qiyinlashadi, ba'zan og'zidan qon bilan aralash ko'pik chiqadi. Tutqanoq chuqur uyqu yoki ong faoliyatining sustlashgan holatiga o'tish bilan yakunlanadi.

Ongning tutqanoqli xiralashib buzilishi kayfiyatning dezoriyen-tirovkasi, g'azab, qayg'u, qo'rquv affekti chuqur buzilishi bilan tavsiflanadi va ko'pincha chala-chulpa alahsiragan va gallyutsinatsiyali tashvishlar bir necha daqiqadan bir necha soatgacha, ba'zan 1-2 kungacha cho'ziladi. Bemorlar asabiy, jahldor bo'lib qoladi, kamdankam hollarda ularning axloqi tashqari tomondan tartibli va maqsadli bo'lib ko'rinadi. Ular atrofdagilar uchun g'oyat xavfli bo'lishi mumkin. Yuz ifodasi g'amgin bo'lib, holati himoyalanih yoki tashlanishga tayyorlikda ifodalanadi. Psixomotor hayajonlanish ko'pincha bemorlar tinkasi qurib yiqilmaguncha aylana bo'ylab uzoq masofaga siljiydigan harakatlantiruvchi bo'ron yoki xaotik xarakterga ega bo'ladi. Avtomatizm holatida bemorning atrofdagilar bilan mantiqiy aloqasi uzilib qoladi. U avtomatik ravishda harakat qiladi, masalan ustidagi kiyimlarini yechadi va yana kiyib oladi, buyumlarni bir joydan boshqa joyga olib qo'yadi, stakandagi choyga to'xtamasdan shakar soladi va hokazo. Yanada murakkabroq, kompleks axloqqa ega bo'lgan stereotip harakatlar ambulatoriyaviy avtomatizm nomini olgan.

Ambulatoriyaviy avtomatizm holatida bemor transport turini o'zgartirgan holda shahar bo'ylab aylanib yurishi yoki svetofor oldida to'xtagan holda avtomashinani boshqarishi va biron-bir joygacha muvaffaqiyatli yetib olishi mumkin. Masalan, bir bemor avtomatizm holatida kemada bir necha kun sayohat qilib, Londondan Mumbayga kelib qolgan, o'ziga kelgach esa, qanday qilib va nima maqsadda u

yerga kelganini tushunmagan. Avtomatizm turlaridan biri trans yoki epileptik somnambulizm (lunatizm, oy kasalligi) hisoblanadi. Odatda, tunda bemor oʻrnidan turadi, kiyinadi, shahar boʻylab yuradi yoki tomga chiqadi, muvozanat saqlagan holda karniz boʻylab yurishi mumkin va keyin yana yotadigan oʻrniga qaytadi.

Oningning tutqanoqli buzilishi keskin boshlanadi va shuningdek keskin yakunlanadi. Ulardan keyin toʻliq va kam hollarda, qisman amneziya (yoddan chiqarish) yuz beradi. Ong buzilishida tutqanoq bilan kasallangan bemorga atrof olam koʻpincha irreal tuyuladi. Masalan, ular uchun yangi holat xuddi oldin boʻlib oʻtgandek va aksincha, ularga maʼlum boʻlgan narsa notanishdek qabul qilinadi.

Tutqanoqdagi ruhiy buzilishlar shaxsning oʻsib boruvchi rigidligi, fikrlashining sekinlashganligi, toʻxtab qolganligi va torligi bilan ajralib turadi. Tashqi muhitning oʻzgaruvchan shart-sharoitlariga moslashuv pasayadi. Bemorlar gʻoyat sinchkov boʻlib qoladilar, asosiy narsani ikkinchi darajalisidan farqlay olmaydilar, qiyin oʻzgaruvchan boʻlib, koʻp marta oldin aytib boʻlingan narsaga qaytadilar. Ular uchun egotsentrizm, pedantizm, «giperijtimoiylik» xosdir. Ularning mulohazalari rasman toʻgʻriligi, soddalashtirilgan qarashlar bilan farqlanadi. Ular koʻpincha oʻz fikrlaridan qaytmaydilar va fanatizmga moyildirlar, bu baʼzan ularning toʻmtloqlashgan taqvodorligida oʻz ifodasini topadi. Affekt beqaror boʻlishi mumkin. Bemorlarning kayfiyati tez oʻzgarish xususiyatiga ega masalan, mujmallikdan tajovuzli, gʻamgin, dargʻazab, koʻp hollarda esa ular kekchi va qasoskor boʻladilar.

Tutqanoqni oldindan bilish birinchi navbatda uni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash bilan bogʻliq. Agar kasallik negizida miyaning manbali zararlanishi boʻlib, irsiy moyillik uncha katta boʻlmasa, unda, qoidaga koʻra, oldindan aytish ijobiy boʻladi. Tutqanoqda uning boshlanish yoshi muhimdir. U kasallik yuzaga kelishining ehtimol tutilgan sabablarini koʻrsatadi, chunki jinsiy yetilish yoshida boshlanadigan tutqanoq koʻpincha genuinli hisoblanadi va salbiy bashoratga ega boʻladi. Agar u 5 yoshgacha boʻlgan davrda boshlansa, unda baʼzan sogʻayish holatlari kuzatiladi. Umuman, tutqanoq qancha kech boshlansa, uning kelib chiqishining simptomatik asoslari shuncha koʻp boʻladi. Kasallikning kech boshlanishi jiddiy xarakterologik oʻzgarishlarni kutish ehtimolini kamaytiradi.

4. Oligofreniya. Oligofreniya (aqli zaiflik) bir qator omillar: homilaning ona qornida rivojlanishi davrida yuzaga keluvchi irsiy (onaning homiladorlik davrida yuqumli, zaharli, jarohatli zararlanishi) omillar yoki homilaning tug‘ish vaqtida jarohat olishi, shuningdek go‘daklik vaqtidagi (birinchi 2-3 yilda) zararli ta’sirlar oqibatlarini hisoblanadi. Irsiy oligofreniyaning 10 dan ortiq shakllari mavjud. Ularning bir qismi xromosomal abberatsiya sababli (masalan, mashhur bo‘lgan Daun kasalligi) yuzaga kelgan. Oligofreniyaning ba’zi shakllari ko‘rlik, karlik, qo‘l-oyoq barmoqlarining bitishib ketganligi yoki yo‘qligi, shuningdek, bosh suyagining (mikrotsefaliya) kichikligi tana disproporsiyasi bilan uyg‘unlashgan holda turli majruhliklar bilan rivojlanishni o‘z ichiga oladi. Aqli zaiflikning boshqa o‘ziga xos shakllari kretinizm - jismoniy va aqliy rivojlanmay qolish bilan kechadigan erta endokrinli buzilishlar bilan bog‘liq.

Oligofreniyaning uchta asosiy darajasini ajratishadi: idiotiya (IQ 20 dan kam); imbetsillik (IQ q 20-50); debillik (IQ q 50-70).

Idiotiya. Bemorlar deyarli gapirmaydilar, ularda nutqni aniq talaffuz qilish rivojlanmagan, fikrlash doirasi g‘oyat chegaralangan, shu sababli, bu bemorlar eng oddiy bilimlarni olishga layoqatsizdirlar. Ko‘pincha ular mustaqil yura olmaydilar, siydik va axlat chiqarishni nazorat qilolmaydilar va doimiy qarovga muhtojdirlar. Ular uchun jismoniy rivojlanishning turli majruhliklari xosdir. Aksariyat hollarda bu bemorlarda tug‘ma ehtiyojlar to‘xtab qolgan bo‘ladi: ular ochko‘z, ochiqdan-ochiq onanizm bilan shug‘ullanadigan, badjahl va tajovuzkor, yoxud befarq va befahm bo‘ladilar. Yengilroq holatlarda ular yaqin qarindoshlari va xizmat ko‘rsatayotgan xodimlarni tanishlari va o‘z tuyg‘ularini xursandchilik, qichqirish, kulgi yoki yig‘i bilan izhor qilishlari mumkin.

Imbetsillik. Bemorlarda nutq mavjud, biroq g‘oyat qashshoq va poyma-poy bo‘ladi. Ular mustaqil harakatlanadilar, ma’lum doirada o‘zlariga xizmat ko‘rsatadilar, qoloq shaklda buyumlarni differentsiallashtiradilar, vaziyatni anglaydilar, atrofdagilarning ismlarini biladilar va ko‘pincha, ayrim jo‘n ma’lumotlarni yodlay oladilar. Bu bemorlar oddiy jismoniy ishni bajarishga (masalan xonani yig‘ishtirish, kir yuvish, og‘irlik ko‘tarish va boshqalar) qodirdirlar. Aqliy jarayonlar ularda g‘oyatda chegaralangan va sekinlashgan, his-hayajonli ta’sirlar ibtidoiydir. Imbetsillar orasida qo‘zg‘atuvchi, notinch – eritiv va tormozlangan, sekinlashgan – torpidli turlari ajratiladi.

Debillik. Kasallikning yengil holatlarida bemorlarning zakovat darajasi aqliy me'yorning pastki darajasi bilan chegaralanadi. Ularda fikrlash va nutq imbitsillardan ko'ra bir muncha yaxshiroq rivojlangan bo'lib, ma'lum chegaralarda o'qishga layoqatlidirlar, tashabbus talab etmaydigan va takrorlanuvchi elementlardan iborat bo'lgan turli, uncha murakkab bo'lmagan jismoniy ishlarni bajarishlari mumkin. Oilaviy yoki jamiyatdagi har qanday o'zgarishda ancha qiyinchiliklarga duch keladilar, zero ularda ruhiy faoliyat juda oddiy va stereotiplidir. Hayotiy vaziyatlarni uncha chuqur o'zlashtirmaydilar. Buning oqibatida bemorlar ko'p hollarda atrofdagilarning ekspluatatsiya obyekti bo'lib qoladilar. Hissiy ta'sirlanish ularda differensiallashgan. Debillik bilan kasallangan shaxslar ba'zan juda chuqur bog'lanib qolishga qodirdirlar. Kasallik yengil shaklga ega bo'lgan hollarda, bemorlar hayotga moslashadilar, oila quradilar. Debillik darajasidagi oligofrenlarni bolalik yoshidan boshlab maxsus o'qitish katta ahamiyatga ega. Maxsus o'qitishdan maqsad - ularda axloqning ma'lum me'yorlarini, ko'nikma va mahoratni paydo qilishdir. Aks holda, bunday bemorlar jinoiy elementlarning ta'siri osongina ostiga tushib qoladilar, daydi-darbadarlar, fohishalar va shu kabilarning sonini ko'paytiradilar.

Tug'ma aqli zaiflik ruhiy jarayonlarning notekis rivojlanishi bilan birlashib ketgan holatlar ham bo'lishi mumkin. Bu bemorlarda qandaydir qobiliyatlar, ba'zan umumiy aqliy rivojlanish ancha orqada qolgan bo'ladi. Biroq noyob xotiraga ega bo'lgan yoki dilida murakkab arifmetik hisob-kitoblar qilishga qodir bo'lgan, musiqiy qobiliyati o'ta kuchli oligofrenlar borligi haqida ma'lumotlar mavjud. Bunday hollarda, miya qobig'ining ma'lum funksiyalarini bajaruvchi bir yoki bir nechta bo'linmalari gipertrofik rivojlangan, uning boshqa bo'linmalari yoki miya butun qismlarining uncha rivojlanmaganligi yoxud notekis rivojlanishi kuzatiladi.

Klinik amaliyotda oligofreniya bilan kasallangan bemorlar va orttirilgan aqli zaiflik – demensiya bilan kasallangan bemorlarni farqlash zarur. Ko'rgazmali tushuntirish maqsadida tug'ma aqli zaif bemorni hech qachon boylikka ega bo'lmagan kambag'al odam bilan tenglashtirish qabul qilingan bo'lib, dement bemorni esa bor-yo'g'idan ajralgan badavlat odamga qiyoslashadi.

Demensiyaning haqiqiy va yolg'on – psevdodemensiyaga ajratiladi. Psevdodemensiya «tentak» axloqning ruhiy zarbaga uchragan sharoitdagi (qamoq, urush, og'ir hayotiy vaziyatlar va hokazo)

simulyativ yoki namoyishkorona affektiv ko‘rinishni namoyon etadi. Haqiqiy demensiya turg‘un yoki o‘sib boruvchi aqliy pasayish bilan birga shaxsiyat buzilishlari, ko‘p hollarda, xotira buzilishini o‘z ichiga oladi.

5. Xulqning normadan chiqishi bilan bog‘liq buzilishlar. Normadan chiqishi holatlariga ruhiy sog‘lik va ifodalangan nuqson o‘rtasidagi shartli chegara yaqinida joylashgan ruhiy-asab buzilishlarining zaif, o‘chib ketgan shakllari kiradi. Bunday buzilishlar doirasi juda keng. Normadan chiqish holatlari orasidagi umumiy ko‘rinishda o‘tkir psixopatik buzilishlarsiz bo‘lgan psixogeniya, ruhiy zarbali buzilishlar va ruhiy-shahvoniy rivojlanish deviatsiyasi ajratiladi.

Psixogeniya – asab tizimi va shaxsiy xislatlarining o‘ziga xos xususiyatlari asosida rivojlanadigan ruhiy jarohatlar ta’siri ostida yuzaga keladigan ruhiyat buzilishi. O‘z tarkibiga ko‘ra reaktiv holatlar, nevrozlar va shaxsiyat buzilishlariga bo‘linadi.

Reaktiv holatlar. Kasallik ushbu turining eng ko‘p tarqalgan shakllari kayfiyat buzilishlaridir. To‘g‘ri, sog‘lom kishining kayfiyati vaqtning ko‘p qismida eng yaxshi va eng yomon o‘rtasida bo‘ladi. Kayfiyat buzilishidan qiynaluvchi odamlarda u deyarli har doim bir yoki ikkinchi qutbda bo‘ladi. Bu odamlar kuchli hayajonlanishga moyil yoki befarq bo‘lib, o‘zlarini nazorat qila olmaydilar.

Depressiya. Ma’lumki, depressiya yuzlab yillardan buyon, kishi ruhiyatida tashvishlarning og‘riqli kechishi shakli sifatida tavsiflanadi. Depressiyaning kelib chiqishini qadimgi yunonlar qora safrodan zaharlanish deb tushuntirishgan. Bu uning eski nomida - melankoliya, «qora safro» da aks etgan. Nevrotik depressiya prinsipial ravishda mutanosib sabablar va rivojlanishning nevrotik belgilari bilan endogenli depressiyadan farq qiladi, bunda endogen, yoki biologik depressiya kayfiyatning chuqur, birlamchi og‘riqli tushib ketishi hisoblanadi. Nevrotik depressiya o‘zida affektiv tarzda, u yoki boshqa psixogen voqealardan ta’sirlanishni namoyon qiladi. Unda kam hollarda vital qayg‘u va tormozlanish hamda ko‘proq hollarda g‘amgin yoki qo‘rquvli xavotir, turli xavfsirashlar, o‘ziga va o‘z oilasiga achinish, his-hayajonli labillik, yig‘loqilik, ruhiy-jismoniy ozib-to‘zib ketish kuzatiladi.

O‘lim yoki ajrashish oqibatida sevgilisini yo‘qotish ko‘pincha depressiyaga olib keladi. Vaholanki, ajrashishdan so‘nggi depressiya beva qolganlarga nisbatan chuqurroq va uzoqroq bo‘lishi qayd etilgan.

Bunday holda, og‘ir judolik – sevgan kishisining o‘limini boshidan kechirgan odamlar o‘z yo‘qotishiga aza tutib, ko‘z yosh to‘kishlari mumkin, qarindoshlari va do‘stlaridan madad oladilar. Ajralganlar esa, odatda, atrofdagilardan hech qanday tasalli va yordam olmay, yangi holatga moslashishga majburdirlar. Shuning uchun, ajralganlarda ularning boshiga tushgan baxtsizlikdan so‘ng o‘ziga kelish qiyinroq bo‘ladi. Kayfiyat tushishiga atrof-muhitning, yorug‘ kunning qisqarishi kabi obyektiv omillar ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Depressiyaning ushbu shakli mavsumiylik nomini olgan. U ko‘pincha, ob-havoning mavsumiy o‘zgarishlari kuchliroq bo‘lgan shimoliy mintaqalarda uchraydi.

Depressiyadan qiynalayotgan odam hech narsani istamaydi, tezda charchab qoladi, unga energiya yetishmaydi. U o‘ziga past baho beradi va hayotning salbiy tomonlarini oshirib ko‘rsatadi. U hayotda hech qanday yaxshi narsani ko‘rmaydi. U o‘zining shaxsiy muvaffaqiyatlarini past baholaydi. Masalan, siz depressiyadan qiynalayotgan odamga uning chizgan suratiga qoyil qolganingizni bildirdingiz. U, sizga bunday suratni chizish unchalik qiyin emasligini aytadi va bu yaxshi surat uning shaxsiy xizmati ekanligini tan olmaydi. Depressiya holatidagi kishilarda o‘ziga ishonch yetishmaydi, shuning uchun ular katastrofizatsiya, ya‘ni bo‘lishi mumkin bo‘lgan noxushliklarni oshirib ko‘rsatishga moyildirlar. Depressiya holatida bo‘lgan kishilarga ularni xursand qilishga urinish yoqmaydi, o‘yin-kulgudan qochishni boshlaydilar. Ular yig‘loqi bo‘lib, ko‘p uxlaydilar, o‘nglarida alahsiraydilar. Depressiyaning eng xavfli alomatlaridan biri atrofdagi odamlarga aralashishni istamaslik yoki unga layoqatsizlik hisoblanadi. Ba‘zan depressiyada axloqning keskin o‘zgarishi yuz beradi. Vazmin fe‘lli odam asov bo‘lib qoladi, do‘stona munosabatdagi odam adovatli kishiga aylanadi. Psixologlarning ma‘lumotiga ko‘ra, ayollar erkaklarga nisbatan ikki marta ko‘p depressiyaga chalinadilar, biroq erkaklar o‘zini o‘zi o‘ldirish haqidagi fikrlarga moyil bo‘lib, uni boshdan qiyinroq o‘tkazadilar.

Ayollardagi depressiya jinsiy munosabatlardagi omadsizlik natijasi bo‘lishi mumkin. Kutilmagan abort, yangi tug‘ilgan chaqaloq yoki turmush o‘rtog‘ining o‘limi, menopauza va hatto, menstruatsiya ko‘pincha og‘ir depressiya (ayniqsa, ayol o‘ttiz yoki qirq yoshdan oshgan yoki yolg‘iz va farzandsiz bo‘lsa) bilan kechadi. Reproduktiv omadsizlikka depressiv «javobning» adaptiv ahamiyati kelgusida ota-

onalar axloqining yaxshilanishi, yordam olish va oiladagi barqarorlikka erishishdan iborat bo'lishi mumkin.

Psixologiyada depressiya manifestatsiyalarining uch turi farqlanadi: his-hayajonli, kognitiv va motivatsion.

Depressiyaning hissiy namoyon bo'lishi: 1) g'amgin kayfiyat - tushkunlik, ma'yuslik, qayg'u, umidsizlik, baxtsizlik; 2) o'z-o'ziga nisbatan salbiy tuyg'ular; 3) lazzat reduksiyasi: quvonish, rohatlanishga layoqatsizlik, quvonchdan ta'sirlanishni yo'qotish; 4) his-hayajonli mehr-muhabbatni yo'qotish – o'zi va boshqalar o'rtasida to'siqni his qilish; 5) yig'i affekti.

Kognitiv manifestatsiyalar: 1) o'zini past baholash va o'z qadrini pastga urish; 2) salbiy umidlar: kelajakka qayg'uli boqish va pessimizm; 3) o'zini ayblash va o'zini tanqid qilish; 4) muqobillikni tanlashda qiynalish ko'rinishidagi jur'atsizlik; 5) ayrim dizmorfofobiaviy jihatlarga qadar tana qiyofasini buzib ko'rsatish.

Depressiyaning motivatsion ko'rinishlari: 1) iroda falajligi, biron-narsa qilish uchun ijobiy motivatsiyani, ichki stimulni yo'qotish; 2) ketib qolish, yashirinish istagining mavjudligi, majburiyatlarning bema'ni, zerikarli, mazmunsizdek qabul qilinishi; 3) o'z joniga qasd qilishga moyillik.

Depressiyaning tarqalgan alomatlari

- * G'amginlik va ishonchsizlikni his qilish.
- * Uyqusizlik. Inson erta uyg'onadi, lekin qiyinchilik bilan turadi.
- * Lohas fikrlash yoki diqqatni jamlashning pasayishi.
- * Muqaddam lazzat baxsh etgan mashg'ulotlarga, masalan, jinsiy aloqaga qiziqishning yo'qolishi.
- * O'zini o'zi o'ldirish va o'lim haqidagi fikrlarning mavjudligi.
- * Bezovtalik va jizzakilik.
- * O'zini past baholash yoki aybdorlik hissi.
- * Ishtahaning buzilishi.
- * Charchab qolish, madorsizlik.
- * An'anaviy ravishda davolanmaydigan surunkali og'riqlar.

Nevrozlar. Kelib chiqishi psixogenli bo'lgan ruhiyat buzilishi nevrozlarga kiritiladi. Nevrozning klinik shakli quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi: a) qo'rquv yoki xavotirdan himoyalanihdan dalolat beruvchi axloq, tuyg'u yoki ong buzilishlarini namoyon etuvchi

nevrotik simptomlar (alomatlar). Subyektning ichki ziddiyatiga munosabati ko‘rinishidagi holatlar murosa hisoblanib, nevrotik shaxs ulardan ma’lum foydani oladi (nevrozdan ikkilamchi foyda); b) identifikatsiyalashga va boshqa odamlar bilan yaxshi munosabat o‘rnatishga, shuningdek «Men» nevrotik xarakteri shaxsiy ichki muvozanatni ushlab turishga layoqatsiz bo‘ladi.

Nevrozlarning ikki turga ajratilishi qabul qilingan: faol nevrozlar, ruhiy-nevrozlar. Faol nevrozlarni ruhiy-nevrozlarga qarshi qo‘yish ularning etiologik va patogenetik alomatlariga asoslangan: ikkala turning sababi jinsiy buzilishlar bilan bog‘liq. Biroq faol nevrozlarda uning «ayni vaqtdagi jinsiy hayot buzilishlaridan», ruhiy-nevrozlarda esa –«o‘tmishning muhim voqealaridan» izlash lozim.

Faol nevrozlar. Z. Freyd ular simptomatik buzilishlarining noto‘g‘ri jinsiy amaliyotga bo‘lgan fiziologik ta’sirchanligini ifodalovchi «hozirgi kun nevrozlari» deb atagan. Bunda simptomlar paydo bo‘lishi mexanizmi ramziy emas, balki somatik hisoblanadi (masalan, hayajonlanishning bevosita xavotirga aylanishi). Faol nevrozlar ikki kichik turga ega: nevrasteniya va xavotir nevroziga bo‘linadi.

Nevrasteniya - «asablar zaifligi», charchab qolish, bosh og‘rig‘i, ich qotishlar, igna sanchilishi hissi, jinsiy zaiflikni o‘z ichiga olgan turli visseral ichki buzilishlar kabi alomatlar bilan tavsiflanadi. Ularning paydo bo‘lish sabablarini Freyd jinsiy funksiyalarning libido kuchlanishining lozim darajada bo‘shanishini ta’minlashga qodir emasligida, jinsiy qoniqishning noto‘liqligida (masalan, masturbatsiya tufayli) ko‘rgan.

Xavotirli nevroz zo‘riqish, serzardalik, notinchlik, qo‘rquv, doimiy ravishda xavfsirashni his qilishda namoyon bo‘ladi. Asosiy alomatlari: ko‘p terlash, titroq, nafas qisishi, yurak urishining tezlashishi, bosh aylanishi, ich ketishi, uyqu buzilishi. Xavotirli nevroz bilan kasallanganlar jinsiy amaliyotda jinsiy bo‘shanishning mazkur shaxs uchun mos keladigan chastotasi, maromi va sifatidan chetga og‘ishlarga ega bo‘ladi. Asosiy sababi, odatda, jinsiy aloqadan o‘zini tiyish yoki shahvoniylikni bostirish, shuningdek jinsiy a’zolari mutanosib ozod qilishsiz qo‘zg‘atish yoki uzilgan jinsiy aloqa hisoblanadi, bu esa, pirovardida «jinsiy xayotdan uzilish»ga olib keladi. O‘zining tajovuzkorligini haddan tashqari bostirish xavotirli nevroz namoyon bo‘lishining boshqa sababi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Ruhiy nevrozlar. Freydning fikricha, bu shunday ruhiy parokandalikka, ularda alomatlar bolalar ziddiyatlarining ramziy ifodasi bo'lib chiqadi. Demak, ruhiy nevrozlar endi psixologik va determinatsiyalangan hisoblanadi. Ruhii nevrozlar deganda, Freyd shuningdek, jinsiy negizni asoslaydi. Bu yerda ilk bolalikka tegishli bo'lgan ma'lum voqealar, shuningdek ushbu voqealar va tashvishlar bilan bog'liq erta jinsiy xomxayollar (fantaziyalar) ta'siri postulyatsiya qilingan. Bu taqiqlangan fantaziyalar keyinchalik esdan chiqarilgan, ularning ziddiyatli xarakteri tufayli bostirilgan bo'ladi. Bu ziddiyatlar katta hayotda faollik susaytirilganda unda alomat paydo bo'lishi bilan birga regressiya yuzaga keladi, bu yerda simptom xavotirga qarshi o'ziga xos himoya bo'lib xizmat qiladi. Miyaga o'rnashib qolgan holatlar nevrozini affektiv nevroz va fobiyaviy nevrozga ajratish qabul qilingan.

Nevroz rivojlanishining shart-sharoitlari. 1. Mayl va istaklar bo'shanishiga qarshilik ko'rsatuvchi qo'rquv o'rtasida ichki ziddiyat mavjud. 2. Bu ziddiyat jinsiy ziddiyatni jalb qiladi. 3. Bu ziddiyatlar ishlab chiqilmagan, ularni hal qilishning biron-bir aniq usuli topilmagan. Bo'shanish, lazzatlanishga qaratilgan mayllar ongdan o'chirilgan yoki himoya mexanizmlari tomonidan qandaydir ravishda buzib ko'rsatilgan. Nevrotik uchun boshlang'ich himoya mexanizmi bostirish (siqib chiqarish) hisoblanadi. Bostirish ushbu istaklarni g'ayriixtiyoriy qilib qo'yadigan darajada muvaffaqiyatli hisoblanadi.

4. Bostirish istaklarni ular ega bo'lgan kuchdan to'liq mahrum qilishga qodir emas va bu bostirilgan istaklar onnga alomatlar kabi yorib kiradi.

5. Ichki ziddiyat faqat bolalikda shunga o'xshash rudimentlar yuz bergan hollardagina o'smirlik davrida yoki katta yoshda nevrozga olib keladi.

Miyaga o'rnashib qolgan holatlar nevrozi xayoldan ketmaydigan alomatlarda (sehr-jodu marosimlarida, majburiy g'oyalar, istalmagan harakatlarga majburlash, bu fikr va moyilliklarga qarshi kurash,) va birgina shubha, pushaymonlik va hokazolarni «chaynab berish» hukmronlik qilgan fikr usulida namoyon bo'ladi, buning natijasida esa fikr va harakatlarning tormozlanishi yuz beradi. Bunda: 1) his qilishlar (fikr, istak, qiziqtirish, turtki va affektlar) subyektiv majburlash sifatiga ega bo'lishi lozim. Odam aynan shu tarzda harakat qilish va o'ylashga majburligini his qiladi; 2) majburiy fikrlar va g'oyalar subyektga

mazmunidan mahrum bo'lgan, ishonchsiz yoki tuturiqsiz shaklda namoyon bo'ladi. Majburiy holatlar nevrozida shaxsning o'z tashvishlari azobini anglash qobiliyati saqlanib qoladi; 3) majburiy tashvishlarga subyekt faol qarshilik ko'rsatishi lozim. U ularni bostirish yoki ongidan siqib chiqarishga intiladi, lekin kuchlar, odatda, behuda bo'lib chiqadi. Affektiv nevroz – bu ruhiy ziddiyat spazmatik (masalan, «teatrallik» elementlari bo'lgan his-hayajonli inqiroz) yoki yanada mustahkamroq (og'riq sezuvchanligini yo'qotish, affektiv falajlar, tomog'ida «yumaloq narsani» his qilish va hokazo) xarakterdagi nevroz bo'lib, unda turli klinik alomatlar ko'zga tashlanadi. Affektiv nevrozning o'ziga xos xususiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1) affekt faollik Edip sindromi bosqichiga xos bo'lgan infantil ziddiyatni o'z ichiga oladi;

2) nevrotikning affektiv «Men»i asosan, himoya sifatida bostirishga (siqib chiqarishga), amneziya yoki dissotsiatsiyaga va kamdan-kam hollarda reaktiv hosilalarga yuz tutadi;

3) affekt alomati ko'pincha o'zini konversion reaksiya (affektiv tutqanoq yoki fobiya) shaklida namoyon qiladi;

4) affektiv «yuqori-Men» majburiy holatlar nevroziga nisbatan yon bosuvchiroq, «gapdonroq» va uncha talabchan emas;

5) affekt alomatlari «Men» bilan sintezlanadi va rad etilishi lozim bo'lgan g'ayriixtiyoriy ehtiyojlarni ikkinchi bor qondirish uchun jalb etilishi mumkin;

6) affektiv shaxs o'zlashtirishning ba'zi ichki blokirovkasi yoki g'ayriixtiyoriy istaklarni keltirib chiqaruvchi tashqi rag'batlardan jismonan qochish orqali ichki ziddiyatni, «Men»ning ba'zi ichki blokirovkasini rad etishga moyildir;

7) g'ayriixtiyoriy fantaziyalar affekt alomati shakllanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan muhim omillar sanaladi. Fobiyaviy nevroz – nevrozning asosiy alomati qo'rquv bo'lgan, asossiz va bo'rttirilgan, tuzilishi bo'yicha konversion affektga o'xshash turidir. Bunday qo'rquvning nuqsonli ta'sirchanligi yaqqol jinsiy jo'shqinlik, jinsiy his-hayajonlar fonida faollashuvchi g'ayriixtiyoriy ziddiyat bilan bog'liq. Bu qo'rquvdan ziddiyatning «Men» tizimidan tashqarida bo'lgan obyektga yoki vaziyatga ko'chishi bilan qochish mumkin. Qo'rquv yoki ziddiyat - ichki bo'lsa, undan qandaydir tashqi obyektga, tashqi vaziyatga bog'lanish orqali qochish mumkin. Bunday almashish sodir bo'lganidan keyin xavotirning o'ziga xos, masalan, xavotirning

birinchi xurujidan oldin bo'lgan vaziyatga bog'lanishga ma'lum bir tayyorligi ko'rinadi. Boshlang'ich voqeani takrorlovchi yoki qandaydir ravishda ramziy ma'noda namoyish etuvchi vaziyat yuzaga kelsa, unda xavotir manifestatsiyasi bilan aloqa hosil bo'ladi. «Men» turli usullar bilan, masalan, tormozlanish holati (impotensiya, frigidlik) yoki ushbu g'ayriixtiyoriy ziddiyat bilan bog'liq obyektlarni chetlab o'tish vositasida ushbu xavotir xurujlarini qaytarishga urinadi.

Insonlar ko'pincha qo'rquv holatini xavf-xatar vaqtida, ba'zan biror-bir shaxs oldida, muhim ish va muhim uchrashuvlardan oldin, nizoli vaziyatlarda, o'qish va ishda muvaffaqiyatsizlikka duch kelganda, jamoa oldida so'zga chiqqanda, kutilmaganda sodir bo'ladigan cho'chituvchi vaziyatlarni boshdan kechiradi.

Ko'pincha psixologik adabiyotlarda qo'rquv muammosi taniqli olimlar tomonidan keng doirada tahlil qilinib, bu borada ilmiy-nazariy ta'riflar ishlab chiqilgan. Keng tarqalgan ta'riflarga ko'ra:

Qo'rquv – subyekt o'zining xotirjam hayot kechirishiga ziyon yetishi mumkinligi haqida, unga tahdid solayotgan yoki tahdid solishi mumkin bo'lgan xavf- xatar haqidagi xabarni olishi bilan paydo bo'ladigan salbiy hissiy holatdir. Kishi qo'rquv hissiyotiga berilganda, muvaffaqiyatsizlikka uchrashi mumkinligini faqat ehtimoliy tarzda biladi va ushbu (ko'pincha, yetarli darajada ishonarli bo'lmagan) taxminga binoan harakat qiladi. Qo'rquv hissiyoti stenik tusda ham, astenik tusda ham bo'lishi yoki ruhan astoydil tushkunlikka berilgan va xavotirlangan ravishda yoki affektiv holatga tushgan ravishda kechishi mumkin.

Qo'rquv – odamning o'ziga yoki yaqin kishilariga taalluqli bo'lgan haqiqiy yoki xayoliy xavf-xatarga nisbatan qaytaradigan emotsional reaksiyasidir. Qo'rquv yuzning oqarishi, badanning titrashi va boshqa bir qancha ixtiyorsiz tovushlar, harakatlar bilan ifodalanadi. Qo'rquv xavf- xatardan qochish yoki harakatsiz turib qolish holatida ham namoyon bo'lishi mumkin.

Qo'rquv holati shaxsda psixik jarayonlarning to'g'ri kechishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonda sezuvchanlikning o'ta oshib ketishi yoki pasayishi vaziyatning mohiyatini tushunmaslik, idrok etishning yomonlashuvi kabi holatlarni kuzatish mumkin. Qo'rquv tafakkur jarayoniga ham ta'sir ko'rsatib, ba'zi insonlarda fikrlashning ravonlashuvi va vaziyatdan tezroq chiqib ketishga intilish bilan namoyon bo'lsa, boshqalarda, aksincha, tafakkur mahsuldorligining

pasayishi, nutq va harakatlarda mantiqsizlik aks etadi. Aksariyat hollarda irodaviy soha zaiflashib, inson biror qaror qabul qilishga, vaziyatni nazorat qilishga o'zida kuch topolmay qoladi. Qo'rquv vaqtida ko'pincha nutq buzilib, tovushda titroq paydo bo'ladi. Qo'rquv va xavotirlik diqqat jarayoniga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Odatda, diqqat tarqoqlashib, inson o'z diqqat-e'tiborini bir yerga to'play olmaydi va ba'zan, aksincha diqqatining barqarorligi oshib, aynan bir obyektga tomon yo'naltirilganligini ham ko'rish mumkin.

A.Kempinski qo'rquvni keltirib chiqaruvchi holatlarni 4 guruhga ajratadi: hayot uchun bevosita xavfli ta'sir ko'rsatuvchi omillar, ijtimoiy tahdidlar, faollikni shaxsan tanlash imkoniyatining yo'qligi hamda ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatlardagi buzilishlar. Kelib chiqish sabablariga ko'ra qo'rquvni biologik, ijtimoiy, ruhiy va dezintegratsion turlarga bo'lish mumkin.

Qo'rquv xavf-xatardan himoyalanihga va undan qochish yo'llarini izlashga undovchi to'g'ri emotsional holat hisoblanadi. Hech qachon qo'rquvni his qilmaslik mumkin emas, holbuki qo'rquv va xavotirning yo'qligi ham psixik buzilish belgisidir. Ammo ba'zi insonlarda ma'lum bir vaziyat va holatga nisbatan nomutanosib reaksiyalar bilan ifodalanuvchi yopishqoq qo'rquvlar va fobiyalar ham uchrab turadi. Fobiyaga duchor bo'lgan inson qo'rquvning asossiz ekanligini tushunib yetadi, ammo qo'rquvdan xalos bo'la olmaydi. Yopishqoq qo'rquvlarning paydo bo'lish ehtimoli har bir insonda mavjud. Shuning uchun ham fobiyalar yetarlicha keng tarqalgan.

Fobiya - biror vaziyat, hodisa predmetga nisbatan vujudga keladigan birmuncha turg'un va asossiz qo'rquvdir. Fobiya bilan aziyat chekuvchilar qo'rquvlariga sabab bo'luvchi predmet yoki vaziyat haqida hatto o'ylaganlarida ham ularni vahima qamrab oladi. Fobiya insonlarning to'g'ri hayot kechirishlariga to'sqinlik qilib, shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Fobiya qo'rquvdan kuchli va turg'un holda namoyon bo'lishi, qo'rquv uyg'otuvchi obyektidan qochish istagining yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Ma'lumotlarga qaraganda, yer yuzi aholisining 10 –11 % turli xil fobiyalardan aziyat chekadi. Bu holat insonda kutilmaganda va ang'lanmagan sababga ko'ra paydo bo'lishi mumkin. Ayniqsa, bolalarda qo'rquv va fobiyalar ularning jamiyatga, o'rab turgan olamga moslashish jarayonlarida ko'proq uchraydi. Ta'kidlanishicha, fobiyalar

fantaziyasi yaxshi rivojlangan, xavotirlanuvchan xususiyatga ega bo'lgan, o'ziga ishonmaydigan, o'ziga past baho beradigan, muloqotga kirishish malakasi yaxshi shakllanmagan insonlarda ko'proq kuzatilar ekan. Bu jarayonga irsiyat hamda tarbiya ham katta ta'sir ko'rsatadi. Fobiya erkaklarga qaraganda ayollarda ko'proq uchraydi. Bu holat ayollarning hissiyotga beriluvchanligi va ko'pincha agressiyaning obyektiga aylanib qolishlari bilan bog'liqdir.

Fobiyaning ko'plab turlari mavjud: odamlar biror hayvondan, hasharotdan, balandlikdan, yolg'iz qolishdan, kasallikka chalinishdan, ochiq yoki berk bo'shliqdan qo'rqadilar. Hatto insonlarda fobofobiya, ya'ni biror fobiyaga duchor bo'lishdan qo'rqish ham uchraydi. Odamlarning doimo qo'rquv hissini qo'zg'atuvchi vaziyatdan qochishlari fobiyaning belgisidir.

Fobiylar vaqtida inson qo'rquv obyektiga nisbatan vegetativ asab tizimidagi qo'zg'alishlar natijasida ikki xil usulda javob reaksiyasini ko'rsatishi mumkin:

Birinchi holatda, simpatik asab tizimi qo'zg'alib, yurak urishining tezlashuvi, qon bosimining ko'tarilishi, terining qizarishi kabi belgilar kuzatilsa, ikkinchi holatda parasimpatik asab tizimining ko'zg'alishi natijasida yurak urishining sekinlashuvi, qon bosimining pasayishi, teri rangining oqarishi, sovuq ter chiqishi kabi holatlar namoyon bo'ladi.

Ma'lumotlarda ko'rsatilishicha, fobiya nasldan-naslga o'tadi. Ota-onada biror fobiya mavjud bo'lsa, farzandga ham shu holatga nisbatan moyillik nasliy yo'l bilan uzatiladi, ammo bu moyillik aynan shu fobiya turiga nisbatan bo'lmasligi mumkin.

Fobiylar inson hayotiy faoliyatining deyarli hamma jabhalarida uchrashi mumkin:

Insonning uyda bo'lish, xo'jalik ishlari, shaxslararo munosabatlar va hokazolar bilan bog'liq fobiylar: yong'in chiqishidan, gaz bilan zaharlanishdan, tok zarbasidan (urishidan), suv bosib ketishidan, balandlikdan, ifloslikdan, yuvish vositalaridan, dorilardan, maishiy asboblarning portlab ketishidan, uyning qulab tushishidan, yolg'izlik yoki qorong'ulikdan qo'rqish.

Ish faoliyati bilan bog'liq fobiylar (hamkasblar va boshliqlar bilan munosabatlardan, atrof-muhitdan va hokazolardan qo'rqish): ishni boshlash, ishni yo'qotib qo'yishdan, yangi mutaxassisligiga mos bo'lmaslikdan, ish joyida shikastlanish yoki baxtsiz hodisadan, nafaqaga chiqishdan, hamkasblari bilan o'zaro bir-birini tushuna

olmaslikdan, boshliqlardan, nazorat-tekshiruv tashkilotlaridan, muhim muzokaralardan, masyuliyatni o'z zimmasiga olishdan qo'rqish.

Insonning shaxsiy, jinsiy hayoti bilan bog'liq fobiyalar: homiladorlikdan, farzandsizlikdan, zo'rlanishdan, jinsiy yuqumli kasalliklar yuqishidan, turli kasalliklar bilan kasallanishdan, qarilikning qiyin kechishidan, soch to'kilishidan, allergik reaksiyalardan qo'rqish va boshqalar.

Yashirin fobiyalar: Qarama - qarshi jins vakillaridan; biror illatga berilib qolishdan; alkogol, narkotik mahsulotlariga, dori vositalariga va boshqa xil tobelik yuzaga kelishdan; omadsizlikning takrorlanishidan, kimningdir joniga qasd qilishdan; o'ldirilishdan; yopiq joylardan, binolardan, o'zini o'ldirishdan, boyligini yo'qotishdan, aqldan ozishdan, o'zga sayyoraliklar bilan uchrashuvdan, turli ranglardan, ruh va arvohlardan qo'rqish.

Ota-onalarda kechadigan fobiyalar: o'z bepushtligidan, homiladorlikdan homilaga zarar yetishidan, tug'ruq og'riqlaridan, turmush o'rtog'i bolani sevmasligidan, bolada qandaydir illat aniqlanishidan, unga ziyon yetkazilishidan qo'rqish.

Yuqorida keltirib o'tilgan fobiyalardan tashqari bolalar va o'smirlar, yigit va qizlar, erkak va ayollar uchun xos bo'lgan juda ko'p fobiya turlari mavjud. Ta'kidlab o'tilganidek, bu holatlarning oddiy qo'rquv yoki xavotir sifatida namoyon bo'lishi tabiiy hol. Ammo shu kabi o'y-fikrlarning inson miyasini band etishi, biror narsadan qattiq qo'rqish, hatto o'sha narsaning nomini eshitish yoki suratini ko'rishning o'zi ham insonning dahshatga tushishiga sabab bo'lishi va eng asosiysi bu qo'rquvlardan odam o'z iroda kuchi yordamida xalos bo'la olmasligi fobiyaning xos xususiyatlaridandir.

Fobiyalar ma'lum vaziyatlar, hodisalar va tasavvurlar bilan bog'liq bo'lgan doimiy xavotir va qo'rquvlar asosida tez va sezilarsiz shakllanishi hamda og'ir psixopatologik asoratlar darajasigacha o'sib keladigan qiynoqli ruhiy kechinmalarga ham sabab bo'lishi mumkin.

Xavotir, qo'rquv va fobiyalar kechishning davomiyligi bilan ajralib turadi, o'sib rivojlanishga, ortib borishga, o'z shakllarini o'zgartirib, boshqa hayotiy vaziyatlar, predmetlar shakllariga aylanishga moyil bo'ladi. Ular doimiy tushkunlik, g'amginlik, holsizlik yoki agressiya holatlarining vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Bir odamning o'zida bir necha fobiyalar kuzatilishi mumkin. Bunda inson o'z

kasalligining barcha ko‘rinishlarini tanqidiy idrok etishi to‘liq saqlanib, bu hol uning ruhiy azoblarini yanada kuchaytiradi.

Fobiyalar inson xulqining ba’zi noodatiy holatiga ham sabab bo‘lishi, atrofdagilarning nomuvofiq reaksiyasiga olib kelishi mumkin. Masalan, fobik qo‘rquvlar sodir bo‘lishi ehtimol bo‘lgan baxtsizlikdan himoyalaniq maqsadida o‘tkaziladigan butun boshli marosimgacha bo‘lgan harakatlar, ko‘pincha sog‘lom fikr nuqtai nazaridan erish tuyulgan xulq-atvor ko‘rinishida ham namoyon bo‘lishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, fobiya-insonlar emotsional sohasining patologik holati bo‘lib, asossiz ravishda kuchli qo‘rquv shaklida namoyon bo‘ladi ¹.

Unga ko‘ra, fobiyaning quyidagi turlari mavjud:

Agorafobiya – ochiq bo‘shliqlardan qo‘rqish.

Akvafobiya – suvdan qo‘rqish.

Akrofobiya – balandlikdan qo‘rqish.

Androfobiya – erkaklardan qo‘rqish.

Autofobiya – yolg‘izlikdan qo‘rqish.

Gemofobiya - qondan qo‘rqish.

Zoofobiya – hayvonlardan qo‘rqish.

Kardiofobiya – yurak kasalliklaridan qo‘rqish.

Klaustrofobiya – yopiq bo‘shliqdan qo‘rqish.

Krematofobiya – puldan qo‘rqish.

Nekrofobiya – murdalardan qo‘rqish.

Niktofobiya - qorong‘ulikdan qo‘rqish.

Panofobiya – dunyodagi hamma narsadan qo‘rqish.

Pirofobiya – olovdan qo‘rqish.

Santa-klaustrofobiya – tutun mo‘risiga tiqilib qolishdan qo‘rqish.

Tanatofobiya – o‘limdan qo‘rqish.

Toksikofobiya – zaharlanishdan qo‘rqish.

Triskaydekafobiya – 13 sonidan qo‘rqish.

Fobofobiya – o‘z qo‘rquvidan qo‘rqish.

Shaxsiyat buzilishi (xarakter buzilishi). Xarakter buzilishi hozirgi kunga qadar «psixopatiya» deb ataladi. (hozir G‘arb mamlakatlarida bu atama deyarli qo‘llanilmaydi). Psixopat shaxsiyatining ko‘pchiligi infantil bo‘ladi va shaxs o‘zini namoyon qilishini ongli nazorat qilishga

¹ *Нижанова З.Т., Туляганова. Ш.Т. Ўсмирлик даврида кўрқув ҳолатларининг намоён бўлиши: Услубий кўлланма. – 2009. – Б. 9-14.*

qodir emas. Bu buzilishlar turli komplekslar va nafsoniyat bilan birgalikda axloqni tashkillashtirishda hukmronlik qiluvchi mayllar, istaklar giperbolizatsiyasida ifodalanadi. Bularning barchasi shaxsning imkoniyatlariga to‘g‘ri keladigan maqsadlarni oldiga qo‘yishi va ularga rejalashtirilgan ravishda erishishiga to‘sqinlik qiladi. Shunday qilib, hissiy-irodaviy anomaliya psixopatning atrof-muhitga moslashuviga xalaqit beradi. Garchi psixopatiyada ko‘proq shaxsiyat azob cheksa-da, shuningdek boshqa ruhiy va ayniqsa, affektiv sohalarning disproporsional, diskordinatli rivojlanishi ham uchrab turadi. Eksploziv, affektiv yoki boshqa buzilishlarning ustunligi shaxsiyat va affektiv soha buzilishining shakllanishi xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Psixopatiyaning bir qancha asosiy shakllari ajratiladi.

Affektiv (isteriyali) shakli ("e'tiborga tashnalar"). Individlar axloqining ekssentrikligi, notabiiyligi, yasamaligi, doimo ko‘z oldida bo‘lish istagi, yuqori darajada ishontirish va ekzaltatsiya, oshkora janjal qilishga moyilligi bilan ajralib turadi.

Eksploziv (portlovchi) shakli. Kasallikning bu shakli uchun o‘zini tuta olmaslik, o‘z affektini to‘xtatib qola olmaslik xos bo‘lib, individlar arzimagan bahonalar bilan to‘lqinlanib tajovuzkorona tarzda qizg‘in aks ta’sir ko‘rsatadilar. Shu bilan birga, ular pedantizm, mayda-chuyda narsalarda to‘xtab qolish, fikrlashining konkretligi bilan farqlanib, bu bilan epileptoidlarni eslatishadi.

Affektiv shakli. Bunday psixopatiya bilan kasallanganlar yuqori - gipomaniakal, yoki past – depressiv bo‘lishi kabi beqaror kayfiyati bilan ajralib turadi. Gipomaniyada ular haddan tashqari faol bo‘lib, atrofdagilarga tinchlik bermaydilar, depressiyaga o‘tishda esa harakatsiz, hamma narsadan norozi, ba’zan ipoxondrik, o‘z sog‘lig‘i bilan haddan ortiq darajada band bo‘lib qoladilar.

Paranoyya shakli. Mazkur individlar badgumon, shubhalanuvchi, janjalkash yoki odamovi bo‘lib, bema’ni g‘oyalarga moyildirlar. Ular ko‘pincha o‘zlarini huquqlari cheklab qo‘yilgan, go‘yo ataylab ularga qarshi harakat qiluvchi dushmanlari bor deb hisoblaydilar. Bu bemorlar ko‘pincha qarashlarida jaholat, qasoskorlik, kek saqlashni namoyon qilgan holda, atrofdagilar bilan sudlashuvgacha boradilar.

Astenik shakli. Bu individlar oddiy qo‘zg‘atuvchilar ta’siri ostida ozib-to‘zib ketadilar, tez holdan toyadilar va uzoq vaqt ishlashga layoqatsizdirlar. Ular baland tovushni, ortiqcha yorug‘likni ko‘tara olmaydilar, ko‘pincha serzarda, yig‘loqi va ipoxondrik bo‘ladilar.

Shizoidli shakli. Psixopatiyaning bunday shakliga ega bo'lgan odamlar - g'alati, «boshqa dunyoning odami», g'ayrioddiy bo'ladilar. Ko'pincha ular, yolg'iz, ba'zan ko'p sonli jonivorlar qurshovida hayot kechiruvchi qari qizlar yoki bo'ydoqlaran iborat bo'ladi. Ular hayotdan uzilib qolgan rejalar tuzish, alohida parhezlar o'tkazish, ba'zan turli xil kolleksiyalar to'plashga moyildirlar. Ko'p hollarda, ular borliqdan uzilib yashaydilar, hissiy jihatdan sovuq va haddan ortiq ratsional bo'ladilar.

Ko'pgina psixopat shaxslar uchun axloqning jamiyatga zid shakllari xosdir. Bular odatda, jinoiy odatlar bir muncha shakllangan va narkotik hamda alkogolni suiiste'mol qilishga moyil bo'lgan infantil shaxslardir. Ko'pincha ular irodasi kuchsiz, ishonuvchan bo'ladilar va osongina yo'l boshchilarning ta'siri ostiga tushadilar. Ular chidam bilan ishlay olmaydilar, qamoqdan ozod etilgach, bunday shaxslar jinoiy odatlariga osongina qaytadilar.

Ruhiy zarbali (stressli) buzilish. Bu jarohatli ruhiy zarbadan kechikib ta'sirlanish, kishi ruhiy faoliyatining olgan ruhiy jarohati bilan bog'liq bo'lgan buzilishi, unda u boshidan kechirgan, ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklarga olib kelgan ekstremal vaziyatlarning ta'siri namoyon bo'ladi (muloqotda, ishda va sh.k.). Ruhiiy zarbali buzilishning ikki o'tkir va jarohatdan keyingi shakli ajratiladi, ular ruhiy jarohatdan keyingi yuzaga kelish vaqti va davomiyligi bilan farqlanadi.

Stress - turli xil ekstremal ta'sirlarga javob sifatida yuzaga keladigan kishi holatining keng doirasi. Bu tushuncha shaxsning fiziologik, psixologik va axloqiy darajalardagi ekstremal sharoitlar holatlarini tasvirlash uchun qo'llaniladi.

Ruhiy jarohat – kishining hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatgan va bu ta'sirning to'xtaganida, holatlar, hodisalar, voqealarning xotirasida qoldirgan asoratidir.

Ekstremal vaziyat – oddiy insoniy tajriba doirasidan chetga chiquvchi, ko'zda tutilmagan ravishda odamlarning hayoti, sog'ligi va farovonligiga jiddiy va bevosita xavf tug'dirishi bilan tavsiflanuvchi, moddiy qimmatliklarning yo'q qilinishiga olib keluvchi hodisa.

O'tkir stressli buzilish (O'SB) jarohat vaqtidan boshlab, bir oy davomida yuzaga keladi va ikki kundan to'rt haftagacha davom etadi.

O'tkir stressli buzilishning diagnostik mezonlari.

A. Individ ikkita jihati mavjud bo‘lgan jarohatli hodisani boshidan o‘tkazgan:

1) hodisa o‘zi yoki boshqa odamlarning o‘limi yoki o‘limi xavfi yoki jiddiy jarohatlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan;

2) hodisa qo‘rquv, ojizlik, dahshatni intensiv ravishda boshidan o‘tkazish orqali sodir bo‘lgan.

B. Jarohat vaqti va undan keyingi davrda shaxsda kamida uchta dissotsiativ alomatlar kuzatilgan:

1) hissiy qaramlik, «zaiflashish» yoki hissiy ta’sirchanlikning yo‘qligini subyektiv ravishda his etish;

2) atrofdagilar haqidagi fikrlarning torayishi ("chigallik");

3) dereallashtirish;

4) depersonallashtirish;

5) dissotsiativ amneziya (hodisaning muhim jihatini eslay olmaslik).

D. Jarohatli hodisani takroriy ravishda boshdan o‘tkazish quyidagi alomatlarining hech bo‘lmaganda bittasida namoyon bo‘ladi:

1) qiyofalar, fikrlar yoki o‘zlashtirishni o‘z ichiga olgan yopirilib keluvchi yoqimsiz xotiralar;

2) hodisa to‘g‘risida qaytuvchi yoqimsiz tushlar;

3) go‘yoki jarohatli hodisa yana sodir bo‘layotganidek harakat yoki tuyg‘u (jonlangan tajribani his qilish, gallyutsinatsiya illuziyasi, uyqu holatida yoki intoksikatsiya davrida yuzaga keluvchi dissotsiativ fleshbeklar);

4) jarohatlovchi hodisa yoki uni esga soluvchi (muhim qo‘zg‘atuvchilar) biron-bir jihatning ramzi bo‘lib xizmat qiluvchi ichki yoki tashqi rag‘batlar ta’siri ostida yaqqol ifodalangan ruhiy distress;

5) bunday rag‘batlarga fiziologik ta’sirchanlik.

E. Organizm umumiy reaktivligining kamayishi va jarohatni eslatib turuvchi rag‘batlardan:

1) jarohat haqidagi fikrlar, hissiyotlar yoki suhbatlar;

2) jarohat haqidagi xotiralarni uyg‘otuvchi faoliyat, joy yoki odamlardan astoydil qochish.

F. Fiziologik giperaktivatsiyaning quyida keltirilgan ko‘rinishlaridan hech bo‘lmaganda ikkitasida namoyon bo‘luvchi (jarohatgacha mavjud bo‘lmagan) barqarorlik alomatlari:

1) uyquga ketishning qiyinligi (uyqusizlik);

2) jizzakilik, birdan g‘azablanish;

- 3) diqqatni jamlashning qiyinligi;
- 4) yuqori darajada sergaklik;
- 5) «qochish reaksiyasi»ga yuqori darajada tayyorlik;
- 6) jismoniy charchoqning, dam olishga ehtiyojning yoʻqligi.

J. Buzilish klinik ahamiyatga ega boʻlgan distressni yuzaga keltiradi yoki shaxsning zaruriy yordam olish, oila aʼzolariga boshidan oʻtkazgan jarohati toʻgʻrisida xabar berish layoqatini izdan chiqaradi.

H. Buzilish bir oy davomida yuzaga keladi va ikki kundan toʻrt haftagacha davom etadi.

I. Buzilish fiziologik va faol moddalarning (narkotik, psixotrop) bevosita taʼsiri yoki organizmning umumsomatik holati bilan bogʻliq emas.

Posttravmatik (yoki jarohatdan keyingi sindrom) buzilish jarohatdan keyin kamida bir oy oʻtganidan soʻng yuzaga keladi va toʻrt haftadan koʻproq davom etadi. Namoyon boʻlishi va kechishining muvaqqat xususiyatlariga koʻra jarohatdan keyingi stressli buzilishlarni uchta kichik turga ajratiladi:

- 3 oygacha boʻlgan muddatda rivojlanadigan oʻtkir (uni oʻtkir stressli buzilish bilan adashtirish mumkin emas);
- 3 oydan ortiq davomi etadigan surunkali;
- kechiktirilgan, buzilish jarohat olinganidan keyin olti oy va undan ortiq vaqt oʻtgach, yuzaga kelgan. Shunday holatlar maʼlumki, AQSHda Vyetnam urushi faxriysining posttravmatik sindromi 10 yildan ortiq vaqt oʻtganidan keyin, u toʻsatdan oʻsha vaqtlarni esiga solib, pastlab uchayotgan vertolyot ovozi eshitib qolganida yuzaga kelgan.

Posttravmatik sindromning diagnostik mezonlari.

A. Individ ikki jihati mavjud boʻlgan jarohatli hodisani boshidan oʻtkazgan:

1) hodisa oʻzi yoki boshqa odamlarning oʻlimi yoki oʻlimi xavfi yoki jiddiy jarohatlanishi, jismoniy holati bilan bogʻliq boʻlgan;

2) hodisa qoʻrquv, ojizlik, dahshatni intensiv ravishda boshidan oʻtkazish orqali sodir boʻlgan.

B. Jarohatli hodisani takroriy ravishda boshdan oʻtkazish quyidagi alomatlarining hech boʻlmaganda bittasida namoyon boʻladi:

1) qiyofalar, fikrlar yoki oʻzlashtirishni oʻz ichiga olgan yopirilib kiruvchi yoqimsiz xotiralar;

2) hodisa toʻgʻrisida qaytuvchi yoqimsiz tushlar;

3) go‘yoki jarohatli hodisa yana sodir bo‘layotganidek harakat yoki tuyg‘u (jonlangan tajribani his qilish, gallyutsinatsiya illuziyasi, uyqu holatida yoki intoksikatsiya davrida yuzaga keluvchi dissotsiativ fleshbeklar);

4) jarohatlovchi hodisaning yoki uni esga soluvchi (muhim qo‘zg‘atuvchilar) biron-bir jihatning ramzi bo‘lib xizmat qiluvchi ichki yoki tashqi rag‘batlar ta’siri ostida yaqqol ifodalangan ruhiy distress;

5) bunday rag‘batlarga fiziologik ta’sirchanlik.

D. Jarohatni eslatib turuvchi quyidagi rag‘batlardan astoydil qochish va quyidagi alomatlarining hech bo‘lmaganda uchtasida namoyon bo‘ladigan organizm umumiy reaktivligining kamayishi:

1) jarohat haqidagi fikrlar, hissiyotlar yoki suhbatlardan qochishga urinish;

2) jarohat haqidagi xotiralarni uyg‘otuvchi faoliyat, joy yoki odamlardan qochishga urinish;

3) jarohatlovchi hodisaning biron-bir muhim jihatini xotirlay olmaslik;

4) faoliyatning ahamiyatli turlariga qiziqish va unda ishtirok etishning sezilarli darajada pasayib ketishi;

5) odamlarga qaramlik yoki ulardan begonalashishni his qilish;

6) affektning torayishi (masalan, muhabbatni his etishga qodir emaslik);

7) kelajakning qisqaligi, yo‘qligi haqidagi tuyg‘ular (normal hayotiy siklni - karyera, er-xotinlik, bolalar va hokazolarni kutishning mavjud emasligi).

F. Fiziologik giperaktivatsiyaning quyida keltirilgan ko‘rinishlardan hech bo‘lmaganda ikkitasida namoyon bo‘luvchi (jarohatgacha mavjud bo‘lmagan) barqaror alomatlari:

1) uyquga ketishning qiyinligi (uyqusizlik);

2) jizzakilik, birdan g‘azablanish;

3) diqqatni jamlashning qiyinligi;

4) yuqori darajada sergaklik;

5) «qochish reaksiyasi»ga yuqori darajada tayyorlik;

J. Buzilishning bir oydan kam bo‘lmagan muddatga cho‘zilishi (V, D, YE mezonlari mavjud bo‘lganda).

N. Buzilish klinik ahamiyatga ega bo‘lgan distressni yuzaga keltiradi yoki shaxsning ijtimoiy, professional yoki boshqa muhim faoliyatni izdan chiqaradi.

Qayd etilgan kichik turlaridan tashqari, xorijiy tadqiqotchilar stressli buzilishlarning «normadan chiqishi» toifasini ajratadilar, unda uchta guruhi bo'lgan bostirib kirish, qochish va giperaktivatsiyaning istalgan ikkita guruhi namoyon bo'lishi ma'lum.

A mezonining ta'rifidan ko'rinadiki, jarohatli hodisaning ifodasi *posttravmatik sindromni* diagnostika qilishda birinchi darajalilar qatoriga kiradi.

Jarohatli hodisalarga quyidagilar kiradi (lekin bu bilan chegaralanmaydi): jangovar tajriba; shaxsga nisbatan zo'rlik bilan bosqinchilik qilish (shahvoniy yoki jismoniy zo'rlik, talonchilik, guruhiy bosqinchilik); kidnepping; garov tariqasida ushlab; terroristik hujumlar; qiynashlar; harbiy asir sifatida konsentratsion lagerlarda saqlash; tabiiy, sanoat va avtomobil halokatlari; odamga hayot uchun xavfli bo'lgan bedavo dard tashhisi qo'yilgandagi vaziyat.

Shaxs hodisa guvohi bo'lib qolgan vaziyatlar: kishi o'ziga nisbatan zo'ravonlik harakati sodir etilishi natijasida boshqa kishining jiddiy jarohat olishi yoki zo'rlik bilan o'ldirilishiga, baxtsiz hodisa yoki halokatga guvoh bo'lib qolgan, yoxud odam murda yoki murda qismini topib olgan holatlarni o'z ichiga oladi (lekin bu bilan chegaralanmaydi).

Odam boshqa kishilar bilan sodir bo'lgan hodisalar haqida biladigan vaziyatlar boshqa odamlarga nisbatan jismoniy zo'rlik ishlatilgan holatlar, oila a'zosi yoki yaqin do'stining boshiga tushgan og'ir baxtsiz hodisalar yoki jismoniy jarohatlar; odam farzandining hayot uchun xavfli dard bilan kasallanganini bilgan holatlarni o'z ichiga oladi (lekin bu bilan chegaralanmaydi). Boshqa odamlarning ta'siri ruhiy zarbaning sababi bo'lgan hollarda (masalan, zo'rlik bilan nomusiga tegish) buzilish ayniqsa, juda og'ir va uzoq davom etishi mumkin.

Posttravmatik sindromga ega bo'lgan individlar halok bo'lganlar oldida tirik qolganlari yoki ular omon qolishi uchun nima qilishga majbur bo'lganliklari yuzasidan og'ir aybdorlik hissini boshdan kechirayotganliklarini bildirishlari mumkin. Asosiy jarohatga o'xshash bo'lgan yoki uni ifodalovchi vaziyat yoki harakatlardan fobiyaviy qochish er-xotin o'rtasidagi ziddiyatlarga, ajrashishlar yoki ishni yo'qotishga olib kelishi mumkin. Shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq stressli ta'sir (masalan, bolalikdagi shahvoniy yoki jismoniy zo'rlik, oilada kaltaklashlar, garovga olingan shaxs, harbiy asir sifatida

ushlab turish, qiynoqlar) alomatlarining quyidagi uyg'unligi bo'lishi mumkin:

- affekt doirasining buzilishi;
- o'zini o'zi yemiruvchi va g'ayriixtiyoriy axloq;
- dissotsiativ alomatlar;
- somatik shikoyatlar;
- faoliyatga layoqatsizlik hissi;
- nomus, umidsizlik, ishonchsizlik, zaiflashganlik, doimiy tahdid, dushmanlik hissi;
- ilgari qo'llab turgan narsaga bo'lgan ishonchning yo'qolishi;
- ijtimoiy uzilgan, boshqa odamlar bilan o'zaro aloqalarning zaiflashganligi;
- shaxsiy xususiyatlarning o'zgarishi.

Jarohatlovchi hodisaning biron-bir jihatini ifodalovchi yoki yodga soluvchi internal yoki eksternal rag'batlar ta'siriga bo'lgan fiziologik reaktivlik laboratoriya tajribalarida o'z tasdig'ini topgan. Bir qator tadqiqotlarning ko'rsatishicha, jang vaziyatlari ko'rinishidagi audiovizual rag'batlar (masalan, vertolyotlarning uchishi, otishma tovushlari) posttravmatik sindromga uchragan faxriylarda yurak chastotasining qisqarishi va arterial qon bosimining ortishiga olib keladi. Tajriba olib borilayotgan posttravmatik sindromlardagi miya faolligining tomografik tadqiqotlari jarohat bilan bog'liq tashvishlar jarayonida bodomsimon bezni ham kiritgan holda old perelimbik tuzilmalarida miya qon aylanishining sezilarli darajada ortishi aniqlandi. Keyinchalik talamus va bodomsimon bezning aloqasi shartli qo'rquv ta'sirchanligini hosil qilish uchun «tez va ifloslangan» yo'lni ifodalaydi. Talamokortikomindalli tizim sensorli kirishdan kelib tushadigan axborotni qayta ishlash va diskriminatsiya qilishning o'ta aniq, lekin sekin usuli hisoblanadi. O'z navbatida, zararlanmagan qobiq shartli qo'rquv ta'sirchanligi pasayishi va o'chishini ta'minlasi, talamomindal aloqasi-ning shikastlanishi shartli qo'rquv ta'sirchanligini ishlab chiqishga to'sqinlik qiladi. Bunday holda, posttravmatik sindrom o'zida jarohatli hodisa haqidagi «abadiy hayajonli xotira»ni namoyon qiladi. Bunda jarohatli hodisaga ta'sirchanlik vaqtida ozod bo'layotgan ruhiy zarba gormonlari va neyromodulyatorlar hodisa haqidagi xotiralarni qayta guruhlashi mumkin. Bu xotiralar oqibatda bostirib kiruvchi epizodlar va qaytadan boshdan o'tkazilayotgan alomatlar ko'rinishida erkin ravishda yuzaga kelishi mumkin. Hodisani xotirlash ruhiy zarbaning

qo‘shimcha gormonlarini ozod qilishi mumkin, bu esa posttravmatik sindrom rivojlanishi bilan tugashi mumkin bo‘lgan ijobiy qayta aloqa siklini yaratib, kelgusida «jarohatli xotira» kuchining ortishiga olib keladi. Bir vaqtning o‘zida, jarohatli hodisalarning o‘ta kuchli hayajonli xotiralariga qarama-qarshi ravishda, tadqiq qilinayotgan posttravmatik sindromlarda hissiy bo‘lmagan axborotga nisbatan zaif deklarativ xotira aniqlangan. Deklarativ xotira shakllanishidagi ma’lum roli bilan birga, gippokamp, shuningdek axloq regulatsiyasida «ichki tormozlanishni ifodalash organi» sifatida ishtirok etadi. Gippokamp funksiyasi uning jarohatlanishi unumsiz axloqni namoyish qilishga olib keluvchi axloqiy o‘zgaruvchanlikni va ta’sirchanlik shakllanishining barqarorligini oshiradi. Bunday holda, posttravmatik sindrom bo‘lgan individlarni o‘qitish va ularda ilgari mavjud bo‘lgan yoki keyin orttirilgan axloqiy xususiyatlardan xalos qilishda jiddiy qiyinchiliklar kuzatiladi.

1. Posttravmatik stress (PTS) nima? Bu jarohatdan keyingi normal to‘g‘ri hayajonli va ruhiy ta’sirchanlik (og‘riqli, xijolatda qoldiruvchi tashvishlar) holati. Jarohat davomli ruhiy oqibatlariga ega bo‘lishi mumkin. Jarohatdan so‘ng ko‘pchilik o‘zining hayotini o‘zgargandek his qiladi. Ilgari ularga xavfsiz va yaxshi tanish bo‘lgan narsalar to‘satdan xavfli va oldindan aytib bo‘lmaydigan sifatida qabul qilinishi mumkin.

2. Nima uchun PTS to‘g‘risida bilish lozim? Chunki inson biron kuni ruhiy jarohatni boshidan o‘tkazishi mumkin. PTS to‘g‘risidagi bilimlar unga quyidagilarda yordam beradi:

- jarohat va jarohatdan keyingi ruhiy zarbani yengishda. Bu jarohat boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatlarga, ijtimoiy hayotga, ishga ta’sir ko‘rsatgan hollarda ayniqsa, muhimdir;

- jarohat oqibatlarini yengishni istagan boshqa odamlarga madad bo‘lishda oila, hamkasblar, do‘stlariga yordam beradi.

3. PTS dan eng ko‘p kim azoblanadi? Jarohatli hodisani o‘z boshidan o‘tkazgan yoki shohidi bo‘lgan har kim. PTS quyida keltirilgan hodisalar natijasida yuzaga keladi:

- urush, urush bilan bog‘liq zo‘rluk xuddi harbiylarga ta’sir ko‘rsatgani singari fuqarolarga ham ta’sir qiladi;

- zo‘rluk bilan sodir etiladigan jinoyatlar, shu jumladan nomusga tegish. Zo‘rlukni boshidan o‘tkazgan odamlar uning takrorlanishidan qo‘rqadilar;

- avtomobil yoki aviatsiya halokatlari, zamonaviy texnologiyalarga ishonch yoʻqoladi;

- tabiiy halokatlar, boʻron, suv toshqinlari, zilzilalar va boshqa ofatlarni boshidan oʻtkazgan odamlar tabiat yana quturishi mumkinligidan xavfsiraydilar;

- qotillik yoki oʻzini oʻzi oʻldirish, bunday fojiali voqealarga guvoh boʻlgan odamlar gʻazab, ranjish yoki ilojsizlik hissini tuyishlari mumkin;

Bolalar ham jarohatlardan azob chekadilar. Ular ham xuddi oʻshanday hodisalar natijasida, shuningdek quyida keltirilgan holatlar oqibatida PTSni boshlaridan kechirishlari mumkin:

- zoʻrlik, koʻpgina bolalar haqiqatan ham jazoga loyiqligiga ishona boshlaydilar. Koʻpincha ularning oʻziga baho berishi pasaygan boʻladi;

- ota-onalarining birontasi tomonidan qilingan jinsiy zoʻrlik. Bunday bolalar oʻzlariga nisbatan hammadan ortiq sevgan odamlari tomonidan xoinlik qilingan deb his qiladilar. Ular odamovi boʻlib qoladilar va yolgʻizlik hissini boshdan oʻtkazadilar;

- ota-onalarining oʻlimi, ota-onalari oʻlganda, bolalar koʻpincha oʻzlarini tashlab ketilgandek va tahqirlangandek his qiladilar.

Favqulodda hodisalarga darhol taʼsir koʻrsatish xizmatlari xodimlari PTSni favqulodda vaziyatlar oqibatlari taʼsiri ostida boshdan oʻtkazishlari mumkin. Bu xizmatlar IIB xodimlari, qutqaruvchilar, shifokorlar va tibbiy hamshiralar, boshqa tibbiyot xodimlarini oʻz ichiga oladi.

4. PTSning asosiy belgilari. Odatda ular ruhiy jarohatdan keyin zudlik bilan yoki qisqa vaqt oʻtganidan soʻng yuzaga keladi. Ular bir qancha vaqtga yoʻqolishi va yana, hatto yillar oʻtganidan keyin paydo boʻlishi mumkin. PTS belgilariga quyidagilar kiradi:

- majburiy xotiralar yoki fleshbeklar. Koʻpincha jabrlanganlar qandaydir lahzada onglarida qalqib chiqqan jarohat toʻgʻrisidagi ogʻriqli xotiralarni yenga olmaydilar;

- tungi vahimalar va uyqusizli; jarohatdan keyingi stress holatidagi odamlarda jarohat holatlari koʻpincha tushlarida koʻrinadi. Tungi dahshatlar vahimasi uyqusizlikni keltirib chiqaradi;

- depressiya, oʻkinch, umidsizlik va yolgʻizlik hislari uzoq vaqt davomida qolishi mumkin;

- qiziqishning yoʻqligi. PTS dan azob chekayotgan odamlar oilaviy hayot, ish, qiziqish (xobbi) va doʻstlari bilan muloqotda boʻlishdan lazzat olmaydilar;

- «omon qolganlik uchun aybdorlik». Ko'pgina PTSDdan jabrlanganlar tirik qola olmaganlar oldida o'zlarining omon qolganliklari uchun aybdorlik hissini boshdan o'tkazadilar;

- his-hayajonli chayqalishlar. PTSDga uchragan odamlar ko'pincha nazoratdan chiqib ketuvchi kuchli his-hayajonni (zo'riqish, qo'rquv, g'azab va hokazo) boshdan o'tkazadilar;

- jizzakilik yoki yuqori darajada hayajonlanish. Ko'pgina jabrlanganlar bo'shshish va dam olish qobiliyatini yo'qotadilar. Ular toqatsiz bo'lib, doimo o'zlarini «soqchilikda» his etadilar, ular jarohatni eslatuvchi hamma narsadan qochishga harakat qiladilar.

Mazkur belgilar natijasida jabrlanganlarda odamlar bilan o'zaro munosabatdagi yuqori darajada ziddiyatlilik, alkogol va psixotrop moddalarni suiiste'mol qilish, o'zini hammadan ajratib qo'yish kuzatilishi mumkin.

5. Tiklanish uchun vaqt zarur. PTSDga uchraganlarning tiklanishi bosqichma-bosqich sodir bo'ladi. Ular bu bosqichlarni istalgan ketma-ketlikda bosib o'tishlari, shuningdek to'liq tiklanishga erishish uchun ularni ko'p marotaba takrorlashlari lozim.

Qo'rquv va o'kinch. Jabrlanganlar ko'pincha jarohatlovchi hodisalar yana qaytarilayotganidan qo'rqishadi. Ular o'zlari va atrofdagi olamga bo'lgan ishonchni yo'qotish tufayli o'kinch hissini boshdan kechirishlari mumkin.

Inkor qilish. PTSDga uchraganlar boshidan kechirgan jarohat sababli yuzaga kelgan muammolar mavjudligini inkor qilishlari mumkin. Ular jarohatlovchi vaziyat holatini ham umuman, inkor qilishlari mumkin.

Qo'rquvlarni yengib o'tish. Jabrlanganlar o'z qo'rquvlari va xavotirlarini aniqlashga o'rganishlari, shuningdek ularni yengishlari mumkin.

Shaxsiy o'sish. Aksariyat jabrlanganlar jarohat natijasida hayotlarida sodir bo'lgan o'zgarishlarni qabul qiladilar. Ko'pchilik o'zini oldingidan ko'ra yanada kuchliroq his qila boshlaydi.

6. Ba'zi hollarda, jabrlanganlar o'zini muayyan qiyinchiliklarni boshdan o'tkazadilar. Ular ruhiy zarbali vaziyatlar bilan bog'liq aybdorlik va nomus hissi tufayli muammolarini muhokama qila olmaydilar:

- nomusga tegish. Ko'pincha jabrlanganlar o'zlarini nimadir aytgan yoki qilgandek va ularga qilingan hujum «o'rinli jazo» bo'lgandek his qiladilar;

- qiynoqlar. Qiynoqlarni boshdan o'tkazgan shaxslarning hayoti o'zlariga bog'liq bo'lmay qolgan vaziyatga tushib qolganligi uchun uyat hissini tuyishlari mumkin.

Jabrlanuvchilar o'zlari bilan sodir bo'lgan voqealarda aybdor emasliklarini tushunishlari zarur. O'z tashvishlarini oila a'zolari, do'stlari yoki malakali mutaxassislar bilan muhokama qilish yengillik olib keladi.

7. PTSga uchragan shaxs tuzalish xususiyatiga ega. Individual xususiyatlariga ko'ra rehabilitatsiya tadbirlari quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- individual psixoterapiya. Jabrlanganlar o'z muammolarini hal qilishda psixiatrlar, psixologlar yoki ruhiy salomatlik sohasidagi boshqa mutaxassisdan madad oladilar;

- oilaviy psixoterapiya. Oilaning barcha a'zolari PTSni yengish ustidan «bir yoqadan bosh chiqarib» ishlaydilar;

- guruhiy psixoterapiya. Jabrlanganlar, o'xshash jarohatlarni boshidan kechirganlar bir-biri bilan uchrashadi;

- dori-darmonli davolash. PTSning ayrim belgilari dori-darmonli ta'sir ostida davolanishi mumkin (PTS belgilarini yengillashtirish uchun shifokor tomonidan yozib berilmagan alkogol yoki psixotrop moddalardan hech qachon foydalanmang!).

Siz PTSni kamaytirishingiz mumkin. Bunga ba'zi usullar yordam beradi:

- boshingizdan o'tgan hodisalar haqida suhbatlashing. o'z tuyg'ularingizni «bekitib qo'yilgan» holda ushlab, ularning namoyon bo'lishiga yo'l bering;

- o'zingizni bo'shashtiring. Siz har kuni bajarayotgan hamma narsa sizga quvonch olib kelishiga harakat qiling; imkoni boricha ruhiy zarbaning asosiy manbalarini chiqarib tashlang (boshqa joyga yoki yangi ishga ko'ching);

- to'g'ri ovqatlaning. Hayajonli stress sizning jismoniy salomatligingizga yomon ta'sir ko'rsatadi – bunday sharoitlarda odatdagidan ko'ra muvozanatlashtirilgan parhez muhimdir;

- ichki xotirjamlikka erishing. Diniy jamoaga kirish yoki qaytish sizning hayotingizdagi ijobiy omillar bo'lib qolishi mumkin;

- jismoniy tarbiya bilan shug'ullaning. Siz stressni jismoniy mashqlar bilan yengillashtirishingiz mumkin (mashqlar dasturini tanlashdan oldin shifokor bilan maslahatlashing);

- jalb qilingan bo‘ling. Vaqtingizni odamlar bilan birga o‘tkazing va boshqalarga foydali bo‘lishga harakat qiling.

8. Oila va do‘stlar tiklanishda katta rol o‘ynashi mumkin. Agar yaqinlaringizdan kimdir jarohatli ta’sirni boshidan o‘tkazgan bo‘lsa, Siz ularga yordam berishingiz kerak.

Hamdard bo‘lishga o‘rganing. Agar jabrlanganga ichidagi gaplarini aytib olish lozim bo‘lsa, uni eshiting. Shuningdek, o‘z shaxsiy tuyg‘ularingizga nisbatan haqqoniy bo‘ling.

Madad berishga o‘rganing. Zarur bo‘lsa, jabrlanuvchiga ko‘mak berish uchun uni qo‘llab-quvvatlang. Uni tushunishga harakat qiling. Agar hatto jabrlanuvchi sizni o‘zidan itarib tashlamoqchi bo‘lsa ham, unga o‘z fikringizni ifodalash va ko‘maklashishda davom eting. O‘z bilimlaringizni tarqating. PTS haqida ko‘proq bilmoqchi bo‘lganlarga bilim manbai bo‘ling. Jabrlanuvchi bilan kundalik tashvishlarni baham ko‘ring. Xarid qilish, yig‘ishtirish va boshqa ishlarda yordamlashing, lekin undan barcha majburiyatlarni olib qo‘yishga harakat qilmang.

O‘zingiz haqingizda unutmang. Suhbatlashish mumkin bo‘lgan kimnidir toping.

PTS ruhiy kasallikmi yoki yo‘qmi? Yo‘q, bu faqat ruhiyat uning yordamida og‘ir hodisalarni yengishga harakat qiladigan usullardan biridir. Ta’riflangan belgilarni bir oydan ortiq vaqt davomida boshidan o‘tkazgan odamlar jarohatdan keyingi ruhiy zarbali buzilishlar (PTSN) deb ataluvchi psixologik buzilishlarga uchrashlari mumkin.

PTSNni davolash mumkinmi? Agar malakali mutaxassislarga murojaat qilinsa, PTSNni samarali davolash mumkin. Jarohatdan keyingi ruhiy zarbadan jabrlanganlar kuchli bo‘lishlari lozim!

PTSni o‘zingiz va boshqalarda aniqlashni o‘rganing. Siz yoki siz tanigan kimdir psixologik muammolarga ega bo‘lsa, malakali mutaxassislarga murojaat qiling. Jarohatli stressni zabt etish mumkin.

IV bob. RUHIY-JINSIY RIVOJLANISH PSIXOLOGIYASI

1-§. Ruhiy-jinsiy rivojlanish deviatsiyasi

Ruhiy-jinsiy deviatsiyalar – jinsiy mayl yo‘nalishi yoki uni qondirish usullarining buzilishidir. Ilgari ularga jinsiy axloqning mazkur jamiyatdagi umume’tirof etilgan modelidan farq qiluvchi har qanday jinsiy ehtiyoj va harakatlarni kiritishgan, zero ular nafaqat buzilishlar hisoblangan, balki ma’naviy jihatdan qoralangan ham. Hozir ko‘pgina seksologlar jinsiy deviatsiyalarning faqat bir qismiga aniq nuqson deb qaraydilar. Ruhiy-jinsiy deviatsiya deganda libidoning sifatli o‘zgarishi nazarda tutiladi.

Libido (lot. libido - mayl, istak, intilish) – jinsiy mayl, jinsiy yaqinlikka intilish.

O‘zida miqdoriy o‘zgarishlarni ifodalovchi frigidlik, satiriazis, nimfomaniya, erotomaniya va jinsiy maylning boshqa turlari ularga kirmaydi. Onanizm to‘g‘risida bir xil ma’nodagi fikrlar mavjud emas: u shunchalik tarqalib ketganki, ko‘pchilik mualliflar uni jinsiy rivojlanishning buzilishi sifatida tavsiflashdan bosh tortadilar.

Onanizm (bibliyada keltirilgan personaj Onan nomi bo‘yicha) – erogen zonalarni mexanik qo‘zg‘atish yoki ruhiy to‘lqinlantirish yo‘li bilan o‘zini jinsiy qanoatlantirishdir.

Ruhiy-jinsiy deviatsiya rivojlanishining quyidagi turlari ajratiladi: Jinsiy o‘zini o‘zi anglashning buzilishi.

Transseksualizm – gonadalar, urogenital yo‘llari va ikkilamchi jinsiy belgilarning to‘g‘ri shakllanganiga qaramay o‘zini qarama-qarshi jinsga tegishli deb hisoblash.

Transseksualizmning tarqalganligi aholining 1 : 37 000 qismiga to‘g‘ri keladi, vaholanki u erkaklarda 2-3 marta ko‘p uchraydi. Bu ruhiy-jinsiy rivojlanishdagi og‘ish jinsiy axloq uchun javobgar bo‘lgan miya tuzilishi differensirovkasidagi, birinchi navbatda, gipotalamusning qo‘pol buzilishi bilan bog‘liq bo‘lib, to‘g‘ri jinsiy tarbiya olganiga qaramasdan, autoidentifikatsiyaning buzib ko‘rsatilishiga va boshqa jinsga mansubligini his qilishga olib keladi. Jinsiy differensirovka buzilishining ifodasi keng doiralarda o‘zgarishi mumkin. Jinsiy o‘zini

o‘zi anglash shakllanishi bosqichida bunday bolalar o‘zlarini qarama-qarshi jins nomlari bilan ataydilar, qarindoshlaridan birovlarining oldida ularni o‘g‘il bola emas, balki qiz bola deb aytishlarini, yoki aksincha, iltimos qilishadi. Bolalar hech bo‘lmasa, jinsiy munosabatlardagi betaraf (neytral) bo‘lgan kiyimda yurish huquqini olishga harakat qiladilar, lekin qarama-qarshi jinsning kiyimlarini kiyishni maqsad qilib qo‘yadilar. Dastlabki vaqtda bunday axloq kattalar tomonidan bolalarcha hazil, tentaklik yoki injiqlik deb qabul qilinadi. Holatning jiddiyligi va ko‘ndirishlarning samarasizligini anglagach, ota-onalar yanada «ta’sirchan» choralarni qo‘llashga harakat qiladilar, lekin odatda maqsadga erisha olmaydilar. Aslida transseksual bolalarning hayoti - bu doimiy, fojiaga to‘la bo‘lgan o‘z «Men»i bilan jinsini o‘zgartirish, shaxsiy jinsiy o‘zini anglash va o‘zining atrofdagilar tomonidan qabul qilinishi o‘rtasida muvofiqlikka erishish huquqi uchun kurashdir. Jinsiy autoidentifikatsiyaning buzilishi ifodalangan barcha holatlarda transseksualizm 5 yoshgacha manifestatsiya (namoyish) qiladi. Axloqning jinsiy roli shakllanishi bosqichida, ko‘pincha, kattalarning azoblariga zid ravishda, boshqa jinsga mansublikni his qilish jinsiy roldagi axloqning tegishli shakllariga burkanadi va transseksualizm namoyon bo‘lish uchun ko‘p imkoniyatlarga ega bo‘ladi.

Ruhiy-jinsiy yo‘nalishlar shakllanishining bosqichi transseksualizmda to‘g‘ri jinsiy rivojlanishdan ko‘ra yanada murakkabroq va mas’uliyatliroqdir. Uning boshlanishi ikkilamchi jinsiy belgilar va jinsiy a’zolar rivojlanishining cho‘qqisiga yetgan, shuningdek jinsiy mayl shakllanishi sodir bo‘ladigan pubertatli davrga to‘g‘ri keladi. Jinsiy bezlarning faol ishlashi boshlanishi bilan qarama-qarshi jinsga mansublik hissi keskin ortadi, «begona» maydondagi hayot qiynoqqa aylanadi, boshqa jins kiyimini kiyish doimiy tus ola boshlaydi. Jinsiy a’zolar va ikkilamchi jinsiy belgilarning rivojlanishi nihoyatda keskin qabul qilinadi, chunki ular «o‘zga» jinsga mansublikdan dalolat beradi va ular «noto‘g‘ri» axloqining dalili bo‘lib xizmat qiladi. Qizlarni sut bezlari kattarishi xavotirga soladi va ular ko‘kragini mahkam siqib bog‘laydilar. Kechasi ularga muz bog‘lab qo‘yadilar, «sun’iy muz» yoki xloretil bilan muzlatib qo‘yadilar. Yigitlar jinsiy a’zolar o‘sishi, yuzlarida tuklar paydo bo‘lishi, ilk ereksiyalardan g‘oyatda tashvishlanadilar. Ereksiyani bartaraf qilish uchun jinsiy a’zolarini bog‘lab qo‘yadilar va butun bint hamda arqonlar yordamida oyoqlar

oralig'iga mahkamlab qo'yadilar. Ayrim holatlarda transseksual o'spirinlar o'zini o'zgartirishga: jinsiy a'zosini kesib tashlash yoki uni to'liq bichib qo'yishga qaror qilishadi.

Deyarli hamma yorqin transseksuallar har qanday, hatto aldov yo'li bilan bo'lsa ham jinsini o'zgartirishga intiladilar. Ruhiiy-jinsiy deviatziyaning shakllanishi bosqichida faqat pasportdagi jinsni o'zgartirishning o'zi yetarli bo'lmaydi va transseksualning atrofdagilar tomonidan uni o'zi «istagan» jins vakili sifatida to'liq e'tirof etishlarini talab qiladilar. Jinsiy maylning shakllanishi aksariyat hollarda jinsiy o'zini o'zi anglashga mos keladi, ya'ni jinsiy moyillik erkakcha autoidentifikatsiyali ayollarda ayollarga nisbatan, ayollarcha autoidentifikatsiyali erkaklarda esa - erkaklarcha yuzaga keladi. Tashqaridan bunday moyillik gomoseksuallik kabi qabul qilinadi, lekin mazmunan bunday emas, zero jinsiy o'zini o'zi anglash bilan kelishgan holda u qarama-qarshi jinsga qaratilgan. Erkak-transseksuallar sherik sifatida geteroseksual erkaklarni afzal ko'rishadi va ularning jinsiy faolligi gomoseksual ekanligi to'g'risidagi fikrlarni rad etishadi. Ammo ayollar bilan aloqa qilish ular tomonidan g'ayritabiiy holat, masalan, gomoseksuallik kabi qabul qilinadi. Aksariyat transseksuallar o'zlari mansub jins vakillari bilan jinsiy aloqaga kirishadilar. Jinsiy mayl qarama-qarshi jins vakillarida ham shakllanishi mumkin, lekin garchi tashqaridan geteroseksual bo'lib ko'rinsada, uni gomoseksual deb baholash lozim.

Ehtiyoj va atrofdagilarning fikriga bog'liqlik o'rtasidagi o'zining «nuqsoni» bilan doimiy kurash shaxsning disgarmoniyasiga, uning hatto ruhiy-nuqsonli malolliklarsiz patoxarakterologik shakllanishiga olib keladi. Bunday ayollar va erkaklarning katta qismi qarama-qarshi jinsga xos bo'lgan ishga moslashadi. Ayollar shunchaki erkakcha kasbni emas, balki ulardan eng nufuzlilari bo'lgan: uchuvchilar, uzoq masofalarga suzuvchilar, geologlar, tergovchilar, jarrohlar va hokazo kasblarni tanlashadi. Bunda ular nafaqat o'zligini namoyon qilish, balki «teng huquqlarda» erkaklar jamiyatida aylanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Kasb ularning erkakcha odatlari, o'zlarini tutishlari, kiyinish uslublariga mos bo'ladi. Transseksual erkaklarga ijtimoiy moslashish ayollarga nisbatan qiyinroq bo'ladi. Bolalikdan ularning nazokatligi pichinglarga, mensimaslikka va hatto tengdoshlari tomonidan ta'qib qilinishiga olib keladi. Nazokatli o'g'il bola tengdoshlarining iyerarxik zinapoyasida eng past pog'onaga ega bo'ladi, «ikkinchi navli» odam

bo'lib qoladi. Ular kelgusida tanlaydigan ayollarning kasblari nufuzli emas va erkaklarning hayratini hamda pichinglarini yuzaga keltirishda davom etadi. Biroq qizlar, kelgusida esa ayollar ularga xayrixoh munosabatda bo'ladilar, «kuchli» jins kamchiliklaridan xoli bo'lgan bunday yumshoq tabiat va ko'ngilchan erkaklarni o'z jamoalariga jon deb qabul qiladilar.

Transseksualizmni differensiyali diagnostika qilishning qiyinchiliklari shu bilan bog'liqki, bemorning jinsini o'zgartirish haqidagi iltimosi shifokorlar tomonidan bema'ni deb, ruhiy kasallikning ko'rinishi kabi qabul qilinadi. Jinsni o'zgartirish haqidagi g'oyat qimmatli va hatto bema'ni g'oyalar haqiqatda turli ruhiy buzilishlar natijasida, ko'pincha paranoyyali sindrom va bosh miya organik jarohatlanishi holatlarida ham uchraydi.

Intersekslarning kuzatishlaricha, erkak jinsini ayol jinsiga o'zgartirishdan ko'ra, ayol jinsini erkak jinsiga o'zgartirish ancha osonroq ekan. «Erkakcha» yurishning o'ziga xos xususiyatlari uzoqroq saqlanadi va «ayollarcha» xususiyatlarga nisbatan tezroq o'zlashtiriladi. Erkaklar kiyimini kiyish odati ham osonroq yuzaga keladi. Erkak jinsidan ayol jinsiga o'tgan ayrim shaxslar, ayollar narsalarini orttirishadi, pariklar, shinyonlar, hamma mumkin bo'lgan pardoz buyumlarini (kosmetikani) qurol qilib olishadi. 20-21 yoshdan keyin jinsni o'zgartirish maqsadida ijtimoiy sabablarga ko'ra qiyinlashadi: aksariyat individlar mutaxassislikka ega bo'lishgan, ma'lum ijtimoiy mavqega ega bo'lganlar va hokazo. Nafaqat hujjatlarni rasman almashtirish, balki turar joyini o'zgartirish (odatda boshqa shaharga ko'chib ketish), eski tanish-bilishlarga va qarindoshlar bilan uchrashuvlarga to'liq barham berish, yangi mutaxassislikka ega bo'lish va shu kabilar talab qilinadi. Avvalgi jinsda go'yoki ijtimoiy «o'lim» va yangi jinsdagi «tug'ilish» sodir bo'ladi.

Jinsini o'zgartirishga faol intiluvchi yorqin transseksuallar bunday imkoniyatni topa olmagan va ularning pasport bo'yicha jinslari va jinsiy o'zini o'zi anglash o'rtasidagi nomuvofiqlik hal bo'lmagan holatlarni oldindan aytish noqulaydir. Bunday hollarda uzoq davom etadigan depressiv holatlar, o'z joniga qasd qilish fikri va urinishlar uchrab turadi. Jins o'zgartirishning barcha murakkabliklariga qaramay unga erishgan transseksuallar o'zlarini ancha yaxshi his qiladilar, jinsiy jihatdan moslashib hatto nikohga kira oladilar.

2-§. Jinsiy rolli axloq stereotipining buzilishi shakllari

Jinsiy rolli axloqning transformatsiyasi – bu to‘g‘ri jinsiy o‘zini o‘zi anglash saqlangan holda boshqa jinsga xos bo‘lgan jinsiy axloqning shakllanishidir. Xuddi transseksualizmdagi kabi, miya tuzilishi jinsiy differensiyalanishining buzilishi uning etiologik omillaridan biri bo‘lib chiqadi, biroq bu buzilishlar uncha qo‘pol emas va faqat asosiy omil - mikroijtimoiy muhit ta’siri uchun fon bo‘lib xizmat qiladi. Bunday holda, jinsiy rolli axloq oiladagi jinsiy rollar buzilganda (rahbar rolini o‘ynovchi haddan tashqari hukmdor ona va bo‘ysunuvchi ota) yoki noto‘liq oilalarda, ona o‘g‘lini «o‘z qiyofasi va o‘xshashligi» bo‘yicha tarbiyalaganda buzib ko‘rsatilishi mumkin. Qiz bolalar onadan ajratib qo‘yilganda, onalik muhabbatining yetishmovchiligi, bolalikdagi erkalashlar yo‘qligi kelajakda ayollar me‘yoriga xos bo‘lmagan tajovuzkorlik va qahri qattqlikka, onalik instinktining mavjud bo‘lmasligiga olib keladi.

Axloqiy buzilishlar transseksualizmning klinik ko‘rinishi bilan juda o‘xshashdir, biroq bu yerda boshqa jinsga mansublik hissi mavjud emas. Jinsiy rolli buzilishlar rolli o‘yinlar bosqichida, qizlar jon deb urush-urush, mashinalar o‘ynaganda, o‘g‘il bolalar bilan teng ravishda urishishganda boshlanadi. Boshqa qizlarni ular sezmaydi, o‘yingacha ularga faqat «ota», «kuyov», «aka» rolidagina iltifot ko‘rsatadilar va bajonidil o‘g‘il bolalarning kiyimlarini kiyadilar, lekin, odatda, garchi unda o‘zlarini birmuncha noqulay his qilsalarda, qizlarning kiyimiga, ayniqsa chiroyli ko‘ylaklarga qarshi chiqmaydilar. Agar ular badiiy havaskorlikda ishtirok etadigan bo‘lsalar, unda o‘g‘il bolalarning rolini afzalroq ko‘radilar, sport musobaqalarida muvaffaqiyatlarga erishadilar. O‘g‘il bolalar yumshoq tabiatli, ko‘ngilchan, itoatli, ozoda, ba’zan hatto xushomadli bo‘ladilar; urishmaydilar, ziddiyatlardan qochadilar, qizlar bilan tinch o‘yinlarni afzal ko‘radilar, uydagi ishlarga yordam berishni yaxshi ko‘radilar; musiqa, figurali uchish, raqs, balet bilan jon deb shug‘ullanadilar; uydagi kichkintoylarni parvarish qiladilar, hovlida, maktabda kichik bolalarga g‘amxo‘rlik qiladilar. Bunday bola odatda, tarbiyachilarning xursandchiligi ichiga sig‘maydigan va boshqa ota-onalarning havasini keltiradigan «ideal bola»dir.

Ikkala jinsdagi o‘smirlarning jinsiy mayllari shakllanishi davrida ularda gomoseksual moyillik yuzaga kelishining ulkan xavfi mavjud. Bunday hollarda transformatsiyalangan axloqqa ko‘pincha kiyim

almashtirish va qarama-qarshi jinsning kiyimini kiyishga intilish – transvestizm qo‘shiladi. Biroq ko‘p hollarda interseksual kiyimlarni, ya’ni qizlarda erkaklarning shimi, jinsilari va yigitlarda burma hoshiyalar, jimjimador ko‘ylaklar, yorqin kiyimlarni afzal ko‘rish kuzatiladi.

Jinsiy rolli transformatsiya qilingan ayollarga o‘z jinsi vakillariga befarq yoki salbiy munosabat xosdir, ko‘p hollarda, ular ayollar bilan umumiy qiziqishlar va hatto so‘zlashish uchun mavzu topa olmaydilar. Ularning kiyimida qat’iy kostumlar, sipo ranglar ustun bo‘ladi, kalta turmak pardoz qilinmaganligi, zeb-ziynatlarga befarqlik bilan uyg‘unlashadi. Bunday ayollarda jinsiy o‘zini o‘zi anglash buzilmagan, ular doimo o‘zlarini ayol sifatida his qiladilar, erkak shakliga kirishga intilmaydilar, o‘z tanalaridan uyalmaydilar. Biroq moyillik shakllanishi bosqichida faqat qarama-qarshi jins bilan munosabatda bo‘lish, do‘stona munosabatlar, qarama-qarshi jins jamoasidan ajralib qolish ruhiy-jinsiy rivojlanishni to‘xtatib qo‘yadi. Odatda, jinsiy xabardorlik ham kechikadi. Birinchi muhabbat kech yuz beradi, u ko‘pincha tengdoshlariga emas, balki ancha katta yoshdagi erkaklarga qaratilgan bo‘ladi. Bunda sevgi ko‘pincha platonik bosqichda to‘xtab qoladi, shahvoniy ko‘rinishlarga o‘tish haqorat kabi qabul qilinadi. Jinsiy hayot boshlanishida shahvoniylik bostirilgan bo‘ladi, axloqning erkakcha stereotipi, toqatsizlik va sherigiga nisbatan tajovuzkorlik ustun turadi. Ayollarga xos moslashish, oqlash va kechirish mahorati mavjud bo‘lmaydi. Ayollarning transformatsiyalangan jinsiy rolli qismi, yaxshi ijtimoiy moslashuviga qaramay, umuman jinsiy hayotni boshlay olmaydilar. Ishda, xuddi qachondir maktabdagi kabi, erkaklar bunday ayolni jinsiy obyekt emas, balki «o‘zlarining yigitlari» kabi qabul qilishadi. Erkaklar borasida ish bo‘yicha munosabatlar, axloqning erkakcha uslubi, noz-karashma qilishni bilmaslik, xotinlarga xos latofatning yo‘qligi kabi sifatlar bunday ayollarning qari qiz bo‘lib qolishlariga sabab sifatida xizmat qiladi. Jinsiy rolli transformatsiyalangan ayollarda axloqning erkakcha stereotipi bilan bir qatorda deyarli har doim sadizm elementlari namoyon bo‘ladi. Agar ular erkaklarni jismonan qiynashga erisha olmasalar, unda muntazam ravishda ularni ma’naviy kamsitishga urinadilar.

Jinsiy rolli axloqi transformatsiyalangan erkaklarning ijtimoiy moslashuvi transseksual erkaklarga nisbatan ancha yengilroq o‘tadi, chunki ularda kiyim almashtirish va jinsini o‘zgartirishga namoyish-

korona intilish yo‘q. Yumshoq tabiatlilik, konformlilik ularga pazandalik san‘atida, tikuvchilikda va hokazolarda o‘z o‘rinlarini topish imkonini beradi. Oilada bunday erkaklar xotinlarini uy tashvishlaridan xalos qilgan holda a‘lo darajada moslashadilar. Ular oilani saqlab qolish uchun xotinining nohaqligi va kamsitishlarini chidam bilan ko‘taradi va bunday oilalar odatda buzilmaydi.

Giperrolli axloq - jinsiy rolning ayrim xususiyatlarining haddan ziyod aksentuatsiyasi. Uning shakllanishida miya tuzilishining jinsiy differensiyalanishi jarayoni ahamiyatga ega. Masalan, hayvonlarda o‘tkazilgan tajribalarda tajovuzkorlik, harakatlantirish faolligi, onalik instinkti kabi xulqiy aktlarda aniq jinsiy farqlar belgilangan. Ularning ifodalanishi gipotalamusning androgenlar yoki estrogenlarga nisbatan sezuvchanligi bilan belgilanadi. Miya differensiyasining buzilishlari keyinchalik giperrolli axloq shakllanadigan fon bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Gipermaskulinli axloqqa gipertimli, beqaror, isteroidli aksentuatsiya va psixopatiya, giperfeminli axloqqa esa - infantil-qaram bo‘lgan, astenonevrotik, psixastenik, sensitiv va nihoyat, o‘sha isteroid juda o‘xshashdir.

Giperrolli axloqning oddiy modeli doirasida, birinchi navbatda, erkaklarda sadizm va ayollarda mazoxizm vujudga kelishi kuzatiladi.

Sadizm – jinsiy sherigiga azoblar yetkazish yoki uni kamsitish yo‘li bilan olinadigan jinsiy lazzat.

Mazoxizm – sherigiga jismoniy yoki ma‘naviy azoblar yetkazish sharti bilan olinadigan jinsiy lazzat.

Ona bilan jismoniy va his-hayajonli muloqot yo‘qligi bolalarda tajovuzkor axloq rivojlanishiga olib keladi. Nuqsonli mazoxistik perversli odatlar va ko‘rsatmalar shakllanishi mexanizmlari ham shunga o‘xshash, lekin ularning boshlang‘ich asosida ona bilan muloqotning yo‘qligi emas, aksincha, haddan ortiqcha g‘amxo‘rlik, erkalatib suyultirish va hokazolalar yotadi. Sadistlar odatlar va ko‘rsatmalarining shakllanishi epileptoidli, beqaror, shizoidli psixopatiyalarda sezilarli darajada yengillashadi. Mazoxistik ko‘rsatmalar ko‘pincha shizoidli, astenonevrotik va psixastenik psixopatiyalar bilan uyg‘unlashadi.

Gipermaskulinli axloq axloqning diqqatni tortuvchi erkakcha tipida, o‘ta «erkakcha» nufuzli kasbni egallashga intilish, «erkakcha» sport turlari bilan shug‘ullanishda namoyon bo‘ladi. Jinsiy rolli axloq

shakllanishi bosqichida bunday gipermaskulinlilik yuqori darajadagi tajovuzkorlik, norasmiy rahnamolikka intilishda ifodalanadi. Jinsiy hayotda orgastik bo'shanish olishga intilish, suyishlarni to'liq rad etish va ayolning qoniqmaganligiga befarq qarash yaqqol ifodalangan. Sadizm elementlari yaqinlikka majburlash, yasama darg'azablik bilan ayolni qo'pol ravishda bo'ysundirish, og'riq yetkazish, chimchilash, tishlashda namoyon bo'ladi. Ayollar qo'rqanida, uning qarshilik ko'rsatishga urinishlarida bu yanada yaqqolroq ifodalanadi. Ayol sherigi ustidan hokimlik qilish, uning bo'ysunuvchanligi va passivligi bilan uyg'unlashgan uning ustidan hukmronligi deviant uchun asosiy hisoblanadi. Axloqqa jo'rttaga qilingan tajovuzkorlik, qo'pollik, istalgan lahzada janjal qilishga tayyorlik, chekish, alkogol va narkotiklar iste'mol qilish xos bo'lib, axloqning jamiyatga zid qilmishlarga moyilligi kuzatiladi. Shahvoniy axloqning ibtidoiy-standartli stereotipi ularni rad etish odatda, sherik ayolni kaltaklashga olib keluvchi buzuq harakatlarga qo'pol ravishda majburlash bilan birlashib ketadi. Gipermaskulinli axloqning so'nggi darajadagi ko'rinishlarida faqat qurboniga tan jarohatlari yetkazganda yoki hatto o'ldirib qo'yganidagina jinsiy qoniqish hosil bo'ladi, zero maksimal to'liqlanishga agoniya (o'lim talvasasi) holatini ko'rganda erishiladi.

Giperfemininli axloq bo'rttirilgan passivlik, itoatkorlik, bor kuchini sarflash, nafaqat bolalarga, balki atrofdagi barchaga g'amxo'rlik qiluvchi onalik munosabatlari, uy-ro'zg'orga qarashuvchanligi bilan tavsiflanadi. Yuqori darajadagi konformlilik, har qanday xususiyatlarga va sherigining talablariga moslashish, boshqa kishining qiziqishlari bilan yashash va bunda yuqori darajada quvonchni his qilish mahorati A.P. Chexovning «Dushechka» (Jonginam) hikoyasida klassik ravishda ta'riflangan giperfemininli axloqqa xosdir. Ayollik latofati, nozu-ishvalar, kiyimlar, ziynatlar, pardozga qiziqish bunday ayollarga xosdir. Jinsiy hayotda ham xuddi shunday bor kuchini sarflash ro'y beradi. Butun kuch va intilish, ba'zan o'ziga zarar bo'lsa ham erkakni qoniqtirishga qaratilgan. Bu ayollarni orgazm yo'qligi tashvishga solmaydi, sevgan kishisiga quvonch yetkazishdan ruhiy lazzatlanish uning o'rnini to'liq bosadi.

Obyekt bo'yicha ruhiy-jinsiy yo'nalishlarning buzilishi.

Narsissizm (Narsiss haqidagi afsonaga ko'ra, o'zining qiyofasiga bo'lgan muhabbat) – jinsiy maylni o'ziga yo'naltirish. Narsissizm o'z tanasi, jinsiy a'zolari bilan zavqlanishda va hatto o'zini yalang'och

holda suratga olish va keyin bu suratlarni tomosha qilishda namoyon bo‘ladi. Barcha ko‘rinishlar jinsiy hayajonlanish va orgastik lazzat olish uchun masturbatsiya qilish bilan kechadi. Erkaklarda to‘lqinlanish o‘zini ereksiyalangan jinsiy olat bilan ko‘rishda kuchayadi. Narsissizm elementlari o‘zini yalang‘och holda ko‘rish (ko‘zguda yoki suratlarda, slaydlarda, videokassetalarda va hk.larda) zaruriyatida namoyon bo‘ladigan jinsiy junbushni uyg‘otuvchi rolini bajargan holda muntazam jinsiy hayot fonida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Alohida hollarda koitus vaqtida to‘lqinlanishning kuchayishi uchun o‘zini o‘zi kuzatish davom etishi mumkin.

Eksgibitsionizm (lotincha exhibitio – chiqarib qo‘yish, taqdim qilish) – jinsiy yaqinlik vaziyatidan tashqarida u yoki boshqa jins vakillari oldida jinsiy a‘zolarini yalang‘ochlashga moyillik. Eksgibitsionizm ko‘pincha erkaklarda uchraydi, biroq aytish mumkinki, professional ravishda striptiz bilan shug‘ullanuvchi yoki ko‘kragi va bo‘ksalarini ochib yurishni yoqtiradigan ayollar eksgibitsionistik moyillikka egadirlar.

Eksgibitsionistlar ko‘pincha sevgiga bo‘lgan ehtiyojlari qonmagan va o‘zida qoniqish topishga layoqatsiz bo‘lgan «vital-toraygan» tabiatli bo‘ladilar. Ular uchun eksgibitsiyalashtirish muloqot izlash yoki o‘zini namoyon etishning autistik shakli bo‘lib xizmat qiladi.

Eksgibitsionistning tipik taktikasi hech nimadan shubha qilmayotgan ayol yoki bolani poylash va kutilmaganda o‘z jinsiy olatini namoyish qilishdan iborat. Ba‘zi deviantlar ruhiy orgazm holatidan lazzat oladilar, boshqalari esa bu holatda masturbatsiya qiladilar. Bunda ayollardagi qo‘rquv muhim ahamiyatga ega bo‘ladi va eksgibitsionistlar to‘satdan – butalar orqasidan, deraza o‘rnidan, uy yo‘lagida paydo bo‘lishga intiladilar. Ayrim eksgibitsionistlar kechqurunlari, plash yoki palto kiyib olib, jinsiy a‘zolarini yalang‘ochlab, shahar transporti, elektropoyezdlarning ovloq bekatlari soyasida yashirinib turishadi, so‘ngra, to‘satdan fonarlar yorug‘ida paydo bo‘lib, kiyimlarini ochib tashlaydilar. Ba‘zan eksgibitsionizm holatlari jamoat transportida kechki vaqtlarda kuzatiladi. Faqat bitta ayolga ko‘rinadigan joyni tanlab, deviant xulqli shaxs unga yalang‘och jinsiy a‘zolarini namoyish qiladi. Bunday axloqiy buzuvchilikning bezorilik sifatida jinoiy javobgarlikka sabab bo‘lishini bilgan holda, eksgibitsionistlar tegishli choralarni ko‘rib qo‘yadilar. Ehtimol, aynan jazolanmasligi tufayli yalang‘och bo‘lish ko‘pincha bolalar oldida sodir

etiladi. Eksgibitsionizmning sadizm bilan birlashishida deviantni birinchi navbatda ayoldagi qoʻrquv va uyat hissi oʻziga rom etadi, mazoxizm bilan ulanib ketganda esa, aksincha, unda jazo oldidagi shaxsiy uyat va qoʻrquv hissi ustun keladi.

Vuayerizm – jinsiy aloqa yoki tanlangan jinsning yalangʻoch vakillarini yashirincha kuzatishga moyillik, pornografik tasvirlar, filmlar va hk.lar bilan haddan ortiq qiziqishdir. Yashirincha kuzatish odatda, toʻsatdan qoʻlga tushib qolishdan qoʻrqish bilan kechadi, bu esa jinsiy maylni yanada koʻproq kuchaytiradi va yorqin orgazm olishni osonlashtiradi. Vuayerizm yuzaga kelishi variantlaridan biri bolalik (koʻpincha oʻsmirlik) davrida toʻsatdan jinsiy aloqa ustidan chiqib qolgan va agar bu jinsiy toʻlqinlanishga olib kelgan taqdirda kelgusida shartli refleks mexanizmi kabi oʻrnashib qolgan boʻlishi mumkin.

Deviantlar kiyim almashtirayotganlarni yashirincha kuzatish yoki yalangʻoch jinsiy aʼzolari koʻrish uchun plajlar, hojatxonalar oldida uzoq vaqt kutib turishlari mumkin. Ulardan ayrimlari muntazam ravishda ginekologik kabinetlarning oynalari tagida paydo boʻladilar, kechalari shahar boʻylab daydib yurishadi va xonadonlarning derazalaridan moʻralashadi. Vuayerizm odatda masturbatsiya bilan kechadi.

Fetishizm (fransuzchadan fetiche - sanam, tumor) – jinsiy sherikni ifodalovchi turli jonli va jonsiz buyumlarga sigʻinish va jinsiy junbushga kelish bilan kechadigan, ularga boʻlgan jinsiy moyillik. Fetish sifatida kiyim-boshlar (dastroʻmollar, ichki kiyim, kiyim, poyabzal) yoki tananing maʼlum qismlari (oyoqlar, sochlar, sut bezlari, jinsiy aʼzolar va hk.) boʻlishi mumkin.

Fetish odatda, aniq bir sevgi obyektini, yoxud «butun oʻrniga bir qism» tamoyili boʻyicha afzalroq obyektlarning jamlanma qiyofasini ifoda etiladi. Bunda u moyillik obyektiga aylangan holda sevgi obyektining oʻrnini bosadi, deviantning shahvoniy fantaziyalarini ishga soladi, maksimal jinsiy junbushga kelishga erishish uchun yordam beradi. Bunda jinsiy faollik xuddi fetishning oʻzi bilan boʻlgani kabi, unga ega boʻlgan, barcha shaxsiy oʻziga xosligi deviant tomonidan rad etilayotgan istalgan odam bilan amalga oshishi mumkin. Uning farqlovchi xususiyatlari fetish bilan shaxsiyatsiz moyillik obyektini sifatida sodir etilayotgan harakatlarning toʻliq erkinligidan, sherigidan maksimal darajada mustaqil ekanidan, sevgi munosabatlarining kommunikativ boshlanishining buzilishidan, unda qanday boʻlsa ham

hissiyotli munosabatga umuman imkon yoʻqligidan iborat. Jinsiy qoniqishga shunchaki istalgan predmetga ega boʻlish bilan emas, balki uni hidlash, sezish, jinsiy aʼzolariga tekkizish, «masturbatsiya» bilan uygʻun ravishda toʻshakka «yotqizish» yoʻli bilan erishiladi. «Ichki kiyimli» fetishizm koʻpincha qarama-qarshi jinsning ichki kiyimini kiyish bilan kechadi, bu esa transvestizmni esga soladi. Farqi shundaki, fetishizmda oʻzini qarama-qarshi jins rovida tasdiqlashga intilish mavjud emas. Qiyinchiliklarni yengish zarur boʻlgan fetishga ega boʻlish jarayonining oʻzi lazzatlanishni sezilarli darajada kuchaytiradi, shuning uchun fetishni sotib olishmaydi, uni oʻgʻirlashadi. Fetishistlar ajrata oluvchi boʻladilar, ularning har birida oʻz afzal koʻrgani boʻladi. Ayollar koʻpincha soqol, moʻylov, chandiqlar, tatuirkovkalar, ovoz tembri, mundirlarga intiladilar. Fetishizmning alohida shakllari geteroxromofiliya – sherigining boshqacha rangdagi terisi jinsiy ragʻbat boʻlib xizmat qiladi, pigmalionizm – haykallarga moyillik, retifizm – poyabzalga moyillik, ayolning oyogʻidan oʻz qoʻli bilan yechib olingan tufli fetish boʻlib xizmat qilishi mumkin. Baʼzan fetishizmni mazoxizm bilan birlashtirish kuzatiladi, bunda hissiyotning alohida oʻtkirlikiga erishish uchun fetish bilan azob berishni iltimos qilishadi.

Zoofiliya – hayvonlarga boʻlgan jinsiy moyillik va ular bilan aloqadan jinsiy lazzat olish. Zoofiliya koʻproq chorvachilik zonalarida uchraydi. Garchi zoofiliya barqaror mustahkamlanishi va toʻgʻri jinsiy hayotning oʻrnini toʻliq bosishi mumkin boʻlsada, koʻproq bunga aqli cheklangan shaxslar duchor boʻladi. Odatda kishida hayvonga turgʻun jinsiy moyillik yuzaga kelmaydi va toʻgʻri jinsiy qoniqish olish imkoniyati paydo boʻlganda aloqa toʻxtaydi.

Erkaklarga jinsiy lazzat olish obykti sifatida uy hayvonlari: echkilar, qoʻylar, urgʻochi eshaklar, otlar, sigirlar, choʻchqalar xizmat qiladi, lekin kazuistika sifatida uy parrandalari (tovuqlar, gʻozlar) va mayda jonivorlar (quyonlar, mushuklar va hokazo) bilan jinsiy aloqa qilish holatlari ham uchrab turadi, bu esa odatda sadizm alomatlarini bilan kechadi. Aksariyat hollarda erkaklarning hayvonlar bilan muloqoti jinsiy aloqa koʻrinishida oʻtadi. Ayollar orasida zoofiliya ancha kam tarqalgan boʻlib, koʻpincha itlar va mushuklar bilan kunnilingus sifatida oʻtadi.

Kunnilingus – klitorga lablar va til vositasida taʼsir koʻrsatish yoʻli bilan jinsiy junbushni yuzaga keltirish.

Nekrofiliya – murdalarga jinsiy moyillik va ular bilan shahvoniy harakatlar sodir qilish. Ikkala jins bolalaridagi orgazm ko‘pincha qo‘rquv va xavotir affekti bilan birlashadi, shuning uchun jinsiy qoniqish uchun bola ba‘zan qo‘rqinchli hikoyalar o‘qish yoki xayoliga shunga xos tasavvurlarni keltirish yo‘li bilan o‘zini xavotir holatiga olib keladi. Bu holatning yuzaga kelishida nafaqat bolalarni qabristonlar, murdalar va o‘liklar bilan qo‘rqitish, balki aksariyat bolalarning rivojlanishning mazkur bosqichida bu hikoyalarni o‘zlashtirish, «qo‘rquvni his qilish tashvishlariga bo‘lgan ehtiyoj»ga intilishi ma‘lum ahamiyatga egadir. Ko‘pincha nekrofiliya ruhiy kasallar, birinchi navbatda, aqli zaiflik yoki psixopatik doira bilan kasallangan bemorlarda uchraydi. Bundan tashqari, nekrofilianing shakllanishida murdani xor qilish va tahqirlashda namoyon bo‘ladigan sadizm yoki murda bilan aloqa qilishdagi jirkanish va fosh bo‘lishdan qo‘rqish bilan bog‘liq mazoxizm ma‘lum rol o‘ynaydi.

Murda bilan jinsiy aloqa qilish uchun obyekt izlash ma‘lum qiyinchiliklarni namoyon qiladi. Nekrofillar murdalarni poylab yuradilar, o‘lik bor uylarga kirib olishga urinadilar, ular o‘likxonalarga ishga joylashadilar. Favqulodda kam hollarda nekrofillar lazzat olish obyektini izlab qotillikka qo‘l uradilar, shundan so‘ng qurbonning murdasi bilan jinsiy aloqa qiladilar. Bunday hollarda qotillik sadistcha odatlarni qondirish bilan bog‘liq bo‘lmaydi, balki oldiga qo‘yilgan maqsadga erishish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Obyektning yoshi bo‘yicha ruhiy-jinsiy yo‘nalishning buzilishi.

Pedofiliya – bolalarga nisbatan jinsiy moyillik. Pedofiliya shakllanishi uchun asos bo‘lib, ruhiy-jinsiy rivojlanish retardatsiyasi, boshqa jins kishilari bilan aloqalarning buzilishi va ko‘pincha to‘g‘ri jinsiy hayotga xalaqit beruvchi jinsiy buzilishlar xizmat qiladi. Pedofiliya ko‘pincha o‘smirlarda, 30 yoshli va yoshi katta erkaklarda kuzatiladi. O‘smirlar orasida asosiy qismni ruhiy-jinsiy va hissiy rivojlanishdan orqada qolish sababli tengdosh qizlar bilan muloqotni yo‘lga qo‘yish va ularning ko‘nglini ovlashni bilmaydigan shaxslar tashkil qiladi. 30 yoshlilar guruhini uylanganlar, lekin o‘z jinsiy va ijtimoiy munosabatlarini tashkil eta olmaganlar va ko‘proq qiz bolalar bilan o‘ynaganda jinsiy lazzat oladigan hamda katta yoshli ayollar bilan yaqinlikka borishga tavakkal qila olmaydigan frustratsiyalangan erkaklar tashkil qiladi. Keksalar orasida ba‘zan yolg‘iz shaxslar va jinsiy buzilishlardan azob chekayotganlar uchraydi. Yolg‘izlar qiz

bolalar bilan muloqotda o'zlarining yetim holatlaridan chiqish yo'llarini izlaydilar, ulardan aksariyati ayollar bilan muloqot qilishda qiyinchiliklarni boshdan kechiradilar, jinsiy buzilishlarga uchragan keksa erkaklar esa bu muloqotdan o'zlarining so'nib borayotgan shahvoniyligini qo'zg'atish uchun foydalanadilar.

Pedofiliyada kamdan-kam hollarda jinsiy aloqalar, shuningdek nomusga tegishlar uchrab turadi. Odatda, hamma narsa «ixtiyoriy»likka asoslanadi. Faqat o'smirlargina qo'rqitish va tahdidlarni qo'llaydilar. Qiz bolani yo'ldan uruvchi harakatlar odatda, ishqiy munosabatlar haqidagi hikoyalar, pornografik suratlar namoyishi, jinsiy a'zolari ko'zdan kechirish va ko'rsatish, erkalashlar, yuzaki va chuqur petting, ba'zan oralli-genital aloqalarni o'z ichiga oladi, kamdan-kam hollarda ish genital aloqagacha boradi.

Petting (ingl. pet – erkalash, silab-siypash, qo'zg'atish) – genitaliyalarga bevosita tegilishini istisno qilgan holda ikki tomonlama aloqa sharoitlarida erogen zonalarni sun'iy qo'zg'atgan holda ataylab orgazm olish.

Har qanday holatda yo'ldan urish bolaning vaqtidan oldin ruhiy-jinsiy rivojlanishiga, uning jinsiyliги va ruhiyatining buzilishiga, ko'pincha esa yo'ldan uruvchilar tomonidan majburlangan jinsiy buzilishlarga olib keladi. Ayrim hollarda pedofiliya sadizm bilan uyg'unlashishi mumkin, bu esa yanada kattaroq xavf soladi.

Efebofiliya - o'smirlik va yigitlik yoshidagi shaxslarga jinsiy moyillik. Bu moyillikning shakllanishida, xuddi pedofiliyadagi singari, tengdoshlari bilan muloqot qilishdagi qiyinchiliklar, garchi ancha kam ifodalangan bo'lsada, oxirgi rolni o'ynamaydi. Ko'pincha efebofiliya jinsiy buzilishga uchragan shaxslarda rivojlanadi, bunda ularni o'smirlar bilan jinsiy aloqa qilishga yigitlarning tajribasizligi, ularning jinsiy aloqa texnikasini bilmasliklari va shundan kelib chiquvchi o'z jinsiy harakatlarining qoralanishini eshitish ehtimolining kamligi undaydi. Bundan tashqari, erkak jinsidagi shaxslarning yigitlarcha giperseksualligi ularga nafaqat yuqori jinsiy faollikni, balki jinsiy maylni ro'yobga chiqarish usullariga bo'lgan ayrim indifferentlikni ta'minlaydi. Efebofillarning ma'lum qismini o'smirlarning tajribasizligi o'ziga jalb qiladi va ular bajonidil ularni «o'qitish» bilan shug'ullanishadi. Shuning uchun, efebofiliyaga duchor bo'lgan shaxslar o'smirlar jamoasida ish topishga intilishadi, ularning sirini chiqarmasligi natijasida ular bilan aloqalar sezilmay qoladi. Ayniqsa,

ayollarda efebofiliya namoyon bo'lishi o'smir yigitlar tomonidan oddiy, hatto minnatdorlik hissi bilan qabul qilinadi.

Ayollar ixtiyoriy ravishda o'smirlarning jinsiy hayotga ilk qadam qo'yishlarida ular ustidan ustozlik qilishni o'zlariga oladilar. Efebofillar o'z vasiyligidagi o'smirlarning tajribasizligidan eng ko'p lazzat oladilar, chunki o'qitish ularda jinsiy junbushni qo'zg'atadi. Erkak efebofillar ancha qiyinroq holatda qoladilar, chunki qizlar jinsiy munosabatga ancha qiyinroq kirishadilar va ularni yo'ldan urish uchun ko'p vaqt talab etiladi.

Gerontofiliya – keksaygan shaxslarga jinsiy moyillik. Gerontofiliya negizida bolaning katta yoshdagi odamga idealga, butga, taqlid qilish namunasi sifatidagi munosabati yotadi. E'tiborning yetishmasligi, ota-onalari bilan aloqalarning buzilishi, kattalar tomonidan g'amxo'rlik yo'qligi tufayli bolalar ko'pincha mustaqil ravishda buning o'rnini to'ldirishga urinadilar. Ayrim hollarda ular maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilariga mehr bilan munosabatda bo'ladilar, ularning bag'riga yopishadilar, ularga muloyim so'zlarni aytadilar. Maktab yillaridagi ilk muhabbat, ayniqsa qizlarda, ko'pincha o'qituvchi, artist va hokazoga qaratilgan bo'ladi. Gerontofiliyaning rivojlanishiga o'zidan katta do'st topishga, holbuki jinsiy sherik emas, balki unga g'amxo'rlik bilan homiylik qiluvchi kishini topishga intilish ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu ba'zan infantil shaxslarda, birinchi navbatda jinsiy moyilligi zaif bo'lgan qizlarda ayniqsa aniq ko'rinadi.

Gerontofiliya kattalar tomonidan bolalar va o'smirlarni yo'ldan urish va o'ziga og'dirish natijasida shakllanishi mumkin. U yoki bu sababga ko'ra katta yoshdagi odamlar bilan bog'liq ilk jinsiy tashvishlar mustahkamlanishi va kelgusida jinsiy mayl yo'nalishini belgilashi mumkin. Katta yoshdagi erkaklarga moyillik ba'zan yosh ayollarda o'xshash sherikni izlash jarayonida paydo bo'ladi, bu esa tengdoshlari bilan jinsiy aloqadagi omadsizliklar bilan bog'liq bo'ladi.

Gerontofillar yoshi o'zlaridan ancha katta bo'lgan odamlar orasidan tanlashadi. Gerontofillar tengdoshlari bilan jinsiy aloqalarda jinsiy qoniqishni his etmaydilar, yoki u uncha jo'shqin bo'lmaydi. Erkaklarda ko'pincha o'z yoshidagi ayol bilan yaqinlik qilishga urinishlar jinsiy moyillik bilan kechmaydi va ereksiyalar yetishmasligi oqibatida omadsizlik bilan tugaydi, ayollarda esa to'lqinlanish va orgazm sodir bo'lmaydi. Agar gerontofiliya sadistcha odatlar asosida

yuzaga kelsa, unda jinsiy faollik keksa odamlarning nomusiga tegish, azoblash va tahqirlash bilan bog‘liq bo‘ladi.

Obyektning jinsi bo‘yicha ruhiy-jinsiy yo‘nalishning buzilishi.

Gomoseksualizm (yun. homois – bir xil va lot. sexus - jins) – o‘z jinsidagi shaxslarga jinsiy moyillik, shuningdek ular o‘rtasidagi jinsiy aloqalar.

Gomoseksualizm kechki paleolit davridan buyon ma‘lumdir: tasdiqlovchi qoyaga o‘yilgan tasvirlar topilgan. Sotsiobiologik konsepsiyalarga ko‘ra, gomoseksualizm ilk insoniyat jamiyati tuzilishida muhim element kabi rivojlangan. Ota-onalik burchidan qutulgan urug‘ guruhining gomoseksual a‘zolari yaqin qarindoshlariga ov qilishda, uy ishlarida, bola tarbiyasida yordam bera olgan. Modomiki, bunday yordam urug‘ning omon qolishi va bola-chaqani o‘stirish imkoniyatini ko‘paytirgan ekan, urug‘ning umumiy genlari o‘z jinsini afzal bilish genlari bilan birga avloddan-avlodga o‘tib borgan. Shunday qilib, gomoseksuallikka moyillik urug‘ning kollateral (yon) chiziqlari orqali rivojlanishi mumkin bo‘lgan. Taxminan 6% erkaklar va 4% ayollar favqulodda gomoseksual yo‘nalish olgan deb hisoblanadi, erkaklarning kamida uchdan bir qismi va ayollarning kamida to‘rt dan bir qismi epizodik yoki vaqtinchalik aloqalarga kirishgan. Hozir gomoseksualizm deyarli hamma mamlakatlarda qayd qilingan, zero ayrim mamlakatlarda gomoseksual nikohlarga rasman ruxsat berilgan.

Gomoseksualizmning tabiati to‘g‘risidagi bahslar ancha ilgari boshlangan va yondashuvlarning prinsipial farqi topilgan. XIX asr oxirlarida fransuz mutaxassisi O.Tardye gomoseksualizmga hatto jinsiy organlarning anatomo-morfologiyasida namoyon bo‘luvchi va bichib qo‘yishgacha bo‘lgan jazo choralarini talab etuvchi ma‘naviy va jismoniy majruhlik deb baho bergan. Boshqalar unchalik jur‘atli bo‘lmagan. Nemis olimi K.Ulrixs gomoseksualistlar genitaliyalar erkakchasiga rivojlanadigan, miya bo‘linmalari esa ayollar tipi bo‘yicha rivojlanadigan noto‘g‘ri embrional rivojlanishning qurbonlari, degan g‘oyani ilgari surgan. Hozirgi vaqtda gomoseksualizmni tushuntirish ikki nazariya asosida amalga oshiriladi.

Tibbiy-biologik yondashuv. Gomoseksualizm miyaning jinsiy differentsiatsiyasi jarayonidagi buzilish deb belgilanadi. Gomoseksual erkaklarda miyaning noto‘liq maskulinizatsiyasi va uning gomoseksual ayollardagi qisman maskulinizatsiyasi shuni ko‘rsatadi. Miyaning jinsiy differentsiatsiyasi buzilishlari, o‘z navbatida, gipotalamusning garmonal ta’sirlari sezuvchanligini buzib ko‘rsatilishini ifodalaydi.

Jinsiy yoʻnalish olish nazariyasi. Gomoseksualizm ilk bolalik, soʻngra oʻsmirlik yoshida ota-onalarining taʼsiri, masalan qarama-qarshi jinsga nisbatan yoqimsiz munosabatlarga ishonitirish ostida jinsiy tarbiyaning yetarli emasligi oqibatida yuzaga keladi. Bunday tarbiya ayniqsa, ayollarda namoyon boʻladi. Onaning qizini erta yoʻldan urishlarga barham berishga va qizini hamma erkaklar razil va qabih ekanligiga ishonitirishga urinishlari erkaklarga salbiy munosabatni shakllantiradi, bu esa geteroseksual moyillik paydo boʻlishiga va tengdoshlari bilan muloqotga kirishishga xalaqit berishi mumkin.

Shuningdek soxta – yolgʻon yoki vaziyatli gomoseksualizm mavjud. U oʻz jinsidagi shaxslar bilan, libido yoʻnalishi bilan emas, balki ilojsiz holatlar (majburlash, yoʻldan urish, gʻarazgoʻylik va sh.k.) sababchi boʻlgan jinsiy aloqalarni anglatadi. Gomoseksual aloqalar, shuningdek odatda ajratib qoʻyilgan bir jinsli guruhlarda yuzaga keladi (masalan qamoq) sunʼiylik xarakteriga ega va geteroseksual sheriklar topilganida toʻxtatiladi.

GLOSSARIY

Axloq - shaxsning ichki faollik va ko‘pincha, tashqi harakat va qiliqlar shakliga ega bo‘lgan individual xususiyatlari vositasida muhit bilan o‘zaro harakati jarayoni.

Axloqning tengligi - aniq vaziyat, sharoit bilan axloqning muvofiqligi.

Addiktiv axloq - tobe axloq.

Addiksiya - tobelik.

Anozognoziya - og‘riq yoki uning og‘irligini inkor qilish.

Antiijtimoiy axloq - ijtimoiy tartib va atrofdagi odamlarning tinchligiga xavf tugdiruvchi, ijtimoiy me‘yorlarga zid axloq.

Asotsial axloq - axloqiy-ma‘naviy me‘yorlarni bajarishdan og‘ishuvchi axloq.

Attityud - ijtimoiy ko‘rsatma - shaxsning guruhli yoki ijtimoiy qadriyatlar oriyentatsiyasi, ularga muvofiq harakat qilishga tayyorligi.

Autistik axloq - odamlar va atrofdagi voqelikdan bevosita cheklangan, shaxsiy fantaziyalari olamiga sho‘ng‘ish ko‘rinishida namoyon bo‘ladigan axloq.

Autodestruktiv axloq - o‘z organizmi va shaxsini barbod qilish, o‘ziga zarar yetkazish bilan bog‘liq axloq.

Axloq determinatsiyasi - muayyan axloqni uyg‘otuvchi, qo‘zg‘atuvchi, kuchaytiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi omillar jamlanmasi.

Vuayerizm (vizionizm) - jinsiy munosabatlar yoki yalang‘och odamlarga qarashga intilish bilan bog‘lik jinsiy devitsiya.

Gender - jins.

Gerontofiliya - keksa odamlar va qariyalarga jinsiy mayl bilan bog‘liq jinsiy devitsiya.

Gomoseksualizm - subyekt tomonidan jinsiy ko‘zg‘alish va qoniqishga erishish uchun bitta jinsdagi obyektни tanlash.

Deviantologiya - devitsiyani o‘rganuvchi fan bo‘limi.

Devitsiya - me‘yordan og‘ishish.

Moslashmaganlik - shaxsiy ahamiyatli bo‘lganidek muhit talablarini qabul qilish va bajarishga, shuningdek, aniq ijtimoiy sharoitlarda o‘z individualligini amalga oshira olishga sust qobiliyat holati (istamaslik, uddalamaslik).

Delikt - huquqiy me'yorlarni buzuvchi harakatlar.

Delinkvent axloq - jamiyatda o'rnatilgan huquqiy me'yorlardan og'adigan, jamoat tartibiga xavf soluvchi muayyan shaxs harakati.

Destruktiv axloq - barbod bo'lishga olib keluvchi, zarar yetkazuvchi axloq.

Tobe (addiktiv) axloq - psixik holatni o'zgartirish maqsadida qandaydir moddani iste'mol qilish yoki o'ziga xos psixologik yoki jismoniy tobelik bilan bog'liq axloq.

Tobelik - lazzat olish yoki moslashish maqsadida kimgadir yoki nimagadir suyanishga umid qilishga bo'lgan intilish.

Tajovuz - kimnidir o'ziga bo'ysundirish yoxud ulardan ustunlik qilish maqsadida real axloq yoki fantaziyada namoyon qilinadigan tendensiya (intilish).

Tajovuzkor axloq - bunday murojaatni istamaydigan boshqa tirik mavjudotga zarar yetkazish yoki bosim o'tkazishga yo'naltirilgan axloq.

Moslashuv - atrof-muhit talablariga moslashish jarayoni.

Muhofazalovchi axloq - odamlar uning vositasida ijtimoiy munosabatlarda og'riq va frustraqtiyadan qochadigan harakat.

Zoofiliya (sodomiya) - hayvonlarga jinsiy mayl bilan bog'liq jinsiy devyatsiya.

Intervensiya - ijobiy o'zgarishlar maqsadi bilan, masalan, istalmagan axloqni yengish (axloq korreksiyasi, shaxs reabilitatsiyasi) bilan ta'sir ko'rsatish.

Klassik shartlanganlik (shartli yoki respondent refleks) - bu shartsiz rag'bat bilan vaqt va borliqda (organizmning tug'ma reaksiyasini chaqiruvchi) shartli reaksiyaga o'rganish (indifferent rag'batga reaksiya).

Kleptomaniya - patologik o'g'rilik.

Konformistik axloq - individuallikdan mahrum axloq.

Koping-axloq - stressni yengmoq.

Koping-resurslar - aniq shaxsning stressni muvaffaqiyatli yengishiga yordamlashuvchi ichki va tashqi resurslar yig'indisi.

Koping-strategiyalar - stressni yengishning individual strategiyalari.

Libido - jinsiy mayl, jinsiy yaqinlikka intilish.

Marginallik - me'yorning oxirgi chegarasi, shuningdek, chegarali submadaniyatga mansublik.

Axloqning motivatsiyalanganligi - shaxsning yetakchi ehtiyojlari, qadriyatlari va maqsadlari bilan boshqariladigan harakatga ichki tayyorlik.

Narsissik axloq - shaxsiy buyuklik tuyg'usi va o'ziga libido murojaat, shuningdek, o'zining ahamiyatligiga tashqaridan tasdiqlashlariga yuqori ehtiyoj bilan boshqariladigan axloq.

Nekrofiliya - murdalarga jinsiy mayl bilan bog'liq jinsiy deviatsiya.

Ta'lim - yuzaga kelgan vaziyat asosida muayyan axloq turlarini saqlash va egallash jarayoni.

Operant - o'z oqibati bilan belgilangan axloq.

Operant shartlanganlik - axloq va o'zini o'zi mustahkamlash sharofati bilan shartli reaksiya (ta'lim) ni ishlab chiqish.

Operant axloq - natija paydo qilib, atrof-muhitda operaqiylanadigan axloq.

Og'ishgan (deviant) axloq - birmuncha muhim ijtimoiy me'yorlardan og'ishgan, shaxsning o'zi yoki jamiyatga real zarar keltiruvchi, shuningdek, uning ijtimoiy moslashmaganligi bilan birga boruvchi shaxsning turg'un axloqi.

Pedofiliya - bolalarga jinsiy qiziqish bilan bog'liq jinsiy deviatsiya.

Penitensiar tizim - qonunbuzarlarni saqlash tizimi, ularning jazoni o'tash joyi.

Perversiya - jinsiy obyekt yoki jinsiy qoniqish usullarini tanlashda og'ish bilan bog'liq qayd qilingan kuchli jinsiy axloq.

Piromaniya - kuydirishga patologik ishqivozlik.

Prevensiya - ogohlantirish maqsadidagi ta'sir – istalmagan xulq profilaktikasi.

Axloqning mahsuldorligi - shaxs axloqida ongli maqsadlarini amalga oshirish darajasi.

Promissitet - subyekt sog'ligi va uning shaxslararo munosabatlar uchun xavf tug'diruvchi tartibsiz jinsiy aloqalar.

Psixologik himoya - shaxsning maqsadi va mustahkamligiga xavf soluvchi har qanday o'zgarishlarni bartaraf qilish yoki kamaytirishning ongsiz mexanizmlari.

Relaksatsiya - bo'shashish.

Retrizm - ijtimoiy me'yorlar, ijtimoiy o'zaro ta'sirdan ketish.

Sadomazoxizm – kamsitish yoki sherigiga azob berish orqali jinsiy qoniqishga erishish bilan bog‘liq jinsiy addikqiya.

Ijtimoiy og‘ishlar - ommaviylik, turg‘unlik va tarqalganlik bilan xarakterlanuvchi ijtimoiy me‘yorlarning buzilishi, masalan, jinoyatchilik yoki piyonistalik.

Sotsiopatik shaxs - atrofdagi odamlarga ishonch tanqisligi va dushmanlikni his qiluvchi, uzoq vaqt yaqin munosabatlar o‘rnatishga qodir bo‘lmagan, o‘z maqsadlariga erishish uchun kuch va manipulyatsiyadan faol foydalanuvchi antiijtimoiy shaxs.

Suitsid - atayin o‘zini hayotdan mahrum qilish.

Suitsidal axloq - o‘zini hayotdan mahrum qilish haqidagi tasavvurlarga yo‘naltirilgan anglangan harakat.

Transvestizm - perversiya, psixologik qulaylik yoki jinsiy qo‘zg‘alishga erishish maqsadida tasavvurda yoki haqiqatan ayollar kiyimini kiyib olish bilan bog‘liq erkaklarga nisbat beriladigan jinsiy deviatsiya.

Transseksualizm - o‘z jinsini xirurgik o‘zgartirishga intilishda ko‘rinuvchi jinsiy mansublikning buzilishi (qarama-qarshi jins bilan o‘xshashlik oqibatida).

Trixotilomaniya - patologik soch yulish.

Tolerantlik - nimagadir chidash berish, bardosh berish, ta’sirga berilmaslik.

Fanatik axloq - qandaydir g‘oya, qarashlarga ko‘r-ko‘rona ixlosmandlik shaklida chiquvchi axloq.

Fetishizm - shaxs jinsiy qo‘zg‘alish va qoniqish uchun fetish (jonsiz predmet yoki tana qismi) dan foydalanadigan jinsiy deviatsiya.

Frustratsiya - ehtiyojni qondirish imkonsizligi yoki maqsadga erishish yo‘lidagi to‘siqlar bilan bog‘liq psixik holat.

Evtanaziya - shifokor yordamida o‘z-o‘zini o‘ldirish, qachonki bemorning azoblari chidab bo‘lmas darajada bo‘lib, uning kasali davolanmaydigan va u sog‘lom aql bilan evtanaziya haqida bir necha bor so‘rasa.

Eksgibitsionizm - jinsiy qoniqish uchun yechinishdan foydalaniladigan jinsiy deviatsiya.

Efebofiliya - o‘smirlik va yigitlik yoshidagi shaxslarga jinsiy moyillik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Амбрумова А.Г., Пустовалова Л.И. Семейная диагностика в суицидологической практике. – М., 1983.

Эйдемиллер Э.Г., Юстицкис В. Психология и психотерапия семьи. – СПб., 1999.

Энциклопедия глубинной психологии / Под ред. А. М. Боковой. – М., 2001.

Игумнов С.А. Клиническая психотерапия детей и подростков: Справ, пособие. – Минск, 1999.

Комилова Н.Ф. Хулқи оғишган болалар психологияси: Услубий қўлланма. – Т., 2008

Кинг М., Коэн У., Цитренбаум Ч. Гипнотерапия вредных привычек. – М., 1998.

Кулаков С.А. Диагностика и психотерапия аддиктивного поведения у подростков: Учеб.-метод. пособие. – М., 1998.

Наркомания: Метод, рекомендации по преодолению наркозависимости / Под ред. А. Н. Гаранского. – СПб., 2000.

Нишанова З.Т., Туляганова. Ш.Т. Ёсмирлик даврида кўркув ҳолатларининг намоён бўлиши: Услубий қўлланма. – Т., 2009.

Психология деструктивных культов: Профилактика и терапия культовых травм //Журнал практического психолога. Спец. вып. – М., 2000. – № 1-2.

Психология и лечение зависимого поведения / Под ред. С. Даулинга. - М., 2000.

Психосоциальная коррекция и реабилитация несовершеннолетних с девиантным поведением / Под ред. С.А. Беличевой – М., 1999.

Психотерапевтическая энциклопедия / Под ред. Б. Д. Карвасарского. – СПб., 1998.

Чезаре Ломброзо. Гениальность и помешательство.– Минск. 2000.
<http://lossofsoul.com>

MUNDARIJA

SO‘Z BOSHI.....3

I bob. DEVIANT XULQ-ATVOR TUSHUNCHASI VA TURLARI

1-§. Me’yordan og‘uvchi xulq-atvor haqida umumiy tushuncha.....5
2-§. Me’yordan og‘uvchi xulq-atvorning shakllanish sabablari va turlari.....10

II bob. DELIKVENT AXLOQ VA AGRESSIV XULQ-ATVOR SHAKLLARI

1-§. Delikvent ahloq – deviant xulq-atvorning shakli sifatida.....20
2-§. Agressiv xulq-atvor.....51
3-§. O‘zini o‘zi barbod qilayotgan shaxs axloqining psixologik tahlili.....64

III bob. SUITSIDAL AXLOQ VA SHAXS AXLOQINING ANOMAL TURLARI PSIXOLOGIYASI

1-§. Suitsidal xulq-atvor psixologiyasi.....79
2-§. Shaxs axloqining anomal turlari psixologiyasi.....87

IV bob. RUHIY-JINSIY RIVOJLANISH PSIXOLOGIYASI

1-§. Ruhij-jinsiy rivojlanish devyatsiyasi.....122
2-§. Jinsiy rolli axloq stereotipining buzilishi shakllari.....126

GLOSSARIY.....138
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....142

DEVIANT XULQ-ATVOR PSIXOLOGIYASI

O'quv qo'llanma

Muharrirlar: I. I. Huvaytov
Texnik muharrir D.X. Hamidullayev

Bosishga ruxsat etildi 18.02.2014. Nashriyot hisob tabag'i
Adadi nusxa. Buyurtma №

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
100197, Toshkent sh., Intizor ko'chasi, 68